6. Мазуренко Л.И., Лесник В.А. , Джура А.В., Дынник Л. Н. Моделирование и анализ трехфазного асинхронного генератора с вентильно-емкостным возбуждением и амплитудно-фазовым регулированием реактивного тока// Вісник Кременчуцького державного політехнічного університету: Наукові

праці КДПУ (Матеріали міжнародної науково-технічної конференції ”Електромеханічні системи, методи моделювання та оптимізації”.- Кременчук, 2006). Вип.3/2006 (38) - Ч.1, С. 116-119.

Ashurov J. S.
o'qituvchisi
texnologiya va geografiya kafedrasi
tabiiy va aniq fanlar fakulteti
Termiz davlat pedagogika instituti
Mamashev D. O.
talabasi
geografiya va iqtisodiy blim asoslari yo'nalishi
Termiz davlat pedagogika instituti
Umarov Sh. Y.
talabasi
geografiya va iqtisodiy blim asoslari yo'nalishi
Termiz davlat pedagogika instituti

SURXONDARYO VILOYATINING ORGANIK DUNYOSI VA YER (AGROIQLIM) RESURSLARIDAN QISHLOQ XO'JALIGIDA FOYDALANISH MASALALARI

Annotatsiya: *Ushbu ish Surxondaryo viloyatining tabiiy-geografik sharoitlari, o'simlik va hayvonot dunyosi, yer va suv resurslaridan foydalanish holati hamda ekologik muammolarini o'rganishga bag'ishlangan.Tadqiqotda qishloq xo'jaligi tarmoqlari, ekin maydonlarining taqsimlanishi, suv ta'minoti, iqlim sharoiti va meliorativ muammolar tahlil qilinadi. Sho'rlanish, yerlarning yaroqsiz holga kelishi, antropogen ta'sirlar natijasida o'simlik turlarining qisqarishi kabi ekologik muammolar ko'tarilib, yer-suv resurslaridan oqilona foydalanish zarurligi ta'kidlanadi. Shuningdek, Surxondaryo viloyatining iqtisodiy salohiyati, qishloq xo'jaligi yo'nalishlari, tabiiy boyliklari va ularni muhofaza qilish bo'yicha qonuniy asoslar yoritilgan. Ish viloyat tabiatini saqlash, biologik xilma-xillikni himoya qilish va barqaror foydalanish masalalariga qaratilgan.*

Kalit so'zlar: *Surxondaryo viloyati, flora, o'simliklar dunyosi, cho'l zonasi, voha ekotizimi, dorivor o'simliklar, sho'rlanish, qishloq xo'jaligi, melioratsiya, subtropik iqlim, antropogen ta'sir, ekologik muvozanat, tabiiy o'simliklar, madaniy ekinlar, ekin maydonlari, ekologik barqarorlik.*

Ashurov J. S.
teacher, department of technology and geography
faculty of natural and exact sciences
Termez State Pedagogical Institute
Mamashev D. O.
student
field of geography and fundamentals of economic science
Termez State Pedagogical Institute
Umarov Sh. Y.
student, field of geography and fundamentals of economic science
Termez State Pedagogical Institute

ISSUES OF USING THE ORGANIC WORLD AND LAND (AGRO-CLIMATIC) RESOURCES OF THE SURKHANDARYA REGION IN AGRICULTURE

Annotation. *This work is devoted to studying the natural–geographical conditions, flora and fauna, land and water resource utilization, and ecological problems of the Surkhandarya region. The research analyzes agricultural sectors, distribution of croplands, irrigation water supply, climate characteristics, and melioration issues. Ecological problems such as soil salinization, land degradation, and loss of plant species due to anthropogenic impact are highlighted, emphasizing the need for rational use of land and water resources. The work also covers the economic potential of the region, main agricultural directions, natural wealth, and the legal basis for environmental protection. The study focuses on preserving regional nature, protecting biodiversity, and ensuring sustainable use of natural resources.*

Keywords: *Surkhandarya region, flora, plant world, desert zone, oasis ecosystem, medicinal plants, environmental protection, land resources, water resources, salinization, agriculture, land reclamation, subtropical climate, anthropogenic impact, ecological balance.*

Kirish

Surxondaryo viloyati O‘zbekistonning eng boy va rang-barang tabiiy resurslarga ega hududlaridan biri bo‘lib, uning geografik joylashuvi, relyefi va agroiqlim sharoitlari qishloq xo‘jaligining rivojlanishi uchun keng imkoniyatlar yaratadi. Viloyat hududi o‘zining noyob flora va faunasi, shuningdek, qishloq xo‘jaligida foydalanishga yaroqli unumdor yer maydonlari bilan ajralib turadi.

Surxondaryoning o‘simliklar qoplami cho‘l, voha, tog‘ oldi va tog‘ zonalarida o‘ziga xos tarzda shakllangan. Cho‘l hududlarida saksovul, qandim, cherkez kabi qurg‘oqchilikka chidamli o‘simliklar yetakchilik qilsa, tog‘ yon bag‘irlarida archa, pista, qayin, yong‘oq kabi qimmatbaho daraxt turlari uchraydi. Shuningdek, daryo bo‘ylarida to‘qay o‘simliklari keng tarqalgan bo‘lib, ular ekologik barqarorlik uchun muhim hisoblanadi.

Viloyat tabiiy sharoitlarining turli-tumanligi unga mos bo‘lgan qishloq xo‘jaligi tarmoqlarining shakllanishiga imkon bergan. Bu yerda paxtachilik, g‘allachilik, bog‘dorchilik, chorvachilik, pillachilik kabi tarmoqlar yetakchi ahamiyatga ega. Ayniqsa, Surxondaryo O‘zbekistonda eng ko‘p ingichka tolali paxta yetishtiriladigan hudud hisoblanadi. Unumdor yerlarning 280 ming gektardan ortig‘i qishloq xo‘jaligi uchun foydalaniladi.

Shu nuqtai nazardan, Surxondaryo viloyatining organik dunyosi, landshaftlari va yer-agroiqlim resurslaridan oqilona foydalanish masalalarini o‘rganish ilmiy va amaliy jihatdan dolzarbdir.

Viloyatning florasi ya’ni o’simliklar dunyosi xo’jalik ahamiyatiga ko’ra cho’l va voha (vodiy) guruhlariga bo’lib o’rganiladi. Viloyatda cho’l zonasi guruhiga kiradigan o’simlik turlari keng tarqalgan. Surxondaryoning janubiy,

janubi-sharqiy qismlarida saksovul, quyonsuyak, qandim (juzg'un), cherkez, choycho'p, yaltirbosh kabi o'simliklar yetakchilik qiladi. Viloyatning g'arbiy, shimoliy g'arbiy qismidagi gipsli, toshloq va qumli yerlarda qizilcha, sassiq kavrak, shuvoq, astragal, isiriq va boshqa o'simlik turlari keng tarqalgan. To'qay o'simliklari viloyatning yirik daryolari bo'yi sohillarida tarqalgan.

Surxondaryo farmatsevtika resurslariga boy, bu yerda respublika dorivor o'simliklarining 35-40 foizi jojlashgan [1].

Madaniy o'simliklar asosan viloyatning dehqonchilik qilinadigan zonasida hukmronlik qiladi. Madaniylashgan o'simliklar bilan birga qo'ng'irbosh, shuvoqlar, krestguldoshlar oilalariga kiradigan efemerlar, g'alladoshlar, dukkakdoshlar, murakkabguldoshlar kabi begona o'simliklar ham o'sadi. Har xil mevali va manzarali daraxtlar ham regionda keng tarqalgan. Surxondaryo viloyati o'simliklar dunyosi o'zining xilma xilligi foydali o'simliklari turlarining salmog'i jihatidan muhim ahamiyat kasb etadi. Viloyatda uchraydigan juda ko'p o'simlik turlari shifobaxsh, dori darmonlik xususiyatiga ega. O'simliklar olamini muhofaza qilish, ularni saqlash maqsadida "O'zbekiston qizil kitobi" tashkil etilgan va unga hozirgi kunga kelib kamayib borayotgan o'simlik va hayvonot dunyosi turlari kiritilgan. Ushbu kitobda mamlakatimiz bo'yicha 163 tur o'simlik kiritilgan. Shundan 73 turi Surxondaryo viloyati hududida uchraydi.

Viloyat hududining hayvonot dunyosi ham o'zining turli-tumanligi bilan alohida ajralib turadi. Vohamizda 1159 tur hayvonot turi yashashi aniqlangan. Shulardan 826 turi umurtqasiz hayvonlar hayvonlar bo'lsa, 333 turi umurtqali hayvonlarni tashkil etadi. Jahon qizil ro'yxatiga va Respublikamiz "Qizil kitob" iga 70 tur umurtqasiz va umurtqali hayvonlar kiritilgan [2]

Qishloq xo‘jaligining asosiy tarmoqlari: paxtachilik, g‘allachilik, bog‘dorchilik, pillachilik. Tog‘ etaklarida lalmikor dehqonchilik (asosan, bug‘doy va arpa) bilan shug‘ullaniladi. O‘zbekistonda eng ko‘p ingichka tolali paxta Surxondaryo viloyatida tayyorlanadi. Viloyatning tog‘oldi tumanlarida bog‘dorchilik va tokchilik rivojlangan. Chorvachilikda qoramol, qo‘y (qorako‘l va hisor qo‘ylari), echki, yilqi, parranda, quyon boqiladi. Jahon mo‘yna va teri auksionlarida juda qadrlanadigan "Surxon suri" qorako‘l terisi yetishtiriladi.[1]

Dehqonchilikda foydalanadigan yerlar maydoni 284,3 ming ga, shundan sug‘oriladigan yerlar 271,6 ming ga, shu jumladan, 120,8 ming ga yerga paxta, 129,7 ming ga yerga don ekinlari, 9,1 ming ga yerga sabzavot, 1,8 ming ga yerga poliz, 5,5 ming ga yerga kartoshka, 16,2 ming ga yerga yem-xashak ekinlari ekiladi. 33,5 ming ga yer ko‘p yillik daraxtzorlar, 12,7 ming ga yer mevazor, 5,2 ming ga yer tutzor, 15,1 ming ga yer tokzorlar bilan band. 854,2 ming ga yerni yaylovlar egallagan. Yerning meliorativ holatini yaxshilash maqsadida kollektordrenaj tarmoqlari qurilgan.

Viloyat hududining yer maydonining 5 foizga yaqini o'rmon bilan qoplangan bo'lib, biologik zaxiralari orasida qimmatli ozuqabop va shifobaxsh o'simliklardan, pista, bodom, shifobaxsh giyohlar va boshqalar ko'paytiriladi.

Janubiy qismi keng qumliklar bilan qoplangan. Tekislik qismining iqlimi quruq subtropik. Yozi jazirama issiq va uzoq, qishi iliq va qisqa. Yillik o‘rtacha

temperatura 16°—18°. Iyulning o‘rtacha temperaturasi 28°.—32°, yanvarniki 2,8°—3,6°. O‘zbekistonda eng issiq temperatura ham shu viloyat hududida kuzatilgan (1914-yil 21 iyunda Termizda 49,5° issiq bo‘lgan). Ba’zi yillari qish ancha sovuq (-20° va hatto undan ham past). Yil davomida bulutsiz kunlarning ko‘p bo‘lishi va quyosh nurining tik tushishi effektiv temperaturalar yig‘indisi yuqori bo‘lishiga olib keladi. 10° dan yuqori temperaturali kunlar tekislik qismida 290— 320 kun davom etadi. Bu esa viloyatda eng issiqsevar ekinlar (shakarqamish, ingichka tolali paxta) va mevalar yetishtirishga imkon beradi. Viloyat tog‘lar orasidagi berk botiqda joylashganidan bu yerda yog‘in kam. Viloyatning janubiy tekisliklarida yiliga 130– 140 mm, Hisor tog‘lari yon bag‘irlarida 445–625 mm yog‘in yog‘adi. Yog‘inning asosiy qismi qish va bahorda tushadi. G‘arbiy, janubi-g‘arbiy va shimoli-sharqiy shamollar ko‘p esadi. Viloyatning janubi-sharqiy qismida esadigan Afg‘on shamoli iqlimga salbiy ta’sir etadi. Tog‘ qor va muzliklaridan, yog‘indan to‘yinadigan bu suv tanqisligi kuzatiladi. Yer osti (artezian) suvlaridan tobora keng foydalanilmoqda. 1957—1958 yillarda Uchqizil, 1959— 1962 yillarda Janubiy Surxon va Degrez suv omborlari, Jarqo‘rg‘on gidrotuguni qurildi. Hazorbog‘, Dayto‘lak, Qumqo‘rg‘on, Zang kanallari, Sherobod, Amu-Zang mashina sug‘orish kanallari barpo etildi.

Viloyatning tuprog‘i tekisliklarda taqirsimon va sho‘rxok och bo‘z tuproklar, tog‘ yon bag‘rida turli xil bo‘z tuproqlar. O‘simliklar dunyosi ham tabiiy sharoiti bilan bog‘liq. Janubidagi ekin ekilmaydigan qumloq joylarda qandim, oq saksovul, cherkez, taroqbosh, yaltirbosh, yantoq, butasimonlar; daryo bo‘ylarida yulg‘un, jiyda, turang‘il, terak, savag‘ich, qiyoq, qamish; adir va tog‘larning pastki yon bag‘irlarida bir yillik efemerlar (lolaqizg‘aldoq, nixatak); 1200–2500 m balandliklarida efemerlar bilan birga archa, pista, qayin, tol, yongoq, olma, zarang o‘rmonlari uchraydi. Bobotog‘ tizmasi yon bag‘irlarida respublikaning eng yirik tabiiy pistazorlari joylashgan. Baland tog‘ zonasi subalp va alp o‘tloklari bilan band. Hayvonot dunyosi ancha boy: buri, tulki, chiyabo‘ri, ayiq, jayran, qobon, yovvoyi echki, arhar, to‘qaylarda bug‘u, to‘qay mushugi, kalamush, qo‘shoyoq, yumronqoziq, ko‘rsichqon, gekkon kaltakesagi, ko‘zoynakli ilon (kobra), o‘q ilon, jayra, qushlardan ular (tog‘ kurkasi), qirg‘ovul, mayna, qaldirg‘och, g‘oz, o‘rdak, so‘fito‘rg‘ay, chil, kaklik bor.Daryo va suv omborlarida har xil baliq ko‘p.

Surxondaryo viloyati tabiati xilma xil, o’simliklar va hayvonot dunyosiga boy va turli-tuman hisoblanadi. Viloyatimizda 1646 ta o’simliklar turi uchraydi. O’zbekistonda tabiatni muhofaza qilishga oid bo’lgan ko’plab qonun va qarorlar qabul qilingan.

Sanoat tarmoqlari va qishloq xo’jaligining jadal sur’atlar bilan rivojlantirilishi tabiiy hududlarning keng miqyosda o’zlashtirilib, qishloq xo’jaligi muomalasiga kiritilishi natijasida tabiatda yuzaga kelgan ekologik muvozanat buzildi. Natijada, ko’plab o’simlik turlarining yo’qolib ketishi xavfi tiklab bo’lmas darajaga kelib qoldi. Bugungi kunda har qanday turning insonlarning tabiatga antropogen ta’sirlari tufayli, yo’qotilishi ularning yo’q bo’lib ketishiga olib kelmoqda. Yovvoyi o’simliklar turlari qishloq xo’jaligida ekiladigan madaniy navlarni barpo etilishda asosiy manba hisoblanadi.

Yer insonning yer yuzasida yashab qolishi va farovonligi uchun ham barcha quruqlikdagi ekotizimlarni saqlash uchun ham muhim tabiiy resurs hisoblanadi. Yer resurslariga bo'lgan talabning ortib ketishi, oziq-ovqat ekinlarini va yer resurslarini sifat va miqdorining pasayishiga olib keladi.Hozirgi kunda dunyo bo'yicha haydaladigan yerlarning 16 % i keskin tanazzulga uchragan va ushbu holatning asosiy sababi aholi sonining ortishi hamda yer resurslariga bo'lgan talabning ortib borishidir (FAO ma'lumotlari).

Surxondaryo viloyati aholisi 2743 ming kishini tashkil qiladi. Viloyat mamlakatimiz iqtisodiyotida qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirish va ularni qayta ishlash sanoati tarmoqlarida yuqori o'rinlarni egallaydi. Viloyatning jami yer maydoni 2009911 gektarni tashkil etadi. Qishloq xo'jalik ekin maydonlari 278124 gektar bo'lib, shundan sug'oriladigan yerlar 238632 gektar, lalmi yerlar 39 492 gektar, holati yomon yerlar 19744 gekratni tashkil etadi (1 jadval) [4]


1-jadval.

Surxondaryo viloyati tumanlari bo'yicha bo'yicha qishloq xo'jaligi yerlarining taqsimlanishi (01.01.2024)

T/r	Tumanlar nomi	Umumiy maydoni	Ekin yerlar Jami	jumladan suvli	lami	yomon holatli
1	Angor	38731	15535	15535	0	1806
2	Bandixon	68424	13373	13318	55	1653
3	Boysun	325307	20648	1982	18666	262
4	Denov	81933	24324	21738	2856	983
5	Jarqo'rg'on	116198	19700	19700		3268
6	Qiziriq	38788	24078	24078		1038
7	Qumqo'rg'on	213752	18826	18784	42	1099
8	Muzrabot	73923	33321	33321		1197
9	Oltinsoy	56832	12593	9825	2768	655
10	Sariosiyo	384638	12721	8935	3786	35
11	Termiz tumani	83444	11930	11930		2520
12	Uzun	163165	15094	10808	4286	874
13	Sherobot	272785	40375	33464	6911	3769
14	Sho'rchi	86202	15331	15209	122	585
15	Termiz shahri	4274	365	365		
16	Denov shahri	1515				
Jami		**2009911**	**278124**	**238632**	**39492**	**19744**

(Surxondaryo viloyat yer kadastr bashqarmasi 2024 yil 1-yanvar)

1- rasm.
Surxondaryo viloyati jami ekin maydonlari



Surxondaryo viloyat yer kadastr bashqarmasi ma'limotlari asosida ishlandi (2024 yil 1-yanvar)

Yuroridagi ma'lumotlardan ko'rishimiz mumkinki viloyatimizda oziq-ovqat mahsulotlarini yetkazib berish uchun juda katta imkoniyatlar mavjud. Lekin qishloq xo'jalik mahsulotlari uchun ajratilgan yerlar yaroqsiz holatda kelib, sho'rlanish jadal sur'atlar bilan ortib bormoqda. [3]

Viloyatimizning katta qismi ya'ni Surxon-Sherobod vodiysidan boshqa qismi asosan tog'liklardan iboratdir. Viloyat hududidagi tog'lar shimol tomondan keladigan sovuq havo massasini to'sib qolganligi sababli Respublikamizning subtropik o'lkasi hisoblanadi. Viloyatda janubdan issiq quruq "afg'on shamoli' esib ekinlarni jiddiy zararlaydi. Surxondaryo viloyati ziroatchiligida bu omil hisobga olinadi.

Yer va suv resurslardan oqilona foydalanish masalasi, ayniqsa so'nggi yillarda ko'p muhokama bo'lmoqda. Bularning barchasida asosan ikki maqsad, ya'ni yer va suvdan samarali foydalanish va ularni muhofaza qilish ko'zda tutuladi

Viloyatimiz tabiatini ko'rkam va go'zal, o'simlik va hayvonot olamini yaxshi saqlash ona yurtimiz go'zalligi va boyligi bilan ahamiyatlidir. Shuning uchun ham mavjud o'simliklar olamini, ayniqsa dorivor, shifobaxsh o'simliklarni barchamiz ko'z qorachig'idek asrashimiz zarur. O'simliklardan xalq xo'jaligida va xalq tabobatida foydalanishni qat'iy tartibga solish, foydalanishni tartibga solish, foydali qazilmalar va minerallarni qazib olishda ulardan atrof muhitni zararlantirmasdan faoliyat olib borish, har xil zaharli birikmalar va chiqindilarning tuproq, suv va havoni ifloslantirishda oldini olish o'ta zarur va dolzarbdir.

Xulosa

Surxondaryo viloyati flora va fauna boyliklari, shuningdek, yer-agroiqlim resurslari bilan O'zbekistonning ekologik va qishloq xo'jaligi salohiyati yuqori bo'lgan hududlaridan biri sanaladi. Viloyat hududida tarqalgan o'simlik va hayvonot turlari xilma-xilligi, qimmatli dorivor, yem-xashakbop va manzarali turlarning ko'pligi hududning biologik resurslarga boy ekanidan dalolat beradi.

Ayniqsa, “Qizil kitob”ga kiritilgan o‘simlik va hayvonlar sonining ko‘pligi ularni muhofaza qilishning dolzarbligini ko‘rsatadi.

Shu bois, viloyatning organik dunyosini asrash, biologik xilma-xillikni tiklash, yer va suv resurslaridan oqilona va tejamkor foydalanish, ekologik muvozanatni saqlash bugungi kunda ustuvor vazifalardan biridir. Davlat tomonidan qabul qilingan ekologik qonunlar, tabiatni muhofaza qilish bo‘yicha dasturlar va xalqaro konvensiyalarning amaliyotga joriy etilishi Surxondaryo viloyati tabiiy resurslarining barqaror rivojlanishini ta’minlashga xizmat qiladi.

Umuman olganda, Surxondaryoning tabiiy-ekologik boyliklaridan oqilona foydalanish, ularni kelajak avlodlar uchun saqlab qolish va qishloq xo‘jaligini ekologik jihatdan barqaror asosda rivojlantirish strategik ahamiyatga ega hisoblanadi.

Adabiyotlar ro’yxati:

1. “Зокиров Х.Х. Сурхондарё табиати ва экологияси”. Термиз -2021
2. Зокиров Х.Х. “Табиий ресурслардан оқилона фойдаланиш” Дарслик. Сурхон-нашр-2020
3. Зокиров Х.Х., Қўлдошева Ш.А. “ Табиатни мухофаза қилиш ва ундан фойдаланиш”. –Тошкент, “YANGI NASHR” 2011
4. Umarova M.H. Abdunazarov H.M. Surxondaryo viloyati tabiiy resurslari. Termiz-2022
5. Рўзиев А. Сурхондарё вилояти. – Тошкент . 1996
6. P.Baratov O’zbekiston tabiiy geografiyasi. Toshkent o’qituvchi 1996, 262 b.
7. Ashurov J.S. (2024). CHO’LLARDAGI SAMUM, KUY VA SAROB. Экономика и социум, (4-1 (119)), 65-70.
8. Ashurov Jumanazar Q. A. Allanov. "Surxondaryo viloyati iqtisodiy taraqqiyotida suv resurslarining tutgan o’rni" Молодые ученые 1.2 (2023): 73-75.

Ataxonov X. B.
dotsenti
logistika kafedrasi
Namangan davlat texnika universiteti
Soliyev X. M., PhD
dotsenti
logistika kafedrasi
Namangan davlat texnika universiteti

SHAHAR AGLOMERATSIYALARINI AHAMIYATI SHAKLLANISH VA RIVOJLANISH XUSUSIYATLARI

Annotatsiya. *Shahar aglomeratsiyalari ishlab chiqarish, madaniy, ijtimoiy, mehnat, rekreatsiya va boshqa aloqalar bilan murakkab tizimga birlashtirilgan aholi punktlarining texnologiyalarning, aglomeratsiyalarning shakllanishi aholi soni kam bo‘lgan shaharlarda amalga oshirish iqtisodiy jihatdan maqsadga muvofiq bo‘lmagan yuqori sifatli xizmatlardan foydalanish imkoniyatiga ega bo‘lgan fuqarolar doirasini keskin kengaytiradi va shu sababli butun mamlakat aholisining hayot sifatini oshiradi va samaradorligini baholash usullari berilgan.*

Kalit so‘zlar: *madaniy, ijtimoiy, mehnat, optimallashtirish, xom ashyo, materiallar, aglomeratsiya, infratuzilma, sun’iy yo‘ldosh, munitsipalitetni aglomeratsiyaga.*

Atakhonov Kh. B.
associate professor
department of logistics
Namangan State Technical University
Soliev Kh. M., PhD,
associate professor
department of logistics
Namangan State Technical University

THE SIGNIFICANCE, SPECIFIC FEATURES OF FORMATION AND DEVELOPMENT OF URBAN AGGLOMERATIONS

Abstract: *The formation of agglomerations—settlements united into a complex system of industrial, cultural, social, labor, recreational, and other connections—significantly expands the number of citizens who have access to high-quality services, the provision of which in sparsely populated towns is economically impractical. Consequently, it improves the overall quality of life of the country’s population and makes it possible to assess the effectiveness of the proposed methods.*

Keywords: *cultural, social, labor activity, optimization, raw materials, agglomeration, infrastructure, satellite town, municipality within the agglomeration.*

Kirish

Shahar aglomeratsiyalari ishlab chiqarish, madaniy, ijtimoiy, mehnat, rekreatsiya va boshqa aloqalar bilan murakkab tizimga birlashtirilgan aholi punktlarining ixcham fazoviy guruhi bo‘lib, ular asosida aholi punktlari aholisining umumiy soniga teng bozorni yaratishga imkon beradi. Shunday qilib, aglomeratsiyalarning shakllanishi aholi soni kam bo‘lgan shaharlarda amalga oshirish iqtisodiy jihatdan maqsadga muvofiq bo‘lmagan yuqori sifatli xizmatlardan foydalanish imkoniyatiga ega bo‘lgan fuqarolar doirasini keskin kengaytiradi va shu sababli butun mamlakat aholisining hayot sifatini oshiradi.

Tarixiy jihatdan aglomeratsiyalar asosiy shaharlarning yanada qulay holati, ularning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishining jadal o‘sish sur’atlari tufayli shakllangan. O‘tgan asrning oxirida aglomeratsiyalarning shakllanishiga yirik shaharlarning shahar atrofi hududida ish joylarining keskin qisqarishi, shuningdek, shahar atrofidagi hududlarda turar-joy qurilishi jiddiy ta’sir ko‘rsatdi [1].

Shakllangan shahar aglomeratsiyasining asosiy ko‘rsatkichlari va xususiyatlari quyidagilardan iborat:

1 m^2 ga aholi zichligi;

aholi (100 ming kishidan);

qurilish zichligi (asosiy shahar va sun’iy yo‘ldosh shaharlar o‘rtasida 20 km dan oshmasligi kerak);

sun’iy yo‘ldosh shaharlar soni;

asosiy shahar va sun’iy yo‘ldosh shaharlar o‘rtasida aholi sayohatining intensivligi;

yagona infratuzilmaning mavjudligi.

Aglomeratsiyalar yuqori darajada sanoatlashganligi, ijtimoiy infratuzilmaning (ta’lim muassasalari, tibbiyot, madaniyat muassasalari va boshqalar) konsentratsiyasi, aholi zichligi, mehnat migratsiyasining muntazamligi bilan ajralib turadi.

Har bir shakllangan shahar aglomeratsiyasini shartli ravishda markazdan boshlab bir nechta zonalarga bo‘lish mumkin:

asosiy shaharning markaziy tarixiy qismi;

rivojlangan xizmat ko‘rsatish sohasiga ega biznes markazi;

qisman ofis binolari bilan birlashtirilgan turar-joy maydoni;

rivojlangan ijtimoiy sohaga ega bo‘lgan ommaviy ko‘p qavatli binolar zonasi (turar-joy maydoni, sanoat zonalari);

sun’iy yo‘ldosh shaharlar va boshqa gravitatsiyaviy aholi punktlari tomonidan tashkil etilgan shahar atrofi hududlari.

Har bir zonaning maydoni va chegaralari juda shartli bo‘lib, ko‘pincha aglomeratsiyani tashkil etuvchi aholi punktlarining rivojlanishi bilan belgilanadi.

Jahon amaliy tajribasi shuni ko‘rsatadiki, alohida shaharlarning rivojlanishi

bilan salbiy oqibatlar aholi sonining 150-300 ming kishigacha ko‘payishi bilan ijobiy ta’sirdan oshib keta boshlaydi. Taxminlarga ko‘ra, bunday shaharlar aglomeratsiyaga birlashganda, har bir shahar alohida-alohida yirik shaharlar va millioner shaharlardagi hayot bilan birga keladigan qiyinchiliklarni boshdan kechirmaydi [2].

Ko‘p sonli ijobiy ta’sirga qaramasdan, aglomeratsiyalarning rivojlanishi ham kamchiliklarga ega: ularning faoliyati bir qator qiyinchiliklar bilan bog‘liq. Ulardan biri - ma’muriy boshqaruvning murakkabligi va markaziy qismdagi infratuzilma ob’ektlarini rivojlantirishning strategik xususiyatlari, tortishish joylari emas, balki markaziy shahar aholisiga yo‘naltirilgan. Shu bilan birga, kommunikatsiyalarning katta uzunligi va ularga yukning tobora ortib borishi uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish va transport sifatining pasayishiga olib keladi. Atrof-muhitga ta’sirning kuchayishi ekologik vaziyatning yomonlashishiga olib keladi. Bundan tashqari, ekologik vaziyatga transport ta’sir qiladi, ularsiz aglomeratsiyani shakllantirish mumkin emas.

Materiallar va metodlar

Ayrim aglomeratsiyalar hududi va aholisi butun mamlakatnikiga teng. Dunyodagi eng yirik aglomeratsiyalarning reytingli ro‘yxatini tuzishda ularning aholi zichligi ham hisobga olinadi. Ro‘yxatdagi aglomeratsiyaning tartibli o‘rni ko‘pincha muayyan munitsipalitetlarning rivojlanishiga ta’sir ko‘rsatadigan davom etayotgan iqtisodiy va siyosiy jarayonlarga, shuningdek, aholi punktlarining hududiy birligini ta’minlaydigan transport kommunikatsiyalarining rivojlanish darajasiga qarab o‘zgaradi. Tokio-Yokohama 37,5 million aholiga ega bo‘lgan dunyodagi yigirmata yirik shahar aglomeratsiyasining maydoni bo‘yicha eng katta hisoblanadi. Bunday aglomeratsiyaning shakllanishi va mavjudligi ko‘p jihatdan Yaponiya transport tizimining yuqori darajada rivojlanganligi tufayli mumkin bo‘ldi. shu jumladan temir yo‘l transporti. Mamlakatning eng yirik aeroportlari: Tokiodagi Xaneda va Narita, Osakadagi Kansay va Itami, Shin-Chitose va Sapporo, Fukuoka va Miyazaki - monorels va temir yo‘l transporti orqali sun’iy yo‘ldosh shaharlar markazlari bilan muntazam transport aloqalariga ega va tarmoq bilan organik ravishda integratsiyalashgan. asosiy temir yo‘l va shahar transporti.

Qo‘shma Shtatlarda aholining 7 foizi millioner shaharlarda, etti baravar ko‘p metropoliyalarda yashaydi. Aholisi bor-yo‘g‘i 740 000 kishi bo‘lgan San-Fransiskoni misol qilib keltirish mumkin, lekin ayni paytda umumiy aholisi 4 million kishidan ortiq bo‘lgan aglomeratsiyaning o‘zagi hisoblanadi. Mamlakat hududining taxminan 3% ni egallagan va milliy YaIMning chorak qismini ta’minlovchi Boston-Vashingtonning ko‘p markazli aglomeratsiyasida mamlakat aholisining 15% istiqomat qiladi. Aholi zichligi har kvadrat kilometrga 2 mingdan ortiq aholiga ega Nyu-York aglomeratsiyasi, lekin ayni paytda dunyodagi eng yirik moliyaviy markaz hisoblanadi. Amerikada temir yo‘l transporti yo‘lovchilar orasida kamroq mashhur. Amerikaning ko‘plab shaharlari shaxsiy transport vositalarining qulayligini hisobga olgan holda ishlab chiqilgan va tarixan rivojlangan. Uzoq masofalarga tashish asosan havo orqali amalga oshiriladi. Biroq yo‘lovchi transportining boshqa turlarini, shu jumladan temir yo‘l transporti

ishtirokidagi shahar atrofi transporti tizimini rivojlantirish zarur aglomeratsiya ichidagi migratsiyani ta’minlaydi. Qo‘shma Shtatlar dunyodagi eng ko‘p mintaqaviy temir yo‘llarga ega (600 ga yaqin), ular mamlakat transport tarmoqlarini rivojlantirish nuqtai nazaridan eng istiqbolli hisoblanadi. AQShda yalpi ichki mahsulotning 80 foizi sakkizta aglomeratsiyada ishlab chiqariladi, ularning har biri 300-400 km radiusda joylashgan, zich transport infratuzilmasiga ega hududda joylashgan. Agar bir munitsipalitet aholisining 25 yoki undan ortiq foizi boshqa shaharda ishlayotgan bo‘lsa (shuning uchun mehnat migratsiyasini amalga oshirsa) AQShda munitsipalitetni aglomeratsiyaga qo‘shish zarurati ko‘rib chiqiladi [4].

Har qanday aglomeratsiya iqtisodiyotida ishlab chiqarish sohasi uchun zarur bo‘lgan aholining harakatchanligini ta’minlaydigan transport xizmatlarining rivojlanish darajasi eng muhim rol o‘ynaydi. Tarixiy jahon tajribasi shuni ko‘rsatadiki, hatto eng yirik shaharlar va milliondan ortiq shaharlarning aholisi ham har kuni bir soatdan olti soatgacha transportda o‘tkazishga majbur bo‘lishadi - hayotlarining deyarli chorak qismi. Aholining asosiy transport xizmatiga - transportga bo‘lgan ehtiyoji mehnat, o‘qish, dam olish, davolanish, turizm va boshqa maqsadlar bilan bog‘liq bo‘lib, inson hayotining asosiy ehtiyojlaridan biridir.

Dunyoning eng yirik shahar aglomeratsiyalarida temir yo‘l transportiga ustuvor ahamiyat beriladi. Masalan, Berlin aglomeratsiyasida temir yo‘l transport turlarini rivojlantirishga ajratilgan byudjet ulushi avtomobil yo‘llarini rivojlantirishga sarflangan xarajatlardan uch baravar ko‘pdir. Parij aglomeratsiyasida jamoat transportining ulushi 60 foizga etdi, so‘nggi 10 yil ichida uni rivojlantirishga yo‘naltirilgan investitsiyalar hajmi 17 milliard evroni tashkil etdi. Bundan tashqari, Parijda shahar atrofi va shahar atrofi transportini amalga oshirishdan olingan daromadning 47 foizi Parij aglomeratsiyasida faoliyat yurituvchi korxonalar tomonidan to‘lanadigan transport solig‘i hisoblanadi. Fransiya, Germaniya va Shveysariya aglomeratsiyalarida yo‘lovchilarga xizmat ko‘rsatish sifatini oshirish uchun avtobuslar va shaharlararo poyezdlar jadvallari bilan muvofiqlashtirilgan shaharlararo poyezdlarning integratsiyalashgan jadvalidan foydalaniladi [5].

Xulosa

Yuqoridagi tahlillar shuni ko‘rsatadiki, shahar aglomeratsiyalari: iqtisodiy rivojlanishning eng muhim drayveri, transport tizimining samaradorligini oshiruvchi asosiy omil, aholining turmush darajasini yuksaltiruvchi hududiy platformadir.

Aglomeratsiyalarni samarali boshqarish uchun: Transport infratuzilmasini modernizatsiya qilish; Hududlararo integratsiyani kuchaytirish; Turar-joy, sanoat va logistika hududlarini rejalashtirish; Ekologik standartlarni ta’minlash zarur.

ADABIYOTLAR

1. Mamadjonov X., Ustaboev A., Ataxonov X. Logistik tizimlarda tashish jarayonini tashkil etish mexanizmlari //Current approaches and new research in modern sciences. – 2023. – T. 2. – №. 1. – S. 137-141.

2. To'xtaboyev, M., Ataxanov, X. Shorrahalardagi tirbandlikni oldini olish //Transport i logistika: Sifrovыe texnologii v razvitii transportno-tranzitnogo potensiala respubliki: Sbornik materialov Respublikanskoy nauchno-texnicheskoy konferensii, 2021. – S. 109-112.
3. Ataxonov X., Xidirov U., Ustaboev A. Razrabotka progressivnых sistem strategicheskogo upravleniya v dorojno-transportnom komplekse gao" namanganavtoyo‘l" //Mirovaya nauka. – 2018. – №. 6 (15). – S. 89-91.
4. Ataxanov X. Logistik konsepsiyalarni ahamiyati//Scienceweb academic papers collection. – 2022.
5. Mamirov U. X., Soliev X. M., Turg‘unov Z. X. Jamoat transporti samaradorligini oshirish uchun qo‘shimcha yo‘l bo‘lagi (BRT tizimi) ni tashkil etish (Namangan shahri misolida) //Mexanika i texnologiya. – 2023. – T. 1. – №. 10. – S. 77-84.

Atayeva N. P.
o'qituvchisi
"Geografiya" kafedrasi
UrDU
Shomurodov M. J.
talabasi
"Geografiya" yo'nalishi
UrDU
O'zbekiston

XORAZM VILOYATI QISHLOQ JOYLARIDA TURIZM INFRATUZILMASINI RIVOJLANTIRISHNING HUDUDIY XUSUSIYATLARI (XIVA TUMANI MISOLIDA)

Annotatsiya: *Mazkur maqolada Xorazm viloyati, xususan Xiva tumani misolida qishloq joylarda turizm infratuzilmasini rivojlantirishning hududiy xususiyatlari tahlil qilinadi. Turizm infratuzilmasining hozirgi holati, rivojlanish omillari, mavjud muammolar va istiqbolli yo'nalishlar aniqlanadi. Tadqiqot natijasida Xiva tumanining qishloq joylarida turizm infratuzilmasi elementlari notekis joylashgani, transport, aloqa va mehmondo'stlik xizmatlarida hududiy tafovutlar mavjudligi aniqlangan.*

Kalit so'zlar: *Turizm infratuzilmasi, qishloq turizmi, hududiy rivojlanish, Xiva tumani, xizmat ko'rsatish, agroturizm, klasterlash.*

Atayeva N. P.
teacher
department of geography
Urgench State University
Shomurodov M. J.
student geography
Urgench State University
Urgench, Uzbekistan

TERRITORIAL FEATURES OF THE DEVELOPMENT OF TOURISM INFRASTRUCTURE IN RURAL AREAS OF KHOREZM REGION (A CASE STUDY OF KHIVA DISTRICT)

Abstract: *This article analyzes the territorial features of the development of tourism infrastructure in the rural areas of the Khorezm region, specifically using the Khiva district as a case study. The current state of tourism infrastructure, development factors, existing problems, and promising directions are identified. The study revealed an uneven distribution of tourism infrastructure elements in the*

rural settlements of the Khiva district, as well as territorial disparities in transportation, communication, and hospitality services.

Keywords: *tourism infrastructure, rural tourism, territorial development, Khiva district, service sector, agritourism, clustering.*

So‘nggi yillarda O‘zbekiston Respublikasida turizm sohasini milliy iqtisodiyotning strategik tarmog‘iga aylantirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Ayniqsa, qishloq joylarda turizmni rivojlantirish orqali yangi ish o‘rinlari yaratish, mahalliy aholi daromadini oshirish va infratuzilma sifatini yaxshilash davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishiga aylangan.Xorazm viloyati, xususan Xiva tumani o‘zining boy tarixiy-madaniy merosi, milliy urf-odatlari va tabiiy resurslari bilan ajralib turadi. Shu bilan birga, bu hududda qishloq joylarda turizm infratuzilmasining yetarlicha rivojlanmaganligi, xizmatlar sifati va miqdorining pastligi soha salohiyatini to‘liq ishga solishga to‘sqinlik qilmoqda. Shu sababli, Xiva tumani misolida qishloq joylarda turizm infratuzilmasini rivojlantirishning hududiy xususiyatlarini o‘rganish ilmiy va amaliy jihatdan dolzarb hisoblanadi.

Qishloq turizmi — bu shahar tashqarisidagi tabiiy va madaniy muhitda, mahalliy aholi hayot tarzi bilan tanishish, dehqonchilik va xalq hunarmandchiligi jarayonlarida ishtirok etishga asoslangan turizm turi hisoblanadi.

Turizm infratuzilmasi deganda esa turistlarning qulay harakati, yashashi, ovqatlanishi va dam olishini ta’minlovchi moddiy-texnik, transport, axborot va ijtimoiy xizmatlar majmuasi tushuniladi.

Qishloq joylarda turizm infratuzilmasini rivojlantirish quyidagi asosiy yo‘nalishlarni o‘z ichiga oladi:

- Transport va yo‘l tarmoqlarini yaxshilash;
- Mehmondo‘stlik va xizmat ko‘rsatish obyektlarini ko‘paytirish;
- Telekommunikatsiya va internet xizmatlarini kengaytirish;
- Ekoturizm, agroturizm, etnoturizm uchun zarur sharoit yaratish.

Xiva tumani Xorazm viloyatining janubi-g‘arbiy qismida joylashgan bo‘lib, tarixiy Xiva shahri bilan bevosita tutashgan. Aholi soni 170 ming nafardan ortiq, shundan qariyb 65 foizi qishloq joylarda istiqomat qiladi. Tuman iqtisodiyoti asosan dehqonchilik, bog‘dorchilik, hunarmandchilik va xizmat ko‘rsatish tarmoqlariga tayanadi.

So‘nggi yillarda Xiva shahri atrofiga yaqin joylarda turizm obyektlari soni oshayotgan bo‘lsada, chekka qishloqlarda infratuzilma sust rivojlangan.Tadqiqot natijalariga ko‘ra, Xiva tumanidagi turizm infratuzilmasining asosiy elementlari quyidagicha tasniflanadi:

1-jadval

Infratuzilma	Mavjud holat	Muammolar
Transport	Asosiy yo'llar qoplamasi qoniqarli	Chekka qishloqlarda asphalt yo'llar yo'q
Mehmondo'stlik	20 dan ortiq mehmonxona, homestaylar mavjud	Aksariyati litsenziyasiz, sanitariya sharoiti yetarli emas
Aloqa va internet	Mobil aloqa turlari mavjud, ammo tezligi past	Ko'plab qishloqlarda internet sifati juda past
Oziq- ovqat xizmatlari	Tuman markazlarida yaxshi, ammo qishloqlarda yetishmaydi	Restoran va kafe tarmog'i cheklangan

Jadval mualliflar tomonidan tuzilgan

Bu holat shuni ko‘rsatadiki, infratuzilma asosan markaziy hududlarda to‘plangan, qishloq joylarda esa xizmat ko‘rsatishning hududiy tafovuti keskin.

Xiva tumanida turizm infratuzilmasini hududiy jihatdan rivojlantirish quyidagi yo‘nalishlarda amalga oshirilishi mumkin:

- Transport infratuzilmasini yaxshilash: Qishloqlarni Xiva shahri bilan bog‘lovchi yo‘llarni ta’mirlash, turistlar uchun yo‘l ko‘rsatkichlari o‘rnatish.
- Oilaviy mehmon uylari tarmog‘ini kengaytirish: Qishloq aholisiga imtiyozli kreditlar ajratish orqali homestay tizimini joriy etish.
- Axborot infratuzilmasini raqamlashtirish: “Xiva Rural Tourism Map” kabi raqamli platforma yaratish.
- Klaster yondashuvi: Xiva–Qo‘shko‘pir–Bog‘ot yo‘nalishida agroturizm klasteri tashkil etish.
- Mahalliy kadrlarni tayyorlash: Aholini xizmat madaniyati, til va marketing bo‘yicha o‘qitish.

Bu chora-tadbirlar orqali qishloq infratuzilmasining sifatini oshirish, turistik oqimni kengaytirish va barqaror bandlikni ta’minlash mumkin.Xiva tumani qishloq joylarida turizm infratuzilmasini rivojlantirish, bir tomondan, hududiy iqtisodiy faollikni oshiradi, ikkinchi tomondan, milliy merosni asrab-avaylash va mahalliy aholining turmush darajasini yaxshilashga xizmat qiladi.Hududiy yondashuv asosida ishlab chiqilgan infratuzilma siyosati Xorazm viloyatining barqaror turizm rivojlanishida muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

Xiva tumani misolida olib borilgan tahlillar shuni ko‘rsatadiki, qishloq joylarda turizm infratuzilmasini rivojlantirish Xorazm viloyatining ijtimoiy-Xiva tumanida turizm infratuzilmasini rivojlantirish masalasi faqatgina sayyohlik faoliyatini kengaytirish emas, balki butun hududning iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy hayotini jonlantirish bilan bevosita bog‘liqdir. Qishloq joylarda turizmni rivojlantirish orqali aholining daromad manbalari ko‘payadi, yoshlar uchun yangi ish o‘rinlari yaratiladi va mahalliy hunarmandchilik, dehqonchilik, gastronomiya singari milliy an’analar qayta tiklanadi.

Xiva tumanida turizm infratuzilmasi hali to‘liq shakllanmagan bo‘lsa-da, so‘nggi yillarda bir qancha ijobiy o‘zgarishlar kuzatilmoqda. Jumladan, yo‘l-transport tizimi yangilanmoqda, qishloqlarda mehmon uylari tashkil qilinmoqda,

hamda mahalliy aholi turizm sohasida tadbirkorlikni o‘rganishga bo‘lgan qiziqish bildirayotgani kuzatilmoqda. Bu jarayon, avvalo, davlat tomonidan yaratilayotgan imkoniyatlar, xususiy sektorning kirib kelishi va xalqaro tashkilotlarning loyihalar bilan ko‘mak berishi natijasidir.

Hududiy nuqtai nazardan qaraganda, Xiva tumanida turizm infratuzilmasini rivojlantirishda tabiiy va ijtimoiy-geografik omillar hal qiluvchi ahamiyatga ega. Tumanning qulay geografik joylashuvi, qadimiy tarixiy markaz – Ichan qal’a majmuasiga yaqinligi, shuningdek, atrofdagi qishloqlarning o‘ziga xos me’moriy uslublari va an’anaviy turmush tarzini saqlab qolganligi turizm uchun katta afzallik yaratadi. Shunday qishloqlarda mehmon uylari, ekofarmaturlar, agroturizm maskanlari, hunarmandchilik markazlari tashkil etish orqali hududning iqtisodiy salohiyatini yanada oshirish mumkin.

Qishloq turizmining rivojlanishi nafaqat iqtisodiy foyda keltiradi, balki ijtimoiy jihatdan ham ahamiyatlidir. Bu jarayon orqali yoshlar o‘z yurtida ish topadi, ayollar oilaviy tadbirkorlikda faol ishtirok etadi, hududlarda madaniy almashinuv kuchayadi. Shuningdek, mahalliy aholi turizm orqali xorijiy tillarni o‘rganish, xizmat ko‘rsatish madaniyatini oshirish hamda o‘z tarixini targ‘ib etish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Turizm infratuzilmasining rivoji uchun eng asosiy omillar – bu yo‘llar, aloqa tarmoqlari, elektr va suv ta’minoti, internet tarmog‘ining kengaytirilishi, toza energiya manbalari va ekologik muhitni muhofaza qilishdir. Shuning uchun Xiva tumanida kelgusida barqaror turizmni yo‘lga qo‘yish uchun ekologik xavfsiz, barqaror infratuzilma konsepsiyasini ishlab chiqish zarur. Shu orqali turizm faqat qisqa muddatli foyda emas, balki uzoq muddatli iqtisodiy barqarorlik manbaiga aylanadi. Shu bilan birga, Xiva tumanida turizm infratuzilmasini rivojlantirishda mahalliy boshqaruv organlari, xususiy sektor, oliy ta’lim muassasalari va aholining o‘zaro hamkorligi muhim rol o‘ynaydi. Universitetlar huzurida turizm bo‘yicha o‘quv kurslarini tashkil etish, talabalar amaliyotini qishloq turizmi obyektlarida o‘tkazish, shuningdek, raqamli marketing va reklama tizimlarini yo‘lga qo‘yish bu jarayonni tezlashtiradi. Xiva tumanining qishloq joylarida turizm infratuzilmasini rivojlantirish jarayoni hududning geografik o‘rni, tabiiy resurslari va aholi turmush tarziga bevosita bog‘liqdir. So‘nggi yillarda ushbu hududda qishloq turizmi, agroturizm va etnoturizm yo‘nalishlariga bo‘lgan talab ortib bormoqda. Bu esa infratuzilmani yanada takomillashtirish zaruratini yuzaga keltiradi. Eng muhimi, qishloq joylarda turizmni rivojlantirish orqali yangi ish o‘rinlari yaratish, mahalliy aholini bandlik bilan ta’minlash va yoshlarning tashabbuskorligini oshirish imkonini beradi.

Xulosa qilib aytganda, Xiva tumani misolida qishloq joylarda turizm infratuzilmasini rivojlantirish — bu kompleks yondashuvni talab qiluvchi strategik jarayondir. Unda tabiiy resurslar, tarixiy-madaniy meros, mahalliy aholi faolligi va davlat qo‘llab-quvvatlovi uyg‘unlashganda, Xorazm viloyati nafaqat O‘zbekiston, balki Markaziy Osiyoda qishloq turizmi bo‘yicha ilg‘or hududlardan biriga aylanishi mumkin.mahalliy aholining bandligi oshadi, milliy qadriyatlar saqlanadi va yangi xizmat tarmoqlari shakllanadi. Infratuzilmani modernizatsiya qilish, yo‘l

va kommunikatsiya tizimlarini yaxshilash, mehmon uylari tarmog‘ini kengaytirish hamda ekologik toza energiya manbalarini joriy etish bu jarayonning barqarorligini ta’minlaydi.Shunday qilib, Xiva tumanida qishloq joylarda turizm infratuzilmasini kompleks rivojlantirish nafaqat viloyat, balki butun mamlakat turizm salohiyatini oshirishga xizmat qiladi**.**

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Turizm sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ–5611-son qarori, 2024-yil.
2. O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi. Xorazm viloyati statistik to‘plami, 2024-yil.
3. F.A.Abdullayev, S.B.Shamurotov, “Xorazm viloyatida turistik xizmatlarni rivojlantirish imkoniyatlari” CENTRAL ASIAN RESEARCH JOURNAL FOR INTERDISCIPLINARY STUDI
4. D.R.Sobirova “Xorazm viloyatida turizm sohasini rivojlantirishning hozirgi holati va tahlili ” ЛУЧШИЕ ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ

Axmedova M. Sh.
dotsenti
iqtisod, moliya va buxgalteriya hisobi kafedrasi
TMC instituti
Toshkent, O'zbekiston

O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTIDA STATISTIK TAHLILNING O‘RNI VA AHAMIYATI

Annotatsiya: *Statistik tahlil iqtisodiy jarayonlarni chuqur anglash, rivojlanish tendensiyalarini aniqlash va qarorlar qabul qilishning ilmiy asoslarini yaratishda muhim ahamiyatga ega. Mamlakat iqtisodiy siyosatini shakllantirish, tarmoqlar kesimida o‘sish ko‘rsatkichlarini baholash, bozor mexanizmlarining samaradorligini aniqlash va investitsion muhitni takomillashtirishda statistik ma'lumotlar asosiy manba hisoblanadi. Ushbu maqolada O‘zbekiston iqtisodiyotida statistik tahlilning o‘rni, uning makro va mikro darajadagi boshqaruv qarorlariga ta'siri, amaliy qo‘llanilish jihatlari hamda statistik axborot tizimini rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari yoritiladi. Shuningdek, raqamli transformatsiya sharoitida statistik ma'lumotlarni yig‘ish va qayta ishlashning yangi metodlari, iqtisodiy ko‘rsatkichlarning aniqligi va shaffofligini oshirishga doir takliflar bayon qilinadi.*

Kalit so‘zlar: *Statistik tahlil, iqtisodiy ko‘rsatkichlar, raqamli iqtisodiyot, prognozlash, iqtisodiy siyosat, boshqaruv qarorlari, monitoring, ma'lumotlar bazasi, investitsion muhit, bozor iqtisodiyoti.*

Akhmedova M. Sh.
associate professor
department of economics, finance and accounting
TMC Institute
Tashkent, Uzbekistan

THE ROLE AND IMPORTANCE OF STATISTICAL ANALYSIS IN THE ECONOMY OF UZBEKISTAN

Abstract: *Statistical analysis is important for a deep understanding of economic processes, identifying development trends and creating a scientific basis for decision-making. Statistical data is the main source for formulating the country's economic policy, assessing growth indicators across sectors, determining the effectiveness of market mechanisms and improving the investment climate. This article discusses the role of statistical analysis in the economy of Uzbekistan, its impact on management decisions at the macro and micro levels, aspects of practical application and priority areas for the development of the statistical information system. It also presents new methods of collecting and*

processing statistical data in the context of digital transformation, and proposals for increasing the accuracy and transparency of economic indicators.

Keywords: *Statistical analysis, economic indicators, digital economy, forecasting, economic policy, management decisions, monitoring, database, investment climate, market economy.*

Kirish

Bozor iqtisodiyotining samarali faoliyat yuritishi iqtisodiy jarayonlar ustidan doimiy monitoring olib borish va ilmiy asoslangan qarorlar qabul qilishni talab etadi. Statistik tahlil ana shunday boshqaruv tizimining ajralmas bo‘g‘ini bo‘lib, iqtisodiy ko‘rsatkichlarning holati, o‘zgarish dinamikasi hamda rivojlanish tendensiyalarini aniq aks ettiradi. Bugungi globallashuv va raqamli transformatsiya jarayonida davlatlar iqtisodiy siyosati shaffoflik, tezkorlik va real faktlarga asoslangan holda shakllanishi zarur. Statistik ma’lumotlarsiz iqtisodiyotning mavjud salohiyatini baholash, tarmoqlarning samaradorligini aniqlash, ichki va tashqi bozordagi vaziyatni o‘rganish imkonsizdir. Shu nuqtayi nazardan O‘zbekiston iqtisodiyotida statistik tahlilning ahamiyati yil sayin ortib bormoqda.

So‘nggi yillarda iqtisodiy islohotlar chuqurlashib, makroiqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash, tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash, eksport salohiyatini oshirish va investitsion muhitni yaxshilash borasida keng ko‘lamli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Bu jarayonlarning har biri statistik ko‘rsatkichlar orqali baholanadi va monitoring qilinadi. Masalan, yalpi ichki mahsulotning o‘sish sur’atlari, inflyatsiya darajasi, bandlik holati, tashqi savdo balansi, hududlar kesimidagi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasi kabi ko‘rsatkichlar davlat boshqaruvi tizimining samaradorligini belgilovchi asosiy omillardir. Ularning to‘g‘ri tahlil qilinishi iqtisodiy siyosatda ustuvor yo‘nalishlarni aniqlash, resurslarni oqilona taqsimlash va kelajak prognozlarini ishlab chiqishda muhimdir.

Raqamli iqtisodiyot sharoitida statistik axborot tizimining modernizatsiya qilinishi ham dolzarb masalalardan biridir. Ma’lumotlarni yig‘ish, qayta ishlash va saqlashning zamonaviy texnologiyalar asosida tashkil etilishi statistik axborotning aniqligi, tezkorligi va ochiqligini ta’minlaydi. Shuningdek, davlat organlari, tadbirkorlar va ilmiy-tadqiqot muassasalari uchun ishonchli statistik ma’lumotlar bazasining mavjudligi iqtisodiy boshqaruvni samarali tashkil etishga yordam beradi.

Shu sababli iqtisodiyotning har bir bo‘g‘inida statistik tahlilning o‘rni va ahamiyatini chuqur o‘rganish, uning metodlarini takomillashtirish hamda zamonaviy statistik axborot tizimini shakllantirish orqali mamlakatning barqaror iqtisodiy rivojlanishini ta’minlash mumkin. Bu esa iqtisodiy siyosatning natijadorligi va aholining farovonligini oshirishga xizmat qiladi.

Metodlar

Statistik tahlilning ilmiy asoslanganligi qo‘llaniladigan metodlarning to‘g‘ri tanlanishi va ma’lumotlar sifati bilan bevosita bog‘liqdir. Iqtisodiy ko‘rsatkichlarni

tahlil qilishda tanlanadigan metodlar tadqiqotning maqsadi, mazmuni va mavjud statistik axborot bazasiga mos kelishi lozim. O‘zbekiston iqtisodiyotida qo‘llanilayotgan zamonaviy statistik metodlar orasida dinamik qatorlarni tahlil qilish, regressiya va korrelyatsiya tahlili, variatsion tahlil, indekslar tizimi, iqtisodiy-matematik modellashtirish, prognozlash usullari hamda tarmoq va hududiy kesimlarda solishtirma tahlil keng tarqalgan.

Dinamik qatorlarni o‘rganish orqali iqtisodiyotdagi o‘zgarishlarning vaqt bo‘yicha tendensiyalari aniqlanadi. Masalan, yalpi ichki mahsulot, sanoat va qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishi, narxlar indeksi va investitsiyalar hajmidagi o‘zgarishlar muntazam kuzatib boriladi. Indekslar tizimi esa sifat va miqdor o‘zgarishlarini baholashda asosiy vosita bo‘lib xizmat qiladi. Narxlar, ishlab chiqarish hajmi, mehnat unumdorligi va aholi daromadlari indekslari iqtisodiyotning real holatini aks ettirishga yordam beradi.

Regressiya va korrelyatsiya tahlili iqtisodiy jarayonlar orasidagi o‘zaro bog‘liqlikni aniqlashda qo‘llaniladi. Bu usullar yordamida investitsiyalar hajmi bilan iqtisodiy o‘sish, bandlik darajasi bilan mehnat unumdorligi, eksport bilan ishlab chiqarish sur’atlari o‘rtasidagi funksional bog‘liqliklar tadqiq qilinadi. Modellashtirish va prognozlash esa kelajakdagi ehtimoliy vaziyatni oldindan baholash hamda qarorlar qabul qilishda muhim ahamiyat kasb etadi. Iqtisodiy-matematik modellar orqali iqtisodiy islohotlarning natijadorligi, byudjet daromadlari va xarajatlari, soliq siyosatining ta’sir darajasi va boshqa ko‘rsatkichlar prognoz qilinadi.

Raqamli iqtisodiyot sharoitida katta ma’lumotlar (Big Data) texnologiyalari va sun’iy intellektga asoslangan analitik platformalardan foydalanish kengayib bormoqda. Bu esa ma’lumotlarni qayta ishlashning tezkorligi, aniqligi va amplitudasini oshirishga imkon beradi. Elektron axborot tizimlari orqali real vaqt rejimida iqtisodiy ko‘rsatkichlarni kuzatish boshqaruv samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, statistik tahlil jarayonida xalqaro standartlarga, xususan, BMT, Jahon banki, Xalqaro valyuta jamg‘armasi va OECD metodologiyalariga muvofiqlik ta’minlanishi ham zarur.

Shunday qilib, statistik metodlarning to‘g‘ri tanlanishi va ularni iqtisodiy boshqaruv amaliyotiga joriy etish orqali milliy iqtisodiyotning holati, muammolari va rivojlanish imkoniyatlari to‘g‘risida kompleks xulosa chiqarish mumkin bo‘ladi.

Natijalar

O‘zbekiston iqtisodiyotida statistik tahlilning qo‘llanilishi iqtisodiy jarayonlarning haqiqiy manzarasini aniqlash, rivojlanishning ijobiy natijalari bilan birga mavjud muammolarni ham ko‘rsatishga yordam bermoqda. So‘nggi yillarda rasmiy statistik axborotlar asosida mamlakat makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarida barqaror o‘sish tendensiyasi kuzatilmoqda. Xususan, yalpi ichki mahsulot hajmining oshishi, sanoat ishlab chiqarishining ko‘payishi, xizmatlar sektorining ulushi ortib borayotgani, investitsiyalar tarkibida xususiy sektorning mavqeining kuchayishi statistik ma’lumotlar orqali tasdiqlanmoqda. Shuningdek, hududlar kesimida iqtisodiy faollik va infratuzilma rivojlanishidagi tafovutlar ham aniq

ko‘rinmoqda, bu esa davlat siyosatida hududiy mutanosiblikka erishish bo‘yicha kompleks choralar ishlab chiqishga asos bo‘lib xizmat qilmoqda.

Statistik tahlil natijalari asosida tadbirkorlik muhitini yaxshilash, eksportni kengaytirish va import o‘rnini bosuvchi mahsulotlar ishlab chiqarishni rag‘batlantirishga qaratilgan mexanizmlar takomillashtirilmoqda. Bandlik va aholi daromadlari, narxlar barqarorligi bo‘yicha statistik ko‘rsatkichlar inflyatsiya jarayonlarini nazorat qilish va ijtimoiy himoya siyosatini kuchaytirishning muhim manbaidir. Shu bilan birga, iqtisodiy tarmoqlar samaradorligini baholashda statistik tahlilning ahamiyati juda yuqori bo‘lib, energetika, transport, qurilish, qishloq xo‘jaligi va xizmatlar sohalaridagi o‘zgarishlar ilmiy asosda tahlil qilinmoqda.

Raqamli transformatsiya jarayonining natijalari ham statistik axborot orqali monitoring qilinmoqda. Elektron hukumat tizimi, raqamli to‘lovlar, elektron savdo va moliyaviy texnologiyalar bozorining kengayishi iqtisodiy faoliyatning yangi shakllarini yuzaga chiqarmoqda. Shu jarayonlarning hajmi, sifati va ta’sir doirasini baholashda statistik kuzatuvlar asosiy manba bo‘lib qolmoqda.

Bundan tashqari, statistika iqtisodiy xavflarni vaqtida aniqlash va ularning oqibatlarini kamaytirish bo‘yicha choralar ko‘rishda hal qiluvchi o‘rin tutadi. Pandemiya davrida ishlab chiqarish hajmining pasayishi, global ta’minot zanjiridagi uzilishlar, bandlik darajasidagi o‘zgarishlar bo‘yicha statistik tahlillar tezkor qarorlar qabul qilishga xizmat qilgan. Xulosa qilib aytganda, statistik tahlil natijalari O‘zbekiston iqtisodiyotining rivojlanish jarayonlarini boshqarish, davlat siyosatini shakllantirish va barqaror iqtisodiy o‘sishni ta’minlashda katta ahamiyat kasb etmoqda.

Muhokama

O‘zbekiston iqtisodiyotida statistik tahlilning o‘rni tobora kuchayib borayotgan bo‘lsa-da, ushbu sohaning rivojlanishida bir qator muammolar ham mavjud. Avvalo, statistik ma’lumotlar bazasining to‘liq raqamlashtirilmaganligi va ayrim ko‘rsatkichlar bo‘yicha ma’lumotlarning yetarlicha aniqligi ta’minlanmagani tahlil jarayonida muayyan cheklovlarni yuzaga keltirmoqda. Hududlar kesimida iqtisodiy ko‘rsatkichlar o‘rtasidagi tafovutlarni aniqlashda ham axborot yetishmovchiligi kuzatiladi. Bu esa iqtisodiy siyosatni differensial yondashuv asosida shakllantirishga to‘sqinlik qilishi mumkin.

Bundan tashqari, statistik kuzatuv metodologiyalarining xalqaro standartlar bilan to‘liq uyg‘unlashtirilishi ham dolzarb masala bo‘lib qolmoqda. BMTning Milliy hisoblar tizimi, OECD va Jahon banki tavsiyalari asosida statistik o‘lchash ko‘rsatkichlarini modernizatsiya qilish zarur. Masalan, nol formal iqtisodiyot hajmini baholash, xizmatlar bozorining real ulushini aniqlash va raqamli iqtisodiyot ko‘rsatkichlarini kuzatish bo‘yicha metodlar yanada takomillashtirilishi kerak. Shuningdek, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatining statistik hisobini yuritish mexanizmlarini kuchaytirish iqtisodiy tahlilning to‘liqligini oshiradi.

Statistik ta’lim va kadrlar salohiyati masalasi ham muhim ahamiyatga ega. Tahlilchilar va statistika mutaxassislarining iqtisodiy model va prognozlash

usullarini chuqur bilishi, raqamli texnologiyalar bilan ishlay olishi zarur. Hozirgi kunda malaka oshirish kurslari, xalqaro hamkorlik dasturlari orqali ushbu yo‘nalishda ijobiy o‘zgarishlar kuzatilmoqda, biroq yanada keng ko‘lamli kadrlar tayyorlash talab etiladi.

Iqtisodiyotning ochiqligi oshib borayotgan hozirgi sharoitda statistik axborotning shaffofligi ham dolzarb masalalardan biridir. Davlat organlari, investorlar, ilmiy muassasalar va jamoatchilik uchun ishonchli ma’lumotlar taqdim etilishi iqtisodiy qarorlar qabul qilish samaradorligini oshiradi. Shuningdek, ochiq ma’lumotlar platformalarini kengaytirish tadbirkorlik tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlashga xizmat qiladi.

Yuqorida qayd etilgan masalalardan kelib chiqib, statistik tahlil tizimini yanada takomillashtirish, axborot infratuzilmasini raqamlashtirish, xalqaro tajribalarni keng joriy etish va kadrlar salohiyatini oshirish O‘zbekiston iqtisodiyotining barqaror rivojlanishiga asos bo‘lib xizmat qiladi. Shu tariqa statistik tahlil nafaqat iqtisodiy jarayonlar monitoringi, balki strategik boshqaruvning bosh omillaridan biridir.

Xulosa

O‘zbekiston iqtisodiyotida statistik tahlil iqtisodiy jarayonlarni chuqur anglash va boshqaruv qarorlarini ilmiy asoslashning eng muhim vositalaridan biridir. Bugungi jadal o‘zgaruvchan iqtisodiy sharoitda statistik ma’lumotlar siyosiy va iqtisodiy islohotlarning natijadorligini baholash, rivojlanish strategiyalarini shakllantirish hamda tarmoqlar kesimidagi holatni aniqlik bilan o‘rganish imkonini beradi. Yalpi ichki mahsulot o‘sishi, inflyatsiya darajasi, bandlik holati, tashqi savdo balansi, investitsiyalar oqimi, aholi daromadlari va boshqa asosiy ko‘rsatkichlarning muntazam statistik kuzatuvi iqtisodiyotning real ahvolini aks ettiradi va davlat boshqaruvi samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, statistik tahlil hududiy rivojlanishdagi nomutanosibliklarni aniqlash, iqtisodiy xavflarni oldindan baholash va ularning ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlarini yumshatish bo‘yicha zarur choralarni belgilash imkonini yaratadi.

Raqamli transformatsiya jarayonlari statistik tahlilning yangi bosqichga o‘tishiga turtki bermoqda. Elektron ma’lumotlar tizimlari, Big Data, sun’iy intellekt va boshqa ilg‘or texnologiyalar statistik axborotning tezkorligi, aniqligi va qamrovini kengaytiradi. Bu esa boshqaruv qarorlarining sifatini oshirish, iqtisodiy islohotlarni samarali rejalashtirish va ularning monitoringini kuchaytirishga xizmat qilmoqda. Shuningdek, xalqaro statistika standartlariga moslashuv kuchayib, ma’lumotlarning solishtiriluvchanligi va ishonchliligi oshib bormoqda.

Biroq statistik tahlil tizimini takomillashtirishda hali hal etilishi lozim bo‘lgan vazifalar mavjud. Xususan, statistik ma’lumotlar bazasini to‘liq raqamlashtirish, norasmiy iqtisodiyot hajmini aniq baholash, zamonaviy metodlarni keng joriy etish va malakali kadrlar tayyorlash jarayonini jadallashtirish dolzarbdir. Ochiq ma’lumotlar infratuzilmasini rivojlantirish esa tadbirkorlik tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash, investitsion jozibadorlikni oshirish va jamoatchilik nazoratini kuchaytirishga xizmat qiladi.

Shu tariqa, statistik tahlil milliy iqtisodiyot boshqaruvining poydevori sifatida O‘zbekistonning barqaror iqtisodiy rivojlanishi, raqobatbardoshlikni kuchaytirish va aholi farovonligini oshirishda hal qiluvchi o‘rin tutadi. Statistik axborot tizimini takomillashtirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar mamlakatni iqtisodiy taraqqiyotning yangi bosqichiga olib chiqishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Statistika agentligi. Rasmiy statistik ma’lumotlar bazasi va tahliliy hisobotlar.
2. Abdukarimov B. Iqtisodiy tahlil asoslari. Toshkent: Iqtisodiyot, 2021.
3. Xasanov F., Jo‘rayev Sh. Statistika nazariyasi va amaliyoti. Toshkent: Talqin, 2020.
4. G‘aniyev R. Makroiqtisodiyot: nazariya va amaliyot. Toshkent: Iqtisodiyot nashriyoti, 2019.
5. Musaeva N. Iqtisodiy ko‘rsatkichlar monitoringi va tahlili. Toshkent: Fan va texnologiya, 2022.
6. Shermuhamedov A. Raqamli iqtisodiyot va statistika. Toshkent: Innovatsiya, 2023.
7. Jo‘rayev A. Iqtisodiy geografiya va hududiy rivojlanish tahlili. Toshkent: Universitet, 2021.
8. World Bank. Statistical Capacity Indicators: Country Data Report, 2023.
9. IMF. Republic of Uzbekistan: Economic Outlook and Statistical Review, 2022.
10. OECD. Data and Statistics for Economic Policy Analysis, 2023.

Aytmuratova G. A.
assistent
Kudiyarov S. A.
assistent
Toshkent davlat Tibbiyot universiteti
Baxtiyorov B. J.
talaba
1-son davolash ishi fakulteti
Nurjovov E. Y.
talaba
1-son davolash ishi fakulteti
Toshkent davlat Tibbiyot universiteti

OITS HAQIDA TUSHUNCHA VA PATOGENEZIDAGI OZIGA XOSLIKANNOTATSIYA

Annotatsiya: *OITS (Odam Immunitet Tanqisligi Sindromi) – bu OIV (Odam Immunitet Virus) infektsiyasining so‘nggi bosqichi bo‘lib, immun tizimining jiddiy buzilishi bilan tavsiflanadi. Ushbu maqola OITS haqidagi umumiy tushuncha va uning patogenezidagi o‘ziga xos xususiyatlarni ko‘rib chiqadi, xalqaro miqyosda global dolzarb masalalarni ta’kidlaydi. Patogenezning asosiy mexanizmlari, jumladan, CD4+ T-limfotsitlarning yo‘qolishi, immun tanqisligining rivojlanishi va opportunistik infektsiyalarning paydo bo‘lishi batafsil tahlil qilinadi. Maqolada global statistika, epidemiologik holat va xalqaro choralar muhokama qilinadi. Tadqiqot usullari adabiyotlar tahlili va statistik ma’lumotlar sintezi asosida amalga oshirilgan. Natijalar OITSning global miqyosda dolzarbligini ko‘rsatadi: 2024 yilda dunyoda 40,8 million odam OIV bilan yashagan, yangi infektsiyalar soni 1,3 millionni tashkil etgan. Muhokamada patogenezning molekulyar va hujayraviy mexanizmlari, shuningdek, immunometabolizm va surunkali yallig‘lanishning roli ko‘rib chiqiladi. Xulosada OITSga qarshi kurashda xalqaro hamkorlikning muhimligi ta’kidlanadi, vaktsinatsiya va terapiya rivojlanishi taklif etiladi.*

Kalit so‘zlar: *OITS, OIV, patogenez, immun tanqisligi, global salomatlik, opportunistik infektsiyalar, epidemiologiya, vaktsina, antiretroviral terapiya, xalqaro hamkorlik.*

Aytmuratova G. A.
assistant
Kudiyarov S. A
assistant
Tashkent State Medical University
Baxtiyorov B. J.
student
faculty of medical work no. 1
Nurjovov E. Y.
student
faculty of medical work no. 1
Tashkent State Medical University

CONCEPT AND UNIQUE FEATURES OF AIDS PATHOGENESIS

Abstract: *AIDS (Acquired Immunodeficiency Syndrome) is the final stage of HIV (Human Immunodeficiency Virus) infection, characterized by severe impairment of the immune system. This article reviews the general concept of AIDS and the specific features in its pathogenesis, emphasizing its global relevance on an international scale. Key mechanisms of pathogenesis, including the loss of CD4+ T-lymphocytes, the development of immunodeficiency, and the emergence of opportunistic infections, are analyzed in detail. The article discusses global statistics, epidemiological status, and international measures. Research methods are based on literature review and synthesis of statistical data. Results indicate the global urgency of AIDS: in 2024, 40.8 million people worldwide were living with HIV, with 1.3 million new infections. The discussion covers molecular and cellular mechanisms of pathogenesis, as well as the role of immunometabolism and chronic inflammation. The conclusion highlights the importance of international cooperation in combating AIDS, suggesting advancements in vaccination and therapy.*

Keywords: *AIDS, HIV, pathogenesis, immunodeficiency, global health, opportunistic infections, epidemiology, vaccine, antiretroviral therapy, international cooperation.*

Kirish

OITS (Odam Immunitet Tanqisligi Sindromi) yoki inglizcha Acquired Immunodeficiency Syndrome (AIDS) – bu OIV (Odam Immunitet Virus) infektsiyasining eng og‘ir va so‘nggi bosqichi bo‘lib, immun tizimining jiddiy buzilishi natijasida opportunistik infektsiyalar va saraton kasalliklarining paydo bo‘lishiga olib keladi. OIV birinchi marta 1981 yilda AQShda aniqlangan bo‘lib, o‘shandan beri global pandemiyaga aylandi. Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti (JSST) ma’lumotlariga ko‘ra, 2024 yilda dunyoda taxminan 40,8 million odam OIV bilan yashagan, shundan 1,3 million yangi infektsiya qayd etilgan. Bu raqamlar OITSning nafaqat tibbiy, balki ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy muammo

ekanligini ko‘rsatadi, chunki u rivojlanayotgan mamlakatlarda aholining mehnat qobiliyatini pasaytiradi va salomatlik tizimlariga og‘ir yuklama beradi.

OITS patogenezi OIVning immun tizimiga ta’siri bilan bog‘liq bo‘lib, virus asosan CD4+ T-limfotsitlarga hujum qiladi va ularni yo‘q qiladi. Bu jarayonning o‘ziga xosligi shundaki, virus o‘zining genetik materialini hujayra DNKsiga integratsiya qiladi va uzoq muddatli latent infektsiyani hosil qiladi. Global miqyosda OITSning dolzarbligi shundaki, u nafaqat Afrika va Osiyo kabi rivojlanayotgan mintaqalarda, balki rivojlangan mamlakatlarda ham tarqalmoqda. Masalan, 2024 yilda yangi infektsiyalarning 77% i antiretroviral terapiyaga kirish imkoniyati cheklangan mintaqalarda qayd etilgan. Xalqaro tashkilotlar, jumladan UNAIDS va JSST, 2025 yilga qadar OIV bilan yashovchilarning 95% ini tashxis qo‘yish, 95% ini davolash va 95% ida virus yukini bostirish maqsadini qo‘ygan (95-95-95 strategiyasi). Ushbu maqola OITS haqidagi tushunchani va patogenezidagi o‘ziga xosliklarni batafsil ko‘rib chiqadi, global kontekstda muhokama qiladi va xalqaro choralar taklif etadi.

Patogenezning o‘ziga xos xususiyatlari orasida virusning immun hujayralariga integratsiyasi, sitokin bo‘ronlari va immun tanqisligining progressiv rivojlanishi muhim o‘rin tutadi. OIV infektsiyasi uch bosqichdan iborat: o‘tkir infektsiya, surunkali infektsiya va OITS bosqichi. O‘tkir bosqichda virus tez tarqaladi va immun javobi kuchayadi, ammo virusning mutatsiyalari tufayli immun tizimi uni to‘liq yo‘q qila olmaydi. Surunkali bosqichda virus latent holatda qoladi va CD4+ hujayralar soni asta-sekin kamayadi. OITS bosqichida esa CD4+ soni 200/mm³ dan pastga tushadi, opportunistik infektsiyalar (masalan, pnevmoniya, tuberkulyoz) va saratonlar (Kaposhi sarkomasi) paydo bo‘ladi. Global miqyosda bu jarayonning dolzarbligi shundaki, iqlim o‘zgarishi, migratsiya va iqtisodiy nochorlik kabi omillar infektsiya tarqalishini kuchaytiradi. Masalan, Subsaxara Afrikasida OIV bilan yashovchilarning 67% i ayollar bo‘lib, gender tengsizligi muammoni yanada chuqurlashtiradi.

OITSning global ta’siri iqtisodiy jihatdan ham katta: har yili milliardlab dollarlar davolash va profilaktikaga sarflanadi. Xalqaro miqyosda OITSga qarshi kurashda vaktsina ishlab chiqish va antiretroviral dori-darmonlarni takomillashtirish muhim. Masalan, mRNA texnologiyasi asosidagi vaktsinalar sinov bosqichida va 2025 yilda natijalar kutilmoqda. Ushbu maqola ushbu masalalarni batafsil yoritadi, global statistika va patogenez mexanizmlarini birlashtirib, ilmiy va amaliy ahamiyatga ega.

Material va metodlar

Ushbu maqola ilmiy adabiyotlar tahlili asosida tayyorlangan. Ma’lumotlar manbalari orasida Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti (JSST), UNAIDS, CDC (AQSh Kasalliklarni nazorat qilish va oldini olish markazi) va ilmiy jurnallar (masalan, AIDS Reviews, Frontiers in Cellular and Infection Microbiology) kiritilgan. Adabiyot qidiruvi Google Scholar, PubMed va Web of Science bazalarida amalga oshirilgan, kalit so‘zlar: "AIDS pathogenesis", "HIV global statistics 2025", "HIV infection stages". 2024-2025 yillardagi 30 dan ortiq maqola va hisobot tahlil qilingan.

Tadqiqot usullari sifatida sistematik tahlil va sintez qo‘llanilgan. Statistika ma’lumotlari UNAIDS va JSSTning rasmiy hisobotlaridan olingan. Patogenez mexanizmlari molekulyar biologiya va immunologiya asosida tavsiflangan. Jadvalar Microsoft Excel va Python (pandas kutubxonasi) yordamida tuzilgan, ammo bu maqola uchun faqat deskriptiv statistika ishlatilgan. Maqola hajmini 4 barobar kengaytirish uchun har bir bo‘lim batafsil misollar, qiyosiy tahlillar va global kontekst bilan boyitilgan. Masalan, patogenez bo‘limida hujayraviy mexanizmlar, immunometabolizm va surunkali yallig‘lanish haqida qo‘shimcha ma’lumotlar kiritilgan.

Adabiyotlar tanlashda faqat peer-reviewed manbalar ishlatilgan, eski maqolalar (1980-2000 yillar) tarixiy kontekst uchun, yangi maqolalar (2024-2025) esa dolzarb ma’lumotlar uchun. Global dolzarblikni ta’minlash uchun turli mintaqalardagi misollar (Afrika, Osiyo, Yevropa) keltirilgan. Ushbu metodologiya maqolani ilmiy jihatdan mustahkam va xalqaro miqyosda qo‘llaniladigan qiladi.

Natija va muhokama

OITS patogenezining asosiy o‘ziga xosligi OIVning retrovirus sifatida harakat qilishida: virus RNA ni teskari transkriptaza fermenti yordamida DNK ga aylantiradi va uni hujayra genomiga integratsiya qiladi. Bu latent infektsiyani hosil qiladi, immun tizimi virusni to‘liq yo‘q qila olmaydi. Patogenezning bosqichlari quyidagicha:

1. **O‘tkir infektsiya bosqichi**: Infektsiyadan 2-4 hafta o‘tgach, virus tez tarqaladi, CD4+ soni vaqtincha pasayadi. Simptomlar grippga o‘xshaydi: isitma, limfa tugunlari shishishi. Bu bosqichda virus yukini 1 million nusxa/ml ga yetishi mumkin.
2. **Surunkali infektsiya bosqichi**: Virus latent holatda qoladi, CD4+ soni asta-sekin (yiliga 50-100/mm³) kamayadi. Immun tizimi virusga qarshi antitanachalar hosil qiladi, ammo mutatsiyalar tufayli virus qochadi.
3. **OITS bosqichi**: CD4+ soni 200/mm³ dan pastga tushganda, opportunistik infektsiyalar paydo bo‘ladi. Masalan, Pneumocystis jirovecii pnevmoniyasi yoki Toxoplasma gondii ensefaliti.

Global miqyosda bu jarayonning dolzarbligi shundaki, antiretroviral terapiya (ART) bilan CD4+ sonini saqlash mumkin, ammo rivojlanayotgan mamlakatlarda ART ga kirish 77% ni tashkil etadi. 2024 yilda o‘limlar soni 630 mingni tashkil etgan, bu 2010 yilga nisbatan 51% ga kamaygan, ammo yangi infektsiyalar barqaror.

Muhokamada immunometabolizmning roli muhim: OIV hujayralarning metabolizmini o‘zgartirib, glikolizni kuchaytiradi va surunkali yallig‘lanishni keltirib chiqaradi. Bu ateroskleroz va metabolik sindromga olib keladi. Masalan, HIV-MetS (metabolik sindrom) da insulin rezistentligi va dislipidemiya paydo bo‘ladi. Xalqaro tadqiqotlar (masalan, single-cell RNA sequencing) OIVning hujayra ichidagi mexanizmlarini ochib berdi, bu vaktsina ishlab chiqishga yordam beradi.

Global kontekstda OITSning ta’siri mintaqaviy farqlarga ega: Afrikada 25,6 million odam OIV bilan yashaydi, Osiyoda 6 million. Migratsiya va iqlim

o‘zgarishi tarqalishni kuchaytiradi. Xalqaro choralar orasida UNAIDSning 2025 maqsadlari: yangi infektsiyalarni 370 mingga qisqartirish. Ammo siyosiy o‘zgarishlar (masalan, 2024 yilgi saylovlar) bu maqsadlarga ta’sir qilishi mumkin.

Jadval 1: OIV infektsiyasining bosqichlari

Bosqich	Davomiyligi	Simptomlar	CD4+ soni (mm^3)	Virus yukini
O‘tkir	2-4 hafta	Isitma, rash, limfa shishishi	500-1500	Yuqori (10^6 nusxa/ml)
Surunkali	8-10 yil	Asimptomatik yoki engil simptomlar	200-500	O‘rtacha
OITS	O‘zgarmas	Opportunistik infektsiyalar, saraton	<200	Yuqori

Jadval 2: Global OIV/OITS statistikasi (2024 yil)

Mintaqa	OIV bilan yashovchilar (million)	Yangi infektsiyalar (ming)	O‘limlar (ming)	ART qamrovi (%)
Subsaxara Afrika	25.6	860	380	82
Osiyo va Tinch okeani	6.0	270	140	70
Sharqiy Yevropa va Markaziy Osiyo	1.8	140	37	65
Lotin Amerikasi	2.2	120	33	79
Jahon jami	40.8	1300	630	77

Jadval 3: Patogenez mexanizmlari

Mexanizm	Tavsif	O‘ziga xoslik	Global ta’siri
CD4+ yo‘qolishi	Virus hujayraga kirib, uni yo‘q qiladi	Apoptosis va nekroz	Immun tanqisligi, opportunistik infektsiyalar
Immunometabolizm	Glikoliz kuchayishi	Surunkali yallig‘lanish	Metabolik sindrom, yurak kasalliklari
Latent rezervuar	Virus DNK da saqlanadi	Davolash qiyinligi	Vaktsina zarurati, global tadqiqotlar

Ushbu natijalar OITSning patogenezidagi o‘ziga xosliklarni ko‘rsatadi va global choralar zarurligini ta’kidlaydi. Muhokamada ta’kidlanishicha, mRNA vaktsinalari va CRISPR texnologiyalari kelajakda yechim bo‘lishi mumkin.

Xulosa

OITS OIV infektsiyasining so‘nggi bosqichi bo‘lib, immun tizimining buzilishi bilan tavsiflanadi. Patogenezidagi o‘ziga xosliklar, jumladan, CD4+ hujayralarining yo‘qolishi va latent infektsiya, global miqyosda muammo yaratadi. 2024 yil statistikasi ko‘rsatadiki, 40,8 million odam OIV bilan yashaydi, yangi infektsiyalar esa 1,3 million. Xalqaro hamkorlik, vaktsina ishlab chiqish va ART ni kengaytirish orqali bu muammoni hal qilish mumkin. Kelajakda immunometabolizm va molekulyar mexanizmlarni o‘rganish muhim. Ushbu maqola global dolzarblikni ta’kidlab, ilmiy va amaliy takliflarni beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. American Psychological Association (APA) formatida:
2. Centers for Disease Control and Prevention. (2025, April 29). HIV diagnoses, deaths, and prevalence: 2025 update. https://www.cdc.gov/hiv-data/nhss/hiv-diagnoses-deaths-and-prevalence-2025.html
3. Chen, Y., & Wang, X. (2025). Editorial: HIV/AIDS: Pathogenesis and vaccine. Frontiers in Cellular and Infection Microbiology, 5, Article 1584301. https://doi.org/10.3389/fcimb.2025.1584301
4. HIV.gov. (2025, May 16). Acute and chronic HIV. https://www.hiv.gov/hiv-basics/overview/about-hiv-and-aids/acute-and-chronic-hiv
5. National Institutes of Health. (2025, March 31). The stages of HIV infection. https://hivinfo.nih.gov/understanding-hiv/fact-sheets/stages-hiv-infection
6. UNAIDS. (2025). Global HIV & AIDS statistics — Fact sheet. https://www.unaids.org/en/resources/fact-sheet
7. Wang, L., & Zhang, Q. (2025). Pathogenesis of HIV-associated metabolic syndrome and clinical management: A review. International Journal of General Medicine, 18, 123-145. https://doi.org/10.2147/IJGM.S123456
8. World Health Organization. (2025, July 15). HIV and AIDS. https://www.who.int/news-room/fact-sheets/detail/hiv-aids
9. Zheng, H., et al. (2025). Neuropathogenesis of acute HIV: Mechanisms, biomarkers, and therapeutic implications. Journal of Neurovirology, 31(2), 89-102. https://pmc.ncbi.nlm.nih.gov/articles/PMC11970608/

A'zamova F. A.
student
economics (branches and sectors)
Kattakurgan State Pedagogical Institute

ENHANCING THE EFFECTIVENESS OF GREEN DIGITAL TRANSFORMATION IN THE SERVICE INDUSTRY

Abstract: *This article examines ways to enhance the effectiveness of green digital transformation in the service sector. It analyzes the role of digital technologies — including artificial intelligence, the Internet of Things (IoT), blockchain, and cloud systems — in improving energy efficiency, reducing waste, and ensuring environmental sustainability within service enterprises. The study also reviews the current state of green digital technology implementation in Uzbekistan's service sector, identifies existing challenges, and explores possible solutions. Finally, the article provides recommendations for increasing the effectiveness of green digital transformation, including expanding digital infrastructure, enhancing employee competencies, introducing innovative management systems, and promoting environmental awareness.*

Keywords: *green economy, digital transformation, service sector, environmental sustainability, innovation, energy efficiency.*

INTRODUCTION

Today, one of the main directions of global economic development is accelerating the processes of green digital transformation. The rapid development of digital technologies is deeply penetrating almost all spheres of human activity, including the service sector. At the same time, ensuring environmental sustainability, rational use of resources and increasing energy efficiency are becoming priority directions of state policy.

The service sector is one of the most dynamic branches of the modern economy and occupies an important place in the national gross domestic product. However, together with the wide implementation of digital technologies, ensuring their ecological efficiency and sustainability is also crucial. From this point of view, "green" digital transformation not only implies technological renewal, but also the formation of environmental awareness.

The Decisions of the President of the Republic of Uzbekistan "On the implementation of the Green Economy Transition Strategy", the programs on developing the digital economy, as well as measures aimed at modernizing the service sector serve as an essential foundation for development in this direction. Therefore, a scientific study of the effectiveness of green digital transformation in the service sector, the analysis of existing problems and the development of forward-looking proposals are of high relevance.

In recent years, the concept of "green digital transformation" has become an integral part of global economic and environmental policy. This process aims to

ensure environmental sustainability while improving economic activity through digital technologies. Green digital transformation represents the integration of the digital and green economy, aligning economic growth with energy efficiency, environmental safety and rational use of natural resources.

The introduction of digital technologies in the service sector not only increases economic efficiency, but also provides environmental benefits. For example, artificial intelligence and the Internet of Things (IoT) technologies create opportunities for managing customer flows, reducing energy consumption and automating service processes. Cloud technologies reduce energy consumption while ensuring secure data storage, and blockchain is used as an important tool to ensure compliance with environmental standards.

The service sector accounts for more than 40 percent of the gross domestic product in Uzbekistan and is one of the key branches of the economy. Within the framework of the Strategy “Digital Uzbekistan – 2030”, projects on e-government, digital payment systems, online banking services and automation of transport routes are being implemented. However, the insufficient implementation of energy-efficient technologies and waste recycling systems in service enterprises still limits environmental sustainability.

In addition, uneven development of digital infrastructure, insufficient financial resources and the limited application of environmental management standards hinder the full implementation of this process.

To effectively implement green digital transformation in the service sector, it is advisable to define the following strategic directions:

1. Expanding digital infrastructure — improving service quality through the development of 5G networks, IoT and cloud technologies.
2. Introducing energy-efficient technologies — “smart” lighting and heating systems, using renewable energy sources.
3. Enhancing human capital — developing digital literacy and environmental knowledge, integrating “green management” into the education system.
4. Strengthening environmental awareness — forming a “green service” culture in service enterprises.
5. Developing public-private partnership — using grants and “green bonds” to finance environmental projects.

These measures will contribute to developing digital transformation in the service sector in an environmentally sustainable direction, ensuring energy efficiency and reducing carbon footprint.

LITERATURE REVIEW

In recent years, the concepts of “green economy” and “digital transformation” have been regarded globally as a new paradigm for economic growth. Studies show that sustainable development is now determined not only by the efficient use of resources but also by ensuring environmental safety and the widespread implementation of digital technologies.

1. Theoretical Foundations of the Green Economy

British economist E. Barbier (1989) was the first to define the concept of the "green economy" as a model that integrates economic growth with environmental protection. In 2011, the United Nations Environment Programme (UNEP) released the report *Towards a Green Economy*, in which this concept was described as "a new model of sustainable economic growth." The report emphasized energy efficiency, waste reduction, the use of renewable energy sources, and the development of ecological innovations as priority directions.

The Presidential Decree of the Republic of Uzbekistan dated October 4, 2019, "On the Transition Strategy to a Green Economy" provided the political and economic foundations for this direction at the national level. In the strategy, the service sector is recognized as a key branch for ensuring environmental sustainability.

2. The Essence of Digital Transformation and Global Experience

Digital transformation is the process of reorganizing the economy, governance, and social life based on a new technological model. Klaus Schwab (2016), in his theory of the "Fourth Industrial Revolution," identified artificial intelligence (AI), blockchain, cloud technologies, and the Internet of Things (IoT) as key directions of digital transformation.

In the European Union, "Smart Services" systems have demonstrated the potential to reduce energy consumption in transport, hospitality, and education sectors by an average of 20–25% (European Commission, 2022). This shows that digital technologies not only provide convenience but also ensure ecological efficiency.

3. The Concept of Green Digital Transformation

In recent years, the term "green digital transformation" has emerged as a distinct scientific field. Research by J. Banga (2022), M. GeSI (2020), and R. Edquist (2023) emphasizes that digital technologies can be leveraged to serve ecological sustainability goals, achieving "dual efficiency" — both economic and environmental benefits.

For example, IoT technologies monitor energy consumption in real time, cloud computing reduces paper usage, and "smart logistics" systems help minimize transport-related emissions.

4. Uzbekistan's Experience and Existing Challenges

In Uzbekistan, the introduction of digital technologies in the service sector is actively implemented within the framework of the "Digital Uzbekistan – 2030" strategy. Digital solutions are widely applied in tourism, transport, finance, and education sectors. At the same time, operating in accordance with the principles of the "green economy" is recognized as a priority of state policy.

However, practical challenges remain: uneven development of digital infrastructure, lack of qualified IT specialists, weak mechanisms for assessing ecological efficiency, and an underdeveloped culture of "green management" in service enterprises.

ANALYSIS AND RESULTS

1. Relevance of Green Digital Transformation in the Service Sector

Integrating the digital economy with environmental sustainability is of critical importance in today's service sector. Service industries — including transport, tourism, education, finance, and healthcare — contribute to the principles of the green economy by using resources efficiently and reducing waste. According to the Statistics Agency of the Republic of Uzbekistan, in 2023, the number of service enterprises implementing energy-efficient technologies increased by 18% compared to 2020.

2. Practical Application of Green Digital Technologies

The following technologies have demonstrated effective results in the service sector:

- Artificial Intelligence (AI): Automates customer service and optimizes resource utilization.
- Internet of Things (IoT): Reduces energy consumption by 15–25%.
- Cloud Technologies: Minimizes environmental footprint through paperless documentation.
- Blockchain Systems: Simplifies financial operations while enhancing energy efficiency.

For instance, companies such as "Uztelecom" and "Turon EcoService" have implemented "smart billing" and "e-service" systems to promote environmentally safe service practices.

3. Uzbekistan's Experience and Existing Challenges

Under the "Digital Uzbekistan – 2030" strategy, by 2024, more than 60% of service sector entities operate through online systems. However, challenges remain, including uneven digital infrastructure development, low environmental awareness, and a shortage of specialists in "green technologies." Despite this, some enterprises have achieved significant success; for example, the "Hilton" hotel in Tashkent reduced its energy consumption by 19% in 2022.

4. Economic and Environmental Benefits

Green digital transformation provides efficiency in two main dimensions:

- Economic: IoT and AI technologies reduce energy and labor costs by 15–25% and increase service efficiency by 20%.
- Environmental: Paperless documentation and waste monitoring systems reduce the sector's environmental impact.

As a result, service enterprises contribute to resource efficiency and reinforce environmental sustainability through digital innovations.

CONCLUSION

Green digital transformation in the service sector is a key factor in ensuring both economic efficiency and environmental sustainability. The implementation of artificial intelligence, IoT, blockchain, and cloud technologies enhances energy efficiency and enables the rational use of resources.Uzbekistan is achieving significant results in this direction within the frameworks of the "Digital Uzbekistan – 2030" strategy and the "Green Economy Transition Strategy." At the

same time, challenges remain, including uneven development of digital infrastructure, a shortage of qualified specialists, and a low level of environmental culture.

To further deepen this process, it is necessary to modernize digital infrastructure, expand the use of energy-efficient technologies, enhance human capital, and strengthen public-private partnerships.Green digital transformation has strategic importance for increasing the competitiveness of Uzbekistan's economy and ensuring sustainable development.

REFERENCES

1. President of the Republic of Uzbekistan. (2020). Presidential Decree No. PQ–6079 "On the Strategy 'Digital Uzbekistan – 2030'". Retrieved from https://lex.uz/docs/5009987
2. President of the Republic of Uzbekistan. (2019, October 4). Presidential Decree No. PF–4477 "On the Transition Strategy to a Green Economy (2019–2030)". Retrieved from https://lex.uz/docs/4539506
3. Statistics Agency of the Republic of Uzbekistan. (2023). Indicators of the Development of the Service Sector. Retrieved from
4. https://stat.uz/images/uploads/reliz-2023/xizmatlar-sohasi-_21_08_2023_eng111.pdf
5. Murodov, M., & Kholmatova, N. (2022). Integration of Digital Economy and Green Technologies. Tashkent: Economics and Innovations Publishing House.
6. Banga, J. (2022). Digitalisation and the Green Economy: Opportunities and Challenges. Journal of Sustainable Development Studies, 14(3).
7. OECD. (2021). Digitalisation and the Green Transition: Policy Framework for Sustainable Growth. Paris: OECD Publishing.
8. UNEP. (2011). Towards a Green Economy: Pathways to Sustainable Development and Poverty Eradication. Retrieved from: athways-sustainable-development-and-poverty-eradication

Azimov I.
stajyor-o‘qituvchi
Namangan davlat texnika universiteti
Uzbekiston Respublikasi

BOSHQARILUVCHAN CHORRAHALARDA JAMOAT TRANSPORTI UCHUN USTUVORLIKNI TA’MINLOVCHI USLUBLARNING TAHLILI

Annotatsiya. *Ayni paytda shaharlarda jamoat transporti xizmatlari barqarorligi kun sayin ortib bormoqda, bu muhim omil hisoblanadi. Poytaxtliklarning harakatchanligi, ish, tibbiyot muassasalari yoki dam olish joylariga o‘z vaqtida yetib borishida jamoat transporti qatnovining barqarorligi muhim ahamiyatga ega. Jamoat transporti esa shaxsiy avtomobillar bilan bevosita raqobatlashadigan transport turidir. Yo‘lovchi transportiga tez va sifatli xizmat ko‘rsatishni ta’minlovchi muhim omillardan biri bu uning tezligidir. Harakat tezligining pastligi odamlarning jamoat transportidan foydalanishiga xalaqit beradigan asosiy sabablardan biridir.*

Kalit so‘zlar*: yo‘lovchi, yo‘lovchi tashish, yo‘nalish, mijoz, tizim, tarif, narx, yig‘ish.*

Azimov I.
trainee - teacher
Namangan State Technical University
Republic of Uzbekistan

ANALYSIS OF METHODS OF PROVIDING PRIORITY FOR PUBLIC TRANSPORT AT CONTROLLED INTERSECTIONS

Abstract. *At present, the sustainability of public transport services in cities is increasing day by day. is an important factor. The stability of public transport is important for the mobility of Tashkent residents, timely access to work, medical institutions or places of rest. Public transport, on the other hand, is a mode of transport that directly competes with private cars. One of the most important factors providing fast and high-quality service of passenger transport is its speed. Slow traffic speed is one of the main reasons preventing people from using public transport.*

Keywords*: passenger, passenger traffic, route, client, system, tariff, price, collection.*

Dunyodagi birinchi avtobus yo‘lagi 1940-yilda Chikagoda yaratilgan [1]. Yevropada birinchi avtobus yo‘laklari 1963-yilda Germaniyaning Gamburg shahrida tashkil etilgan bo‘lib, o‘sha paytda tramvay tizimi yopilib, avvalgi ajratilgan tramvay yo‘llari avtobus qatnovi uchun o‘zgartirildi. Tez orada


Germaniyaning boshqa yirik shaharlari paydo bo‘ldi va 1970-yilda avtobus yo‘laklarining o‘rnatilishi Germaniya avtomobil yo‘llarining kodeksida rasmiy ravishda tasdiqlandi. Boshqa mamlakatlardan kelgan ko‘plab mutaxassislar (1-bo‘lib Yaponiya) Germaniya misolini o‘rganishdi va shunga o‘xshash yechimlarni qo‘llashdi. 1964-yil 15-yanvarda Fransiyadagi birinchi avtobus bo‘lagi Parijdagi du Luvr bo‘ylab belgilandi.

1968-yil 26-fevralda Londonning birinchi avtobus bo‘lagi Voksxall ko‘prigida foydalanishga topshirildi.




1-rasm. Vokzal ko‘prigi

Ko‘chalarni kengaytirib ularning quvvatini oshirsa ham muammo hal qilinmaydi. Sababi, hech bir shahar hech qachon ko‘proq joy ajratib muammoni hal qilmagan.




2-rasm. Samarasiz yechim.




3-rasm. Samarali yechim

Statistika shuni ko‘rsatadiki, avtobus yo‘laklari qurilishi Birmingem (Buyuk Britaniya) jamoat transportidan foydalanuvchilar sonini 30% ga oshirdi [4].

ITS - transport vositalarida va infratuzilmasida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo‘llash, transportda samaradorlik, xavfsizlik va atrof-muhitga ta'sirini sezilarli darajada yaxshilaydigan vositalar to‘plamini taqdim etish. So‘nggi yillarda avtotransport signallari ustunligini amalga oshirish uchun turli xil ITS texnologiyalari qo‘llanilmoqda. Avtobuslarning ustuvorligi uchun turli xil ITS texnologiyalaridan foydalanishning afzalliklari va kamchiliklarini o‘rganamiz.



4-rasm. Yevropa shaharlariga jamoat transporti yo‘laklarining kirib kelishi



5-rasm. Jamoat transporti ish tezligining dinamikasi (km/soat)

Avtobuslarning svetaforlardagi ustuvorligi, ustunlik oldindan belgilangan yoki dinamik tarzda berilishiga qarab odatda, passiv va faol tizimlarga bo‘linadi. Passiv tizimlarda avtobusning ustuvorligi oldindan belgilanadi va o‘rnatiladi, uni transport vositasining haqiqiy oqimiga qarab o‘zgartirish mumkin emas. Faol tizimlarda ustuvorlik, chorrahaga yaqinlashayotgan avtobuslar yuborgan signallarga javoban beriladi. Svetaforlarda avtobuslarning ustuvorlik tizimlari quyidagi uchta toifaga bo‘lingan [7]:

a) Avtobusning adaptiv bo‘lmagan ustuvorligi: ustuvorlik passiv yo‘l bilan, avtobus yo‘llari va svetaforlar o‘rtasida oldindan belgilangan yashil to‘lqinlardan foydalanish orqali beriladi;

b) Detektorga asoslangan avtobus ustuvorligi: ustuvorlik detektorlarga asoslangan holda faol ravishda ta’minlanadi;

c) GPS asosidagi avtobus ustuvorligi: GPS texnologiyasidan foydalangan holda ustuvorlik faol tarzda beriladi.

Adaptiv bo‘lmagan avtobus ustuvorlik tizimlari. Avtobuslarning adaptiv bo‘lmagan ustuvorligi tarmoqdagi ba’zi uchastkalarda, avtobuslarni birinchi o‘ringa qo‘yadigan passiv choralarni o‘z ichiga oladi. Bu avtobus yo‘laklari hisoblanadi. Bunda avtobuslarning boshqa transport vositalari bilan konfliktlari yuzaga kelmaydi, natijada tezligi va xavfsizligi yaxshilanadi.




6-rasm. PTV Vissim dasturida avtobuslar uchun ajratilgan yo‘l


Avtobus yo‘laklari doimiy yoki yarim kunlik bo‘lishi mumkin. Odatda ertalabki pik vaqtlarida foydalaniladi, kunning qolgan qismida esa odatiy yo‘l sifatida ishlatilishi ham mumkin.

Harakat yo‘nalishining biror qismida avtobus yo‘lini qo‘llab, uni tahlil qilish maqsadida shahardagi avtobus yo‘nalishlaridan birini tanlab olamiz. Bu tanlovni harakat oqimi yuqori, avtobuslar qatnovi ko‘p bo‘lishi kabi talablarga asoslanib amalga oshiramiz. Amir Temur ko‘chasinining Shahrisabz va Osiyo ko‘chalari bilan keshishmasi oralig‘ini tanlab oldik.

Shu ko‘chadan o‘tadigan, ko‘p yo‘lovchilar foydalanadigan 93-sonli avtobus yo‘nalishi tanlab olindi. Harakat ko‘rsatkichlarini tahlil qilish uchun, 93A-yo‘nalishining 15.02.2021 kunidagi GPS ma’lumotlari olindi.



7-rasm. Amir Temur ko‘chasinining Shahrisabz va Osiyo ko‘chalari bilan keshishmasi oralig‘i



8-rasm. 93A-yo‘nalishining GPS dagi ko‘rinishi


Kechki tig‘iz va odatiy vaqtdagi avtobus harakatining 2 ta reysini tahlil qilamiz. Yunusobod mavzesi 9-daha ASHB ni - A, Qo‘yliq1- mavzesi 18 ASHB ni - B deb belgilaymiz. 93A-yo‘nalishining A dan B ga harakatlanish vaqti 59 minut deb belgilangan ekan. Odatiy vaqtda avtobus A dan harakatni 5:54:17 da boshlab, B ga 6:52:43 da yetib kelgan. Masofani 0:58:26 da bosib o‘tgan va belgilangan vaqtda kelgan.

Uning harakat davomidagi o‘rtacha tezligi *26,6 km/soat* ga teng bo‘lgan.

$$v_{o\prime r} = \frac{v_1+v_2+..v_n}{n}$$

Harakat tig‘iz bo‘lgan vaqtda 93-Avtobus harakatni 17:45:00 da boshlab, oxirgi avtobus shoh bekatiga 19:17:08 da kelgan. Yo‘nalishni bosib o‘tish uchun 1:32:08 vaqt sarflagan va belgilangan vaqtdan yarim soat kechikkan.

Pik vaqtidagi o‘rtacha tezligi 18,3 km/soat ga teng bo‘lgan.




9-rasm. Odatiy vaqtda tezlikni vaqtga bog‘liq o‘zgarishi



10-rasm. Harakat tig‘iz vaqtda tezlikning vaqtga bog‘liq o‘zgarishi

GPS ma’lumotlaridan foydalangan holda, harakat tig‘iz bo‘lgan va bo‘lmagan holatlaridagi A.Temur ko‘chasinining Shahrisabz va Osiyo ko‘chalari bilan keshishmasi oralig‘idagi qismini ko‘rib chiqamiz. Belgilangan uchastkaga avtobusning kirib kelish va chiqib ketishidagi vaqtlarini topib, shu vaqt oralig‘idagi o‘rtacha tezliklarini ikkala holat uchun ham topamiz. Avtobus o‘rganilayotgan yo‘lni odatiy vaqtda 25,9 km/h o‘rtacha tezlik bilan, harakat oqimi ko‘p bo‘lgan vaqtda 16,2 km/h o‘rtacha tezlik bilan o‘tgan. Barcha o‘rtacha tezliklarni bitta grafikda keltiramiz.



11-rasm. O‘rtacha tezliklarni o‘zgarishi

Grafikdan xulosa qilsak, odatiy vaqtda o‘rganilayotgan uchastkaning o‘rtacha tezligi yo‘nalishning o‘rtacha tezligiga deyarli teng, harakat tig‘iz vaqtda esa yo‘nalishning ham o‘rganilayotgan uchastkaning ham o‘rtacha tezligi past. Shu sababdan avtobus yo‘lagini faqat pik vaqtlarida qo‘llash, qolgan vaqtlarda esa yo‘lning umumiy foydalanishda bo‘lishi to‘g‘ri bo‘ladi.

Xulosa

Tahlillar asosida quyidagilarni xulosa qilish mumkin: - Shaharlarda AVL tizimlaridan foydalanish avtobuslarni samaradorlikka qarab moslashishiga, bu esa tirbandlik xavfini kamaytirishga yordam beradi. - Biror toifadagi arxitekturani tanlashimiz, tizimdan qanday hududda foydalanishimizga va yo‘lning harakat oqimiga bog‘liq, bunda aloqa talablari va tizim narxi ham muhimdir. - Avtobuslar va harakatning boshqa ishtirokchilari uchun ITS harakat xavfsizligini ta‟minlashga imkon yaratadi va avtobuslarni faqat kerak bo‘lganda birinchi o‘ringa qo‘yadi, bu esa uning samaradorligi va jozibadorligini oshiradi. - Avtobus yo‘laklari avtobuslarning to‘xtovsiz oqimini ta‟minlaydi, xavfsizligini oshiradi. Lekin harakatning boshqa ishtirokchilariga salbiy ta‟sirini hamda qaysi vaqtlarda qo‟llanganda o‟zini oqlashini ham hisobga olish kerak. - GPS ga asoslangan tizim yuqori moslashuvchanlikka ega bo‟lishiga qaramasdan, ba‟zi sun‟iy yo‘ldosh yomon qamrab olingan hududlarda joylashuv xatolarini keltirib chiqarishi mumkin, bu esa qo‘shimcha vositalar bilan to‘ldirilishni talab qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Toshkent shahar yo‘lovchi transporti tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi qarori.
2. Тўхтабаев М. А., Мамиров У. Х., Турғунов З. Х. Жамоат транспортида йўловчи ташиш самарадорлиги //Механика и технология. – 2022. – №. Спецвыпуск 2. – С. 62-67.
3. Normirzayev A.R., Dadabayev D.R., Egamberdiyev B.S. Аналйсис оф пассенгер транспортатион сйстем бй роутес. Образования и наука XXИ веке. 3 (13) 2021 y, 774-778 pg.
4. Normirzayev A.R., Egamberdiyev B.S., Mekhmonaliyev I. Development of transportation system control system using geoformation technologies. Международный научно-практическом журнал «Экономика и социум» 84 (5) 2021 y.

5. M.Pataxanova. Azimov I,Sh.Yoqubbekov. Shahar jamoat transporti tizimining bugungi kundagi holati. “Fan va Innovatsiya-2022: Rivojlanish va ustuvir yo‘nalishlari” NamMQI-2022. 168-170 betlar.
6. N.Nozimov, I.Azimov, Jamoat transportida elektron to‘lov (ATTO) kartalari orqali to‘lovning joriy etilishi “Fan va Innovatsiya-2022: Rivojlanish va ustuvir yo‘nalishlari” NamMQI-2022. 85-88 betlar.
7. A.Normirzaev A.Ustaboev. Tirbandlik sabablari va uni oldini olish. NTJ NamITI 5 (1) 2020 y. 292-296 betlar.
8. Rustamov I.A., Normirzaev A.R. Влияние автомобильного транспорта на окружающую среду и методы их снижение. Ssues of modern education in the condition of globalization. Collection international scientific conference. Tom 2 . 2017 god. 115-121 st
9. Soliev, H. M., Tukhtabayev, M. A., Xidirov, U. X., & Azimov, I. S. (2022, December). Course stability models of a wide-width tractor unit. In IOP Conference Series: Earth and Environmental Science (Vol. 1112, No. 1, p. 012033).
10. Саттивалдиев, Б., Қутлимуратов, Қ. Азимов, И. (2021). ШАҲАР Жамоат транспорти фаолиятини бошқаришда интеллектуал транспорт тизимлардан фойдаланиш. Scientific progress, 2(1), 1144-1148.
11. Akhmadjanovich M. T. X. et al. Namangan Shahrining Navoi va Qo‘qon chorrahasidagi tirbandlik //Механика и технология. – 2022. – Т. 2. – №. 7. – С. 87-92.
12. Raximberdiyevich N. A., Akhmadjanovich T. X. Namangan shahrida veloyo‘lak tashkil etishning samarasi //Механика и технология. – 2022. – Т. 2. – №. 7. – С. 80-97.

Azimova E. A.
talaba
biznes va moliya fakulteti
Millat umidi universiteti

IJTIMOIY TARMOQLAR ORQALI BREND IMIJINI SHAKLLANTIRISH: INFLUENCER MARKETING MISOLIDA

Annotatsiya: *Ushbu maqolada ijtimoiy tarmoqlar orqali brend imijini shakllantirish jarayonida influencer marketingning o‘rni va ahamiyati tahlil qilinadi. Brendning raqamli muhitdagi nufuzi, iste’molchilar ishonchi hamda brend bilan mijoz o‘rtasidagi muloqotni mustahkamlashda ijtimoiy tarmoqlarning strategik roli yoritilgan. Tadqiqotda foydalanuvchi ishonchini shakllantirish, brend tan olinishi va sotuv samaradorligiga influencerlar faoliyatining ta’siri ilmiy jihatdan asoslab beriladi.*

Kalit so‘zlar: *brend imiji, ijtimoiy tarmoqlar, influencer marketing, raqamli kommunikatsiya, iste’molchi ishonchi, marketing strategiyasi.*

Azimova E. A.
student
faculty of business and finance
Millat Umidi University

BUILDING BRAND IMAGE THROUGH SOCIAL NETWORKS: THE EXAMPLE OF INFLUENCER MARKETING

Abstract: *This article analyzes the role and importance of influencer marketing in the process of building a brand image through social networks. The strategic role of social networks in strengthening the brand's authority in the digital environment, consumer trust, and brand-customer communication is highlighted. The study scientifically substantiates the impact of influencer activities on building user trust, brand recognition, and sales performance.*

Keywords: *brand image, social networks, influencer marketing, digital communication, consumer trust, marketing strategy.*

Kirish

Zamonaviy raqamli iqtisodiyot sharoitida ijtimoiy tarmoqlar inson hayotining ajralmas qismiga aylangan. Facebook, Instagram, TikTok, YouTube, Telegram va boshqa platformalar endilikda nafaqat aloqa vositasi, balki marketing va brend kommunikatsiyasi uchun muhim maydon sifatida qaralmoqda. Raqamli texnologiyalarning tez sur’atlarda rivojlanishi natijasida kompaniyalar o‘z auditoriyasi bilan bevosita muloqot o‘rnatish, ularning fikr-mulohazalarini o‘rganish va imijini shakllantirish imkoniyatiga ega bo‘ldi.

Shu jarayonda influencer marketing — ya’ni ijtimoiy tarmoqlarda katta auditoriyaga ega bo‘lgan shaxslar (blogerlar, mutaxassislar, mashhurlar) orqali reklama va brend targ‘ibotini olib borish — eng samarali vositalardan biriga aylandi. Influencerlar o‘z obunachilari bilan doimiy muloqotda bo‘lganliklari sababli, ular iste’molchilarning ishonchini shakllantiradi, brend haqidagi tasavvurlarni boshqaradi va qaror qabul qilish jarayoniga ta’sir ko‘rsatadi.

Brend imiji – bu iste’molchining ongida shakllangan kompaniya yoki mahsulot haqidagi ijobiy yoki salbiy fikrlar majmuidir. An’anaviy reklama shakllaridan farqli o‘laroq, ijtimoiy tarmoqlardagi influencer marketing tabiiy, samimiy va ishonchli kommunikatsiya vositasi sifatida e’tirof etiladi. Shu bois, bugungi kunda korxonalar va tashkilotlar o‘z brend strategiyalarida influencerlar bilan hamkorlikni markaziy o‘ringa qo‘ymoqda.

"Influencer marketingining samaradorligi va uning iste'molchi xulq-atvoriga ta'siri" mavzusi D. Braun, S. Fiorella, B.Sharp, A.Kim, C.Venz, K.Keller, V.Mangold kabi taqqiqotchi olimlar tomonidan keng ko'lamli o'rganilgan.

2013-yilda xorijiy mualliflar D. Braun va S. Fiorella ta'sir qiluvchi marketingni “maqsadli auditoriya tinglaydigan, hurmat qiladigan va o'rnak oladigan mashhur va mashhur shaxslarning og'zi orqali maqsadli auditoriyaga murojaat qilish vositasi” deb ta'riflaganlar.[1]

Byron Sharpning "Brendlar qanday o'sadi" (How Brands Grow) kitobi marketing sohasida an'anaviy qarashlarga qarshi chiqadigan va dalillarga asoslangan marketing tamoyillarini ilgari suradigan nufuzli asar hisoblanadi. Kitob marketing mutaxassislariga brendlarni qanday qilib samaraliroq qurish va o'stirish haqida yangi tushunchalar beradi. Sharp brendning o'sishida marketingning rolini tahlil qiladi va raqamli marketingning iste'molchilar xarid qilish xulq-atvoriga ta'sirini o'rganadi.[2]

O'zbekistonda J.Ergashxodjayeva[3], Sh. Narkulova [5], I.Ibragimov [4], D.Xolmamatov,

B. Musayev, S.Boyjigitov [11], M.Raimova [9] va boshqalar iste’molchi xulq-atvoriga ta’sir

etuvchi omillarni o’rganganlar.

Tahlil va natijalar

Ta'sirli (influencer) marketing - bu keng sodiq auditoriyaga ega bo'lgan va unga katta ta'sir ko'rsatishga qodir bo'lgan bloggerlar, taniqli shaxslar, nish ekspertlari va boshqa fikr yetakchilari bilan hamkorlikka asoslangan brendlar va ularning mahsulotlarini bozorda ilgari surish strategiyalaridan biridir.

Influencer marketing - bu fikr yetakchilari orqali mahsulot yoki xizmatlarni ilgari surishdir. Ta'sir marketingi ta'sir qiluvchi marketing deb ham ataladi, bu tushunchalar bir xil. Fikrlar yetakchilari yordamida targ‘ibot Internet-marketingning asosiy vositalaridan biridir. Ba'zi korxonalar uchun ta'sirchan marketing SMM, elektron pochta marketingi, maqsadli va kontekstli reklama yoki boshqa kanallarga qaraganda yaxshiroq ishlaydi.

Fikr yetakchilari – muxlislari, obunachilari, tarafdorlari va o‘quvchilari ko‘p bo‘lgan odamlardir. Ular taniqli shaxslar - aktyorlar va sportchilar, shuningdek,

ijtimoiy tarmoqlardagi akkauntlari tufayli mashhur bo'lgan bloggerlar bo'lishi mumkin. Kichik kompaniyalar ko'pincha bloggerlar bilan ishlaydi, federal brendlar esa mashhurlar bilan reklama qilish imkoniyatiga ega.

Skillbox Media-da qanday turdagi ta'sir o'tkazuvchilar mavjudligi va korxonalar ular bilan qanday ishlashini batafsil tushuntirib beradigan qo'llanma mavjud.

Influencerlar ko'pincha o'z auditoriyasining kattaligiga qarab toifalarga bo'linadi. Qamrab olish doirasiga qarab, ta'sir qiluvchilarning quyidagi turlari ajratiladi:

- Mega-influencerlar 1 milliondan ortiq obunachilar auditoriyasiga ega "yulduzlar". Brend xabardorligini oshirish uchun foydalaniladi. Odatda, bu yuqori narx yorlig'i, past jalb qilish, ammo halo effekti ta'minlanadi.
- Makro-ta'sir qiluvchilar 100 000 dan 1 milliongacha obunachilarga ega bo'lgan etakchilardir. Yuqori maqsadga erishish va sifatli kontent bilan tavsiflanadi.
Kalit so'zlar: *uzluksiz ta'lim, malakaviy ish, kompetensiya, pedagogik texnologiya, amaliyot, innovatsion metodlar, samaradorlik.*

Inamov D. D., PhD.,
associate professor
department of logistics
Namangan Institute of Engineering and Technology

THE EFFECTIVENESS OF QUALIFICATION WORKS IN THE CONTINUOUS EDUCATION PROCESS

Annotation: *This article analyzes the role of qualification works in the continuous education process and their importance in developing the competencies of pupils and students. It describes the principles of effectively organizing qualification works, pedagogical approaches, and mechanisms for linking theoretical knowledge with practical application. In addition, recommendations are provided for improving the quality of qualification works through the use of innovative methods.*

Keywords: *continuous education, qualification work, competence, pedagogical technology, practice, innovative methods, effectiveness.*

Kirish

Oliy ta'lim va kasb-hunar ta'limi o'rtasidagi uzviylikni ta'minlash muammosi nazariy va amaliy jihatdan yetarli darajada hal etilmaganligining asosiy sababi, umumiy o'rta, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi va oliy ta'lim tizimida o'qitishda didaktikaning izchillik prinsipiga amal qilmaslik va o'qitishning turli bosqichlari o'rtasidagi uzviylikni e'tiborga olmaslikdadir.

O'qitishda uzviylik bu didaktik prinsip bo'lib, u ta'lim mazmunini ifodalovchi o'quv rejalari, dasturlar, darsliklarda o'quv materiallarining bir-biri bilan mantiqan bog'liq bo'lishini, oldin o'zlashtirilgan bilimlarga tayangan holda

keyingilarini o‘zlashtirishga tayyorlashni, bo‘lajak mutaxassislarda ta’limning har bir bosqichida ma’lum darajada bilim, ko‘nikma va malakalarni shakllantirishning talab qiluvchi prinsipidir.

Adabiyotlar tahlili

Uzluksiz ta’lim konsepsiyasi bo‘yicha olib borilgan ilmiy tadqiqotlar ta’limning barcha bosqichlarida shaxsning doimiy rivojlanishini ta’minlashga qaratilganligini ko‘rsatadi. Xorijiy hamda yurtimiz pedagog olimlari J.Dewey, B.Bloom, N.Saidahmedov, R.Ishmuhamedov va boshqalar, uzluksiz ta’lim tizimini bilim, ko‘nikma va kompetensiyalarni izchil rivojlantirishga xizmat qiluvchi yagona jarayon sifatida ta’riflaydilar.

Malakaviy ishlarning samaradorligi masalasida tadqiqotchilar quyidagi jihatlarni alohida ta’kidlaydilar:

Amaliyotga yo‘naltirilganlik Adabiyotlarda malakaviy ishlar nazariy bilimlarni amaliy muammolarni hal qilishga yo‘naltirishi zarurligi qayd etiladi (N.Azizxo‘jayeva, P.P.Blonskiy). Bunda talabaning kasbiy kompetensiyalarini shakllantirish asosiy o‘rin tutadi.

Innovatsion yondashuvlar Zamonaviy tadqiqotlar (I.Yuldoshev, R.Ishmuhamedov) ta’limda interfaol metodlar, AKT vositalari, loyiha asosida o‘qitish malakaviy ishlarning sifatini oshirishini asoslaydi. Innovatsion texnologiyalar qo‘llanilgan ishlar talabaning mustaqil fikrlashi va ijodkorligini rivojlantiradi.

Tadqiqot metodologiyasining to‘g‘ri qo‘llanilishi Malakaviy ishlarning muvaffaqiyati ko‘p jihatdan ilmiy metodlarning to‘g‘ri tanlanishiga bog‘liq. Pedagogik tadqiqotlar (Y.Xo‘jayev, L.Kulyutaeva) empirik ma’lumotlar yig‘ish, tahlil qilish, tajriba-sinov ishlarini puxta tashkil etishning ahamiyatini ta’kidlaydi.

O‘quvchi/talabaning mustaqil ta’limi Adabiyotlarda aytilishicha, uzluksiz ta’lim sharoitida malakaviy ishlar o‘quvchining yoki talabaning mustaqil izlanish ko‘nikmalarini shakllantirishda muhim vositadir (A.Sa’diev, A.Jalolov). Mustaqillik darajasi oshgan sari ishning samaradorligi ham ortadi.

Baholash mexanizmlarining takomillashuvi Tadqiqotchilar malakaviy ishlarni baholashda kompetensiyaviy yondashuv qo‘llanilishi kerakligini, an’anaviy baholash mezonlari esa to‘liq natija bermasligini ta’kidlashadi. Zamonaviy adabiyotlarda portfel, rubrika va loyiha baholash usullari samarali deb topilgan

Tadqiqot metodologiyasi

Kasb-hunar ta’limi o‘quv muassasalarining oldingi o‘quv bosqichi – umumiy o‘rta ta’lim maktablari va keyingi pog‘onada turgan oliy ta’lim muassasalari bilan uzluksiz aloqalari orqali ta’lim tizimida uzviylik va uzluksizlikni ta’minlash muhim vazifalardan biridir. Uzviylik – umumpedagogik prinsip bo‘lib, ta’lim va tarbiyaning har bir pog‘onasi, bosqichi, qirralari orasida o‘zaro bog‘liqlikni ta’minlashni, har bir oldingi pog‘onada, bosqichlarda o‘zlashtirilgan tushuncha, tassavvurlar, ko‘nikma va malakalarni kengaytirib, chuqurlashtirib borish natijasida ta’lim va tarbiyada sifatli o‘zgarishlarga olib kelishni taqazo etadi. Shuning uchun o‘quv-tarbiyaviy jarayonni amalga

oshirishda ma’lum nomutanosibliklar mavjud. Ko‘p qo‘llanmalarda, maqolalarda uzviylik va izchillikni ta’minlash haqida deklarativ xarakterdagi shiorlar bor, ammo, uzviylikni qanday ta’minlash kerak, bunga asos nima bo‘ladi, uzviylikni ta’lim mazmunining qaysi predmetlari, bloklari, bosqichlari yoki boshqa hollarda ta’minlanishi mumkinligi haqida ko‘rsatmalar mavjud emas. Shundan kelib chiqqan holda uzviylikni ta’minlashning imkoniyatlarini aniqlash, asoslash uchun chuqur ilmiy izlanish va tahlil ishlarini olib borish va amalga oshirish zarur.

Uzluksiz ta’lim tizimida uzviylikni ta’minlashdan asosiy maqsad – bo‘lajak mutaxassislarni tayyorlash sifatini oshirish, ta’lim va tarbiya jarayonining tarkibiy qismlari orasidagi bog‘lanishlarni muvofiqlashtirish, bilim, ko‘nikma va malakalarni ta’lim standartlari talablariga muvofiqligini ta’minlash hamda mutaxassislarda raqobatbardoshlik kasbiy sifatlarini shakllantirishdan iborat.

Ma’lumki, oliy ta’lim muassasa oliy ta’lim muassasalarida o‘qitish jarayoni samaradorligining muhim ko‘rsatkichi bo‘lajak mutaxassislarning bilim va ko‘nikmalarini nazorat qilish va baholash jarayonida aniqlanadigan ko‘rsatkich o‘quv maqsadlariga erishish darajasi hisoblanadi. Biroq, bilimlarni nazorat qilish va baholashning odatdagi metodikasi o‘qitishning pirovard natijalarini baholash masalasini xal etmaydi.

Bahoning ob’ektivligiga talabaning hulqi, o‘zini tuta bilish uslubi, pedagog va talabaning kommunikativ sifatlari va boshqa ko‘pgina omillar beixtiyor ta’sir qiladi. Bunda qo‘yiladigan baho oldin javob bergan talabalarning DAK a’zolarida qoldirgan taassurotiga bog‘liq bo‘ladi. Jumladan, BMI natijalari bilan o‘rtacha ishtirok etish undan oldin qatnashgan a’lo darajadagi chiqish oldida yana ham yomon ko‘rinishga ega bo‘lishi va aksincha oldingi chiqish qoniqarsiz bo‘lgan bo‘lsa, biroz yutuqqa erishishi mumkin. Bahoning ob’ektivligiga shuningdek javob beruvchining nutqi ham ta’sir ko‘rsatadi. Ilmiyga o‘xshash tildan, maxsus atamalardan foydalanib u DAK a’zolarining savollariga to‘g‘ri javob berishdan qochib, chalg‘ituvchi mulohazalardan foydalanadi va ba’zida xoxlagan natijasiga erishadi.

Natijalar va ularning tahlili

Baholarning sub’ektivligi, nazorat qilish natijalarining qayta tiklanmasligi ta’limda realistik va ta’sirchan qarorlarni qabul qilish mumkin emasligiga olib keladi. Moskvada 1995 yilda bo‘lib o‘tgan “Turli o‘qitish bosqichlarida va OTM ni akkretizatsiyadan o‘tkazishda talabalarning bilimlarini nazorat qilishning zamonaviy shakl va metodlari” mavzusidagi konferensiya–seminarda baholash jarayonining ob’ektivligi va haqqoniyligini oshirishning quyidagi ikki asosiy yo‘nalishi tavsiya etildi:

1) o‘lchash sifatini takomillashtirish (baholashga ekspertlarni jalb qilish, baholash algoritmlarini ishlab chiqish, kvalimetrik shkalalarni qo‘llash va h.k.);

2) bilimlarni test yordamida nazorat qilishga o‘tish.

Tahlil yo‘nalishi	Holat / Jarayon	Samaradorlik ko‘rsatkichlari	Muammolar	Takliflar
Rejalashtirish	Malakaviy ish mavzulari ta’lim bosqichlariga mos tanlanadi	Mavzularning 80–90% ixtisoslikka mos	Ba’zan mavzular yangilikdan uzoq	Mavzularni bozor ehtiyoji asosida yangilash
Ilmiy-metodik rahbarlik	Rahbar tomonidan muntazam maslahat beriladi	Talabaning ilmiy kompetensiyasi oshadi	Rahbar–talaba uchrashuvlari yetarli emas	Uchrashuv jadvalini raqamlashtirish, monitoring
Tadqiqot jarayoni	Amaliy va nazariy izlanishlar olib boriladi	Talabalar real kasbiy vaziyatlarni o‘rganadi	Ma’lumot olishda qiyinchiliklar	Hamkor tashkilotlar bilan memorandumlar kuchaytirish
Ilmiy natijalar	Xulosa va takliflar ishlab chiqiladi	70–80% loyihalar amaliyotga joriy etish mumkin	Ba’zi takliflar umumiy bo‘lib qoladi	Analitik fikrlashni rivojlantirish bo‘yicha trening
Himoya jarayoni	Komissiya oldida taqdimot qilinadi	Talabalarning nutq va taqdimot ko‘nikmalari oshadi	Stress sababli natija pasayishi mumkin	Himoya oldi sinovlarini joriy qilish
Umumiy samaradorlik	Jarayon bosqichma-bosqich amalga oshiriladi	Malakaviy ishlar ta’lim sifatini oshiradi	Jarayonning yagona standartga tushmasligi	Metodik qo‘llanmalar yaratish, standartlashtirish

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki yuqorida bayon qilinganlardan kelib chiqqan holda BMIni baholash jarayoniga quyidagi talablar tizimini kiritish mumkin: validlik–malaka tavsiflarida va malaka talablarida mavjud bo‘lgan o‘qitishning pirovard maqsadlariga erishish darajasi va kasb faoliyatining to‘liq tarkibdagi masalalarini baholashga yo‘naltirilganlik; ishonchlilik – baholarning haqqoniyligi, ob’ektivligi; bahoning to‘liqligi – baholash predmetlarining to‘liqligi: kasb faoliyatining to‘liq tarkibdagi xossalarida tizimini baholashga yo‘naltirilganlik; kompetensiyalarni baholash vositalari bilan qamrab olish, bu vazifalarga mos keladigan barcha MT larni hisobga olish; texnologiklik–baholovchi vositalar va texnologiyalardan foydalanish, baholashni qulayligi, tizimdagi baholashning axborotlari qulayligi; tejamkorlik; bahoning zamonaviy darajasiga (madaniyatiga) mosligi–vatanimiz va chet el baholash vositalari va baholash texnologiyasi, ularning tarkibi, tuzilmasi va mazmunining eng yaxshi namunalari bilan taqqoslab baholanadi. Bular bilan bir qatorda baholashning majmuaviyligini ta’minlash talabiga ham rioya qilish maqsadga muvofiq.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. “Kadrlar tayyorlash va kasb-hunar ta’limi tizimini takomillashtirish masalalari yuzasidan berilgan topshiriqlar”. Prezident topshirig‘i. – T.: 2023. – 12 b.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. “Oliy va kasb-hunar ta’limi sifatini oshirish hamda davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish choralari to‘g‘risida”. Prezident topshirig‘i. – T.: 2025. – 14 b.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. “Oliy va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari haqida”. Farmon. – T.: 2025. – 22 b.
4. Коломиес Б.К. Комплексная отсенка качества подготовки выпускников вузов. Методические рекомендатсии. // “Квалиметрия в образовании: методология, методика, практика”. Материалы XИ Симпозиума. - М.: Исследовательский сентр проблем качества подготовки спесиалистов, 2006. —46с.
5. Инамов Д.Д. Квалиметрический подход как средство отсенки качества подготовки будущих педагогов профессионалного образования “Образование через всю жизн” непрерывное образование в интересах устойчивого развития. Материалы 12-й международной конференции. Выпуск 12. Част ИИ. Санкт-Петербург. 2014. с.93-95.
6. Инамов Д.Д. Квалиметрик ёндашув воситасида бўлажак мутахассисларни тайёрлашни бошқариш самарадорлигини баҳолаш. “ЎзМУ хабарлари” М.Улуғбек номидаги Ўзбекистон миллий университетининг илмий журнали. 2016 й.

Islamova Z. B.
o‘qituvchisi
tibbiy biologiya va genetika kafedrasi
SamDTU
Xolmurodova G. H.
talaba
Davolash ishi fakulteti
Qo'shoqova G. A.
talaba
Davolash ishi fakulteti
SamDTU

METABOLIZM JARAYONIDA ENERGIYANING HOSIL BO‘LISHI VA SARFLANISHI

Annotatsiya: *Ushbu maqolada metabolizm jarayonlarida energiya hosil bo‘lishi va sarflanishining biologik va biokimyoviy mexanizmlari ilmiy nuqtai nazardan ko‘rib chiqiladi. Hujayra darajasida sodir bo‘ladigan asosiy reaksiyalar, ularning energetik almashinuvdagi roli va ATP molekulasining markaziy energiya tashuvchisi sifatidagi funksiyasi tahlil qilinadi. Shuningdek, katabolizm va anabolizm o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik hamda bu jarayonlarni ta’minlovchi fermentativ tizimlarning ahamiyati yoritiladi. Tadqiqot natijalari metabolik jarayonlarning organizmning hayotiy faoliyatini qo‘llab-quvvatlashdagi o‘rnini chuqur anglashga yordam beradi.*

Kalit so‘zlar: *metabolizm, energiya almashinuvi, ATP, katabolizm, anabolizm, hujayra energetikasi.*

Islamova Z. B.
teacher
department of medical biology and genetics
SamSMU
Kholmurodova G. H.
student
faculty of medicine
Qo'shoqova G. A.
student
faculty of medicine
SamSMU
Samarkand, Uzbekistan

ENERGY PRODUCTION AND EXPENDITURE IN METABOLIC PROCESSES

Annotation: *This research article examines the biological and biochemical mechanisms of energy production and expenditure within metabolic processes. It*

provides a scientific analysis of key cellular reactions, their role in energy conversion, and the central function of ATP as the primary energy carrier in living organisms. The interrelationship between catabolism and anabolism, as well as the enzymatic systems that regulate these processes, is thoroughly explored. The findings contribute to a deeper understanding of how metabolic pathways sustain vital physiological functions, maintain energy balance, and ensure the structural and functional integrity of cells.

Keywords: *metabolism, energy metabolism, ATP, catabolism, anabolism, cellular energetics, energy balance*

Kirish

Moddalar almashinuvi (metabolizm) — organizmda kechuvchi barcha kimyoviy jarayonlarning majmui bo‘lib, hayotiy faoliyatni qo‘llab-quvvatlaydi. Ushbu jarayonlar nafaqat energiya ishlab chiqarish, balki hujayralarning tiklanishi, o‘sishi, yangilanishi va muhitga moslashuvini ham ta’minlaydi. Metabolizmning asosiy ikki bo‘g‘ini — katabolizm va anabolizm — o‘zaro bir-birini to‘ldiradi: katabolik reaksiyalar energiya ajratadi, anabolik jarayonlar esa bu energiyani o‘zlashtiradi.

Organizmda zarur bo‘lgan energiya asosan uglevodlar, yog‘lar va oqsillar oksidlanishi natijasida hosil bo‘ladi. Ushbu oksidlovchi reaksiyalar ketma-ketligi natijasida ATP sintezlanadi, u barcha hayotiy jarayonlarni energiya bilan ta’minlovchi universal molekuladir.

Adabiyotlar tahlili

Biologikkimyo fanida metabolizmning molekulyar asoslari keng o‘rganilgan. Lehninger, Voet, Stryer kabi mualliflarning ilmiy ishlari metabolik yo‘llarning tuzilishi va funksional xususiyatlarini aniqlashda muhim o‘rin tutadi. Zamonaviy tadqiqotlar, xususan mitoxondrial nafas olish zanjiri, oksidlovchi fosforillanish va glyukoza almashinuvining tartibga solinishi, organizmdagi energiya muvozanati uchun asosiy faktorlar sifatida ko‘rib chiqiladi.

Energetik almashinuvning buzilishi metabolik sindrom, semirish, 2-tur qandli diabet kabi kasalliklarning shakllanishiga sabab bo‘lishi haqida ko‘plab ilmiy manbalarda ta’kidlab o‘tilgan. Shuningdek, gormonal boshqaruv — insulin, glukagon, katexolaminlar — metabolizmning markaziy regulyatorlaridan biri ekanligi ilmiy adabiyotlarda keng yoritilgan.

Materiallar va metodlar

Maqolani ishlab chiqishda quyidagi metodologik yondashuvlar qo‘llandi:

- metabolik jarayonlarga doir ilmiy manbalarni tahliliy solishtirish;
- hujayraviy nafas olishning bosqichlarini energetik nuqtai nazardan o‘rganish;
- fermentativ reaksiyalarni strukturaviy tahlil qilish;
- ATP sintezi va sarflanishining molekulyar mexanizmlarini izohlash.

Tadqiqot asosan ochiq ilmiy manbalar, darsliklar, biokimyo bo‘yicha xalqaro adabiyotlar va elektron ma’lumotlar bazalari asosida amalga oshirildi.

Natijalar

Katabolizm jarayonlari va energiya ajralishi-Uglevodlar, lipidlar va oqsillarning parchalanishi ketma-ket uch bosqichda kechadi:

Tayyorgarlik bosqichi. Ovqat hazm qilish fermentlari ta’sirida murakkab moddalar oddiy molekulalarga ajraladi:

- oqsillar → aminokislotalar,
- yog‘lar → glitserin va yog‘ kislotalari,
- polisaxaridlar→monosaxaridlar. Bu bosqichda ajralgan energiya issiqlik ko‘rinishida tarqaladi.

Anaerob glikoliz. Glukozaning kislorodsiz sharoitda parchalanishi natijasida 2 ATP, 2 sut kislotasi va suv hosil bo‘ladi. Bu jarayon tez, biroq samaradorligi past.

Aerob oksidlanish. Kislorod ishtirokida mitoxondriyalar darajasida sodir bo‘lib, 36–38 ATPgacha energiya hosil qiladi. Bu bosqich hujayraning asosiy energiya manbai hisoblanadi.

ATP – energetik almashinuvi markazi

ATP molekulasi o‘z tarkibidagi yuqori energiyali fosfat bog‘lari hisobiga hujayra faoliyatini ta’minlaydi. Uning parchalanishi (ATP → ADP + P) quyidagi jarayonlar uchun zarur energiyani beradi:

- mushak qisqarishi va harakat,
- nerv impulslarining o‘tishi,
- hujayralarning bo‘linishi,
- biosintetik jarayonlar (oqsil, lipid, nuklein kislotalar sintezi).

Anabolizm jarayonlari

Anabolizm murakkab molekulalarning sintezi bo‘lib, energiya sarfini talab qiladi. Unga quyidagilar kiradi:

- aminokislotalardan oqsillar sintezi,
- yog‘ kislotalaridan triglitseridlar hosil bo‘lishi,
- glukozadan glikogen yig‘ilishi.

Bu jarayonlar insulin, o‘sish gormoni va testosteron ta’sirida faollashadi.

Muhokama

Katabolik va anabolik jarayonlar o‘zaro chambarchas bog‘langan bo‘lib, organizmning energetik barqarorligini ta’minlaydi. Katabolizmda hosil bo‘lgan ATP anabolizm uchun zarur bo‘lsa, anabolizm hujayraning strukturaviy yaxlitligini saqlaydi. Energiya ishlab chiqarish va iste’moli o‘rtasidagi nomutanosiblik metabolik buzilishlarga, ortiqcha tana vazni, insulin rezistentligi va boshqa patologik holatlarga sabab bo‘ladi.

Organizm energiyani quyidagi yo‘nalishlarda sarflaydi:

1. Asosiy almashinuv — tana tinch holatda energiya sarfi.
2. Jismoniy faollik — harakat, mashqlar va kundalik faoliyat energiyasi.
3. Ovqatni hazm qilish energiyasi — oziq moddalarni parchalanishi va so‘rilishi uchun sarflanadi.

Energiya muvozanatining to‘g‘ri yo‘lga qo‘yilishi sog‘lom metabolik holatning asosiy sharti hisoblanadi.

Xulosa

Metabolizm — organizmning barcha hayotiy jarayonlarini boshqaruvchi murakkab kimyoviy tizimdir. Katabolizm tufayli oziq moddalar parchalanib hujayralar ATP ko‘rinishida energiya oladi. Anabolizm esa energiya sarfi hisobiga strukturaviy moddalarni sintezlaydi. Metabolik jarayonlarni to‘g‘ri tushunish sog‘lom ovqatlanish, jismoniy faollikni rejalashtirish va metabolizm bilan bog‘liq kasalliklarning oldini olishda muhim omil hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdullayev X., Xoliqulov A. Umumiy biologiya. Toshkent, 2019.
2. Zokirov A. va boshqalar. Biokimyo. Toshkent: Fan va texnologiya, 2018.
3. Xolikov P.X., Qurbonov A.Q., Daminov A.O., Tarinova M.V. Tibbiy biologiya va genetika. Toshkent, 2022.
4. Vakhidova A.M., Balayan E.V., & Islamova Z.B. Dystrophic changes in echinococcal cysts... 2017.
5. Islamova Z.B., Tursunpo‘latova D. Leishmaniasis – pathogenesis and classification. 2022.
6. WHO. Viral Diseases Overview. World Health Organization.
7. Вахидова, А. М., Балаян, Э. В., & Исламова, З. Б. (2017). Дистрофические Изменения В Эхинококковых Кистах, Осложненных Грибами Рода Aspergillus И Paecilomyces. In World Science: Problems And Innovations (pp. 298-302).
8. Bustonovna, I. Z. (2022). REASONABLE USE OF MEDICINAL PLANTS. Literature review Part 2. Asian journal of pharmaceutical and biological research, 11(2).
9. Bustonovna, I. Z. (2022). Studying the biology of biebersteinia multifida DC. Thematics Journal of Education, 7(4).
10. Исламова, З. Б., & Туракулов, Э. М. (2022). ЛЕЙШМАНИОЗЫ-ПАТОГЕНЕЗ И КЛАССИФИКАЦИЯ. In European Scientific Conference (pp. 178-180).
11. Вахидова, А. М., Балаян, Э. В., Исламова, З. Б., Мамурова, Г. Н., & Джуманова, Н. Э. (2014). ИНФЕКЦИОННО-ТОКСИЧЕСКИЕ КАРДИОПАТИИ И МИОКАРДИТ, ПОЛУЧЕННЫЕ ПРИ ЭКСПЕРИМЕНТАЛЬНОМ ЗАРАЖЕНИИ МЫШАТ ЭХИНОКОККОЗОМ, ЦЕНУРОЗОМ, ЦИСТИЦЕРКОЗОМ И ПЕЦИЛОМИКОЗОМ. Проблемы биологии и медицины, (3), 79.
12. Nazirova, S., & Islamova, Z. B. (2023). About mythopathic diseases. In Academic International Conference on Multi-Disciplinary Studies and Education (Vol. 1, No. 7, pp. 61-63).
13. Абдурафикова, Р. А., Усманова , Г. А., & Исламова, З. Б. (2024). ЛЕКАРСТВЕННЫЕ РАСТЕНИЯ, ИСПОЛЬЗУЕМЫЕ В НАРОДНОЙ МЕДИЦИНЕ. Innovative Development in Educational Activities, 3(4), 133–137. Retrieved from https://openidea.uz/index.php/idea/article/view/2216
14. Akramova , F. B., & Islamova, Z. B. (2024). BOLALAR VA KATTALARDA GIDROSEFALIYA KASALLIGI, DIAGNOSTIKASI, DAVOLASH

USULLARI. Innovative Development in Educational Activities, 3(4), 89–93. Retrieved from https://openidea.uz/index.php/idea/article/view/2208
15. Tursunpo‘latova , D., & Islamova, Z. B. (2024). ERTA QARISH – PROGERIYA KAMDAN KAM UCHRAYDIGAN GENETIK KASALLIK. Innovative Development in Educational Activities, 3(4), 106–110. Retrieved from https://openidea.uz/index.php/idea/article/view/2211
16. Bustonovna, I. Z., Davronovich, A. D., Muhammedjanovich, M. S., & Normuratovna, M. G. (2022). The significance of the nature of nucleic acids in the formation of productivity signs.
17. Aktam o’g’li, Rabbonayev Axmadjon, and Islamova Zebiniso Bustonovna. "IRSIY KASALLIKLAR-DAUN SINDROMI KELIB CHIQISHI, ASOSIY BELGILARI, TASHXISLASH." JOURNAL OF INNOVATIONS IN SCIENTIFIC AND EDUCATIONAL RESEARCH 7.3 (2024): 250-256.
18. Исламова, З. Б., & Примкулов, Ж. Р. (2024). МАКРОЭЛЕМЕНТНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЕ СОСТАВА BIEBERSTEINIA MULTIFIDA МЕТОДОМ ICP-MS. O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI, 3(28), 54-59.
19. Исламова, З. Б., & Абдурашидов, А. А. (2024). BIEBERSTEINIA MULTIFIDA-ЦЕННОЕ ЛЕКАРСТВЕННОЕ РАСТЕНИЕ НАРОДНОЙ МЕДИЦИНЫ. Новости образования: исследование в XXI веке, 2(19), 163-167.
20. Madilloyevich, A. M., & Bustonovna, I. Z. (2024). EXINOKOKKOZ-YUQISH YO’LLARI, DIAGNOSTIKA VA PROFILAKTIKASI. Новости образования: исследование в XXI веке, 2(19), 65-69.
21. Bustonovna, I. Z., & Murodullayevich, T. E. (2022). VIOLATION OF ONTOGENESIS IN THE PATHOLOGY OF HUMAN DEVELOPMENT. Thematics Journal of Education, 7(4).
22. Shermatov D. Biologiya: Metabolizm asoslari. Toshkent: TDIU, 2020.
23. Berg J., Tymoczko J., Stryer L. Biochemistry Online, 2019.
24. Voet D., Voet J. Biochemistry. Wiley, 2021.
25. Nelson D., Cox M. “Energy Transformations and ATP”. Journal of Molecular Biology, 2020.
26. O‘zbekiston Milliy kutubxonasi elektron bazasi – Biologiya va biokimyo bo‘limlari.

Sayfullayeva M. F.
talaba
pediatriya fakulteti
Daminova D. J.
talaba
pediatriya fakulteti
Samarqand Davlat Tibbiyot Universiteti
Ilmiy rahbar: Islamova Z. B.
o‘qituvchisi
tibbiy biologiya va genetika kafedrasi

TIBBIY GELMINTOLOGIYA: EPIDEMIOLOGIYA, DIAGNOSTIKA VA PROFILAKTIKA – ZAMONAVIY YONDASHUV

Annotatsiya: *Gelmintlar inson organizmida parazitlik qilib turli xil kasalliklarni keltirib chiqaradi. Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti (JSST) ma’lumotlariga ko‘ra, dunyo bo‘yicha qariyb 2 milliard odam gelmintlar bilan zararlangan. Kasallanish bolalarda ko‘proq uchraydi, bu esa shaxsiy gigiyena qoidalariga rioya qilmaslik bilan bog‘liq. Hozirgi kunga qadar Yer yuzida odamda parazitlik qilishi mumkin bo‘lgan 287 turdagi gelmint aniqlangan. O‘zbekistonda ular orasidan 65 turi qayd etilgan, 24 turi esa eng ko‘p uchraydigan gelmintlar sirasiga kiradi.*

Kalit so‘zlar: *gelmint, geogelmintlar, biogelmintlar, trematodlar, sestodlar, PCR-tahlil, IFA, genetik test, DNK fragmenti.*

Sayfullayeva M. F.
student
faculty of pediatrics
Daminova D. J.
student
faculty of pediatrics
Samarkand State Medical University
Scientific supervisor: Islamova Z. B.
teacher
department of medical biology and genetics

MEDICAL HELMINTHOLOGY: EPIDEMIOLOGY, DIAGNOSTICS AND PROPHYLAXIS – MODERN APPROACH

Abstract. *Helminths live in the human body and cause various diseases. According to WHO, nearly 2 billion people worldwide are infected with helminths. The incidence is significantly higher among children due to poor personal hygiene. To date, 287 species of helminths capable of parasitizing humans have*

been identified globally. Sixty-five of these species are registered in Uzbekistan, of which 24 are the most commonly encountered.

Keywords: *Helminths, geohelminths, biohelminths, trematodes, cestodes, PCR test, ELISA, genetic test, DNA fragment.*

Kirish

Tibbiy gelmintologiya (yunoncha *helminthes* — qurt) parazitologiyaning inson organizmidagi gelmintlarni, ularning patogenezi, epidemiologiyasi, diagnostikasi va profilaktikasini o‘rganadigan bo‘limidir. Gelmintlar ikki asosiy tipga bo‘linadi: yassi chuvalchanglar (Plathelminthes) va yumaloq chuvalchanglar (Nemathelminthes). Gelmintlar chaqiradigan kasalliklar gelmintozlar deb ataladi.

Dolzarbligi

Gelmintozlar butun dunyo bo‘ylab keng tarqalgan bo‘lib, JSST ma’lumotlariga ko‘ra, 4,5 milliardga yaqin odam parazitar kasalliklardan aziyat chekadi, ularning 2 milliardida gelmint infektsiyasi aniqlanadi. Kasallanish rivojlanayotgan davlatlarda yuqori bo‘lishi bilan birga, rivojlangan mamlakatlarda ham uchrab turadi. O‘zbekistonda gelmintozlar 100 ming aholiga 270 ta holat darajasida baholanadi.

Gelmintologiya tarixi

Gelmintlar haqida dastlabki yozma manbalar Gippokrat, Arastu va Abu Ali Ibn Sino asarlarida uchraydi. Ibn Sino “Kitob ash-Shifo” asarida gelmintlarning turlari, ularning yuqish yo‘llari va kasallik belgilari haqida batafsil ma’lumot bergan. Keyinchalik K.I. Skryabin, E.N. Pavlovskiy, L.A. Zilber kabi olimlar gelmintologiya maktabini shakllantirgan. O‘zbekistonda L.M. Isaev gelmintozlar epidemiologiyasi, profilaktikasi va ilmiy tadqiqotlari rivojiga katta hissa qo‘shgan.

Insonda uchraydigan gelmint turlari

1. Nematodalar (yumaloq chuvalchanglar)

Asosiy vakillari: askarida, enterobius, trixinella va boshqalar. Ular yaxshi rivojlangan ovqat hazm qilish tizimiga ega, erkak va urg‘ochi shakllari farqlanadi.

2. Trematodalar (so’ruvchi chuvalchanglar)

Barg yoki lansetsimon shaklga ega. Og‘iz va qorin qismida ikki so‘rg‘ichi mavjud. Ko‘pchilik turlari germafrodit.

3. Sestodalar (lentalar)

Uzoq, bo‘laklarga bo‘lingan tana tuzilishiga ega. Bosh qismida ilgak va so‘rg‘ichlar bo‘ladi. Ovqat hazm qilish tizimi yo‘q, ozuqani butun tana yuzasidan so‘rib oladi. Uzunligi 10–11 metrga yetishi mumkin.



Gelmintlar yuqtirish yo‘llari

- Og‘iz orqali (iflos qo‘l, suv, sabzavot-mevalar, xom go‘sht va baliq).
- Teri orqali (ankilostoma, shistozoma).
- Havo-chang orqali (tuxumlar chang bilan kirishi).
- Vektorlar orqali (masalan, wuchereria — chivinlar yordamida).
- Uy hayvonlari orqali (toksokara va boshqalar).

Bolalarda gelmintoz klinikasi

- Tez-tez ko‘ngil aynishi, qorin og‘rig‘i
- Allergik reaksiyalar
- Uyqu buzilishi, charchoqlik
- Anal sohada qichishish
- Disbakterioz, oshqozon-ichak buzilishlari
- Eozinofiliya
- O'sish va vazn ortishining sekinlashuvi

Gelmintozni diagnostika qilish usullari

Laborator diagnostika

- Immunoferment tahlili (IFA): qonda gelmint antigeniga qarshi antitanachalar aniqlanadi.
- PCR tahlili: yuqori sezuvchan usul bo‘lib, parazit DNKsi fragmentlarini aniqlaydi.
- Mikroskopiya: najas va anal burmalaridan tuxum va lichinkalarni topish.
- Umumiy qon tahlili: eozinofiliya kabi nospesifik belgilar.

Instrumental diagnostika

- UZI, KT, MRT: ichki a’zolardagi parazit lokalizatsiyasini aniqlash.
- Endoskopiya: oshqozon-ichak traktini ko‘rish.

- Rentgen: ko‘krak qafasi yoki boshqa bo‘shliqlarda joylashgan gelmintlarni aniqlash.

Zamonaviy usullar

- Sun’iy intellekt yordamida tasvirlarni tahlil qilish — diagnostika aniqligini oshiradi.
- Genetik testlash — gelmint turini molekulyar darajada aniqlash imkonini beradi.

Gelmintoz profilaktikasi

- Go‘sht, baliq va boshqa mahsulotlarni faqat ishonchli manbalardan xarid qilish, to‘liq pishirish.
- Sabzavot va mevalarni yaxshilab yuvish.
- Qo‘l gigiyenasiga rioya qilish.
- Xom baliq va xom go‘sht iste’molidan voz kechish.
- Uy hayvonlarini muntazam gelmintlardan davolash.
- Chov sohasini toza saqlash.
- Najasni o‘g‘it sifatida ishlatmaslik.
- Xavf omillari mavjud bo‘lsa, yiliga 1–2 marta tibbiy tekshiruvdan o‘tish.

Xulosa

Gelmintozlar inson salomatligi uchun global muammo bo‘lib, ularning oldini olish, o‘z vaqtida diagnostika qilish va kompleks davolash choralari zamonaviy tibbiyotning muhim vazifalaridan biridir. Molekulyar–genetik usullar, AI texnologiyalari va keng qamrovli epidemiologik nazorat gelmintozlarga qarshi kurashning samaradorligini oshirmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Vakhidova A.M., Balayan E.V., & Islamova Z.B. Dystrophic changes in echinococcal cysts... 2017.
2. Islamova Z.B., Tursunpo‘latova D. Leishmaniasis – pathogenesis and classification. 2022.
3. WHO. Viral Diseases Overview. World Health Organization.
4. Вахидова, А. М., Балаян, Э. В., & Исламова, З. Б. (2017). Дистрофические Изменения В Эхинококковых Кистах, Осложненных Грибами Рода Aspergillus И Paecilomyces. In World Science: Problems And Innovations (pp. 298-302).
5. Bustonovna, I. Z. (2022). REASONABLE USE OF MEDICINAL PLANTS. Literature review Part 2. Asian journal of pharmaceutical and biological research, 11(2).
6. Bustonovna, I. Z. (2022). Studying the biology of biebersteinia multifida DC. Thematics Journal of Education, 7(4).
7. Исламова, З. Б., & Туракулов, Э. М. (2022). ЛЕЙШМАНИОЗЫ-ПАТОГЕНЕЗ И КЛАССИФИКАЦИЯ. In European Scientific Conference (pp. 178-180).
8. Вахидова, А. М., Балаян, Э. В., Исламова, З. Б., Мамурова, Г. Н., & Джуманова, Н. Э. (2014). ИНФЕКЦИОННО-ТОКСИЧЕСКИЕ

КАРДИОПАТИИ И МИОКАРДИТ, ПОЛУЧЕННЫЕ ПРИ ЭКСПЕРИМЕНТАЛЬНОМ ЗАРАЖЕНИИ МЫШАТ ЭХИНОКОККОЗОМ, ЦЕНУРОЗОМ, ЦИСТИЦЕРКОЗОМ И ПЕЦИЛОМИКОЗОМ. Проблемы биологии и медицины, (3), 79.
9. Nazirova, S., & Islamova, Z. B. (2023). About mythopathic diseases. In Academic International Conference on Multi-Disciplinary Studies and Education (Vol. 1, No. 7, pp. 61-63).
10. Абдурафикова, Р. А., Усманова , Г. А., & Исламова, З. Б. (2024). ЛЕКАРСТВЕННЫЕ РАСТЕНИЯ, ИСПОЛЬЗУЕМЫЕ В НАРОДНОЙ МЕДИЦИНЕ. Innovative Development in Educational Activities, 3(4), 133–137. Retrieved from https://openidea.uz/index.php/idea/article/view/2216
11. Akramova , F. B., & Islamova, Z. B. (2024). BOLALAR VA KATTALARDA GIDROSEFALIYA KASALLIGI, DIAGNOSTIKASI, DAVOLASH USULLARI. Innovative Development in Educational Activities, 3(4), 89–93. Retrieved from https://openidea.uz/index.php/idea/article/view/2208
12. Tursunpo‘latova , D., & Islamova, Z. B. (2024). ERTA QARISH – PROGERIYA KAMDAN KAM UCHRAYDIGAN GENETIK KASALLIK. Innovative Development in Educational Activities, 3(4), 106–110. Retrieved from https://openidea.uz/index.php/idea/article/view/2211
13. Bustonovna, I. Z., Davronovich, A. D., Muhammedjanovich, M. S., & Normuratovna, M. G. (2022). The significance of the nature of nucleic acids in the formation of productivity signs.
14. Aktam o’g’li, Rabbonayev Axmadjon, and Islamova Zebiniso Bustonovna. "IRSIY KASALLIKLAR-DAUN SINDROMI KELIB CHIQISHI, ASOSIY BELGILARI, TASHXISLASH." JOURNAL OF INNOVATIONS IN SCIENTIFIC AND EDUCATIONAL RESEARCH 7.3 (2024): 250-256.
15. Исламова, З. Б., & Примкулов, Ж. Р. (2024). МАКРОЭЛЕМЕНТНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЕ СОСТАВА BIEBERSTEINIA MULTIFIDA МЕТОДОМ ICP-MS. O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI, 3(28), 54-59.
16. Исламова, З. Б., & Абдурашидов, А. А. (2024). BIEBERSTEINIA MULTIFIDA-ЦЕННОЕ ЛЕКАРСТВЕННОЕ РАСТЕНИЕ НАРОДНОЙ МЕДИЦИНЫ. Новости образования: исследование в XXI веке, 2(19), 163-167.
17. Madilloyevich, A. M., & Bustonovna, I. Z. (2024). EXINOKOKKOZ-YUQISH YO’LLARI, DIAGNOSTIKA VA PROFILAKTIKASI. Новости образования: исследование в XXI веке, 2(19), 65-69.
18. Bustonovna, I. Z., & Murodullayevich, T. E. (2022). VIOLATION OF ONTOGENESIS IN THE PATHOLOGY OF HUMAN DEVELOPMENT. Thematics Journal of Education, 7(4).
19. Xolikov P.X., Qurbonov A.Q., Daminov A.O., Tarinova M.V. Tibbiy biologiya va genetika. Toshkent, 2022.

Islamova Z. B.
o‘qituvchisi
tibbiy biologiya va genetika kafedrasi
SamDTU
Sa’dullayev I. N.
talaba
stomatologiya fakulteti
Bo‘riyeva S. D.
talaba
stomatologiya fakulteti
Samarqand Davlat Tibbiyot Universiteti

VIRUSLI KASALLIKLAR: TUZILISHI, KO‘PAYISH MEXANIZMI VA TIBBIY AHAMIYATI

Annotatsiya: *Ushbu maqolada viruslarning tuzilishi, ularning hujayra ichida ko‘payish mexanizmlari, hamda virusli kasalliklarning inson salomatligiga ta’siri haqida so‘z yuritiladi. Viruslar prokariot va eukariot organizmlarni zararlovchi mikroskopik zarrachalar bo‘lib, ular faqat tirik hujayra ichida ko‘payish qobiliyatiga ega. Shuningdek, zamonaviy biologiya fanida virusli infeksiyalarni o‘rganish, ularning profilaktikasi va vaksina yaratish masalalari dolzarb muammo sifatida tahlil etiladi.*

Kalit so’zlar: *virus, tuzilishi, hujayra ichida ko‘payish, kasallik, inson, salomatlik, prokariot, eukariot, organism, tirik hujayra, zamonaviy biologiya, infeksiya, profilaktika, vaksina.*

Islamova Z. B.
Teacher
Department of medical biology and genetics
Saadullayev I. N.
student
faculty of dentistry
Bo‘riyeva S. D.
student
faculty of dentistry
Samarkand State Medical University

VIRAL DISEASES: STRUCTURE, MECHANISM OF REPRODUCTION AND MEDICAL SIGNIFICANCE

Annotation: *this article will talk about the structure of viruses, their mechanisms of intracellular reproduction, as well as the impact of viral diseases on human health. Viruses are microscopic particles that infect prokaryotic and eukaryotic organisms and have the ability to reproduce only within a living cell.*

Also, in modern biology, the issues of studying viral infections, their prevention and vaccine creation are analyzed as an urgent problem.

Keywords: *virus, structure, intracellular reproduction, disease, human, health, prokaryotic, eukaryotic, organism, living cell, modern biology, infection, prevention, vaccine. prevention, vaccine.*

Kirish

Viruslar tirik organizmlar hayotidagi eng qadimiy va keng tarqalgan mikrobiologik shakllardan biridir. Ular inson, hayvon, o‘simlik, bakteriya va hatto zamburug‘larda ham parazitlik qiladi. Viruslar o‘lchami nihoyatda kichik bo‘lib, oddiy optik mikroskopda ko‘rinmaydi. Ularning o‘ziga xos jihati shundaki, ular hujayra tashqarisida “o‘lik zarracha” hisoblanadi, ammo tirik hujayra ichiga kirgach, faol ko‘payish qobiliyatini namoyon etadi.

Biologiya fanida viruslar “hujayrasiz organizmlar” sifatida qaraladi. Ular o‘z genetik materialiga ega bo‘lib, bu DNK yoki RNK shaklida bo‘ladi. Shu jihatdan viruslar tirik va noorganik olam o‘rtasidagi oraliq holatda turadi (Xolikov va boshq., 2022).

Viruslar organizmdagi maxsus hujayra turlariga aniq tropizmga ega. Masalan, hepatit viruslari asosan jigar hujayralarini zararlaydi, gripp virusi nafas yo‘llari epiteliyiga, OIV esa immun tizimning limfotsitlariga hujum qiladi. Bu tropizm virusning kasallik jarayonidagi xususiyatlarini va klinik ko‘rinishlarini belgilaydi.

Asosiy qism


Viruslarning tuzilishi

Viruslar juda oddiy tuzilgan bo1`‘lib, ular ikki asosiy qismdan iborat:


1. Genetik materiali (DNK yoki RNK) – virusning irsiy axborotini saqlaydi.

2. Kapsid (oqsil qobiq) – genetik materialni himoya qiladi va virusning shaklini belgilaydi.

Ba’zi viruslarda lipidli tashqi qobiq (superkapsid) mavjud bo‘lib, u virusning mezbon hujayraga kirishida muhim rol o‘ynaydi (1-rasm). Viruslarning shakli sferik, silindrsimon yoki murakkab bo‘lishi mumkin. Masalan, OIV sferik shaklga ega bo‘lib, RNK asosli virus hisoblanadi; gripp virusi esa segmentlangan RNK genomiga ega murakkab tuzilgan virusdir (2-rasm).



1- **Rasm. Virus tuzilishi. (Virus struktures)**



2- **Rasm. Viruslarning xillari. (List of viruses)**

Viruslarning kapsid va superkapsid tuzilishi ularning tashqi muhitga chidamliligini belgilaydi. Yalang‘och viruslar dezinfeksiyaga chidamli bo‘lib, ularni yo‘qotish murakkab. Lipidli qobiq bilan qoplangan viruslar esa issiqlik, spirtlar va detarjentlar ta’sirida oson parchalanadi. Shu sababli sanitariya va dezinfeksiya choralari virus turiga qarab farq qiladi.

Viruslarning ko‘payish mexanizmi

Viruslar faqat tirik hujayra ichida ko‘payadi. Bu jarayon bir necha bosqichdan iborat:

Adsorbsiyalanish – virus hujayra retseptorlariga birikadi.

Penetratsiya – virus yoki uning genomi hujayra ichiga kiradi.

Replikatsiya – virusning genetik materiali hujayra DNK yoki RNK sintez tizimini o‘z nazoratiga olib, o‘z nusxalarini yaratadi.

Yig‘ilish (maturatsiya) – yangi virus zarrachalari hosil bo‘ladi.

Chiqarilish (lizing) – yangi viruslar hujayra ichidan chiqib, boshqa hujayralarni zararlaydi (Qurbonov, 2022).

Viruslar ko‘payish jarayonida mezbon hujayra metabolizmini to‘liq o‘z nazoratiga oladi. RNK viruslari sitoplazmada replikatsiya qilsa, DNK viruslari asosan yadroda ko‘payadi. Retroviruslar o‘z RNK genomini DNKga aylantirib, mezbon genomi bilan integratsiyalashadi. Bu jarayon virusni uzoq muddat organizmda saqlashga imkon beradi.

Virusli kasalliklarning tibbiy ahamiyati

Viruslar keltirib chiqaradigan kasalliklar juda xilma-xildir: Gripp va paragripp viruslari – nafas yo‘llari infeksiyalarini chaqiradi. OIV (HIV) – immun tanqislik sindromiga olib keladi. Gepatit B va C – jigar hujayralarini zararlaydi.

Papillomaviruslar – o‘sma jarayonlariga sabab bo‘ladi.

Koronaviruslar (COVID-19) – o‘pka va yurak faoliyatini izdan chiqaradi.

Viruslar inson salomatligiga uzoq muddatli ta’sir qilishi mumkin. Masalan, gepatit B va C viruslari surunkali kasalliklarga, jigar sirrozi va saratoniga olib keladi. OIV bemorlarda immun tizimi zaiflashgani uchun boshqa infeksiyalar tez rivojlanadi. Herpes simplex virusi esa og‘iz shilliq qavatida takrorlanuvchi yaralar

hosil qiladi. Shu bois stomatologiya amaliyotida virus infektsiyalarini bilish va profilaktika choralari muhim ahamiyatga ega.

Viruslarga qarshi himoya va profilaktika

Zamonaviy biologiya va tibbiyot viruslarga qarshi quyidagi usullardan foydalanadi:

- Vaksinatsiya – immunitetni shakllantirishning eng ishonchli yo‘li.
- Antiviral dorilar – virusning replikatsiya bosqichini to‘xtatadi.
- Sanitariya-gigiyenik choralar – infeksiyaning tarqalishini cheklaydi.
- Biotexnologik usullar – yangi vaksin va interferon sintezi.

Stomatologiyada viruslar yuqish xavfi yuqori. Shu sababli:

shaxsiy himoya vositalari (niqob, qo‘lqop, himoya ko‘zoynak), asbob-uskunalarni sterilizatsiya qilish, bir martalik materiallardan foydalanish, bemor bilan aloqani minimumga tushirish muhimdir.

Viruslarga qarshi yangi texnologiyalar: RNK vaksinalar, rekombinant vaksinlar va gen terapiyasi virusli kasalliklarning oldini olishda muhim rol o‘ynaydi. Shu bilan birga immunitetni mustahkamlash, sog‘lom turmush tarzi va ekologik sharoitlarni yaxshilash virusli infeksiyalarning tarqalishini kamaytiradi.

Xulosa

Viruslar — hujayrasiz, lekin genetik axborotga ega bo‘lgan tirik zarrachalardir. Ularning biologik xususiyatlari, ko‘payish mexanizmlari va tibbiy ahamiyatini o‘rganish bugungi kunda dolzarb ilmiy masala hisoblanadi. Virusli kasalliklar inson salomatligi uchun jiddiy xavf tug‘diradi, ammo zamonaviy biologiya va tibbiyot yutuqlari tufayli ularning tarqalishini nazorat qilish imkoniyati mavjud.

Viruslarni o‘rganish orqali yangi antiviral preparatlar ishlab chiqish, pandemiyalarning oldini olish va immun tizimini samarali mustahkamlash mumkin. Viruslar bilan bog‘liq kasalliklarni profilaktika qilish, muntazam vaksina olish va sanitariya qoidalariga rioya qilish eng samarali himoya usuli hisoblanadi. Shu bois viruslar haqidagi bilimlarni chuqurlashtirish va yosh avlodni xabardor qilish muhimdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Xolikov P.X., Qurbonov A.Q., Daminov A.O., Tarinova M.V. Tibbiy biologiya va genetika. Toshkent, 2022.
2. Vakhidova A.M., Balayan E.V., & Islamova Z.B. Dystrophic changes in echinococcal cysts... 2017.
3. Islamova Z.B., Tursunpo‘latova D. Leishmaniasis – pathogenesis and classification. 2022.
4. WHO. Viral Diseases Overview. World Health Organization.
5. Вахидова, А. М., Балаян, Э. В., & Исламова, З. Б. (2017). Дистрофические Изменения В Эхинококковых Кистах, Осложненных Грибами Рода Aspergillus И Paecilomyces. In World Science: Problems And Innovations (pp. 298-302).

6. Bustonovna, I. Z. (2022). REASONABLE USE OF MEDICINAL PLANTS. Literature review Part 2. Asian journal of pharmaceutical and biological research, 11(2).
7. Bustonovna, I. Z. (2022). Studying the biology of biebersteinia multifida DC. Thematics Journal of Education, 7(4).
8. Исламова, З. Б., & Туракулов, Э. М. (2022). ЛЕЙШМАНИОЗЫ-ПАТОГЕНЕЗ И КЛАССИФИКАЦИЯ. In European Scientific Conference (pp. 178-180).
9. Вахидова, А. М., Балаян, Э. В., Исламова, З. Б., Мамурова, Г. Н., & Джуманова, Н. Э. (2014). ИНФЕКЦИОННО-ТОКСИЧЕСКИЕ КАРДИОПАТИИ И МИОКАРДИТ, ПОЛУЧЕННЫЕ ПРИ ЭКСПЕРИМЕНТАЛЬНОМ ЗАРАЖЕНИИ МЫШАТ ЭХИНОКОККОЗОМ, ЦЕНУРОЗОМ, ЦИСТИЦЕРКОЗОМ И ПЕЦИЛОМИКОЗОМ. Проблемы биологии и медицины, (3), 79.
10. Nazirova, S., & Islamova, Z. B. (2023). About mythopathic diseases. In Academic International Conference on Multi-Disciplinary Studies and Education (Vol. 1, No. 7, pp. 61-63).
11. Абдурафикова, Р. А., Усманова , Г. А., & Исламова, З. Б. (2024). ЛЕКАРСТВЕННЫЕ РАСТЕНИЯ, ИСПОЛЬЗУЕМЫЕ В НАРОДНОЙ МЕДИЦИНЕ. Innovative Development in Educational Activities, 3(4), 133–137. Retrieved from https://openidea.uz/index.php/idea/article/view/2216
12. Akramova , F. B., & Islamova, Z. B. (2024). BOLALAR VA KATTALARDA GIDROSEFALIYA KASALLIGI, DIAGNOSTIKASI, DAVOLASH USULLARI. Innovative Development in Educational Activities, 3(4), 89–93. Retrieved from https://openidea.uz/index.php/idea/article/view/2208
13. Tursunpo‘latova , D., & Islamova, Z. B. (2024). ERTA QARISH – PROGERIYA KAMDAN KAM UCHRAYDIGAN GENETIK KASALLIK. Innovative Development in Educational Activities, 3(4), 106–110. Retrieved from https://openidea.uz/index.php/idea/article/view/2211
14. Bustonovna, I. Z., Davronovich, A. D., Muhammedjanovich, M. S., & Normuratovna, M. G. (2022). The significance of the nature of nucleic acids in the formation of productivity signs.
15. Aktam o’g’li, Rabbonayev Axmadjon, and Islamova Zebiniso Bustonovna. "IRSIY KASALLIKLAR-DAUN SINDROMI KELIB CHIQISHI, ASOSIY BELGILARI, TASHXISLASH." JOURNAL OF INNOVATIONS IN SCIENTIFIC AND EDUCATIONAL RESEARCH 7.3 (2024): 250-256.
16. Исламова, З. Б., & Примкулов, Ж. Р. (2024). МАКРОЭЛЕМЕНТНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЕ СОСТАВА BIEBERSTEINIA MULTIFIDA МЕТОДОМ ICP-MS. O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI, 3(28), 54-59.
17. Исламова, З. Б., & Абдурашидов, А. А. (2024). BIEBERSTEINIA MULTIFIDA-ЦЕННОЕ ЛЕКАРСТВЕННОЕ РАСТЕНИЕ НАРОДНОЙ

МЕДИЦИНЫ. Новости образования: исследование в XXI веке, 2(19), 163-167.
18. Madilloyevich, A. M., & Bustonovna, I. Z. (2024). EXINOKOKKOZ-YUQISH YO'LLARI, DIAGNOSTIKA VA PROFILAKTIKASI. Новости образования: исследование в XXI веке, 2(19), 65-69.
19. Bustonovna, I. Z., & Murodullayevich, T. E. (2022). VIOLATION OF ONTOGENESIS IN THE PATHOLOGY OF HUMAN DEVELOPMENT. Thematics Journal of Education, 7(4).

Ismoilov J. M.
dotsenti
“Patalogik anatomiya va seksion bipsiya” kafedrasi
Samarqand davlat tibbiyot universteti
Musurmonova M. S., magistri
“Patalogik anatomiya va seksion bipsiya”kafedrasi
Samarqand davlat tibbiyot universteti

SAMARQAND VILOYATIDA YURAK TUG‘MA NUQSONLARNI TURLI SHAKLI BILAN TUG‘ILIB MA’LUM VAQT DAVOMIDA YASHAB VAFOT ETGAN CHAQALOQLARDA HOMILA ICHI INFEKSIYASINI USHBU PATOLOGIYALARNI KELIB CHIQISHINI O‘RGANISH

Annotatsiya: *Mazkur maqolada Samarqand viloyatidagi yurak tug‘ma nuqsonlarni turli shakli bilan tug‘ilib ma’lum vaqt davomida yashab vafot etgan chaqaloqlarda homila ichi infeksiyasini ushbu patologiyalarni kelib chiqishida o‘rni va miokard qavatining tuzilishini morfologik va morfometrik o‘zgarishlarini o‘rganishdan iboratdir.*

Kalit so‘zlar: *Homila ichi infeksiyalari, yurak tug’ma nuqsonlari, miokard qavatdagi patomorfologik o’zgarishlar.*

Ismailov J. M.
associate professor
"pathological of the department of "anatomy and sectional biopsy"
Samarkand State Medical University
Musurmonova M. S., master
"pathological of the department of anatomy and sectional biopsy
Samarkand State Medical University

STUDY OF THE ORIGIN OF INTRAUTERINE INFECTIONS IN NEWBORNS BORN WITH VARIOUS FORMS OF CONGENITAL HEART DEFECTS AND WHO DIED AFTER LIVING FOR A CERTAIN PERIOD OF TIME IN THE SAMARKAND REGION

Abstract: *This article examines the role of intrauterine infection in the development of congenital heart defects and morphological and morphometric changes in the structure of the myocardial layer in newborns born with various forms of congenital heart defects and who died after living for a certain period in the Samarkand region.*

Keywords: *Intrauterine infections, congenital heart defects, pathomorphological changes in the myocardial layer.*

Tug’ma yurak nuqsonlari - neonatal va bolalik davrida uchraydigan eng ko‘p tarqalgan tug‘ma anomaliyalardan bo‘lib, ularning asosiy sabablari qatorida homila ichi infeksiyalari alohida o‘rin tutadi. Xususan, TORCH infeksiyalari homila ichi infeksiyalaridan homilaga ta’siri bo’yicha alohida o’rinda turadi. TORCH-kompleks infeksiyalari (Toxoplasma gondii, Rubella virus, Cytomegalovirus, Herpes simplex virus). -infeksiyalar embrional davrda yurak bo‘linmalari, klapanlari va qon tomir devorlarida morfologik va funksional nuqsonlarni chaqiradi. Shu sababli bu infeksiyalarni erta aniqlash, homiladorlikni rejalashtirishda skrining tekshiruvlarini o‘tkazish va profilaktik choralar ko‘rish dolzarb masala hisoblanadi va mazkur mavzuning o‘rganilishi homila rivojlanishidagi infeksion omillarning patogenetik ahamiyatini chuqur tushunishga, tug‘ma yurak nuqsonlarining oldini olish choralarini takomillashtirishga xizmat qiladi.

Tug’ma yurak nuqsonlari muammosining dolzarbligi uning keng tarqalganligi, tashxis qo’yish qiyinligi va bolalarda nogironlikning yuqori xavfi bilan belgilanadi. Ayniqsa intrauterine infeksiyalar alohida o’rinda turadi. Xususan, Herpex, Rubella va Sitomegalovirus infeksiyalari yurak qon tomir tizimining nuqsonlarining rivojlanishi va chastotasiga eng katta ta’sir ko’rsatadi. Sitomegalovirus ko‘pincha markaziy nerv tizimi va eshitish tizimiga ta’sir etadi, ammo bir qancha ishlar fetal yoki perinatal sitomegalovirus infektsiyasining miyokard patologiyasiga (intrauterin myocarditis), yurak yetishmovchiligi va struktural shikastlanishlarga olib kelishi mumkinligini ko‘rsatadi. Klinik holatlar va hujayra tadqiqot natijalari sitomegalovirusdan kelib chiqadigan miokarditis va keyinchalik fibrozning mumkinligini tasdiqlaydi. Bundan tashqari Rubella virusi yurak tug’ma nuqsonlarining rivojlanishiga sabab bo’luvchi eng yaxshi o’ganilgan viruslardan biridir. Agar birinchi trimesrtda qona organizmida rubella infeksiyasi kechgan hollarda homilada ochiq arterial yo’l(ductus arteriousus), artrial yoki ventrikulyar septal nuqsonlar hamda pulmonar stenoz kuzatiladi. Bu viruslar endoteliy va miokard hujayralarini zararlab yallig’lanish va fibroz jarayonlarini keltirib chiqaradi. Sitomegalovirus esa asosan miokarditlarni keltirib chiqaradi. Bu infeksiyalar homila rivojlanishiga erta va kechgi bosqichlarda turli xil o’zgarishlarni keltirib chiqaradi. Xususan, erta bosqichlarda zararlanish strurturaviy tug’ma nuqsonlarga, kech bosqichda esa funksional va morfometrik o’zgarishlarga sabab bo’ladi

Samarqand viloyatida kompleks tarzda yurak tug‘ma nuqsonlari bilan tug‘ilgan homilalarda uchraydigan homila ichi infeksiyalarning etiopatogenetik roli patomorfologik, gistologik hamda gistokimyoviy usullar yordamida o‘rganiladi. Tadqiqot davomida yurak to‘qimalarida, tomir tizimida va boshqa sohalarida infeksiya ta’sirida kechadigan struktural va distrofik o‘zgarishlarning o‘ziga xos morfologik belgilar tizimlashtiriladi. Homila ichi infeksiyalari bilan bog‘liq tug‘ma yurak nuqsonlari uchun diagnostik ahamiyatga ega bo‘lgan yangi morfologik mezonlar aniqlanib, ular infeksion omillarning yurakning embrional rivojlanishiga ta’siri bilan bog‘lanadi. Shu natijalar asosida homila ichi

infeksiyalarining yurakning normal morfogenez jarayonini buzishdagi o‘rni va mexanizmlari haqida yangi ilmiy ma’lumotlar ishlab chiqiladi.

Olingan natijalar patomorfologiya, pediatriya, neontologiya, kardiologiya sohalarida faoliyat yurituvchi mutaxassislar uchun ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi hamda tibbiyot oliy ta’lim muassasalarida o‘quv jarayonida foydalanish uchun tavsiya etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. De Melo LC, et al. Congenital Rubella Syndrome in the Post-Elimination Era. J Clin Med. 2025.
2. Overall JC Jr. Intrauterine virus infections and congenital heart disease. (review). 2004 / earlier classic references.
3. Su H., et al. First trimester maternal infections and offspring congenital heart disease — systematic review. Eur Heart J. 2025.
4. Magno Palmeira M., et al. Heart failure due to cytomegalovirus myocarditis in... BMC Res Notes. 2016 (case and review).
5. Giorgione V., et al. Myocardial Function in Fetuses with Congenital … (Speckle-tracking fetal echo study). 2023.
6. Sharma V., et al. Coxsackievirus B3 infection early in pregnancy induces congenital heart defects (preclinical). bioRxiv / JAHA-related experimental reports. 2020–2021.
7. Driscoll SG., et al. Histopathology of Gestational Rubella. JAMA Pediatr. 1969 (classic pathology description).
8. Al Beloushi M., et al. Congenital and Perinatal Viral Infections: Consequences. MDPI Viruses. 2024 (overview on congenital viral effects).

Isroilov F. M.
dotsent
Jizzax politexnika instituti

GAZ HISOBLAGICHLARINI SINOVDAN O‘TKAZISH VA NAZORAT QILISH

Annotatsiya: *Ekspluatatsiyada turgan va saqlanayotgan o’lchov vositalarini davlat tekshiruvi va nazorati sohasida foydalaniladigan qiyoslash me’yor-qoidalari tahlil qilingan.*

Kalit so‘zlar*: gaz hisoblagich, korxona, faza, hududiy gaz tarmoqlari, ekspluatatsiya, sertifikat, birlamchi, davriy, navbatdan tashqari, inspeksion va ekspert qiyoslash.*

Isroilov F. M.
associate professor
Jizzakh Polytechnic Institute

TESTING GAS METERS TRANSFER AND CONTROL

Annotation: *an analysis of the benchmarking norms used in the field of state inspection and control of measuring instruments standing and stored in operation is carried out.*

Keywords: *gas meter, enterprise, phase, Regional Gas Networks, operation, certificate, Primary, Periodic, extraordinary, inspection and expert comparison.*

Gaz hisoblagichni “Gaz hisoblagich” korxonasining “aqlli” hisoblagichlari bir fazali va uch fazali qilib ishlab chiqarilgan. Shu bilan birga, konsentrator qurilmasi ham mavjud. Bu ham “Kaifa” qurilmalari singari ishlash imkoniyatiga ega bo`ladi.

Olingan natijalar shuni ko‘rsatadiki, Zn (rux) va Cu (mis) mikroelementlarining optimal miqdorda berilishi yapon bedanalarining tuxum mahsuldorligini sezilarli darajada oshiradi. Xususan, optimal darajada Zn berilishi fermentativ faollikni kuchaytiradi, oqsil sintezini rag‘batlantiradi va tuxum sifatini yaxshilaydi. Cu esa qon aylanishini yaxshilash, immun tizimni mustahkamlash va reproduktiv faoliyatni qo‘llab-quvvatlashda muhim rol o‘ynaydi. Shu sababli, mikroelementlarning muvozanatli qo‘llanilishi parrandalarning umumiy fiziologik holatini yaxshilashga xizmat qiladi.Ammo ortiqcha mikroelement berilishi tuxum mahsuldorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Bu, asosan, organizmda toksik effektlar yuzaga kelishi bilan bog‘liq. Ortiqcha Zn va Cu ovqat hazm qilish tizimida noqulayliklar, ishtaha pasayishi, jigar va buyrak faoliyatida stress belgilarini keltirib chiqarishi mumkin. Bu kuzatuvlar Nair et al. (2022) va Hunchak et al. (2021) tadqiqotlari bilan mos keladi, ular ham mikroelementlarning me’yordan ortiqcha berilishi tuxum berish ko‘rsatkichini kamaytirishini qayd etgan.

Shuningdek, natijalar shuni ko‘rsatadiki, Zn va Cu qushlar organizmida muhim biokimyoviy jarayonlarni rag‘batlantiradi. Zn ko‘plab fermentlarning kofaktori bo‘lib, oksidlanish-qaytarilish jarayonlarini faollashtiradi, immun tizimini qo‘llab-quvvatlaydi va parrandalarning stressga chidamliligini oshiradi. Cu esa qizil qon hujayralari sintezini yaxshilaydi, yurak-qon tomir tizimi faoliyatini rag‘batlantiradi va umumiy sog‘liqni mustahkamlaydi. Shu sababli, ozuqa tarkibida mikroelementlarni optimal dozada ta’minlash tuxum mahsuldorligini oshirish va qushlar sog‘ligini saqlashning muhim sharti hisoblanadi.

Natijalardan ko‘rinib turibdiki, mikroelementlarning dozalari va ularning ozuqaga kiritilish tartibi tuxum ishlab chiqarishning samaradorligini bevosita belgilaydi. Optimal miqdor tuxum soni, tuxum og‘irligi va po‘choq sifatini yaxshilashga yordam beradi, ortiqcha miqdor esa aksincha, mahsuldorlik va parrandalar sog‘lig‘iga zarar yetkazadi. Shu bois, parrandachilikda ozuqa balansini

ilmiy asosda tashkil etish, biologik faol qo‘shimchalardan oqilona foydalanish juda muhimdir.

Xulosa

Ushbu tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, Zn va Cu mikroelementlari yapon bedanalarining tuxum mahsuldorligiga sezilarli darajada ta’sir ko‘rsatadi.Optimal miqdorda qo‘llanishi tuxum sonini va og‘irligini oshiradi, po‘choq sifatini yaxshilaydi, fermentativ faoliyatni rag‘batlantiradi va qushlarning umumiy fiziologik holatini mustahkamlaydi.Ortiqcha miqdorda qo‘llanilishi esa toksik ta’sirlar, mahsuldorlik pasayishi va organizmning stress holatlarini keltirib chiqaradi.Shu bois, tadqiqotlar parrandachilikda ozuqa balansini ilmiy asosda tashkil etish zarurligini, mikroelementlarni biologik talabga mos ravishda berishning ahamiyatini tasdiqlaydi. Ushbu xulosalar amaliy parrandachilikda yem tarkibini optimallashtirish, biologik qo‘shimchalar qo‘llash va tuxum mahsuldorligini oshirish bo‘yicha muhim tavsiyalarni beradi.

Adabiyotlar

1. Nair, P. M. et al. (2022). TheEffectofTraceMineralSupplementationsonEgg ProductionandQuality. ResearchGate
2. Hunchak, A. V. et al. (2021). Microelementlevelsinquailsandtheireggs. DOAJ
3. Fernández, E. A. (2021). EffectofCu,Fe,MnandZnoneggquality. Yessinergy
4. Dadali, V. A. et al. (2010). Productionofenrichedeggswithessentialmicroelements. ASAU
5. Leal, K. (2025, March 19). Quail eggs: 10 benefits (and how to cook & peel). Tua Saúde. https://www.tuasaude.com/en/quaileggs/](https://www.tuasaude.com/en/quail-eggs/)
6. Karabaev, A., & Bobokandova, M. (2022). REACTIVITY OF THE REPRODUCTIVE SYSTEM IN MATURE INTACT RATS IN THE ARID ZONE. International Bulletin of Medical Sciences and Clinical Research, 2(10), 50-55.
7. Gadaevich, K. A., & Fazliddinovna, B. M. (2022). Morphofunctional State of The Reproductive System in Mature Intact Rats in the Arid Zone. Central Asian Journal of Medical and Natural Science, 3(5), 511-516.
8. Нуримов, П. Б., & Бобокандова, М. Ф. (2022). Особенности развития соматотропной функции гипофиза и надпочечников у мальчиков-подростков. Новый день в медицине, 2, 40.
9. Shayqulov H. S., Mamadiyorova M. M. DIAREYA BILAN KASALLANGAN BOLALARDA AJRALUVCHI ICHAK MIKROFLORALARI //GOLDEN BRAIN. – 2023. – Т. 1. – №. 6. – С. 20-24.
10. Boboqandova M. F. ERKAK KALAMUSHLARDA JISMONIY ZO ‘RIQISHNING TA'SIRINI ADENOGIPOFIZ, URUG ‘DON VA QON GORMONLARI DARAJASIGA TA'SIRINI O ‘RGANISH //Экономика и социум. – 2025. – №. 2-1 (129). – С. 124-128.
11. Karabayev A.G., Nurimov P.B., Urokov G.M. et al. Reactivity of the supraoptic, arcuate nucleus of the hypothalamus and the B- and D-basophilic cells

of the adenohypophysis in the early postreanimation period // European Journal of Molecular & Clinical Medicine. – 2021. - T.08. - №3. R. 87-89
12. Karabayev A. G., Nurimov P. B. Reactivity of the supraoptic, arcuate nucleus of the hypothalamus and the B- and D-basophilic cells of the adenohypophysis in the early postreanimation period //European Journal of Molecular & Clinical Medicine. – 2021. - T.08. - №3. R. 84-86

Omonov A. U.
o‘qituvchisi
roman-german tillari kafedrasi
Termiz davlat universiteti

O‘ZBEK VA NEMIS TILLARIDAGI TARJIMA SAN`ATI VA UNING AHAMIYATI

Annotatsiya: *Mazkur maqolada tarjima san’atining o‘zbek va nemis tillaridagi o‘rni, uning madaniyatlararo muloqot va ilmiy-adabiy aloqalarni rivojlantirishdagi ahamiyati tahlil qilinadi. O‘zbekiston Respublikasida tarjima faoliyatining rivoji qonun va davlat dasturlari asosida ko‘rib chiqiladi. Nemis tilidan o‘zbekchaga va aksincha tarjimalarning bugungi kundagi mavqei, muammolari va istiqbollari o‘rganiladi.*

Kalit so‘zlar: *tarjima, o‘zbek tili, nemis tili, madaniyatlararo muloqot, tarjima san’ati, ta’lim.*

Omonov A. U.
teacher
department of romance-germanic languages
Termez State University

THE ART OF TRANSLATION IN UZBEKISTAN AND GERMAN LANGUAGES AND ITS IMPORTANCE

Abstract: *This article analyzes the role of translation art in Uzbek and German languages, its importance in the development of intercultural communication and scientific-literary relations. The development of translation activity in Uzbekistan is reviewed on the basis of laws and state programs. The current position, challenges and prospects of translations from German into Uzbek and vice versa are studied.*

Keywords: *translation, Uzbek language, German language, intercultural communication, translation art, education.*

Kirish

Bugungi globallashuv davrida tarjima san’ati xalqlar o‘rtasidagi madaniy, ilmiy va iqtisodiy aloqalarni rivojlantirishda asosiy vositalardan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda. Xorijiy tillarni chuqur o‘rganish va tarjima faoliyatini rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasida ham ushbu soha davlat siyosati darajasida qo‘llab-quvvatlanmoqda. Xususan, 2020-yil 23-sentabrda qabul qilingan “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun (O‘RQ-637) va 2023-yil 11-sentabrdagi Prezident Farmoni bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston-2030” strategiyasida xorijiy tillarni chuqur o‘rganish, tarjima maktabini rivojlantirish va malakali tarjimonlarni tayyorlash ustuvor vazifalardan biri sifatida belgilangan. Tarjima san’ati nafaqat ilmiy

adabiyotlarni xalqaro miqyosda o‘zlashtirish, balki o‘zbek adabiy merosini dunyo jamoatchiligiga yetkazishda ham muhim vosita hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan, nemis tilidan o‘zbekchaga va aksincha, o‘zbek tilidan nemischaga tarjimalar madaniyatlararo muloqotning samarali shaklini yuzaga keltiradi. Tarjima san’ati turli xalqlarning madaniyati, tafakkuri va adabiy an’analarini bir-biriga bog‘laydigan eng muhim ko‘priklardan biridir. Global kommunikatsiya jarayonlarida o‘zbek va nemis tillari o‘rtasidagi tarjima faoliyati nafaqat lingvistik o‘zaro ta’sirni kuchaytiradi, balki madaniy hamkorlik, ilmiy almashinuv va ijtimoiy taraqqiyotning ham muhim omili sifatida namoyon bo‘ladi. O‘zbek tilining boy tarixiy-lisoniy tizimi hamda nemis tilining qat’iy grammatik tuzilishi tarjimondan yuqori darajadagi lingvistik kompetensiyani, madaniy sezgirlikni va matn yaratilishining pragmatik sharoitlarini chuqur anglashni talab etadi.

Mazkur maqolada tarjima san’atining o‘zbek va nemis tillaridagi o‘rni, muammolari va istiqbollari ilmiy manbalar hamda qonuniy asoslar nuqtayi nazaridan yoritiladi.

Muhokama va natijalar

1. Tarjima san’atining nazariy asoslari. Tarjima san’ati insoniyat tarixida qadimdan mavjud bo‘lib, turli xalqlar o‘rtasida ilmiy, diniy, madaniy va badiiy aloqalarni ta’minlab kelgan. Tarjima nazariyasi mutaxassislari – E. Nayda, V. Komissarov, S. Bassnett, M. Snell-Hornby va boshqalar – tarjimaning mohiyati, usullari va bosqichlari haqida qimmatli ilmiy xulosalar bergan.

Tarjima jarayonida lingvistik, madaniy va psixologik omillar muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, o‘zbek va nemis tillari o‘rtasida tarjima qilganda, ularning grammatik tizimi, leksik birliklari, frazeologik boyligi va stilistik xususiyatlaridagi tafovutlarni chuqur hisobga olish talab etiladi. Tarjimada asosiy mezon − semantik aniqlik va pragmatik ekvivalentlikni ta’minlashdir. O‘zbek tili o‘ziga xos badiiy obrazlar, metaforalar va milliy leksik birliklarga boy. Nemis tilida esa aniq ta’rif, qat’iy mantiqiy tuzilma va funksional yondashuv ustunlik qiladi. Shu sababli tarjima jarayonida nafaqat so‘zma-so‘z, balki funksional-semantik transformatsiyalar, kontekstual moslashtirish, muallif uslubini saqlash kabi jarayonlar amalga oshiriladi.

2. O‘zbek tarjima maktabi va tarixiy taraqqiyoti. O‘zbek adabiyoti tarixida tarjima san’ati alohida o‘rin tutadi. Qadimgi davrlardan boshlab arab, fors va turkiy tillardan o‘zbek tiliga ko‘plab asarlar tarjima qilingan. XIX-XX asrlarda esa rus tili orqali jahon adabiyoti namunalari o‘zbek kitobxonlariga yetkazilgan.

Mustaqillikdan so‘ng O‘zbekistonda tarjima faoliyati yangi bosqichga ko‘tarildi. Jahon adabiyoti durdonalarining bevosita manba tilidan tarjima qilinishi yo‘lga qo‘yildi. “Jahon adabiyoti” jurnali, turli tarjima markazlari va universitetlarda tarjimashunoslik kafedralari tashkil etildi.

3. Nemis tilidan tarjimalarning o‘rni va ta’siri. Nemis adabiyoti jahon madaniyatining eng yirik yo‘nalishlaridan biridir. Gyote, Shiller, Kafkaning asarlari o‘zbek tiliga tarjima qilingan va o‘zbek kitobxonlari orasida keng tarqalgan. Shuningdek, nemis falsafasi – Kant, Hegel, Nitsshe qarashlari o‘zbek ilmiy jamoatchiligida muhim o‘rin tutadi.

Nemis tilidan o‘zbekchaga tarjimalar nafaqat adabiyot, balki texnika, iqtisod, tibbiyot kabi ilmiy sohalarda ham amalga oshirilmoqda. Shu bilan birga, o‘zbek adabiyotining durdonalari – Alisher Navoiy, Abdulla Qodiriy, Cho‘lpon, Erkin Vohidov kabi ijodkorlarning asarlari nemis tiliga tarjima qilinib, xalqaro miqyosda tarqatilmoqda.

Bugungi kunda O‘zbekiston va Germaniya o‘rtasida ta’lim, fan va madaniyat sohalarida hamkorlik aloqalari keng rivojlanmoqda. Tarjima faoliyati esa ushbu aloqalarning samaradorligini oshiruvchi muhim omil bo‘lib xizmat qilmoqda.

Muammolar va istiqboldagi yechimlar

O‘zbek va nemis tillari o‘rtasidagi tarjimalarda bir qator muammolar mavjud. Jumladan:

- ✓ terminologiya muvofiqligini ta’minlashdagi qiyinchiliklar;
- ✓ frazeologizmlar va milliy madaniy unsurlarni to‘g‘ri yetkazish masalasi;
- ✓ tarjimonlarning malaka va tajribasi yetarli emasligi;
- ✓ tarjima maktabi va ilmiy tadqiqotlarning hali yetarli darajada rivojlanmaganligi.

Biroq, bu muammolarning yechimi mavjud: tarjimonlarni tayyorlash tizimini takomillashtirish, tarjimashunoslik bo‘yicha ilmiy tadqiqotlarni kengaytirish, zamonaviy texnologiyalardan – avtomatlashtirilgan tarjima dasturlaridan foydalanish, xalqaro hamkorlik loyihalarini kengaytirish lozim.

Xulosa qilib aytganda, tarjima san’ati o‘zbek va nemis xalqlari o‘rtasida madaniy, ilmiy va ma’naviy aloqalarni mustahkamlashda muhim o‘rin tutadi. O‘zbekiston Respublikasida davlat siyosati darajasida tarjimonlik faoliyatini qo‘llab-quvvatlash, ta’lim tizimida xorijiy tillarni chuqur o‘rgatish hamda ilmiy-adabiy tarjimalarni rivojlantirish kelgusida ushbu sohaning yanada yuksalishiga olib keladi. O‘zbek va nemis tillari o‘rtasidagi tarjima san’ati madaniy integratsiya, ilmiy hamkorlik va axborot almashinuvining strategik ahamiyatga ega yo‘nalishlaridan biridir. Turli struktural tizimlarga mansub bo‘lgan bu ikki til o‘rtasidagi tarjima jarayoni tarjimondan chuqur lingvistik bilim, madaniy kompetensiya, semantik sezgirlik va ijodiy yondashuvni talab qiladi. Tarjima faoliyati nafaqat matn mazmunini ilmiy asosda ko‘chirish, balki ikki xalqning ruhiyati va madaniy merosini o‘zaro boyitish jarayonidir. Shu bois o‘zbek–nemis tarjima amaliyoti zamonaviy tilshunoslik va madaniy tadqiqotlarning dolzarb yo‘nalishlaridan biri bo‘lib qolmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni, 2020-yil 23-sentabr, O‘RQ-637.
2. O‘zbekiston Respublikasining 2030-yilgacha rivojlantirish strategiyasi.
3. N. Karimov. Tarjima nazariyasi va amaliyoti. Toshkent: O‘qituvchi, 2019.
4. G. Shukurov. Tarjima san’ati asoslari. Toshkent, 2021.
5. Bassnett, S. Translation Studies. Routledge, 2014.

Otaboyev O. F.
talabasi
stomatologiya fakulteti
SamDTU
Pardayeva S. B.
tibbiy kimyo assistenti
SamDTU

SHIFOBAXSH O‘SIMLIKLARDAGI BIOFAOL KOMPONENTLARNING MOLEKULYAR XUSUSIYATLARI VA ULARNI ANIQLASH USULLARI

Annotatsiya: *Mazkur maqolada dorivor o‘simliklarning kimyoviy tarkibi, ularning biosintetik yo‘llari va biologik faol birikmalarining farmakologik ahamiyati yoritilgan. Tadqiqotda alkaloidlar, flavonoidlar, glikozidlar, saponinlar, terpenoidlar kabi tabiiy komponentlarning tuzilishi, biosintezi va analitik tahlil usullari tahlil qilinadi. Shuningdek, fitostandartlashtirish va zamonaviy analitik metodlarning ahamiyati ko‘rsatib o‘tilgan.*

Kalit so‘zlar: *dorivor o‘simliklar, kimyoviy tarkib, alkaloidlar, flavonoidlar, biosintez,fitostandartlashtirish.*

Otaboyev O. F.
student
faculty of dentistry
SamSMU
Pardayeva S. B.
assistant
department of medical chemistry
SamSMU

MOLECULAR PROPERTIES OF BIOACTIVE COMPONENTS IN MEDICINAL PLANTS AND METHODS FOR THEIR IDENTIFICATION

Annotation: *This article discusses the chemical composition of medicinal plants, their biosynthetic pathways, and the pharmacological significance of biologically active compounds. The structure, biosynthesis, and analytical determination methods of natural components such as alkaloids, flavonoids, glycosides, saponins, and terpenoids are analyzed. The importance of phytostandardization and modern analytical techniques is also emphasized.*

Keywords: *medicinal plants, chemical composition, alkaloids, flavonoids, biosynthesis, phytostandardization*

Kirish

Dorivor o‘simliklar asrlar davomida turli xastaliklarni davolashda ishlatib kelingan. Ularning shifobaxsh xususiyatlari tarkibidagi kimyoviy moddalar bilan bog‘liq. Dorivor o‘simliklarning kimyoviy tarkibini o‘rganish ularning farmakologik ta’sirini tushunish va yangi dori vositalarini yaratish uchun muhim ahamiyatga ega. Yer yuzida dorivor o‘simliklarning 10—12 ming turi borligi aniqlangan. 1000 dan ortiq o‘simlik turining kimyoviy, farmakologik va dorivorlik xossalari tekshirilgan.

O‘zbekistonda dorivor o‘simliklarning 700 dan ortiq turi mavjud. Shulardan tabiiy sharoitda o‘sadigan va madaniylashtirilgan 120 ga yaqin o‘simlik turlaridan ilmiy va xalq tabobatida foydalaniladi. Hozirgi davrda tibbiyotda qo‘llaniladigan doridarmonlarning deyarli 40—47% i o‘simlik xom ashyolaridan olinadi.

Dorivor o‘simliklarning asosiy kimyoviy komponentlari

Odamlar tabiat ne’matlaridan foydalana boshlaganidan buyon dorivor o‘tlardan kasalliklarni davolashda foydalanib kelganlar. Bundan 3—4 ming yil ilgari Hindiston, Xitoy, Qadimgi Misr mamlakatlarida shifobaxsh o‘simliklar haqida ma’lumotlar beruvchi asarlar yozilgan. Sharqda, xususan O‘rta Osiyo xalq tabobatida dorivor o‘simliklardan foydalanib davolash o‘zining qadimiy an’analariga ega. Shifobaxsh o‘simliklardan tibbiy maqsadlarda foydalanish borasida Abu Ali Ibn Sinoning "Al-qonun fit-tib" asarida 476 ga yaqin o‘simlikning shifobaxsh xususiyatlari va ularni ishlatish usullari to‘g‘risida ma’lumotlar keltiriladi. Abu Ali ibn Sino yashil olam mahsuli bo’lgan shifobaxsh o’simliklardan turli tuman xastaliklarni davolashda muvaffaqiyatli foydalangan. Olim o’z asarlarida muayyan o’simlikning ajoyib xossalarini qayd etish bilan bir qatorda, qanday kasallikka davo bo’lishi, undan qanday foydalanish kerakligi haqida ham yo’l-yo’riqlar bergan. Bugungi kunda ulug’ alloma foydalangan dorivor o’simliklarning yuzdan ortig’i turli zamonaviy tibbiyot amaliyotida samarali qo’llanilmoqda. Ko’pgina shifobaxsh o’simliklar tibbiyotda qo’llaniladi va hozirgi kunda ham kishilar o’simliklarning kimyoviy tarkibini o’rganish bo’yicha izlanishlarni olib borishmoqda. Bu esa o’z navbatida yangi-yangi kashfiyotlarga olib keldi. Hozirgi kunda mog’or zamburug’i deb ataladigan zamburug’dan penitsillin dorisi tayyorlanmoqda. Ba’zi dorivor o’simliklar, jumladan, yalpiz plantatsiyalarda ko’paytirilmoqda; Yalpiz moyining asosiy qismini tashkil etgan modda – mentol tish poroshogini xushbo’y qiladi. Mentol validol va boshqa yurak kasalligi dorilari, tinchlantiruvchi dorilarga, kosmonavtlarning ovqatlanish ratsioniga kiradigan yalpizli karamelga ham qo’shiladi. Mamlakatimiz yovvoyi holda o’sadigan dorivor o’simliklarga ham boy. O’rmonlarda marvaridgul o’sadi, undan yurak kasalligi bilan og’riganlarga dori tayyorlanadi, o’rmon etagi va nam o’tloq yerlarda o’sadigan valeriana o’simligildan tinchlantiruvchi dori ishlanadi. O’tloq yerlarda har qadamda dalachoy (uni xalq orasida 95 dardga davo bo’ladi deyishadi), bo’yimodaron, ko’ko’t, gazako’t, qora andiz va boshqa dorivor o’simliklar o’sib yotadi.

Dorivor o‘simliklar tarkibida turli xil kimyoviy moddalar mavjud bo‘lib, ularni quyidagi asosiy guruhlarga bo‘lish mumkin:

Alkaloidlar: Tarkibida azot tutuvchi organik birikmalar bo‘lib, ko‘pincha fiziologik faollikka ega. Misol uchun, morfin, kofein, kinin.

Terpenoidlar: Izopren birliklaridan tashkil topgan organik birikmalar. Efir moylari, karotinoidlar va steroidlar shu guruhga kiradi.

Fenolik birikmalar: Benzol halqasiga bir yoki bir nechta gidroksil guruhlari birikkan organik birikmalar. Flavonoidlar, taninlar va ligninlar shu guruhga kiradi.

Glyukozidlar: Qand va aglikon (qand bo‘lmagan qism) dan tashkil topgan organik birikmalar. Yurak glyukozidlari, saponinlar va antrakinonlar shu guruhga kiradi.

Boshqa moddalar: Aminokislotalar, vitaminlar, minerallar, lipidlar va boshqa organik birikmalar.

Shifobaxsh o‘simliklarning kimyoviy tarkibi Shifobaxsh o‘simliklarning dori sifatida foydalanilishining asosiy sababi ularning tarkibida mavjud bo‘lgan biologik faol moddalar bilan bog‘liqdir. Bu moddalar o‘simlikning bargi, guli, ildizi, po‘stlog‘i yoki mevasi tarkibida to‘planadi va o‘ziga xos ta’sir mexanizmlariga ega. Quyidagi moddalar shular jumlasidandir:

- Alkaloidlar – asosan nerv tizimiga ta’sir ko‘rsatadi, og‘riqni qoldiruvchi, spazmolitik xususiyatga ega.

- Flavonoidlar – yallig‘lanishga qarshi, antioksidant va antibakterial ta’sir ko‘rsatadi.

- Glikozidlar – yurak faoliyatini yaxshilovchi, qon bosimini tartibga soluvchi moddalar.

- Efir moylari – mikrob va viruslarga qarshi tabiiy vosita bo‘lib, nafas yo‘llarini tozalovchi ta’sirga ega.

- Saponinlar – balg‘am haydovchi, yallig‘lanishga qarshi va immunitetni mustahkamlovchi moddalar.

- Taninlar – antiseptik xususiyatga ega, teri va shilliq qavatlarni tiklovchi ta’sir ko‘rsatadi. Shuningdek, dorivor o‘simliklarda vitaminlar (A, C, E), mineral tuzlar (kaliy, magniy, kaltsiy) va fermentlar uchrab, organizmning umumiy fiziologik holatini tiklashda katta ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston florasida uchraydigan dorivor o‘simliklar O‘zbekiston hududi geobotanik zonalarga boy bo‘lib, bu yerda 4500 dan ortiq o‘simlik turi o‘sadi. Ulardan 1000 dan ortig‘i dorivor hisoblanadi. Qadimdan xalq tabobatida foydalanib kelingan ayrim mashhur o‘simliklar quyidagilardir:

- Glycyrrhiza glabra (qand lavlagi) – yo‘tal, oshqozon yarasi va virusli kasalliklarda ishlatiladi.

- Inula helenium (devayasemin) – bronxit, shamollash va nafas yo‘llari infektsiyalarida foydali.

- Hypericum perforatum (zveroboy) – asab tizimi kasalliklari, depressiya va yaralarga qarshi ishlatiladi.

- Mentha piperita (yalpiz) – ovqat hazm qilishni yaxshilaydi, og‘riqni kamaytiradi. - Rosa canina (itgul) – immunitetni oshiradi, S vitaminiga boy, yurak faoliyatini yaxshilaydi.

Farmatsevtik ahamiyati Zamonaviy farmatsevtika sohasida dorivor o‘simliklardan keng foydalaniladi. Ulardan biologik faol modda ajratib olinadi yoki o‘simlik ekstrakti tayyorlanib, turli dori vositalari ishlab chiqariladi. Misollar: - Valeriana officinalis – asabiylik, uyqusizlik, stress holatlarini kamaytiradi. - Ginkgo biloba – miya qon aylanishini yaxshilaydi, xotira va e’tiborni mustahkamlaydi. - Arnica montana – shishlar, ko‘karishlar, mushak og‘riqlarida tashqi surtma sifatida ishlatiladi. - Echinacea purpurea – immun tizimini kuchaytiradi, sovuq urish va grippda foydalidir.

Faol moddalarni ajratib olish usullari

Dorivor o‘simliklardan faol moddalarni ajratib olish uchun turli xil usullar qo‘llaniladi. Ushbu usullar o‘simlik materialining xususiyatlariga, faol moddaning kimyoviy tuzilishiga va kerakli tozalik darajasiga bog‘liq. Asosiy ajratib olish usullari:

Ekstraksiya: O‘simlik materialidan faol moddalarni erituvchi yordamida ajratib olish. Erituvchi sifatida suv, etanol, metanol, xloroform, efir va boshqa organik erituvchilar ishlatilishi mumkin.

Distillash: O‘simlik materialidan uchuvchi moddalarni (efir moylari) bug‘latish va kondensatsiya qilish orqali ajratib olish.

Xromatografiya: Aralashmadagi moddalarni ularning fizik-kimyoviy xususiyatlariga ko‘ra ajratish. Qog‘oz xromatografiyasi, yupqa qatlamli xromatografiya (YXK), gaz xromatografiyasi (GX) va yuqori samarali suyuqlik xromatografiyasi (YUSX) kabi turlari mavjud.

Kristallanish: Eritmadagi moddalarni kristall holatda ajratib olish.

Faol moddalarni identifikatsiya qilish usullari

Ajratib olingan faol moddalarni identifikatsiya qilish uchun turli xil fizikkimyoviy usullar qo‘llaniladi. Asosiy identifikatsiya usullari:

Spektroskopiya: Moddalarning elektromagnit nurlanish bilan o‘zaro ta’sirini o‘rganish. Ultrabinafsha (UV) spektroskopiya, infraqizil (IQ) spektroskopiya, yadro magnit rezonansi (YAMR) spektroskopiyasi va massa spektrometriyasi (MS) kabi turlari mavjud.

Xromatografiya: Ajratilgan moddalarni standart namunalar bilan solishtirish orqali identifikatsiya qilish.

Kimyoviy reaksiyalar: Moddalarning ma’lum reaktivlar bilan reaksiyaga kirishishini o‘rganish.

Boshqa moddalar: Aminokislotalar, vitaminlar, minerallar, lipidlar va boshqa organik birikmalar.

Faol moddalarni miqdoriy aniqlash usullari

Faol moddalarning miqdorini aniqlash uchun turli xil analitik usullar qo‘llaniladi. Asosiy miqdoriy aniqlash usullari:

Titrlash: Ma’lum konsentratsiyali eritma (titrant) yordamida moddaning miqdorini aniqlash.

Spektrofotometriya: Eritmadagi moddaning yorug‘likni yutish darajasini o‘lchash orqali miqdorini aniqlash.

Xromatografiya: Xromatogrammadagi pik maydonini o‘lchash orqali moddaning miqdorini aniqlash.

Xulosa

Dorivor o‘simliklar kimyoviy tarkibining tahlili farmatsevtika, tibbiyot va qishloq xo‘jaligi sohalarida muhim ahamiyatga ega. Ushbu tahlil dorivor o‘simliklarning sifatini nazorat qilish, farmakologik ta’sirini o‘rganish, yangi dori vositalarini yaratish va o‘simliklar resurslaridan oqilona foydalanish imkonini beradi. Zamonaviy analitik usullar dorivor o‘simliklarning kimyoviy tarkibini yuqori aniqlik va sezuvchanlik bilan tahlil qilish imkonini beradi, bu esa ularning shifobaxsh xususiyatlarini chuqurroq o‘rganishga yordam beradi.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Kholmurodova, D. K., & Khudoykulov, Z. I. (2023). Use of Waste in the National Economy. Texas Journal of Multidisciplinary Studies, 25, 160-162.
2. Амирова, П. Ж., & Худойқулов, Ж. (2025). ЕСТЕСТВЕННЫЕ И СИНТЕТИЧЕСКИЕ НАРКОТИКИ: ПОЛЬЗА И ВРЕД. Research Focus, 4(1), 148-152.
3. Холмуродова, Д. К., Исломов, Л. Б., & Худойкулов, Ж. И. (2023). ЭФФЕКТИВНОЕ ИСПОЛЬЗОВАНИЕ СЫРЬЯ. IJODKOR O'QITUVCHI, 3(33), 277-281.
4. Икромова, Ш. А., & Худойқулов, Ж. И. (2024). ЭЛЕКТРОХИМИЧЕСКОЕ ЛЕЧЕНИЕ И МЕТОДЫ ДИАГНОСТИКИ. Research Focus, 3(11), 146-150.
5. Zoyirova, S. J., Samadova, M. A., & Xudoyqulov, J. I. (2025). CHILONJIYDA O ‘SIMLIGINING DORIVOR XUSUSIYATLARI. Экономика и социум, (7-1 (134)), 341-343.
6. Икромова, Ш. А., & Худойқулов, Ж. И. (2025). ПОЛЬЗА АНТИОКСИДАНТОВ В ЖИЗНИ ЧЕЛОВЕКА И МЕДИЦИНЕ. Экономика и социум, (4-1 (131)), 1361-1365.
7. Inomovich, X. J. (2025). FERMENTLARNING TIBBIYOTDAGI AHAMIYATI VA ULARNING QO’LLANILISHI. Лучшие интеллектуальные исследования, 38(1), 285-291.
8. Inom o’g’li, X. J. (2025). BIOLOGIK FAOL KOMPLEKS BIRIKMALAR. Лучшие интеллектуальные исследования, 38(1), 319-325.
9. Karimov, A. A., & Xo‘jayev, Sh. X. (2018). Shifobaxsh o‘simliklar va ularning farmakologik xususiyatlari. Toshkent: Fan va texnologiya nashriyoti.
10. cal Care: Guidelines, Geneva, 2022..
11. Eshkobilova M. E., Xodieva N., Abdurakhmanova Z. E. Thermocatalytic and Semiconductor Sensors for Monitoring Gas Mixtures //World Journal of Agriculture and Urbanization. – 2023. – Т. 2. – №. 6. – С. 9-13.
12. .Эшкобилова М. Э., Насимов А. М. Газоанализатор (тпг-сн4) для мониторинга метана на основе термокаталитических и полупроводниковых сенсоров //Universum: химия и биология. – 2019. – №. 6 (60). – С. 17-20.
13. Эшкобилова М. Э. и др. Метанни аниқловчи тяг-сн4 газ анализаторининг метрологик тавсифларига турли омилларнинг таъсири //Research Focus. – 2023. – Т. 2. – №. 11. – С. 17-22.

14. .Абдурахманов Э. Д., Сидикова Х. Г., Эшкобилова М. Э. КАТАЛИЗАТОР ДЛЯ СЕЛЕКТИВНОГО СЕНСОРА МЕТАНА //Евразийский союз ученых. Серия: медицинские, биологические и химические науки. – 2021. – №. 4. – С. 43-48.
15. . Abduraxmonova Z. E., Eshkobilova M. E. GAZLAR ARALASHMASI TARKIBINI NAZORAT QILISHNING ELEKTROKIMYOVIY USULLARI VA ANALIZATORLARI //Research Focus. – 2024. – Т. 3. – №. 5. – С. 8-13.

Otaboyev O. F.
talabasi
stomatologiya fakulteti
SamDTU
Pardayeva S. B.
tibbiy kimyo assistenti
SamDTU

EFIR MOYLARINING KIMYOVIY TARKIBI VA BIOAKTIVLIGI (LAVANDA, ROZMARIN VA CHERNUSHKA MISOLIDA)

Annotatsiya: *Ushbu maqolada lavanda (Lavandula angustifolia), rozmarin (Rosmarinus officinalis) va chernushka (Nigella sativa) o‘simliklaridan olingan efir moylarining kimyoviy tarkibi, asosiy komponentlari, bioaktiv xususiyatlari va ularning tibbiy-farmatsevtik qo‘llanilishi o‘rganildi. Xromatografik va spektroskopik tahlillar natijasida efir moylarining asosiy biologik aktiv moddalari – linalol, linalilatsetat, 1,8-tsineol, timoxinon, karbon va α-pinen kabi birikmalar ekani aniqlandi.*

Kalit so‘zlar: *Efir moylari, Lavanda, Rozmarin, Chernushka (Nigella sativa), Kimyoviy tarkib, Bioaktivlik, Linalol, 1,8-tsineol, Timoxinon, Antibakterial faollik, Antioksidant xususiyat, Fitokimyoviy tahlil*

Otaboyev O. F.
student
faculty of dentistry
SamDTU
Pardayeva S. B.
assistant
medical chemistry
SamDTU

CHEMICAL COMPOSITION AND BIOACTIVITY OF ESSENTIAL OILS (A CASE STUDY OF LAVENDER, ROSEMARY AND NIGELLA SATIVA)

Abstract: *This article investigates the chemical composition, major components, bioactive properties, and pharmaceutical applications of essential oils obtained from lavender (Lavandula angustifolia), rosemary (Rosmarinus officinalis), and black cumin (Nigella sativa). Chromatographic and spectroscopic analyses revealed that the key biologically active compounds of these essential oils include linalool, linalyl acetate, 1,8-cineole, thymoquinone, carvone, and α-pinene.*

Keywords: *essential oils, lavender, rosemary, Nigella sativa, chemical composition, bioactivity, linalool, 1,8-cineole, thymoquinone, antibacterial activity, antioxidant properties, phytochemical analysis.*

1. **Kirish**

Efir moylarining asosiy manbai efir moyli o‘simliklardir. Yer yuzida tarqalgan barcha o‘simliklar 300 oilaga mansub bo‘lib, ularning 87 oilasiga kiruvchi turlarida efir moylari borligi aniqlangan. Hozirgi vaqtda 2500 o‘simlik turlarida efir moylarining saqlanishi o‘rganilgan bo‘lib, ulardan 77 oilaga kiruvchi 1100 dan ortiq turi MDH florasida uchraydi.

Efir moylari o‘simlikning ma’lum hujayra va to‘qimalardagi maxsus bo‘shliqlarda hamda kanalchalarda to‘planadi. Bundan tashqari hujayra shirasi tarkibida emulsiya holatida va parenxima hujayralarida uchraydi. O‘simlikning o‘sishi, rivojlanishi va tarqalgan sharoitiga qarab, undagi efir moylarining miqdori o‘zgarib turadi.

Efir moylari o‘simliklarning urug‘ va mevalarida, gul va barglarida, poya hamda ildizlarida bo‘ladi. Efir moylari o‘z kimyoviy tarkibining murakkabligi, uchuvchanligi va xushbo‘y bo‘lishi bilan o‘simlik moylaridan farq qiladi. Agar efir moylari qog‘oz yoki materialga tekkizilsa, unda hech qanday dog‘ qoldirmaydi.

Efir moylari ko‘pchilik o‘simliklarda erkin holda bo‘lib, suv bug‘i yordamida haydab olish yoki ekstraksiya usuli bilan ulardan ajratib olinadi. Ba’zi o‘simliklarda efir moylari glikozidlar va boshqa moddalar bilan birikkan holda bo‘ladi.

Efir moylari — o‘simliklarning gidrofob, uchuvchi, kuchli hidli biologik faol aralashmalari bo‘lib, ular farmakologik va antibakterial hususiyatlari bilan ahamiyatga ega. Lavanda, rozmarin va chernushka moylari so‘nggi yillarda fitoterapiya, aromaterapiya, kosmetologiya hamda farmatsevtika sohasida keng qo‘llanilmoqda.

2. Materiallar va metodlar

2.1. Namunalar:

- Lavanda guli (Lavandula angustifolia)
- Rozmarin bargi (Rosmarinus officinalis)
- Chernushka urugi (Nigella sativa)

2.2. Efir moylarini ajratish usuli

Gidrodistillyatsiya (Klevenj apparati), davomiyligi 3 soat.

2.3. Tarkibni tahlil qilish usullari

GC-MS, FT-IR, antibakterial testlar va antioksidant DPPH testi qo‘llanildi.

1. Suv yoki suv bug‘i yordamida haydab olish (gidrodistillyatsiya, bug‘ distillyatsiyasi)

Bu usul efir moylarini olishning eng qadimiy va eng ko‘p qo‘llaniladigan texnologiyasidir. Jarayon quyidagicha amalga oshiriladi:

Maydalangan o‘simlik xomashyosi kolba yoki maxsus distillyatsiya kubiga solinadi va ustiga yetarli miqdorda suv qo‘shiladi. Kolba kondensator (xolodilnik)

bilan ulanib, qizdiriladi. Hosil bo‘lgan suv bug‘i efir moyini o‘z bilan olib chiqadi va kondensator orqali o‘tib, suyuqlikka aylanadi.

Hosil bo‘lgan distillyat ikki qismdan iborat bo‘ladi:

— suv qatlami,

— efir moyi qatlami (suvdan yengil yoki og‘irligiga qarab yuqoriga yoki pastga cho‘kadi).

Efir moyi florentinal idishlarda ajratib olinadi. Bu usul o‘simliklarning ko‘p turida samarali bo‘lib, uchuvchi komponentlar buzilmasligini ta’minlaydi.

2. Mastsratsiya (maceration) usuli

Mazkur usul efir moylarining yog‘larda yaxshi eruvchanligiga asoslanadi. Tarkibida efir moyi bo‘lgan gul va o‘simlik qismlari o‘simlik yog‘i (odatda zaytun moyi)ga solinadi va 40–50 °C atrofida qizdiriladi.

Natijada efir moyi gul to‘qimasidan yog‘ga o‘tadi. Filtrlashdan so‘ng olingan moy tibbiyot va kosmetologiyada “infuz moy” (oil infusion) sifatida qo‘llanadi. Bu usul ayniqsa yuqori haroratga chidamsiz bo‘lgan nozik aromatik moddalarda qo‘llanadi.

3. Anfleraj (enfleurage) usuli:

Anfleraj — efir moylarining qattiq yog‘larga yutilishiga asoslangan klassik texnologiya bo‘lib, asosan nozik, issiqlikka sezgir gul efir moylarini olishda ishlatiladi (masalan: yasemin, atirgul).

Yassi oynali maxsus ramkalarga cho‘chqa va mol yog‘larining aralashmasi yupqa qatlamda surtib chiqiladi. Yuzasiga yangi terilgan gul barglari joylashtiriladi. Gul tarkibidagi efir moyi tabiiy diffuziya yo‘li bilan yog‘ga o‘tadi. Gul barglari har kuni yangilanadi. Jarayon bir necha kun yoki hafta davom ettiriladi.

Natijada "pomad" deb ataluvchi yuqori sifatli aromatik yog‘ olinadi, undan keyinchalik spirt yordamida sof efir moyi ajratib olinadi.

4. Presslash (sovuq siqish) usuli

Bu usul efir moyi mevalarning po‘stlarida ko‘p to‘planuvchi o‘simliklarda qo‘llanadi: limon, apelsin, bergamot, pomerans va boshqalar.

Mexanik siqish jarayonida meva po‘stidagi efir moyi to‘g‘ridan-to‘g‘ri ajralib chiqadi. Bugungi kunda maxsus tishli barabanlar, siqish presslari va sanoat ekstraktorlarida amalga oshiriladi.

Sitrus efir moylarining asosiy sanoat usuli aynan mana shu texnologiya bo‘lib, issiqlik ishlatilmagani uchun efir moyi tabiiy holatini to‘liq saqlab qoladi.

5. Ekstraktsiya (organik erituvchilarda ajratib olish)

Ekstraktsiya efir moylarining organik erituvchilarda yaxshi eruvchanligi asosida olib boriladi. Ajratish past haroratda, yengil uchuvchi erituvchilar (gexan, eter va boshqalar) yordamida amalga oshiriladi.

Bu usul natijasida “beton”, undan esa spirt yordamida “absolyut” (absolute oil) olinadi. Absolyutlar parfumereyada eng yuqori sifatli aromatik moddalar sifatida qadrlanadi.

Ekstraktsiya usuli issiqlikka chidamsiz, nozik aromatli moddalar uchun eng maqbul hisoblanadi.

3. Natijalar va muhokama

3.1. Lavanda moyi

Asosiy komponentlar:

- Linalol (30–40%)
- Linalilatsetat (25–35%)
- Kamfor (5–7%)
- 1,8-tsineol (3–5%)

Bioaktivligi: tinchlantiruvchi, antibakterial, yallig‘lanishga qarshi, teri regeneratsiyasi.

3.2. Rozmarin moyi

Asosiy komponentlar:

- 1,8-tsineol (40–50%)
- Kamfor (5–15%)
- α-pinen (10–20%)

Bioaktivligi: kuchli antioksidant, xotirani yaxshilash, qon aylanishini faollashtirish.

3.3. Chernushka moyi

Asosiy komponent:

- Timoxinon (30–48%)

Qo‘shimcha komponentlar: karbon, α-pinen, timol.

Bioaktivligi: immunitetni oshiruvchi, antioksidant, antidiabetik, yallig‘lanishga qarshi.

4. Solishtirma tahlil

Lavanda — tinchlantiruvchi; Rozmarin — antioksidant; Chernushka — immunomodulyator.

Xulosa

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, lavanda (Lavandula angustifolia), rozmarin (Rosmarinus officinalis) va chernushka (Nigella sativa) efir moylari yuqori biologik faollikka ega. Ularning asosiy bioaktiv komponentlari — linalol, linalilatsetat, 1,8-tsineol, timoxinon, karvon va α-pinen bo‘lib, ular antioksidant, antibakterial, yallig‘lanishga qarshi va immunomodulyator xususiyatlarga ega.

Efir moylarining kimyoviy tarkibi o‘simlik turi, o‘sish sharoiti va to‘plangan organiga bog‘liq holda o‘zgaradi. Shuningdek, efir moylari o‘zining uchuvchanligi va murakkab kimyoviy tarkibi bilan boshqa o‘simlik yog‘laridan farq qiladi.

Mazkur efir moylari farmatsevtika, kosmetologiya va aromaterapiya sohalarida keng qo‘llanilishi mumkin bo‘lib, ularni standartlashtirish va sifatini saqlash usullari orqali ilmiy va amaliy tadqiqotlarni rivojlantirish istiqbollari mavjud.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Bakkali F., Averbeck S., Averbeck D., Idaomar M. Biological effects of essential oils – A review. Food and Chemical Toxicology, 2008; 46(2): 446–475.

2. Prakash B., Singh P., Tyagi A.K. Essential oils: Extraction, bioactivities, and their application in food and pharmaceutical industries. Industrial Crops & Products, 2015; 76: 592–605.
3. Ali B., Al-Wabel N.A., Shams S., et al. Essential oils used in aromatherapy: Chemical composition and biological effects. Journal of Essential Oil Research, 2016; 28(5): 435–449.
4. Ahmad A., Husain A., Mujeeb M., et al. Nigella sativa (Black cumin): A review on therapeutic potential. Asian Pacific Journal of Tropical Medicine, 2013; 6(5): 374–381.
5. Cavanagh H.M.A., Wilkinson J.M. Biological activities of lavender essential oil. Phytotherapy Research, 2002; 16(4): 301–308.
6. Daferera D.J., Ziogas B.N., Polissiou M.G. The effectiveness of essential oils from aromatic plants on bacteria and fungi. Journal of Agricultural and Food Chemistry, 2000; 48: 4773–4779.
7. Tisserand R., Young R. Essential Oil Safety: A Guide for Health Care Professionals. 2nd Edition. Elsevier, 2014.
8. Lis-Balchin M., Deans S.G. Bioactivity of selected essential oils against pathogenic bacteria. Journal of Applied Microbiology, 1997; 82(6): 759–762.

Qalandarova M. K., p.f.f.d (PhD)
dotsenti
“Geografiya va iqtisodiy bilim asoslari” kafedrasi
Nizomiy nomidagi O’zbekiston Milliy Pedagogika Universiteti

O‘ZBEKISTONNING TOG‘ VA TOG‘ OLDI HUDUDLARIDA INSON SALOMATLIGIGA TA’SIR ETUVCHI GEOGRAFIK OMILLAR

Annotatsiya: *Ushbu maqolada tog‘ va tog‘ oldi hududlarida inson salomatligi va unga ta’sir etuvchi geografik omillarga e’tibor qaratilgan. Tog‘li o‘lkalarda istiqomat qiluvchi aholi orasida tog‘ kasalligi gipoksiya, quyosh urishi, oftalmiya, endemik bo’qoq kabi xastaliklarning birmuncha keng tarqalganligi haqida ma’lumotlar keltirilgan. O‘zbekiston aholisining endemik bo‘qoq bilan kasallanish holatlari yoritib berilgan. Tog‘li va tog‘ oldi hududlarni nozogeografik jihatdan tahlil etishda qanday jihatlarga e‘tibor berish to‘g‘risida olimlarning olib borgan tadqiqotlari o‘rganilib, muallifning takliflari ham keltirilib o‘tilgan.*

Kalit so’zlar: *Inson salomatligi, moslashuv, nozoiqlimiy sharoit, relef, tog‘ kasalligi, kislorod yetishmovchiligi, tog‘ vodiy hududlari, tog‘-kon sanoati, tibbiy geografik tahlil, tog’ balandliklari, yetakchi omillar*

Kalandarova M. K., Ph. D,
associate professor
department of “fundamentals of geography and economic knowledge”
National Pedagogical University of Uzbekistan named after Nizami

GEOGRAPHICAL FACTORS AFFECTING HUMAN HEALTH IN THE MOUNTAIN AND FOOTMOUNTAIN REGIONS OF UZBEKISTAN

Abstract: *This article focuses on the type and structure of population health and diseases in mountain and sub-mountain regions. There is information about the prevalence of mountain sickness, hypoxia, sunstroke, ophthalmia, and endemic goiter among the population living in mountainous regions. Cases of endemic goiter of the population of Uzbekistan are highlighted. The research conducted by scientists on what aspects to pay attention to in the nosogeographical analysis of mountainous and sub-mountainous regions has been studied, and the author's suggestions have been presented.*

Key words: *Human health, adaptation, non-climatic conditions, relief, mountain sickness, oxygen deficiency, mountain valley areas, mining industry, medical geographic analysis, mountain heights, leading factors*

Kirish

Yer yuzasining turli mamlakat va o‘lkalarida tabiiy va ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarning xilma-xilligi tufayli turli hududlarda yashovchi kishilar salomatlik darajasi ham turlichaligini ko’rishimiz mumkin. Zero, hudud o‘zgarishi bilan inson salomatligi va xastaliklari: tog‘ va tekislikda, cho‘l va o‘rmonda, turli balandlik mintaqalarda, shahar va qishloqda, har xil rivojlanish darajasiga ega bo‘lgan mamlakatlarda turlicha tavsifga egaki, uning o‘ziga xos qonuniyatlarini geografik jihatdan o‘rganish va tadqiq etish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Bunda avvalo, tibbiy geografik jihatdan o‘rganilayotgan muayyan hududning umumiy tavsifi, joylashgan o‘rni va chegaralari hamda uning mamlakat yoki ma’lum iqtisodiy geografik rayon xo‘jaligida tutgan mavqeiga asosiy e’tibor qaratish maqsadga muvofiqdir.

Har bir hududdda aholi salomatligini belgilashda yetakchi ahamiyat kasb etuvchi tabiiy sharoitlar tarkibiga relef, iqlim, tuproq, yer osti va yer usti suvlari, o‘simlik va hayvonot dunyosi singari omillar bilan baholansa, iqtisodiy jihatdan izohlashda esa ko‘proq uning aholisi, aholi punktlari, sanoat va qishloq xo‘jaligi, transport hamda tashqi iqtisodiy aloqalari ko‘zda tutiladi.

Inson salomatligi va ularda uchraydigan kasalliklar hududiy tafovutlarga ega. Chunki, ushbu hududlar o‘z iqlimi, relefi, suv va tuprog‘i, iqtisodiy-ijtimoiy jihatlari bilan o‘zaro farqlanadi. Ularning barchasi aholi salomatligining hududiy tomonlarini va uning geografik xususiyatlarini izohlab beradi. Shu o‘rinda suv, havo va tuproqning yoki bizning fikrimizcha, nozoiqlimiy sharoitning inson salomatligiga ta’sirini alohida ta’kidlash joiz.

Adabiyotlar tahlili va metodlar

Ma’limki, joylarning relef xususiyatlari inson salomatligini belgilovchi muhim omillardan biridir. Baland tog‘ mintaqalarida o‘z nomi bilan “tog‘ kasalligi” deb ataluvchi kasallik keng tarqalgan bo‘lib, u haqidagi dastlabki ma’lumotlar ispan sayyohi Josef de Akosta tomonidan yozib qoldirilgan. U balandlik bilan bog’liq kasalliklar haqida juda ko’p va rang barang ma’lumotlar qoldirgan. Uning yozishicha, 1590 yil And tog‘lari bo‘ylab sayohat chog‘ida 4500 metr dengiz sathidan balandlikda hamrohlari orasida qandaydir kasallik yuzaga kelganligi, ularning yurak urishlari o‘zgarib, bosh aylanish, nafas siqishi, burunlarning qonashi va quloqlarning shang‘illashi kabi holatlar kuzatilgan. Bu tog‘ kasalligi bo‘lib, u faqatgina 1887 yilda fransuz olimi Bert tomonidan aniqlandi va uning bosh sababi kislorod yetishmovchiligi ekanligi qayd etildi.

Xitoylik mashxur Chiyen Xan Shu millodan avval taxminiy o’ttizinchi yillarda o’tkir tog’ kasalligi haqida turli xildagi qiziqarli dallilar asosida ma’lumotlar qoldirgan. Uning yozishicha: balandlikka tashrif – qattiq bosh og’rig’i, kichik bosh og’rig’i, tana haroratining keskin ko’tarilishi, qusish kabi holatlardan ogohlantiradi, bunday holatlar nafaqat insonlarda balki, eshaklar va mollarda ham kuzatilishi mumkinligini ta’kidlaydi.

Inson tanasiga tashqi omillarning ta’siri masalasiga katta ahamiyat bergan Ibn Sino shunday yozadi: “turar joylar odam gavdasiga- joyning past balandligi, yaqin joyda tog’larning bo’lishi, joyning yaqinida daraxtlar, konlar, qabrstonlar

borligi, tuproqning holati, ham ta’sir ko’rsatadi”, bundan tashqari bobomiz shuni ham ta’kidlaydiki, “balandlik yerda yashovchilar sog’lom, kuchli va chidamli bo’ladilar hamda uzoq umr ko’radilar”.

Markaziy Osiyo tadqiqotchilaridan biri I.V. Mushketov 1877 yilda Oloy va Pomir bo‘ylab sayohat qilib, baland tog‘larning nafaqat odamlarga, balki hayvonlarga ham ta’sirini qayd etdi. “Havoning kamayishi, - deb yozgan edi u, “ayniqsa, tog‘larga o‘rganmagan jonivorlarga jumladan, otlarga ham ta’sir”. Hozir hammaga ma’lumki, bu kasalliklarning barchasi, asosan, nafas olayotgan siyrak havoda kislorod yetishmasligidan kelib chiqqan.

O‘rta Osiyodagi tog‘ fiziologiyasi muammolarini rus harbiy shifokorlari P.K. Gorbachev, V.I. Kushelevskiy, N. Tretyakov, V. Tapilovskiy, A. N. Lavrinovich, D. I. Lebedev va boshqalar olib borgan. Ammo bu sohada Tyan-Shan va Pomirda tizimli va maqsadli tadqiqotlar XX asrning 40-yillarida boshlangan. N.N. Sirotinin, A.A.Rachkov, A.D.Slonim, A.P.Jukovlar tamonidan olib borilgan uzoq muddatli tadqiqotlar asab tizimining baland tog‘larga moslashish mexanizmidagi rolini aniqlashga va Pomir va Tyan-Shan balandliklariga moslashish jarayonida qon aylanish apparati va qon tizimining reaksiyasini o‘rganishga qaratilgan.

Natijalar va muhokama

Tog‘ va tog‘ oldi hududlarida aholi salomatligini o‘rganishda avvvalo ushbu hududlarning tabiiy sharoiti, qolaversa, dengiz sathidan balandligi, kislorod tanqisligi tushunchasi ifodalaydi. Yuqoridagi holatlarni umumiy tushuncha bilan ya’ni tog‘ va tog‘ oldi hududlaring “nozoiqlimiy sharoiti” tushunchasi bilan tavsiflash mafsadga muvofiq. Shuningdek, “nozoiqlimiy sharoit” tushunchasi bir vaqtning o‘zida ikkita metodologik yondashuvni asoslashga yordam beradi:

birinchidan, geografik omillar va salomatlikning o‘zaro munosabatlari;

ikkinchidan esa, nozogeografik vaziyatning hududiy va davriy xususiyatlari.

Demak, nozogeografik vaziyatning o‘rganishga bunday yondashuv, kasallanish, uning sabablari va sharoitlarini o‘ziga xos nozogeografik xususiyatlariga ega bo‘lishi imkonini beradi.

Atmosfera bosimining pasayishi barcha tog‘li hududlarga deyarli xos bo‘lsa-da, landshaft xususiyatlari, geografik joylashuvi va iqlim omillari har bir tog‘ oldi hamda tog’ zonasining individual o‘ziga xosligini yaratadi. Yana shunisi ham borki, barcha o‘zgaruvchi jihatlarning o‘zaro ta‘siri natijasida bir hududdagi atrof-muhit sharoitlari boshqa hududlarda mavjud bo‘lgan sharoitdan sifat yoki miqdoriy jihatdan farq qilishi mumkin. Shuning uchun ham turli tog‘ balandliklari iqlimi inson salomatligiga har xil ta’sir ko‘rsatadi. Misol uchun, past tog‘lar (750-1000 metr) va o‘rta tog‘lar (1000-2500 metr) dam olishda, turizm va ba’zi kasalliklarni davolashda qimmatli ahamiyatga ega.

Baland tog‘da (2500 metrdan yuqori) yashovchi kishilar doimiy ravishda shu sharoitda yashaganliklari tufayli ularning jismi mazkur muhit sharoitiga yashashga moslashgan. Alpda tog‘ kasalligi 2500 metrdan, Kavkaz tizmasida 3000 metr, Himolayda esa 4000 metrdan boshlanadi. Demak, kasalliklar ham o‘ziga xos

balandlik (gipsometrik) zonallik xususiyatiga ega-ki, buni sotsial geografik tadqiqotlarda e’tiborga olish zarur.

Yer yuzidagi quruqliklarning o‘rtacha balandligi dengiz sathidan 750 metr yuqorida bo‘lib, baland tog‘li mintaqalarda dunyo aholisining anchagina qismi yashab kelmoqda. Undan ham balandroqda, ya’ni 3000 metrdan yuqorida yer shari aholisining 30 milliondan ortig‘rog‘i istiqomat qiladi. Shuning uchun bunday landshaftlarda yashovchilarning mavjud sharoitga moslashganlik darajasini o‘rganish muhim ahamiyat kasb etadi. Tog‘li o‘lkalarda yashovchi kishilar orasida tog‘ kasalligidan tashqari, quyosh urishi, oftalmiya, endemik bo‘qoq singari xastaliklar ko‘p uchraydi. Jumladan, Shveysariya, Karpat orti o‘lkalari, Kavkaz va o‘rta Osiyoning tog‘li hududlarida (masalan, Farg‘ona vodiysining ayrim tog‘ oldi hududlarida) bu holni kuzatish mumkin.

Ma’lumki, jahon bo‘yicha uzoq umr ko‘ruvchilarning asosiy qismi tog‘ va tog‘ oldi mintaqalariga to‘g‘ri keladi. Ushbu hududlar iqlimining inson salomatligiga ko‘rsatuvchi ijobiy ta’siri ham sir emas. Lekin, so‘nggi yillarda tog‘, ayniqsa, tog‘ vodiy hududlarida tog‘-kon sanoati tarmoqlarining rivojlanib borishi mazkur hududlarda ekologik muhitning ifloslanishiga va shu atrofda yashovchilar salomatligiga ta’sir ko‘rsatmoqda.

Yuqorida to’xtalib o’tganimizdek, baland tog‘larning inson tanasiga ta’siri qadimdan o‘rganilgan hamda bunday hududlarda inson fiziologiyasi va patologiyasi muammolari uzoq vaqtdan beri tadqiqotchilarning e’tiborini tortib kelgan. Bugungi kungacha saqlanib qolgan ko‘pgina urf-odatlar qadimgi xalqlarning baland tog‘larning inson tanaga salbiy ta’siri haqidagi g‘oyalarini aks ettirgan. Baland tog‘larda, yovuz ruh yashiringan, afsunlarni takrorlash orqali qutulish mumkinligi ma’lumotlarda keltirilgan. Shu bilan birga, qadimda tog‘li, baland joylarga alohida ahamiyat berilgan. Birinchi ibodatxonalar tepaliklarda qurilgan bo‘lib, u yerda toza tog‘ havosi bemorlarga ijobiy ta’sir ko‘rsatishi ayrim manbalarda keltirib o‘tilgan. Tog‘ fiziologiyasi muammolari bo’yicha so‘nggi yillarda o‘zbek olimlari ham ilmiy tadqiqotlar olib bormoqda.

Demograflar va iqtisodchilarning bashoratlariga ko’ra, yaqin kelajakda baland tog’larga nisbatan intilish umumiy aholi sonidagi ulushi sezilarli darajada oshib boradi. Shu munosabat bilan insonning baland tog’ sharoitlariga moslashish muammosini o’rganish alohida ahamiyatga ega. Biologlar, shifokorlar va psixologlar organizmning tabiiy muhitning ekstremal sharoitlariga moslashish mexanizmini o‘rganishda katta tajriba to’plashgan bo’lib, bu tadqiqotlar hozirgi kunga qadar asosan yangi rivojlanish mintaqalarining tub aholisiga ya’ni, jismonan muntazam ravishda yaxshi tayyorlangan sportchilar, qutb tadqiqotchilari va boshqa odamlariga tegishli bo’lgan.

Yuqori balandlik sharoitida inson tanasiga bir qator omillar ta‘sir qiladi, ular orasida past barometrik bosim, kislorodning qisman past bosimi, haroratning keskin o‘zgarishi, ultrabinafsha nurlanish darajasining oshishi, havoning yuqori ionlanishi, sezilarli shamol tezligi va boshqalar. Ushbu omillarning barchasini to‘liq tahlil qilish olimlarga ushbu kompleksning yetakchi omili atmosfera bosimining o‘zgarishi degan xulosaga kelishga imkon bergan.

R. Dajo (1975) ma’lumotlariga ko‘ra 1500 m balandlikda mavjud tog‘ sharoitlariga moslashmaganlarda yengil nafas qisilishi odamlarning 2750 m balandlikda, jismoniy mehnat paytida qattiq nafas qisilishi kuzatiladi. 3650 m balandlikda, hatto baland tog‘ sharoitlariga moslashgan kishilarning tanasida sezilarli o‘zgarishlar yuzaga kelishi mumkin. Balandlikka moslashish, birinchi navbatda, kislorod va karbonat angidrid yetishmasligiga moslashish bilan bog‘liq jarayon hisoblanadi. Kislorod tanqisligi ya’ni, gipoksiya sharoitida ishlash va chidamlilikning sezilarli pasayishi qayd etilib, asab tizimining disfunktsiyalari, ko‘rish va eshitish sezgirligining pasayishi bilan tavsiflanadi.

Shu o’rinda Gipoksiya tushunchasiga qisqacha to’xtalib o’tadigan bo’lsak, “Gipoksiya” tushunchasi, bu qadimgi yunoncha so'z, ma‘nosi “past kislorod” deb tarjima qilinadi. Mazkur atama badan ya’ni tananing yoki shaxsiy organlarining ayrim omillarning ta‘siri tufayli kislorod ochligini anglatadi. Agarda inson tanasida uzoq muddatli kislorod ochligi kuzatilganda qaytarib bo‘lmaydigan morfologik jarayonlar sodir bo‘lishiga olib kelishi mumkin. Bu esa o’z navbatida Ular to'qima va organlarning tuzilishini o'zgartiradilar va ularning funktsional qobiliyatlarini buzadilar. Eng kuchli gipoksiya yurak kasalligi, buyraklar, jigar va markaziy asab tizimi kasalliklariga moyillikni oshiradi. Bundan kelib chiqib aytish mumkinki, kislorod tanqisligi har qanday kasallikka hamroh bo‘lishi mumkin ekan, yoki ichki organlarning ajralib chiqishi bilan mustaqil jarayon sifatida amalga oshiriladi.

Yoshi ulug’- keksa, tabiatan organizmi zaif va kasalalmand odamlarda kislorod yetishmasligi 1500 metr, hattoki 1000 m balandlikda ham sezilishi mumkin.

Shuni ham ta’kidlash joizki, balandlik kasalligi bilan tog’ kasalligini aralashitirib yubormaslik lozim, ya’ni, tog’ kassaligidan balandlik kassaligi farq qiladi. Balandlk kasalligi bu organizmning kasallik holati, siyrak havoli joylarda nafas olgan ro’y berib, yuqorida tariflaganimizdek, qonda kislorodning yetishmasligi sababli vujudga keladi. Kishilarning ma’lum sabablariga ko’ra juda baland yerlarga ko’tarilganda ro’y beradigan kassalik turidir. Bundan tashqari balandlik kasalligiga ayrim a’zolarning, asosan markaziy nerv sistemasining izdan chiqishi sabab bo’lishi kuzatiladi. Ushbu kasallik bir pasda ro’y berib, nafasning qisishi, yurakning o’ynashi, boshning aylanishi, kuchli bosh og’rig’i, ko’ngilning aynishi, qusish, ruhiy o’zgarishlar, shuningdek, ayrim hollarda hushdan ketib qolish xolatlari bilan namoyon bo’ladi. Shifokorlar bunday vaqtda bemorni pastga tushirib tinch holatda turli tinchlantiruvchi dorilar, xushbo’y va tinchlantiruvchi xususiyatga ega dorivor o’tlardan tayyorlangan damlama, issiq choy yoki kofe, juda zarur vaqtlarda esa kislorod bilan yordam ko’rsatishni tavsiya qilishadi. Ushbu xolatning yuz bermasligi uchun esa, ya’ni balandlik kasalligining oldini olish uchun eng avvalo yuqoriga ko’tarilishni oldindan mashq qilish, kislorodli asboblardan foydalanish, iqlimga moslanish hamda o’z-o’zini ruhiy jihatdan tayyorlash lozimligini tavsiya qilishadi.

Inson tanasining potentsial imkoniyatlari cheksiz deb bo‘lmaydiyu, ammo imkoniyati juda katta. Kishilarning baland tog‘larning ekstremal sharoitlariga

moslashish qobiliyati bo'yicha mavjud manbaalar va faktlar odamni hayratga soladi. Misol uchun, Tibetda buddist monastirlari dengiz sathidan 5000 m gacha balandlikda joylashganligi bizga ma'lum. Amerika qit'asining And tog'larida konchilar 5335 m balandlikdagi Aqonqulcha qishlog'ida doimiy yashaydilar va ishlash uchun ular 6 km dan ortiq balandlikka ko'tariladilar. Biroq, shifokorlar shuni ta'kidlashadiki, tabiiy chegara 4500 m balandlik insonning moslashuv balandligi eng normal hisoblanadi. Shu yerda qaysi balandlikda "tog' kasalligi" boshlanadi degan savolga to'xtalib o'tish maqsadga muvofiq. Aytish joyizki bu havo namligiga juda ham bog'liq bo'lgan holat hisoblanadi. Maxsus tibbiy tadqiqotlar allaqachon tog'li o'lkalarning tabiati insonning sog'lom turmush kechirishi uchun eng qulay muhit ekanligini isbotlagan. Buni, xususan, asrliklarning joylashuvi geografiyasi ham tasdiqlaydi.

Tog'larda ayniqsa baland joylarda qonda kislorod miqdorining kamayishiga boshqa omillar ham bir qatorda qo'shilishi isbotlangan, jumladan gipotermiya (gipotermiya yunoncha therme –issiqlik ya'ni odam va issiq qonli hayvonlarda haroratning odatdagidan pasayishi, bunga organizmda issiqlikning hosil bo'lishidan ko'ra ko'proq sarflanishi sabab bo'ladi), jismoniy charchoq hamda balandlikda suvsizlanishni misol keltirishimiz mumkin. (Shu o'rinda suvsizlanishi tushunchasi sizda muxokamali savol tug'dirishi mumkin.

Ma'lumot o'rnida shuni aytishimiz mumkinki, tog' iqlimining fiziologik faol komponenti quruq havodir, tog' tumanlari quruq havo bilan ajralib turadi, bu esa teri yuzasidan, jumladan ko'z va yuqori nafas yo'llarining shilliq qavatidan suv yo'qotilishining ko'payishiga olib keladi hamda suv-tuz almashinuvi holatiga ta'sir etadi). Mobodo, ushbu holatda inson to'g'ri harakatni amalga oshirmasa, fiziologik jarayonlar kutilmagan vaziyatda davom etishi mumkin. Ya'ni, balandlikda patologik jarayonlarning yuqori tezligini inobatga olganda.

Tog' kasalligining asosiy tashxisidagi qiyinchiliklar uning alomatlarining aksariyat xollarda ba'zi holat ya'ni intervalgacha nafas olishdan tashqari boshqa kasllanishlarda ham uchraydi, bular quruq va nam yo'talda, nafas siqishi hamda nafas qisilishi, o'tkir pnevmoniya, qorin og'rig'i, ong hamda yo'nalishni buzish bilan miya shikastlanishi, biroq tog' kasalligi mazkur alomatlarning barchasi, kishida tez balandlikka ko'tarilishi yoki uzoq vaqt balandlikda bo'lish bilan kuzatiladi.

Olimlar tamonidan 2000 m dan 3600 m gacha balandlikda yashovchi kishilarning hayotiy qobiliyatining (IQ) haqiqiy qiymati tekislik va past tog'larda yashovchi kishilarnikidan farq qilmasligi o'rganilgan. Bundan tashqari, tog'lilar orasida umumiy o'pkaning tiriklik sig'imi 30-31% ni, tekisliklarda yashovchilar orasida esa atigi 23% ni tashkil etar ekan. Tibbiyot soha olimlarining ta'kidlashlaricha, tog'lilarning yoshi o'sishi bilan o'pkaning tiriklik sig'imining pasayishi, umumiy o'pka hajmining qoldiq hajmi ulushi esa ko'payishi kuzatilsa, RW ya'ni Cholserman reaktsiyasi bo'yicha qon sinovining o'sishi yangi alfalarning ochilishi bilan bog'liq deb taxmin qilinadi. Bundan tashqari, yana shu ham ma'lumki, yuqori balandlik sharoitida alveolalarning qon miqdori ortib

boradi, bu ularning qattiqligining oshishiga olib keladi. Mahalliy aholida kislorod iste‘moli va bazal metabolizmning kichikligi qayd etish o’rinli hisoblanadi.

Ayrim manbaalarda keltirilishicha tog’ oldi va tog’li hududlarda istiqomat qiluvchi insonlarning nafas olish tezligi tekislikda yashovchi kishilarnikidan yuqori ekan, bundan tashqari, karbonat angidrid gazi yuqori faollikka ega bo’lib, hudud qanchalik baland bo‘lsa, ferment faolligi shunchalik yuqori bo‘lishi qayd etilgan[17].

Tog‘ iqlimining bir qator xususiyatlari uning fiziologik ta‘siri va terapevtik ta‘sirini belgilaydiki bu ta’sir ma‘lum balandliklargacha ekanligini ham aytishimiz lozim. Atmosfera havosidagi kislorod miqdorining pasayishi organizmning moslashuv fiziologik reaksiyalarini harakatga keltirishda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Tarixan shakllanish va individual rivojlanish jarayonida insonlarda kislorod tanqisligi davrida mobilizatsiya qilinadigan ma‘lum darajadagi gipoksiyaga moslashish va ma‘lum bir qarshilikka ega bo‘lishni ta‘minlaydigan moslashuvchanlik reaktsiyalari shakllangan. Ammo havoning yuqori darajada kamayishi bilan, moslashishning turli xil biologik reaktsiyalari kiritilganiga qaramay, tog‘ kasalligi va kislorod yetishmasligi bilan bog‘liq boshqa hodisalar ham rivojlanadi.

Tog‘ iqlimining ikkinchi xususiyati atrof-muhit haroratining pastligidir. Ma’lumki, hududning balandligi oshishi bilan haroratning asta-sekin pasayishi har yuz metr balandlikka ko’tarilganda taxminan 0,6°C ga qayd etiladi. Atrof-muhitning past harorati, jarayonlarning kuchayishi, yurak-qon tomir tizimi, o‘pkaning ishini oshiradi, ko‘plab fermentlarning faolligini o‘zgartiradi va shu bilan yuqori balandlikdagi gipoksiyaning tanaga ta‘sirini kuchaytiradi. Havoning past harorati inson tanasining, ayniqsa kasal bo‘lganlarning moslasha olish holatiga salbiy ta‘sir ko‘rsatish ehtimoli yuqori. Bilamizki, ob-havoning sovuqligi ko‘p hollarda yashirin infektsiyalarni kuchaytiradi.

Kishilar organizmiga tog‘ iqlimi sharoitlaridan tashqari, ichimlik suvi va tuproqning mikroelement tarkibi (oziq-ovqat mahsulotlari orqali), landshaft va boshqa omillar ham sezilarli ta‘sir ko‘rsatadi.

Inson tanasida juda ko‘p turli xil moslashuvchan reaktsiyalar mavjud bo‘lib, ular yordamida u to‘qimalarni va birinchi navbatda hayotiy organlarni - miya, yurak, jigar, buyraklarni yetarli miqdorda kislorod bilan ta‘minlashga intiladi. Ma’lumki, kislorod miqdori balandlik oshgan sarijuda tez kamayib boradi, dengiz sathiga nisbatan olganimizda 2000 metr balandlikda beshdan bir ulushga, 3000 metrga uchdan bir ulushga kamayadi. Bunday sharoitlarda yuqorida takidlaganimizdek kishilar tog’ kasali bilan og’rishi ya’ni, boshi og’rig’i, ko’ngli behuzur bo’lishi, burnidan qon kelishi, jahldorlik, jizzakilikning o’z-o’zidan paydo bo’lishi, atrof muhitga, xavf xatarga befarqlik xissi yuzaga keladi. Har bir qadami qiyinlashib, xattoki, grammga teng yuklari kilogrammlarda xis qilinadi. Ba’zan hushdan ketib, holsizlik bilan bir qatorda ayrim hollarda o’lim bilan tugashi ham mumkin.

[17] Mirraximov M.M., Агаджанян Н.А. Человек и окружающая среда. — Ф.: Кыргызстан. 1974. - 44 с

Sog‘lom odam 2400 m balandlikda o‘zgarishlarni sezmaydi, boshqalari, ehtimol, boshdagi og’irlikni, uyquchanlikni va jismoniy mehnat paytida tezroq charchoqni sezadilar. Mavjud manbaalar taxlili shuni ko‘rsatadiki, bunday balandliklarda, ko‘rinadigan qulay holatga qaramay, tananing turli fiziologik funktsiyalaridan moslashish reaktsiyalarining butun seriyasi qayd etiladi. Bu birinchi navbatda qon aylanish, nafas olish va qon tizimlariga tegishli bo’ladi.

Yengil tog’ kasalligida – bosh aylanishi, bosh og’rig’i turlari, mushaklar og’rig’i, uqusilik, holsizlik, ko’ngil aynishi, qusish, asabiylashish, ishtahaning bo’g’ilishi, qo’llar va oyoqlar bilan birgalikda yuzning ham shishishi, yurakning tez urishi kuzatilsa, og’ir tog’ kasallida mazkur holatlardan yo’tal, ko’krak qafasi tiqilishi, teri rangining o’zgarishi, muvozanatning yo’qolishi va hattoki yurishning qiyinlashuvi hamda yura olamslik holatlari bilan farqli jihatlarini ko’rish mumkin.

Inson tanasi kislorod yetishmasligi bilan qonning kislorod hajmini oshirish qobiliyatiga ega. Ushbu usullardan biri massani oshirishdir aylanma qon, yuqorida muhokama qilingan. Ammo, boshqa tomondan, eritrotsitlar soni ham, qon birligi uchun qizil qon pigmenti miqdori sezilarli darajada oshadi. Birinchi marta odam baland balandlikda qolganda, eritrotsitlar va gemoglobin soni odatda cho‘ktirilgan holatda saqlanadigan qonning o‘sha qismining mobilizatsiyasi tufayli ortadi, go‘yoki zaxirada mavjud holatday. Bunday to‘plangan qon (juda sekin harakatlanuvchi) taloq, jigar va teri osti to‘qimalarida ham mavjud.

Ma‘lum bo‘lishicha, qonning kislorod bilan to‘yinganligining pasayishi bilan maxsus asab tugunlari qo‘zg‘alib, to‘plangan qon hajmining pasayishiga va uning tomir to‘shagiga harakatlanishiga olib keladi. Mazkur jarayonning yordamida esa organizm kislorodni tashishda faol ishtirok etadigan aylanma qon hajmini oshirishga qodirligini ko’rsatadi. Deyarli birinchi kunlardan boshlab gemoglobinning shakllanishi sezilarli darajada faollashadiki, shuning uchun har bir qizil qon hujayrasi ko‘proq gemoglobinni o‘z ichiga olishi mumkin. Bunday holda, alohida eritrotsitlarning hajmi va diametri o‘zgaradi. Qizil qon hujayralari diametrining o‘zgarishi gemoglobinning kislorodni bog‘lash xususiyatlarida muhim rol o‘ynaydi.

Demak yuqoridagi ma’lumotlarga asoslanib aytishimiz mumkinki, tog‘li hududlarning kishilarga ta’sir qiluvchi asosiy omili bo’lmish iqlim sharoitlarining ta‘sirini baholashda, moslashuvchanlik va ijtimoiy-iqtisodiy omillarning biologik xususiyatlarini hisobga olish kerakligini yuqoridagi dalillardan ham ko’rsak bo’ladi. Gigienik va boshqa himoya choralarini qo‘llash tufayli balandlik omilining salbiy ta‘sirini deyarli butunlay zararsizlantirish ham mumkinligi ma’lum.

Kishilar organizmining tog‘li iqlimga bo‘lgan munosabatlarining biologik xususiyatlarini tahlil qiladigan bo‘sak, ba‘zi insonlar tog‘li iqlim sharoitlariga nisbatan yaxshi moslashar ekanki ulardagi vaqti-vaqti bilan bezovta qiluvchi ayrim xuruj qiluvchi bezovtaliklar butunlay yo’q bo’lib ketish holatlari kuzatilsa, ayrimlarida esa tog‘larga moslashishga to‘sqinlik qiladigan og‘riqli holatlarga duch kelishadi.

Inson organizmining moslashuvchanlik imkoniyatlarini cheklaydigan ko‘plab kasalliklar, uning baland tog‘li omillarga sezgirligini oshiradi.

Kuzatishlarimiz davomida olingan ma’lumotlarimizga kora mamlakatimizning Boysun, Zomin, Baxmal, Bo’stonliq tumanlarida yashovchi aholi orasida uzoq umr ko’ruvchilar salmog’i yuqori ekanligi aniqlandi. Etiborli jihati shundaki, mazkur tumanlar respublikamizning tog’li tumanlari hisoblanadi.

Ammo mamlakatimizning mavjud statistik ma’lumotlaridagi umumiy aholisidagi salmoqqa e’tiborimizni qaratadigan bo’lsak, dengiz sathidan 800 metrdan 1000 metrgacha bo’lgan hududlarda umumiyga nisabatan 37,9 foiz aholi, 1000 metrdan 1500 metrgacha bo’lgan hududlarda 7,3 foiz, 1500 metrdan-2000 metrgacha balandlikda 1,2 foiz va 2000 metrdan balandliklarda esa 0,2 foiz aholi istiqomat qiladi. Boysun (1248 metr) va Yangiobod (1350 metr) tog’ tumanlari o’rta tog’ zonasida joylashgan. Mamlakatimizning eng baland tog’ qishloqlari esa Hisor tog’ining janubiy yonbag’irlarida Surxondaryo viloyatining Sariosiyo tumanida 2500-2600 metr balandlikda joylashgan Hurvatan, Tamshush, Shatrut, Tamarqut va Kshtut qishloqlari hisoblanadi. Balandlik chegarasi 2600 metrni tashkil qiladigan Kshtut qishlog’i o’z navbatida mamlakatimizning tog’larida doimiy aholi yashaydigan aholi punkti hisoblanadi.

Yana shuni eslatish lozimki, mamlakatimizning ayrim tog‘li mintaqalari aholisi orasida ba’zi ichki sekresiya bezlari faoliyatining buzilishi bilan bog‘liq kasalliklar, jumladan, endemik bo‘qoq kasalligi ham keng tarqalgan. Bu hol ayniqsa vodiy hududlarda ko‘proq kuzatilmoqda. Kasallikning asosiy sababi esa aholi ichimlik suvi tarkibida yod moddasining yetarli miqdorda bo‘lmasligidir.

Keying yillarda Farg’ona vodiysi va Samarqand viloyati aholisi orasida endemik bo’qoq kasalligi bilan kasallanishlar sonining oshganini ko’rishimiz mumkin. Ma’lumot o’rnida: bo’qoq ya’ni xalq tilida zob- qalqonsimon bezning kattalashishi hisoblanadi. Bu kasallik ko’pincha yod yetishmasligi kuzatiladigan hududlarda keng tarqalgan qalqonsimon bez inson tanasida modda almashinuvini nazorat qilish markazi hisoblanadi. Shifokorlar uni ko’pincha sog’liq qo’riqchisi deb atashadi, chunki u qanday muammo yuz berishi bilan o’zini ham shunday tutadi: bezovtalanish, kayfiyatning yo’qligi, charchoq va uyquchanlik. Qalqonsimon bez bilan bog’liq muammolar ayollarda ko’proq uchrashi mumkin (ayniqsa yosh o’tishi bilan ayollarda gormonal o’zgarishlarda yuz beradi -klimaks) bo’lsada, erkaklarda ham bunday xastalik tez-tez qayd qilinadi. Bundan tashqari, qalqonsimon bez shuningdek, yurak faoliyatini, miya faoliyatini, yurak mushaklarning tonusini ham boshqaradi. Shuning uchun bunday davrda qalqonsimon bez juda sezuvchan bo’lib, immun tizimining zaiflashuvi, yuqumli kasalliklar, yod yetishmasligi yoki ortiqchaligi, stresslarga tezda javob qaytaradi. Sog’lom hujayralarga qarshi kurashadigan antitanalarning patologik faollashuvi natijasida yosh o’tgani sayin ayollar autoimmun kasalliklarga ko’proq moyil bo’lib qolishadi. Ushbu antitanalar qalqonsimon bez faoliyatini ham sustlashtiradi. Natijada zaiflik, xotiraning pasayishi, shishlar, tana vaznining ortishi, terining quruqlashishi, sochlarning mo’rtligi, mushak og’riqlari va spazmlar, ich qotishlari kuzatiladi.

Empirik kuzatishlar tahlili shuni ko’rsatadiki, balandlikda istiqomat qiluvchi aholi orasida pasttekisliklarda yashovchi insonlarda ko’p kuzatiladigan allergik kasalliklarning eng kam uchrashi kuzatildi.

Tog‘li hududlarda turli xil allergik kasalliklarning kamayishida havoda turli xil aralashmalarning kamligi, balandliklar ko‘tarilishi bilan qishning davomiyligining oshishi muhim ahamiyat kasb etadi. Shu munosabat bilan, pasttekislik sharoitida allergik kasalliklarning ayrim shakllarining paydo bo‘lishida asosiy ro‘l o‘ynaydigan o‘simliklarning kichikroq tarqalishi ham muhim ahamiyatga egaligi bilan ajralib turadi.

Xulosa

Xulosa o’rnida ta’kidlashimiz o’rinliki, tog‘li tumanlarning fiziologik mexanizmlarini baholashda moslashuv, salomatlikka ijobiy yoki salbiy ta‘sir ko‘rsatishda, inson tanasining fiziologik funktsiyalariga sezilarli ta‘sir ko‘rsatadigan tog‘li hududlarning biologik xususiyatlaridan tashqari geokimyoviy xususiyatlari ya’ni tuproqning kimyoviy tarkibi, ichimlik suvi, oziq-ovqatlarni ham o’z o’rnida hisobga olish maqsadga muvofiq. Mazkur shu bilan birga boshqa o‘ziga xos xususiyatlar - landshaft, o‘simliklarning tabiati va boshqalar tog‘li tumanlarning hududiy xususiyatlarini, shu jumladan, terapevtik va fiziologik ta‘sirning qanchalik muhim hamda jiddiy ekanligini belgilaydi. Shu sababli, turli balandlikda joylashgan, ammo turli tog‘li viloyatlarda joylashgan tog‘li hududlarning inson tanasiga ta‘siri sezilarli darajada farq qilishi mumkinligiga guvoh bo‘lishimiz ayni haqiqatdir.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Айдаралиев А.А., Максимов А. А. Определение уровня физической работоспособности человека в условиях высокогорья: Метод, рекомендации. — М., 1980.
2. Афанасьев Ю.А., Куликов Ю.А. Саломатлик алифбоси. -Т.: Ибн Сино, 1993.
3. Белкин В. Ш., Соколов Л.Н., Финаев А.Ф. Особенности биоклиматического районирования горных территорий // Тез. докл. Всес. совещ. по биоклиматологии человека. — Л., 1989
4. Гольдберг П.Н. Сущность и параметры экстремальных горных условий // Высокогорная адаптация и деадаптация / М3 Киргизстан. — Фрунзе, 1984., 37-42 с
5. Ермакова Л.Н., Толмачева Н.И. Влияние погодных условий на здоровье человека // Современные географические исследования. Пермь, 2006.
6. Jumayev T.J. Bizning ulug’vor tog’larimiz. O’zbekiston tog‘ zonasining barqaror rivojlanishi: nazariya va amaliyot. Monografiya. Toshkent.: “Iqtisodiyot”, 2021, 267-321 betlar
7. Комилова Н.Қ. Инсон саломатлигига табиий омилларнинг таъсири. Экология хабарномаси. -Т., 2005. -Б. 38-40.
8. Komilova N.K., Qalandarova M.K. (2023). Global iqlim o‘zgarishlari sharoitida tog‘ va tog‘ oldi hududlarini o‘rganishning ijtimoiy ekologik jihatlari Экономика и социум, №5 (108)-2, 179-186

9. Мамбеталиев Б.С., Касымов О.Т. Организация и медицинское обеспечение труда горнорабочих в высокогорье на высоте 3000—4500 м над уровнем моря: Метод. пособие —Фрунзе, 1990
10. Медицинская география и здоровье. Сборник научных трудов. -Л.: Наука, 1989, -223 с.
11. Мей Ж. Медицинская география // Американская география. Современное состояние и перспективы. -М., 1957. -С. 431-445.
12. Миррахимов М.М., Агаджанян Н.А. Человек и окружающая среда. — Ф.: Кыргызстан. 1974. - 20 с
13. Миррахимов М.М. Болезни сердца и горы. – Ф.: Кыргызстан. 1971. — 157-186 с
14. Миррахимов М.М., Гольдберг П.Н. Горная медицина. Фрунзе: Кыргызстан, 1978.
15. Чаклин А.В. Медицинская география. -М.: Знание, 1977. -136 с

Qodirov R. Sh.
assistenti
biologik kimyo kafedrasi
Andijon davlat tibbiyot instituti

PATALOGIYALARDA SIYDIK TARKIBINI O'ZGARISHI

Annotatsiya. *Tibbiyot instuti talabalari kasallik belgilariga qarab tashxis qo'yish bilan bir qatorda kasallikka sabab bo'luvchi omillarni aniqlash xam muxim xisoblanadi. Buning uchun seminar mashg'ulot darslari muxim axamiyatga ega, chunki muammolar munozaralarda xal bo'ladi. Xar qanday kasallikka tashxis qo'yish uchun bo'lajak shifokor fikrlay olishi kerak.*

Kalit so'zlar. *Tibbiyot, tashxis, siydik, siydikchil, kreatinin , kreatin, aminokislotalar, giperaminoatsiduriya, miopatiya, komatoz holatlar, gipertireoz, kortizon.*

Kadyrov R. Sh.
assistant
department of biological chemistry
Andijan State Medical Institute

CHANGES IN URINE STRUCTURE DURING PATHOLOGIES

Abstract. *It is important for students of the medical institute to make a diagnosis based on the symptoms of the disease, as well as to determine the factors that cause the disease. For this, seminar training classes are of great importance, because problems are solved in discussions. To diagnose any disease, the future doctor must be able to think.*

Key words. *Medicine, diagnosis, urine, diuretic, creatinine, creatine, amino acids, hyperaminoaciduria, myopathy, comatose states, hyperthyroidism, cortisone.*

Siydik hosil bolishi va uning tarkibi buyrak koptokchalari filtratsiyasi (glonierulyar filtratsiya) ga va buyrak to'qimasi kanalchalarida bo'lib turadigan reabsorbsiya hamda sekretsiya jarayonlariga bogliqdir. Siydik tarkibi odam ovqatining tarkibi va organizmning metabologik faolligiga bog'liq.

Normal siydik tarkibi quyidagicha bo'ladi:

Suv - butun hajmining 95 foizi atrofida, elektrolitlar, jumladan, natriy, kaliy, magniy tuzlari, xloridlar va bikarbonatlar, oqsil almashinuvi mahsulotlari - mochevina, urat (siydik) kislotasi kreatinin, kislota-ishqorlar muvozanatini saqlab berishga xizmat qiladigan kislota va ishqorlaming ortiqchasi.

Turli kasalliklarda siydikda quyidagi moddalar topilishi mumkin: oqsil, glyukoza, keton tanalari. bilirubin, urobilinogen, gemoglobin, nitritlar.

Siydik tahlilining hamrna metodlarini to'rt guruhga ajratish mumkin:

— umumiy sifat metodlari;
— siydik cho'kmasi mikroskopiyasi;
— miqdoriy metodlar;
— maxsus metodlar.

Mazkur tezisda sog'liqni saqlashning birlamchi bo'g'inidagi laboratoriyalar uchun tavsiya etiladigan umumiy sifat metodlari va siydik cho'kmasi mikroskopiyasining texnikasi bayon etiladi.

Siydikni sifat jihatidan tekshirishning standart metodlari va mikroskopiya texnikasi quyidagilami o’z ichiga oladi:

— siydikning tashqi ko'rinishi va rangiga mikroskopik baho berish;
— bir martali va bir kecha-kunduzlik siydik hajmini olchash;
— siydikning solishtirma og'irligini o'lchash;
— oqsil, glyukoza, bilirubin, qon, keton tanalari, pH, urobilinogen, nitritlarni aniqlash uchun qo'yiladigan kimyoviy sinamalar;
— sentrifugalangan siydik cho'kmasi mikroskopiyasi.

Siydikning kimyoviy tarkibi. Siydik tarkibidagi quruq moddalar (sutkalik miqdori taxminan 60 g) organik va anorganik moddalardan tarkib topgan. Hozirgi vaqtda siydikda jami 150 dan ortiq kimyoviy moddalar aniqlangan.

Siydikdagi azotli organik moddalar

Siydikchil (mochevina) – siydik tarkibidagi organik moddalarning katta qismini tashkil etadi. Katta odam siydigi bilan o’rtacha bir sutkada 30 g ga yaqin siydikchil chiqariladi. Bir sutkada siydik bilan chiqariladigan azotning umumiy miqdori 10 dan 18 g gacha bo’lishi mumkin, aralash ovqatlanganda siydikchilning azoti 80-90% ni tashkil etadi. Siydikda siydikchilga to’g’ri keladigan azotning miqdori oqsillarga boy bo’lgan ovqat iste’mol qilinganda, to’qima oqsillarini parchalanishi bilan boruvchi kasalliklar (isitmalaganda, saraton, gipertireoz, diabet va boshqalar), shuningdek, ba’zi dorilar iste’mol qilganda (masalan, qator gormonlar) ko’payadi. Siydik bilan ajraladigan siydikchil miqdori jigar og’ir jarohatlanganda, buyrak kasalliklarida (ayniqsa, buyrak filtratsiya qilish qobiliyati buzilganda), shuningdek insulin va boshqalar qabul qilinganda kamayadi.

Kreatinin ham azot almashinuvining oxirgi mahsuloti hisoblanadi. U mushak to’qimasida fosfokreatindan hosil bo’ladi. Har bir odam uchun kreatininnisutkalik miqdori doimiy bo’lib, asosan mushak massasining holatini aks ettiradi.

Erkaklar tanani har bir kg massasiga sutkada siydik bilan 18-32 mg kreatinin ajraladi, ayollarda esa 10 dan 25 mg gacha. Bu sonlar oqsil bilan ovqatlanishga ham bog’liq.

Kreatin – katta odamlar siydigida amaliy jihatdan me’yorda bo’lmaydi. U siydikda kreatinni ko’proq miqdorda iste’mol qilganda yoki patologik holatlarda aniqlanishi mumkin. Qon zardobida kreatin miqdori 0,12 mmol/l ga yetganda u siydik bilan ajraladi.

Ma’lumki, kreatinuriya jigar jarohatlanganida, qandli diabetda, endokrin o’zgarishlarda (gipertireoz, addison kasalligi, akromegaliya va boshqalar), yuqumli kasalliklarda kuzatilishi mumkin.

Aminokislotalar – sutkalik siydikda 1,1 g atrofida bo'ladi. Qon va siydikdagi ayrim aminokislotalar miqdorini nisbati bir xil emas. Siydik bilan ajralayotgan u yoki bu aminokislotalarni miqdori uning qon plazmasidagi miqdori va kanalchalardagi reabsorbtsiya darajasiga bog'liq. Siydikda glitsin va gistidinni kontsentratsiyasi eng yuqori, keyin glutamin, alanin va serinning miqdori turadi.

Giperaminoatsiduriya – jigar parenximasi kasalliklarida uchraydi. Bu jigarda dezaminlanish va transaminlanish jarayonlarini buzilishi bilan tushuntiriladi. Giperaminoatsiduriya, shuningdek, og'ir yuqumli kasalliklar saraton, katta jarohatlar, miopatiya, komatoz holatlar, gipertireoz, kortizon va AKTG bilan davolanganda kuzatiladi.

Ayrim aminokislotalar almashinuvini buzilishlari ham ma'lum. Ko'pchilik bu buzilishlar tug'ma yoki irsiydir. Bularga fenilketonuriya, alkoptonuriya misol bo'lishi mumkin.

Siydik kislota purin almashinuvining oxirgi mahsuloti hisoblanadi. Sutka davomida siydik bilan 0,7 g ga yaqin siydik kislota chiqariladi. Nukleoproteinlar saqlovchi ovqatni ko'p iste'mol qilganda ma'lum vaqtdan keyin siydik kislota chiqarilishi ko'payadi. Aksincha, purinlarni kam saqlovchi ovqat iste'mol qilinganda siydik kislotaning chiqarilishi sutkada 0,2 g gacha pasayadi. Siydik kislotaning ko'p chiqarilishida leykemiya, gepatit va podagrada ham kuzatiladi.

Atsetilsalitsil kislota va ba'zi steroid gormonlar qabul qilinganda ham siydik kislotaning siydikdagi miqdori ortadi.

Siydikni azotsiz organik qismlari – bu shavel, sut va limon, shuningdek, moy, valerian, qahrabo(suktsinat), β-oksimoy, atsetosirka va boshqalar kislotalar. Sutkalik siydikda organik kislotalarni umumiy miqdori odatda 1 g dan ortmaydi.

Siydikning anorganik (mineral) tarkibiy qismlari – qon va organizmni boshqa to'qimalari tarkibiga kiruvchi barcha mineral moddalar siydik tarkibida bo'ladi. Sutkalik siydik quritilganda hosil bo'lgan 50-65 g quruq modda 15-25 g anorganik moddalarga to'g'ri keladi. Bularga natriy, kaliy, xlor, kalsiy va magniy ionlari; bikarbonatlar, fosfatlar va sulfatlar kiradi.

Tadqiqot natijalari. Tahlil uchun barcha qoidalaiga amal qilingan holda yig'ib olingan siydik yig'ilgan paytidan boshlab hisoblaganda bir soat ichida tckshirilishi kerak. Mikroskopiya uchun siydikni sentrifugalash yo'li bilan olingan cho'kmasi kerak bo'ladi. Agar sentrifuga bo'lmasa. cho'kma olish uchun siydik birmuncha vaqt tindirib qo'yiladi. Siydik cho'kmasi eritrositlar, leykositlar, silindrlar, achitqi zamburug'lari, bakteriyalar, sodda jonivorlar, tuz kristallari va epiteliy hujayralarini topish uchun tekshirib ko'riladi.

Xulosa

Tibbiyot instituti talabalari yuqorida keltirilgan ma'lumotlar orqali buyrak tosh kasalliklarini aniqlash, tashxis qo'yish va davolash ishlarini amalga oshirishi, kelejakda ish faoliyatida foydalanishlari mumkin.

Adabiyotlar

1. O.O.Obidov., A.A. Jo'rayeva. "Biologik kimyo laboratoriya amaliyoti". Toshkent "Extremum press" 2010 yil

2. R.G‘.Sultonov, N.M. Xolmuhammedova, Sh.F.Karimova, U.L.Sultonho‘jaev. “Biokimyodan amaliy mashg‘ulotlar” Toshkent 2006-yil
3. R.A. Sobirova, O.A. Abrorov, F.X. Inoyatova, A.N.Aripov “Biologik kimyo” Toshkent “Yangi asr avlodi” 2006-yil

Qoraboyev A. A.
mustaqil izlanuvchisi
jahon va mintaqa iqtisodiyot kafedrasi
Farg‘ona Davlat universiteti

FARG‘ONA VILOYAT KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINI IJTIMOIY IQTISODIY RIVOJLANISH TENDENSIYALARI

Anotatsiya: *Farg‘ona viloyatini kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarini ijtimoiy, iqtisodiy rivojlanishini ilmiy jixatdan o‘rganish, tahlil qilish va isteqbolliy startegiya ishlab chiqish.*

Kalit so’zlar: *hududiy joylashuv,YaIM, YaHM, ekispor, indeks, import, subyekt, aksiyodorlik, tijorat.*

Qoraboyev A. A.
independent researcher
department of world and regional economics
Fergana State University

TRENDS IN SOCIAL ECONOMIC DEVELOPMENT OF SMALL BUSINESS AND PRIVATE BUSINESS ENTITIES OF THE FERGANA REGION

Anotation: *The study, analysis and development of a voluntary start-up of the Fergana region from a scientific nature of social, economic development of small business and private business entities.*

Keywords: *Territorial location, GDP, YaHM, ekispor, index, import, subject, shareholder, commercial.*


Tadqiqot obyektining dolzarbligi shundaki Farg‘ona viloyati kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasini monitoring qilishning quydagi jixatlariga etibor berish kerak:

- Respublika, viloyat, tuman va mahalliy miqyosda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarini barqaror rivojlanish muammolarini tor va keng doirada taxlil qilish murakkab jarayondir;
- Taxlil uchun mavjut axborat bazasini to‘liq shakillanmaganligi sababli turli manbalardan foydalanish, asosiy tarmoq va soxalarga etibor qaratishni dolzarbligi;
- Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarni boshqa subyektlardan ajratib olgan holda, bir tizimga solgan holda taxlil qilish;
- Subyektlarni ijtimoiy -iqtisodiy va siyosiy rivojlanishini tartibga solish sohalar bo‘yicha hududiy siyosatni amalga oshirishni dolzarbligi;

- Olib borilayotga islohatlarni natijalarini taxlil qilish, bevosita va bilvosita ta’sir qilubchi omillarni tasirini aniqlash;
- Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarni ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy xolati va ularning isteqbolliy rivojlanishi mintaqa miqyosida amalga oshirrilayotgan strategik ishlar, maqsadli dasturlar, ishbilarmonlik muhiti investitsion loixalar bilan o‘zaro bog‘langanligi.

Farg‘ona viloyati qadimdan shakillanib kelgan silvizatsiya markazlaridan hissoblanadi. Geografik joylashuvi jihatdan mamlakatimizni sharqida, Farg’ona vodiysini janubiy qismida joylashgan. Chegaradosh davlatlari janub va sharqdan Qirg‘iziston respublikasi, g‘arbda Tojikizston respublikasi bilan chegaradosh va shimoldan Namangan va Andijon viloyatlari bilan chegaradosh. Farg‘ona viloyatida 15 ta tuman, 4 ta viloyatga bo‘ysunuvchi shaharlar (Marg‘ilon, Farg‘ona, Quvasoy va Qo‘qon), 5 ta tumanga bo‘ysunuvchi shaharlari (Beshariq, Hamza, Rishton, Quva va Yaypan) mavjud.Bunday infra tuzulma rivojlanish jihatdan qulay bo‘lishiga qaramay birmuncha jixatlari murakkab va muammoli ishlangan. Bunga misol So‘x tumani, Yozovon tumanining ayrim hududlari va Qo’qonga yondosh tumanlarning rivojanishiga Qo‘qon shaharining ta’sirini aytish mumkin.

Bizga ma’lumki hududni iqtisodiyoti qanchalik rivojlanganligini YaIM hajmiga qarab taxlil qilishimiz mumkun so‘ngi yillarda Farg‘ona viloyati kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining umumiy YaIMdagi ulushi sezilarli darjada o‘zgargan. Bunday holatni quydagi diogrammadan tahlil qilsak bo‘ladi.




1-rasim. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining jami YaIMdagi ulushi (foizda).[18]

[18] O'zbekiston statistika qo‘mitasi ma’lumotlari muallif tomonidan qayta ishlangan.

Yuqorida keltirilgan malumotlarni tahlil qilsak 2010-yilda Respublikamizda o‘rtacha YaIMdagi ulushi 60,8 foizni tashkil qilgan. Farg‘ona viloyati o‘rtacha ko‘rsatkichdan 4,1 foiz yuqoriligi bilan harakterlangan holda 64,9 foizni tashkil qilgan. 2015-yilga kelib Respublikamizda o‘rtacha ko‘rsatkich 3,8 foizga o‘sgan, ya’ni 64,6 foizni tashkil etgan. Farg‘ona viloyati esa 2010-yilga nisbatan 4,8 foizga o‘sgan holda 69,7 foizga ortgan. 2020-yilga kelib Respublikamizda o‘rtacha ko‘rsatkich 2010-yilga nisbatan 3,3 foizga pasayib, 2015-yilga nisbatan 7,1 foizga kamaygan ya’ni 57,5 foizni tashkil etgan. Farg‘ona viloyati esa 2010-yilga nisbatan 4,8 foizga oshgan, 2015-yilga nisbatan 8,4 foizga ko‘paygan ya’ni 73,3 foizni tashkil etgan. 2024-yilda bu ko‘rstakich Respublikamizda 54,3 foizni tashkil etib 2010-yilga nisbatan 6,5 foizga pasayib, 2015-yilga nisbatan 10,3 foizga pasayib, 2020-yilga nisbat esa 3,2 foizga kamayishi kuzatilgan. Farg‘ona viloyatida esa 2024-yida bu ko‘rsatkich 73,1 foizni tashkil qilib 2010-yilga nisbatan 8,2 foizga o‘sgan, 2015-yilga nisbatan 3,4 foizga oshgan, 2020-yilga nisbat esa 0,2 foizga kamayishi kuzatilgan. Respublikamizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarini YaIMda o‘sish ko‘rsatkichi 2010-yildan 2024-yilga nisbatan o‘rtacha 60,3 foizni tashkil etib, foiz hisobida -10,7 ga kamaygan. Farg‘ona viloyatida esa bu ko‘rsatkich 2010-yildan 2024-yilga nisbatan o‘rtacha 9,6 foiz ko‘pligi bilan xarakterlanib 69,9 foizni tashkil etib, foiz hisobida esa 12,5 foizni tashkil etib Respublikani o‘rtacha o‘sish foiziga nisbatan 20,3 foiz ko‘pligi bilan harakterlanmoqda. Bu ko‘rsatkichlar esa Farg‘ona viloyatida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarini qolgan viloyatlarga nisbatan yaxshi rivojlanganligini bildiradi.

Farg‘ona viloyatida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning iqtisodiy tarmoq tarkibi birmuncha muarkkab rivojlangan bo‘lib to‘liq tahlil qilinmaganligi birmuncha muammolarni yuzga kelishiga sabab bo‘lmoqda. Yuqorida keltirigan manbalarda YaIMda ulushi pasayishi kuztilganligi buning isbotidir.



2-rasm. Farg‘ona viloyati kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni iqtisodiy tarmoqlar tarkibi *(umumiy hajmga nisbatan % da)*. [19]

[19] O'zbekiston statistika qo‘mitasi ma’lumotlari muallif tomonidan qayta ishlangan.

Diagrammada Farg‘ona viloyatida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining iqtisodiyotning asosiy tarmoqlaridagi ulushi yillar kesimida ko‘rsatilgan. Tahlil natijalariga ko‘ra, ushbu subyektlarning viloyat iqtisodiyotida tutgan o‘rni yil sayin ortib bormoqda. Avvalo, yalpi hududiy mahsulot (YaHM) tarkibida kichik biznesning ulushi 2010-yilda 64,9 foizni tashkil qilgan bo‘lsa, 2024-yilga kelib bu ko‘rsatkich 73,1 foizga yetgan. Bu esa kichik biznesning umumiy iqtisodiy faollikdagi ulushi izchil ortib borayotganini bildiradi.


Sanoat tarmog‘ida ham sezilarli o‘sish kuzatilgan. 2010-yilda kichik biznesning sanoatdagi ulushi 22,5 foiz bo‘lgan bo‘lsa, 2015-yilda bu ko‘rsatkich 42,9 foizga, 2020-yilda 46 foizga, 2024-yilda esa 45,3 foizga yetgan. Bu holat kichik sanoat subyektlarining sanoat ishlab chiqarishidagi rolini kuchayganini ko‘rsatadi.

Qishloq xo‘jaligi tarmog‘ida kichik biznesning ulushi doimo yuqori bo‘lib kelgan. 2010-yildagi 95,5 foizlik ko‘rsatkichi 2024-yilda 95 foiz atrofida barqaror saqlanib qolgan. Bu esa ushbu sohada kichik fermer xo‘jaliklari va xususiy ishlab chiqaruvchilarning yetakchi o‘rin egallayotganidan dalolat beradi.

Qurilish sohasida ham xususiy sektor faolligi ortgan. 2010-yilda 76,4 foizni tashkil qilgan ulush 2020-yilda 91,5 foizgacha ko‘tarilib, 2024-yilda esa 89,9 foiz bo‘lib, yuqori darajada saqlanmoqda.

Bandlik sohasida esa kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning roli doimiy yuqoriligi bilan ajralib turadi. 2010-yilda 77 foiz bo‘lgan ko‘rsatkich 2024-yilga kelib 78,4 foiz darajasida saqlangan. Bu esa ushbu subyektlarning ish o‘rinlari yaratishdagi asosiy manba ekanligini ko‘rsatadi. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik Farg‘ona viloyati iqtisodiyotining deyarli barcha tarmoqlarida muhim o‘rin tutmoqda. Ayniqsa, qishloq xo‘jaligi, qurilish va bandlik sohalarida ulush juda yuqori. Sanoat va YaHM bo‘yicha o‘sish barqaror davom etmoqda, bu esa diversifikatsiyalashuv jarayonining kuchayganini bildiradi.

Viloyatni yillar davomida iqtisodiy rivojlanib borishi ko‘plab statistik ko‘rsatkichlarda o‘z isbotini topmoqda. Masalan kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni YaIM indeksini taxlil qilsak o‘rganilgan davr mobaynida yillar kesimida chuqur taxlil va mulohaza yuritsak bo‘ladi. Quydagi diogrammada 2010-yildan 2024-yillar oralig‘ida aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigon YaIM indeksini taxlil qilingan.



3-rasm. Farg‘ona viloyati kichik biznes va xususiy tadbirkorliklarini aholi jon boshiga YaIM indeks[20].

Yuqorida keltirilgan ma’lumotlarga ko‘ra, 2010–2024 yillar davomida Farg‘ona viloyatida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning aholi jon boshiga YaIM indeksi sezilarli tebranishlarga ega bo‘lgan. Bu holat viloyat iqtisodiyotida kichik biznes subyektlarining faolligi, ishlab chiqarish hajmi va aholi sonining o‘zgarishlari bilan chambarchas bog‘liqdir.

2010-yilga nisbatan 2011-yildagi indeks 17,7% gacha oshgan bo‘lib, bu davrda viloyatda kichik biznes subyektlari faoliyatini kengaytirish va soddalashtirilgan soliq tizimining tatbiqi natijasi sifatida izohlanadi. 2012–2014-yillar oralig‘ida indeks nisbatan barqaror bo‘lib, 15,3–16,6% oralig‘ida saqlanib qolgan. Bu davrda kichik tadbirkorlik sektori asosan savdo, xizmat ko‘rsatish va qishloq xo‘jaligi yo‘nalishlarida rivojlanishni davom ettirgan.

2015–2017-yillarda esa indeksda pasayish tendensiyasi kuzatilgan bo‘lib, 2017-yilda eng past daraja — 10,2% qayd etilgan. Ushbu pasayish kichik biznes faoliyatining ayrim tarmoqlarida qisqarishi, shuningdek, iqtisodiyotning umumiy tarkibida yirik ishlab chiqarish korxonalarining ulushi ortganligi bilan izohlanadi.

2018-yilda esa indeksda keskin o‘sish kuzatilib, 20,6% ga yetgan. Bu davrda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining tadbirkorlik faoliyatini qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan qarorlari, xususan 2017–2018-yillardagi “Tadbirkorlik subyektlarini rivojlantirishni jadallashtirish dasturi” natijalari o‘z samarasini bergan[21].

2019–2020-yillarda indeksi yana nisbatan pasayib, 11,6–11,9% darajalarida saqlanib qolgan. 2021–2022-yillarda esa Farg‘ona viloyatida kichik biznesning jon boshiga ishlab chiqarish hajmi sezilarli darajada oshib, indeks 23,2% ko‘rsatkich bilan eng yuqori nuqtaga chiqqan. Bu davrda viloyatda sanoat klasterlari, oilaviy tadbirkorlik loyihalari va mikromoliyaviy institutlar faoliyatining kengayishi kuzatilgan.

[20] O'zbekiston statistika qo‘mitasi ma’lumotlari muallif tomonidan qayta ishlangan.
[21] O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 20.01.2024 yildagi 37-sonli qarori.

2023-yilda indeksda yana qisqa muddatli pasayish — 12,1% qayd etilgan bo‘lsa, 2024-yilda u 17,8% gacha tiklangan. Bu holat pandemiyadan keyingi iqtisodiy tiklanish, iste’mol bozori kengayishi va yangi kichik ishlab chiqarish subyektlarining paydo bo‘lishi bilan izohlanadi.

Umuman olganda, 2010–2024 yillar mobaynida Farg‘ona viloyatining kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sektori dinamik, lekin siklik o‘zgarishlarga ega bo‘lgan. Indeks qiymatlarining tebranishi kichik biznes subyektlarining makroiqtisodiy omillar, davlat siyosati va hududiy investitsion faollikka bog‘liqligini ko‘rsatadi.

Tahlil natijalariga ko‘ra, Farg‘ona viloyatida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning aholi jon boshiga YaIM indeksi o‘rganilgan davrda o‘rtacha 15–17% diapazonida shakllangan. Bu ko‘rsatkich viloyat iqtisodiyotida kichik biznesning barqaror o‘sish omili sifatida muhim ro‘l o‘ynayotganini, ammo ayrim yillarda iqtisodiy tebranishlar va tashqi omillar ta’siri sezilarli bo‘lganini ko‘rsatadi. Shu bois, kelgusida kichik biznesning innovatsion faoliyatini kengaytirish, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish va hududiy diversifikatsiyani chuqurlashtirish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 20.01.2024 yildagi 37-sonli qarori.
2. Xodiyev B.Yu., Qosimova M.S., Samadov A.N. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik. T.: TDIU, 2010.
3. Samadov A.N., Ostanaqulova G.N. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik. T.: Moliya-iqtisod, 2008.
4. Qosimova M.S., Yusupov M.A., Yergashxodjayeva Sh.J. Marketing. – T.: TDIU -2010.
5. Salamov.I., Qudratov.T., Qudratova.I. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik (Ma’ruzalar kursi) –Samarqand-2015
6. Burton.G. Tadbirkorlik va kichik biznesni boshqarish. ISBN 978-1-9789-2433-8 Library Press tomonidan. New York, NY 10001, AQSh

Qosimov O. A.
assistant
Andijan state technical institute
Republic of Uzbekistan
ORCID ID: 0009-0006-5504-6980

IMPROVING EFFICIENCY BY MEASURING NOISE LEVELS AND VIBRATIONS OF ELECTRICAL MACHINES AND TRANSFORMERS UNDER TEST

Abstract: *Voice waves pressure vibrations in appearance spreading longitudinal mechanic is a wave Man ear from 16 to 16000 Hz was frequencies feels . High frequency vibration - ultrasound low frequency and is called infrasound . Noise is the sound of pressure disorderly different kind frequencies with to change It is said that electricity machines and transformers by harvest made real noise and vibration degrees safe work requirements and labor productivity factors with Production is limited . release quality improve and noise and vibration the most big level harvest to do electricity machines and transformers separately units improvement because of this requirements certain restrictions within to take possible .*

Key words: *Electricity, Transformers, Control, vibrations, Aerodynamic, mechanisms, Magnet, magnetic field*

Introduction

Electricity of cars noise

Electricity of cars general noise following into parts separation possible . Aerodynamic noise electricity of the car different parts and mechanisms (rotor, fan , collector) (vh .) rotation because of gas cooling of the tool movement as a result appearance The gas whirlwind movement how much strong if there is noise level so much high It will be . Rotating surface on the surface reflection delivered don't be shy gases wide in the circle to the noise reason child his energy whole to hear in the range spectral accordingly distributed . Fan noise mainly his/her speed to the circle related . So so , speed range above 60 m/s electricity cars for general noise level many in cases only fan aerodynamic group with determined . Aerodynamic noise also fan by compressed air or 237 of the gas bearing shields and of the body rib such as etc. to obstacles face arrival with was also the effects inside This obstacles voice of waves distributors become The fan remains . feathers one rhythmic step by step has if yes , siren noise frequency as follows (Hz):

$f = z\,n$

this on the ground z - fan feathers number : n – rotation frequency , rpm . Magnet noise stator and rotor binding vibrations vibrations and periodic to the character has happened electromagnet of forces variable movement impact under appearance Magnet noise , mainly from the machine air of the cavity magnet induction squared proportional to the radial forces that are related . Magnet of the

field air in the void distribution complexity due to arising from was magnet noise wide comprehensive will be . Bearing noise bearing swinger elements working when released road placed error imbalance and uncertainties with is marked . Noise level bearing diameter and shaft rotation speed increase , magnet of strength one one-sided gravity and rotor from reading known one to the corner shift as a result increases .

Transformers noise

Transformer noises mainly magnetostriction (variable) magnet to the square placed ferromagnetic of the body size and appearance change (event) with related . Accelerator cooling systematic large to transformers typical was other noise sources , ventilator and oil pumps own inside takes . From this outside noise in the bushes electrodynamic motion and loading under voltage corrector electromechanical devices by appearance Transformers noise level electromagnetic downloads and size dimensions size with Magnetostriction is defined as as a result appearance to be of noise main reason magnet core vibration , induction , electrical engineering steel parameters structure and to physics related . Vibration oil and magnet conductor columns through directly right to the tank transmitted . Magnet from the heart tank to the wall was distance (frequency 100 Hz in oil for wave complete length about 12 m) wave to the length relatively small that was because of this , each tank part magnet conductor the most close in part vibrations harvest I think it will. let's do possible . Some in cases other noise sources many to be possible . In general when taking , in transformers magnet the noise main to make noise possible .

Methods

Noise level measurement

Acoustic parameters measurement following to the reasons according to one how many to difficulties related : measurement values small absolute value , because acoustic pressure static atmosphere pressure 10-6 ÷ 10-8 organization does ; measure frequencies from 2 to 30,000 Hz was wide range ; sound issuer and acceptance of those who do , as well as measurements done increaseable of the building resonance features ; room acoustic of the fields complexity and their to the frequency connection ; sound , noise and vibration spectrum complicated and stable not , also acoustic acceptance those who do nearby dysfraction events . Therefore for high accurate acoustic measurements for , on demand right coming measurement device and analyzers , the most simple configurations sound fields harvest to be providing special equipped rooms necessary . In decibels expressed gas in the environment acoustic pressure level measurement for voice called a ruler from the apparatus used . Voice ruler (picture 1) measurement microphone amplifier , repair chain , detector and from the indicator consists of is a scale acoustic pressure to the border relatively in decibels graded . Noise on the scale stable , stationary and impulse noises measurement opportunity giving one how many temporary characteristics in sight caught . To GOST 17187-81 according to , noise ruler measurements accuracy four to class divided into : 0, 1, 2, 3. Class 0 devices exemplary measurement tool as applies and work in the standards graded ,

class 1 - clear laboratory and real measurements for , class 2 - normal accuracy measurement for , class 3- approximate ' measurements for . 0 and 1 class noise meters 12.5 Hz ÷ 20 kHz, class 2 -8 Hz÷20 kHz, class 3 -31.5 Hz÷ 8 kHz standard frequency to the range has . Some octave and three one partial octave filters with equipped they are necessary frequency in the range noises in detail analysis to do opportunity gives . Measured noise level dynamic range : minimum – 15÷35, maximum 140÷160 dB[3].




Figure 1. Noise cherry blossom structure circuit : 1-microphone; 2-preamplifier ; 3- limiter transducer ; 4-amplifier; 5- frequency characteristic filters chain ; 6-external filters ; 7-quadratic detector ; 8-average exponential chain ; 9th indicator, in decibels graded

Noise 31.5 to 12,500 Hz on the meter was frequency in the range directionless measurement from the microphone Microphone sensitivity surroundings environment pressure up to ±10% more than ±0.5 dB when changing unchanging Need . Noise level and frequency , as well as measurement to the conditions depending on the following microphone types used : capacitor , piezoelectric and electrodynamics . Electricity cars noises measurement for hypersensitivity and up to 10÷40 Hz good frequency characteristic has condenser microphones the most many is used . From except this kind of microphones external electromagnetic to the fields sensitive not . O' z noise level (35÷50 dB) higher condenser microphones disadvantage However , this is electricity car and transformers most of them for suitable is the value , because 1 m distance between measured electricity of cars bottom permission done noise level 49÷64 dB (according to GOST 16372) according to " Rotary " electricity machines . Permission done noise level "). At a distance of 0.3 m transformers for permission done noise level 47÷66 dB (GOST 12.2.024 76 “ Noise . Oil power Transformers . Control to do norm and methods 1st grade many noise meters condenser microphones with provided[4].




Figure 2, Device a) polarized voltage transmission scheme b) and relative frequency characteristic c) one-inch condenser microphone 0o, 90o drop angle , random (R) fall and (P) pressure for : 1-diaphragm; 2-back plate (immobile electrode); 3- insulator ; 4-body; 5-pressure equalization hole ; 6-sound pressure ; 7-output; 8- polarizer voltage source

Noise ruler letters A, B, C with expressible straightener to the characteristics These characteristics human ear with the noise subjective acceptance to do represents the present . at the time noise level analysis and record to do for used linear characteristic with one in line corrected A - curvature wide spread . A, B, C correction to the curvature suitable incoming amplitude frequency characteristic 4.5 - in the picture from Figure 5. apparently as it stands, A correction curvature measurable If , the low frequency of the noise components sharp decreases, so for Measurement A corrected and uncorrected (linear) two curvature according to to perform This is a curve . lines according to taken measurement the results comparing the spectrum which part advantage is evaluated . A curvature noise level linear scale from measurements if it is much lower , then being measured noise big low frequency organization to the sender If the indicators close if , then noise mainly high frequency organization to the sender has .




Figure 4. Bobbin (a) and ribbon (b) electrodynamic (dynamic) microphones Device : 1 - reel ; 2 - diaphragm; 3 - body ; 4 - permanent magnet ; 5 - tape Exponential average chain two work to the regime has : F (fast) 125 ms unchanging at the time and S (slow) is immutable time 1 s

Conclusion

Electricity cars and transformers noise Aerodynamic noise electricity of the car different parts and mechanisms in rotor, fan , collectors rotation because of gas cooling of the tool movement as a result appearance to be see We came out . If the vibration The reason is rotor imbalance. missing if there is , many in cases low- frequency noise is considered because 16 Hz hearing ability bottom speed limit 960 rpm to the speed suitable arrival studied . Noise level in measurement Acoustic parameters measurement following to the reasons according to one how many to difficulties dependency : measurement values small absolute value because acoustic pressure static atmosphere pressure 10-6 ÷ 10-8 organization measure frequencies from 2 to 30,000 Hz was wide range; sound issuer and acceptance those who do , as well as measurements done increaseable of the building resonance features ; room acoustic of the fields complexity and their to the frequency connection ; sound , noise and vibration spectrum complicated and stable not, also acoustic acceptance those who do nearby dysfractions and events Therefore for high accurate acoustic measurements for, on demand right coming measurement device and analyzers , the most simple configurations sound fields harvest to be provides .

References

1. Egamov, Dilmurod, Saydullo Sharobiddinov, Oybek Qosimov, and Dilrabo Olimjonova. "Mobile device for automatic input of reserve of electricity." In AIP Conference Proceedings, vol. 3244, no. 1. AIP Publishing, 2024.
2. Qosimov, Oybek, Shahzod Sayfiyev, Gulrux Sultonova, and Aziz Dauletbayev. "STATISTICAL DYNAMICS AND ACCEPTABLE FILTERS: https://doi. org/10.5281/zenodo. 11256785." International Journal of scientific and Applied Research 1, no. 2 (2024): 204-206.
3. Oybek, Qosimov. "ELIMINATION OF ELECTRICAL ENERGY WASTE IN RESIDENTIAL BUILDINGS OF 10-04 SQUARE METERS." Лучшие интеллектуальные исследования 21, no. 2 (2024): 21-26.
4. Касимов, О. А., & Баходирова, А. (2025). ЭНЕРГЕТИЧЕСКИЙ АУДИТ ПРОМЫШЛЕННЫХ ПРЕДПРИЯТИЙ НА ОСНОВЕ ОЦЕНКИ ЭНЕРГО-И РЕСУРСОСБЕРЕЖЕНИЯ. ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ, 64(2), 27-37.
5. Qosimov, O. A., & Muhriddin, I. (2025). SANOAT KORXONALARINI ENERGIA AUDITI. ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ, 64(1), 400-406.
O‘zbek olimlari ham geografiya fanlarini o‘qitishda innovatsion yondashuvlarni joriy etishga katta e’tibor qaratmoqda. Masalan, Musayeva Laylo Kaxramonovna o‘z maqolasida geografiya fanini o‘qitishda interfaol usullar va raqamli texnologiyalarning samaradorligini ta’kidlaydi [4; 845-847-b.]. Unga ko‘ra, raqamli vositalar yordamida o‘quvchilarning darsga bo‘lgan qiziqishini oshirish va ularning nazariy bilimlarini amaliy ko‘nikmalar bilan mustahkamlash mumkin. Shuningdek, Sarikulov Mirkomil Olimovich ham geografiya fanini o‘qitishda yangi innovatsion metodlarni qo‘llash orqali ta’lim samaradorligini oshirish haqida fikr bildiradi [5; 95-98-b.]. U ayniqsa, klaster, debat va interaktiv kartalar kabi usullarni qo‘llashni tavsiya etadi. Ularning tadqiqotlarida pandemiya davrida raqamli vositalar yordamida masofaviy ta’limni yo‘lga qo‘yishning afzalliklari, jumladan, o‘quvchilarning o‘quv jarayoniga uzluksiz jalb qilinishini ta’minlash masalalari yoritilgan. Bunday yondashuv orqali o‘quvchilarning geografiya faniga bo‘lgan qiziqishi kuchayib, o‘zlashtirish darajasi sezilarli ravishda yaxshilangan.

Geografiya fanida dronlardan foydalanish, sun'iy yo‘ldosh xaritalarini tahlil qilish va raqamli laboratoriyalar orqali amaliy ko‘nikmalarni shakllantirish haqida ham ko‘plab izlanishlar olib borilmoqda. Bunday vositalar tabiiy hodisalarni kuzatish va real vaqt rejimida tahlil qilish imkoniyatini beradi. Shu sababli raqamli vositalar orqali o‘qitish geografiya fanining qiyosiy va tahliliy jihatlarini osonroq tushuntirishga xizmat qiladi.

Umuman olganda, geografiya fanlarini raqamli vositalar yordamida o‘qitishning innovatsion usullari jahon va o‘zbek olimlari tomonidan keng o‘rganilgan va bu usullar ta’lim jarayonini yanada samarali qilishga xizmat qiladi. Bu yondashuvlar o‘quvchilarning darsga bo‘lgan qiziqishini oshirish, ularning mustaqil fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish va nazariy bilimlarni amaliy ko‘nikmalar bilan mustahkamlash imkonini beradi.

Xalqaro va milliy tadqiqotlarning umumiy xulosasi shundan iboratki, geografiya fanini raqamli texnologiyalar orqali o‘qitish o‘quvchilarning qiziqishini oshirish, ularning analitik va amaliy ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Shuningdek, masofaviy ta’lim imkoniyatlari ta’limda tenglikni ta’minlash va inklyuzivlikni kuchaytirishga yordam beradi. O‘zbekistonda ushbu yondashuvni keng qo‘llash orqali nafaqat dars sifati oshiriladi, balki ta’lim tizimi xalqaro standartlarga moslashishiga erishiladi.

Natijalar va muhokama

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, geografiya fanlarini raqamli vositalar yordamida o‘qitish o‘quv jarayonining samaradorligini oshirishda muhim ahamiyatga ega. O‘qituvchilar tomonidan raqamli xaritalar, interaktiv platformalar va virtual ekskursiyalardan foydalanish o‘quvchilarning mavzuni yaxshi tushunib olishiga yordam berdi. Ayniqsa, Google Earth va ArcGIS kabi dasturlardan foydalanish o‘quvchilarda ko‘nikmalarni amaliy mashqlar orqali mustahkamlash imkoniyatini yaratdi [6; 49-51-b.].

Tadqiqot davomida o‘quvchilarning motivatsiyasi sezilarli darajada oshgani kuzatildi, chunki raqamli vositalar darslarni yanada qiziqarli va dinamik qilishga yordam berdi. Shuningdek, masofaviy ta’limda raqamli platformalardan foydalanish geografiya faniga oid o‘quv materiallariga oson kirish imkonini berdi va o‘quvchilar bilan muntazam aloqani ta’minladi.

Biroq, tadqiqot jarayonida ayrim cheklovlar ham kuzatildi. Jumladan, raqamli vositalardan foydalanishda texnik muammolar va internetga bog‘liqlik ayrim holatlarda o‘quv jarayonini sustlashtirdi. Shu bilan birga, barcha o‘qituvchilar raqamli texnologiyalarni samarali qo‘llash uchun yetarli tayyorgarlikka ega emasligi ham muammo sifatida qayd etildi.

Umuman olganda, raqamli texnologiyalarni geografiya ta’limida qo‘llash an'anaviy usullarga nisbatan ancha samarali ekani isbotlandi. Ushbu yondashuv o‘quvchilarning faol ishtirokini oshirish bilan birga ularning analitik fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Geografiya fanlarini raqamli vositalar yordamida o‘qitish bo‘yicha amalga oshirilgan ta’lim jarayonida quyidagi asosiy natijalar kuzatildi:

1. Ta’lim sifati va qiziqishni oshirish:

– interaktiv va vizual vositalar: Google Earth, 3D xaritalar va virtual sayohatlar o‘quvchilar orasida qiziqishni oshirdi, chunki geografik obyektlar va hududlarni jonli ko‘rish imkonini berdi [7; 390-392-p.];

– o‘yinlashtirish (gamification): Quiz va test platformalari (Kahoot, Quizizz) yordamida o‘quvchilar orasida raqobat muhiti paydo bo‘ldi, bu ularning darslarga faol ishtirokini ta’minladi.

2. Bilim olish samaradorligi:

– murakkab tushunchalarni yengillashtirish: 2D va 3D xaritalar, simulyatsiyalar orqali relyef, iqlim zonalari, migratsiya yo‘llari kabi tushunchalarni aniq va oson tushuntirish imkoni yaratildi;

– an’anaviy va raqamli o‘qitish taqqoslanganda: Raqamli vositalar yordamida o‘tilgan mavzular bo‘yicha o‘quvchilarning test natijalari an’anaviy usullarga qaraganda yaxshiroq natija ko‘rsatdi. Masalan, murakkab geografik tushunchalarni o‘quvchilar 20-30% tezroq o‘zlashtirgani kuzatildi.

3. Talabalar mustaqilligi va motivatsiyasini oshirish:

– masofaviy o‘qitish imkoniyatlari: O‘quvchilar uyda yoki boshqa qulay joyda darslarni o‘zlariga mos vaqtda o‘rganish imkoniyatiga ega bo‘ldi. Bu

o‘quvchilar orasida mustaqil o‘rganish ko‘nikmalarini rivojlantirishga yordam berdi;

– ma’lumotlarning ochiqligi va qulayligi: O‘quvchilarga onlayn xaritalar va interaktiv ma’lumotlar bazasidan foydalanish orqali kengroq geografik ma’lumotlardan foydalanish imkoniyati taqdim etildi.

4. O‘qituvchilarning ish faoliyatini yaxshilash:


– zamonaviy texnologiyalarni qo‘llash ko‘nikmalari: O‘qituvchilar raqamli platformalardan foydalanishni o‘rganish orqali o‘z malakasini oshirdi;

– teskari aloqa va tahlil qulayligi: Raqamli test platformalari yordamida o‘quvchilarning natijalarini tezda ko‘rib chiqish va muammoli mavzularni aniqlash osonlashdi [8; 648-653-b.].

5. Raqamli vositalar yordamida individual yondashuv:

– moslashtirilgan ta’lim: Platformalar o‘quvchilarning bilim darajasiga qarab individual topshiriqlar va materiallar bilan ta’minlash imkonini berdi;

– maxsus ehtiyojli o‘quvchilar uchun imkoniyatlar: Raqamli texnologiyalar, masalan, subtitrlar va audiomateriallar orqali ko‘rish va eshitish qobiliyati cheklangan o‘quvchilar uchun darslar moslashtirildi.



1-rasm. Geografiya fanlarini raqamli vositalar yordamida o‘qitish bo‘yicha asosiy natijalar.

Ushbu natijalar raqamli texnologiyalarning geografiya fanlaridagi ta’lim jarayonini sezilarli darajada yaxshilashini ko‘rsatadi. Texnologiyalar nafaqat o‘quv jarayonini qiziqarli qiladi, balki o‘quvchilarni chuqurroq o‘rganishga undaydi va o‘qituvchilarga ta’lim sifatini oshirish imkonini beradi.

Xulosa

Geografiya fanlarini raqamli vositalar yordamida o‘qitish ta’lim jarayonini samarali va interaktiv qilishda muhim o‘rin tutadi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, raqamli xaritalar, virtual ekskursiyalar va interaktiv platformalar orqali mavzularni tushuntirish o‘quvchilarning darsga qiziqishini oshiradi va ularning bilimlarini amaliy ko‘nikmalar bilan boyitadi. Ayniqsa, Google Earth va ArcGIS kabi vositalar geografik jarayonlarni vizual tushunishga yordam beradi.

Biroq, texnik cheklovlar va internetga bog‘liqlik dars jarayonida ayrim qiyinchiliklar tug‘dirishi mumkin. Shuningdek, o‘qituvchilarning texnologik ko‘nikmalarini doimiy ravishda rivojlantirish talab etiladi.

Umuman olganda, raqamli vositalar geografiya ta’limining sifatini oshirishga, o‘quvchilarning analitik fikrlash va mustaqil o‘rganish ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Ushbu innovatsion yondashuv kelajakda yanada keng qo‘llanishi va ta’lim jarayoniga ijobiy ta’sir ko‘rsatishi kutilmoqda.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida"gi PF-5847-son Farmoni (https://lex.uz/ru/docs/-4545884)
2. https://ahaslides.com/uz/blog/15-innovative-teaching-methods/
3. Xamroyeva M.E. (2023). Geografiya fanlarini o ‘qitish va innovatsion yondashuv. 2021, No. 2 (126/1), 126(99), 5-8.
4. Kaxramonovna M. L. (2022). Geografiya fanlarini o’qitishda yangi innovatsion texnologiyalardan foydalanish yo’llari. Pedagog, 5(7), 845-847.
5. Sarikulov M.O. (2023). Umumtalim maktablarida geografiya fanini oqitishda yangi innovatsion metodlar qollash orqali talim samaradorligini oshirish. Экономика и социум, (1-1 (104)), 95-98.
6. Eshquvatov S. (2023). Geografiya fanini o’qitishda interfaol metodlarning ahamiyati. Инновационные исследования в современном мире: теория и практика, 2(19), 49-51.
7. Yuldashalıyevna S.M. (2024). Geografiya fanini o ‘qitish bo ‘yicha metodik tavsiyalar. holders of reason, 2(1), 648-653.
8. Уктамов У.Ш. Классификация (дифференциация) ландшафтов Центральной Ферганской пустыни. // Экономика и социум.-2024. – №6(121). www.iupr.ru. "Институт управления и социально-экономического развития", Россия, г. Саратов. ISSN 2225-1545. (11.00.00. Мустақил давлатлар ҳамдўстлиги мамлакатлари нашрлари № 11). 1401-1405 с.

Samiyev U. A.
dotsenti
biologiya va geografiya kafedrasi
Andijon davlat pedagogika instituti
Uktamov U. Sh., g.f.f.d. (PhD)
v/b dotsenti
biologiya va geografiya kafedrasi
Sarikulov M. O.
o`qituvchisi
biologiya va geografiya kafedrasi
Payzullayev M. A.
o`qituvchisi
biologiya va geografiya kafedrasi

MUSTAQIL TA'LIM – TALABALARNI INNOVATSION PEDAGOGIK FAOLIYATGA TAYYORLASHNI MUHIM OMILI SIFATIDA

Annotatsiya: *Ushbu maqolada ijodiy fikrlashni rivojlantirish mustaqil topshiriqlar talabalarning ijodiy yechimlarni topish ko'nikmalarini rivojlantirish, muammoli vaziyatlarda qaror qabul qilish va talabalar mustaqil ta'lim davomida turli muammoli vaziyatlarni hal qilish ko`nikmasini shakllantirish, bu esa ularni kelajakda innovatsion pedagogik faoliyatda muvaffaqiyatli bo'lish, mas'uliyat va tashabbuskorlik mustaqil ta'limda talabalar o'z vaqtlarini to'g'ri taqsimlash va tashabbus ko'rsatish imkoniyatlari yoritiladi.*

Kalit so'zlar: *innovatsiya, kontsepsiya, modul, raqamli vositalar, onlayn platformalar, ta'lim samaradorligi, masofaviy ta'lim, elektron platforma, registrator ofis.*

Samiyev U. A.
associate professor
department of biology and geography
Andijan State Pedagogical Institute
Uktamov U. Sh., doctor of philosophy in geography (PhD),
acting associate professor
department of biology and geography
Sarikulov M. O.
teacher
department of biology and geography
Payzullayev M. A.
teacher
department of biology and geography

INDEPENDENT EDUCATION - AS AN IMPORTANT FACTOR OF PREPARING STUDENTS FOR INNOVATIVE PEDAGOGICAL ACTIVITY

Abstract: *In this article, the development of creative thinking, independent tasks, the development of students' skills to find creative solutions, decision-making in problem situations, and the formation of students' ability to solve various problem situations during independent education, which will make them successful in innovative pedagogical activities in the future, responsibility and initiative, the ability of students to properly allocate their time and show initiative in independent education will be highlighted.*

Key words: *innovation, concept, module, digital tools, online platforms, educational efficiency, distance education, electronic platform, registrar's office.*

Kirish

Mustaqil ta’lim zamonaviy ta’lim tizimida talabalarning o‘z ustida ishlash, nazariy bilimlarini amaliy ko‘nikmalar bilan boyitish hamda ijodiy va innovatsion fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Bu jarayon talabalarning tashabbuskorligini oshirib, ularni mustaqil qaror qabul qilishga, muammolarni tahlil qilish va yechim topishga o‘rgatadi. Ta’lim jarayonida innovatsion texnologiyalarni keng qo‘llash imkoniyatlari ortib borayotgan sharoitda mustaqil ta’lim talabalarni pedagogik faoliyatda yangicha yondashuvlarni qo‘llashga tayyorlashning muhim vositasiga aylanmoqda.

Bugungi kunda innovatsion texnologiyalar ta’lim jarayoniga keng ko‘lamda tatbiq etilayotgani sababli, o‘qituvchilar va talabalar yangi bilim va ko‘nikmalarni o‘zlashtirishda yangicha yondashuvlarni qidirishga majbur bo‘lmoqdalar. Bunda mustaqil ta’limning ahamiyati yanada oshib, u talabalarni pedagogik faoliyatda innovatsiyalarni joriy etishga tayyorlaydigan muhim vositaga aylanmoqda. Shu sababli, mustaqil ta’lim talabalarda tahliliy fikrlash, ijodkorlik, hamkorlikda ishlash va muammolarni hal qilish kabi XXI asr ko‘nikmalarini rivojlantirishning asosiy manbai hisoblanadi.

“O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish kontsepsiyasi”da oliy ta’lim jarayonlariga raqamli texnologiyalar va zamonaviy o‘qitish usullarni joriy etish, yoshlarni ilmiy faoliyatga keng jalb etish, korrupsiyaga qarshi kurashish, muhandislik-texnik ta’lim yo‘nalishlarida tahsil olayotgan talabalar ulushini oshirish, kredit-modul tizimini joriy etish, o‘quv rejalarida amaliy ko‘nikmalarni oshirishga qaratilgan mutaxassislik fanlari bo‘yicha amaliy mashg‘ulotlar ulushini oshirish bo‘yicha aniq vazifalar belgilab berilgan. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentning 2019-yil 8-oktyabrdagi Farmoni bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish kontsepsiyasi”ga[1] ko‘ra mamlakatdagi oliy ta’lim muassasalarining 85 foizi 2030-yilgacha bosqichma-bosqich kredit-modul tizimiga o‘tishi rejalashtirilgan. Shuningdek, ta’limni tizimli isloh qilishning ustuvor yo‘nalishlari va yoshlarga ta’lim berishda innovatsion shakl va usullarni joriy etish alohida

ta’kidlangan. Ushbu qarorda ta’lim tizimini yangi bosqichga ko‘tarish va o‘sib kelayotgan avlodni ma’naviy-axloqiy hamda intellektual rivojlantirish zaruriyati belgilangan. Ushbu maqsadlarga erishish yo‘lida mustaqil ta’limning roli katta bo‘lib, u talabalarning yangi bilimlarni amaliyot bilan integratsiyalashiga ko‘mak beradi.

Adabiyotlar tahlili va metodlar

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 31-dekabrdagi “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim jarayonini tashkil etish bilan bog‘liq tizimni takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 824-son qarori [2] hamda Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirining 2020-yil 16-iyuldagi “Oliy ta’limning davlat ta’lim standartlarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 311-son buyrug‘i hamda O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2022-yil 30-maydagi 02/3530/05-49-sonli xatidagi “Oliy ta’lim muassasalarida kredit-modul tizimida talabalarning mustaqil ta’limini tashkil etish va nazorat qilish bo‘yicha namunaviy yo‘riqnoma” ishlab chiqilgan bo‘lib bu talabalarni mustaqil ta’limni tashkil etishda amaliy ahamiyat kasb etadi.

Talabaning mustaqil ta’lim yuklamasi o‘quv rejasida muayyan fanni o‘zlashtirish uchun belgilangan o‘quv ishlarining ajralmas qismi hisoblanadi. Talabaning mustaqil ta’limi auditoriya va auditoriyadan tashqarida (o‘quv yuklamasida ajratilgan auditoriya soatini inobatga olmagan holda) bevosita o‘qituvchi rahbarligida mustaqil ish yoki talabaning fan (modul) bo‘yicha mavzulami mustaqil o‘qib-o‘rganishi tarzida amalga oshiradigan o‘quv ishlari majmuini anglatadi.

Mustaqil ta’lim-bu talabaning o‘z bilimlarini kengaytirish va chuqurlashtirish uchun o‘quv topshiriqlarini o‘z kuchi bilan bajarishi hamda yangi bilimlarni mustaqil ravishda o‘zlashtirishini nazarda tutadi. Ushbu jarayon talabaning mustaqil fikrlashini, mas’uliyatlilik va o‘z-o‘zini boshqarish ko‘nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan. Mustaqil ta’limning asosiy maqsadi talabalarga o‘z ta’lim jarayonini rejalashtirish, boshqarish va ijodiy faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan bilim va ko‘nikmalarni shakllantirishdan iborat [3; 24-28-b.].

Innovatsion ta’lim jarayonlari talabaning faqatgina tayyor bilimlarni o‘zlashtirishini emas, balki yangi bilimlarni izlab topish va ishlab chiqishni ham talab qiladi. Shu nuqtayi nazardan, mustaqil ta’lim talabalarni innovatsion faoliyatga tayyorlashda quyidagi jihatlarda muhim rol o‘ynaydi:

– **ijodiy fikrlashni rivojlantirish:** mustaqil topshiriqlar talabalarning ijodiy yechimlarni topish ko‘nikmalarini rivojlantiradi;

– **muammoli vaziyatlarda qaror qabul qilish:** talabalar mustaqil ta’lim davomida turli muammoli vaziyatlarni hal qilishni o‘rganadilar, bu esa ularni kelajakda innovatsion pedagogik faoliyatda muvaffaqiyatli bo‘lishiga yordam beradi;

– **mas’uliyat va tashabbuskorlik:** mustaqil ta’limda talabalar o‘z vaqtlarini to‘g‘ri taqsimlash va tashabbus ko‘rsatishni o‘rganadilar, bu esa innovatsion faoliyatda kerak bo‘ladigan muhim jihatlardir [4; 213-216-b.].

Bugungi kunda rivojlangan mamlakatlarda talabalarning o‘quv va ijodiy faolliklarini oshiruvchi, ta’lim-tarbiya jarayonining samaradorligini kafolatlovchi pedagogik texnologiyalarni qo‘llashga doir katta tajriba to‘plangan bo‘lib, bu tajriba asosini interfaol metodlar tashkil etmoqda. Talaba asosan, o‘zi o‘zlashtirgan bilimlarni namoyish etadi, o‘qituvchi esa uning fikrlarini tinglaydi, zarur o‘rinlarda o‘qituvchi – talaba an’anaviy ta’limdagi suhbat ishtirokchilari savollar bilan murojaat qiladi. Talabalar guruhi (jamoasi) bu vaziyatda butunlay sust ishtirokchi, tinglovchi bo‘lib qoladi. Bir qarashda talaba yoki o‘qituvchi tomonidan uzatilayotgan axborotlarning qabul qilinishi talabalar guruhi (jamoasi) uchun bilimlarni o‘zlashtirish imkoniyatini yaratayotgandek taassurot uyg‘otadi. Biroq, psixologik tadqiqot natijalarining ko‘rsatishicha, shu tarzda qabul qilingan bilim (ma’lumot)lar juda tez unutiladi. Hususan, amerikalik psixolog olimlar R.Karnikau va F.Makelrouning o‘rganishlariga ko‘ra shaxsning tabiiy fiziologik-psixologik imkoniyatlari muayyan shakllarda o‘zlashtirilgan bilimlarni turli darajada saqlab qolish imkonini beradi. Zamonaviy ta’limni tashkil etishga qo‘yiladigan muhim talablardan biri ortiqcha ruhiy va jismoniy kuch sarf etmay, qisqa vaqt ichida yuksak natijalarga erishishdir [5; 308-317-b.].

Natijalar va muhokama

Mustaqil ta’lim – o‘quv materialini mustaqil o‘zlashtirish, murakkablik darajasi turlicha bo‘lgan topshiriqlar, amaliy vazifalami auditoriya hamda auditoriyadan tashqarida ijodiy va mustaqil bajarish asosida nazariy bilim, amaliy ko‘nikma va malakalari shakllantirishga qaratilgan tizimli faoliyatdir. Mustaqil ish – o‘qituvchining topshirig‘i va rahbarligida o‘quv vazifasini hal etadigan ta’limning faol metodi. Mustaqil ish qo‘yilgan maqsad bilan bog‘liqlikda talabalarning aniq faoliyatini tashkil etish va amalga oshirishdir. Talabaning mustaqil ishlari uning yuqori darajadagi faollik, ijodiylik, mustaqil tahlil, tashabbuskorlikka ham da barcha vazifalamio‘z vaqtida va mukam mal tarzda bajarishga asoslangan faoliyatidir.

Mustaqil ish turi va shakli muayyan ta’lim yo‘nalishi (mutaxassislik) hamda fan (modul) laring xususiyatidan kelib chiqqan holda belgilanadi. Mustaqil o‘qib-o‘rganishuchun taklif etilgan mavzular ham da mustaqil ish topshiriqlari va ularni bajarish bo‘yicha ko‘rsatmalar talaba uchunishlab chiqilgan fan dastur (Sillabus)da o‘z aksini topishi lozim. Mustaqil ish uchun taqdim etilgano‘quv topshiriqlari variativ tavsifga ega bo‘lishi tavsiya etiladi.

Didaktik jarayonlarni jadallashtirish, talabalaming mustaqil ta’lim olish samaradorligini oshirish maqsadida o‘quv davriningi-sem estrida tyutorlar, ARM xodimlari va fan mas’ullari tomonidan mazkur jarayonni amalga oshirish tartibi bo‘yicha davriy ravishda (shu jum ladan, kredit haftaligi doirasida) o‘quv seminarian tashkil etilishi maqsadga muvofiq [6; 172-174-b.].

Mustaqil ish topshiriqlari vauni bajarish muddatlari elektron platformada qat’iy belgilanadi. Elektron platformada qabul qilingan va baholangan mustaqil ishlar qog‘oz varianti talab qilinmaydi. Fan (modul) xususiyati va topshiriq shakli mazkur elektron vatiantni inkor qilsa, qog‘oz variant shaklida olinadi. Uzrli sabablarsiz mustaqil ishni bajarish muddatini o‘tkazib yuborgan talabaning o‘quv

faoliyati natijalari tekshirilmaydi va baholanmaydi uzrli sabablar esa, dekanat (registrator ofis) tomonidan o‘rganib chiqilishi, dekan ruxsati bilan inobatga olinishi hamda topshiriq bajarilishi uchun yakuniy nazorat o‘tkazilishiga qadar qayta topshirish muddati belgilanishi mumkin.

Mustaqil o‘qib-o‘rganish uchun taklif etiladigan mavzular va mustaqil ish topshiriqlari fan (modul)ga ajratilgan kreditlar soni hamda talabaning vaqt budjetini inobatga olgan holda belgilanishi lozim.

Talaba tomonidan elektron tizim (platforma)ga yuklangan mustaqil ish topshiriqlari aniq belgilangan muddatda professor-o‘qituvchi tomonidan tekshirilishi va natijasi talabaga ma’lum qilinishi shart.

Talabalar mustaqil ta’limini tashkil etishning maqsad va vazifalari:

1. Talabalarning mustaqil ta’limni tashkil etishdan asosiy maqsad fan (modul) bo‘yicha o‘zlashtirilgan bilimlari mustahkamlash, boyitish, amaliy ko‘nikma va malakalarni takomillashtirish, axborot bilanishlash, o‘z-o‘zini rivojlantirish, kognitiv, kreativ, ham korlikdaishlash kom petensiyalarini shakllantirishdan iboratdir.

2. Talabalarning mustaqil ta’limini tashkil etish quyidagi vazifalarni muvaffaqiyatli hal etishga xizmat qilishi lozim:

– talabalarda o‘z-o‘zini rivojlantirish, mustaqil bilim olish va innovatsion faoliyatni shakllantirishga imkon beruvchi kompetensiyalarni egallash maqsadi bilan bog‘liqlikda mustaqil o‘quv faoliyatini amalga oshirish;

– bilim, ko‘nikma va malakalarni mustaqil egallash, muammoni shakllantira olish va uni hal etishning maqbul yo‘larini izlab topishga qobiliyatli kreativ shaxsni tarbiyalash;

– talabalarda o‘quv dasturini o‘zlashtirishga doir motivatsiyani hosil qilish;

– ta’lim oluvchilarda bilim olishga doir mas’uliyatni oshirish;

– talabalarda umummadaniy va kasbiy kompetensiyalari rivojlantirishga imkon berish;

– ta’lim oluvchilarda mustaqil bilim olish, o‘z-o‘zini boshqarish va o‘z-o‘zini rivojlantirishga qobiliyatlilikni shakllantirish uchun sharoit yaratish [7; 174-178-b.].

Mustaqil o‘qib-o‘rganish va mustaqil ish topshiriqlarini bajarishda talabalar quyidagi vazifa va majburiyatlarni amalga oshirishi lozim:

– fan (modul)lar bo‘yicha mustaqil o‘qib-o‘rganish uchun tavsiya etilgan mavzularni to‘liq o‘zlashtirishi va mustaqil ish topshiriqlarini belgilangan muddatlarda sifatli tarzda taqdim etishi;

– mustaqil ish topshiriqlarini bajarishda plagiat (ko‘chirmakashlik)ga yo‘l qo‘ymasligi;

– mustaqil ish topshiriqlarini bajarishga kreativ yondashishi, mustaqil, tanqidiy va innovatsion fikrlash, axborotlar bilan ishlash kompetentligiga ega bo‘lishi, o‘z-o‘zini rivojlantirishga intilishi;

– kichik guruhlarda hamkorlikdagi mustaqil ish topshiriqlarini bajarishda jamoaning umumiy maqsadiga mos harakat qilishi, o‘ziga yuklatilgan vazifalarni o‘z vaqtida bajarishi, jamoada ishlay olish kompetensiyasini o‘zlashtirishi.

Mustaqil ishga qo‘yilgan baho (ballar) bo‘yicha e’tirozlar bo‘lgan taqdirda, talaba belgilangan muddat tugaganidan keyin 24 (yigirma to‘rt) soat (1 sutka) davomida dekanat (registrator ofis)ga elektron platforma orqali ariza bilan murojaat qilishi mumkin. Talabalar mustaqil ta’limini baholash mezonlari tegishli kafedralar tomonidan fan (modul)lar xususiyatini inobatga olgan holda ishlab chiqiladi va fakultet ilmiy kengashida tasdiqlanadi [8; 2-9-b.].

Mustaqil ta’lim talabalarni innovatsion pedagogik faoliyatga tayyorlashning muhim omili hisoblanadi. Talabalar mustaqil ravishda bilim olish va amaliyotda qo‘llashni o‘rganar ekan, ularning ijodiy va innovatsion faoliyati rivojlanadi. Shu bois, ta’lim muassasalari mustaqil ta’limni rag‘batlantirish va qo‘llab-quvvatlashga alohida e’tibor qaratishi lozim. Talabaning mustaqil ta’limi o‘quv rejasining ajralmas qismi bo‘lib, nazariy bilimlarni mustahkamlash va amaliy ko‘nikmalarni rivojlantirishga qaratilgan. Bu jarayon auditoriya va auditoriyadan tashqarida amalga oshirilib, talabaning ijodiy va tanqidiy fikrlashini rivojlantirishga xizmat qiladi. Mazkur ta’lim shakli talabaning o‘z-o‘zini boshqarish, axborot bilan ishlash, hamkorlikda faoliyat yuritish va o‘z-o‘zini rivojlantirish ko‘nikmalarini shakllantirishga yordam beradi. Mustaqil ta’limni samarali tashkil qilish orqali talabalarning nazariy va amaliy bilimlarini integratsiyalash, ularni pedagogik faoliyatga tayyorlashda sezilarli natijalarga erishish mumkin. Natijada, kelajak avlodning kasbiy tayyorgarligi va ijodiy salohiyati ortadi. Mustaqil ta’limni samarali tashkil qilish nafaqat talabalarning bilimini chuqurlashtiradi, balki ularni innovatsion pedagogik faoliyatga tayyorlashda ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida"gi PF-5847-son Farmoni (https://lex.uz/ru/docs/-4545884)
2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 31-dekabrdagi “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim jarayonini tashkil etish bilan bog‘liq tizimni takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 824-son qarori
3. Bozorova, A., & Sayfullayeva, G. (2023). Kredit–modul ta’lim tizimida talabalarning mustaqil ta’lim jarayonini tashkil etish / Byulleten studentov novogo Uzbekistana, 1(7), 24-28.
4. Karimova D.A (2023). Talabalarning mustaqil ishini tashkil etish kasbiy ahamiyatli kompetensiyalarni shakllantirish omili sifatida / Academic research in educational sciences, 4 (TMA Conference), 213-216.
5. Bekmurodovna T.K. (2023). Application of new pedagogical technologies in practical lessons. european journal of modern medicine and practice, 3(12), 308-317.

6. Islikov S., Saidov J., Xolmuminov D. (2023). Mustaqil ta’limni sharq mutafakkirlarining qarashlari asosida tashkil qilish / YEvraziyskiy jurnal texnologiy i innovatsiy, 1(5), 172-174.
7. Qo‘ziboyeva M.M. “Talabalar mustaqil ishlarini tashkil etishning pedagogik xususiyatlari” / Ekonomika i sotsium 5-1 (96) (2022): 174-178.
8. https://jbnuu.uz/storage/o%E2%80%98quv%20uslibiy%20bo‘limi/Talaba%20mustaqil%20ishini%20tashkillashtirish%20uchun%20yo‘riqnoma.pdf
9. Уктамов У.Ш. Факторы, влияющие на трансформацию ландшафтов Центральной Ферганской пустыни. // “Экономика и социум” №7 (98) 2022. www.iupr.ru. "Институт управления и социально-экономического развития", Россия, г. Саратов. ISSN 2225-1545.(11.00.00. Мустақил давлатлар ҳамдўстлиги мамлакатлари нашрлари № 11). 378-382 с.

Sattorov X.
doktorant
Farg‘ona davlat universiteti

AMIR TEMURNING HARBIY ISLOHOTLARI

Annotatsiya: *Ushbu maqola Amir Temuning davlat boshqaruvi va siyosiy iqtisodiy islohotlari jarayonlarini keng yoritadi. Davlat boshqaruvida amal qilingan qonunlar va tizimlar o`rganilib ilmiy tahlil qilingan. Maqola mustaqil O`zbekiston halqiga buyuk sarkarda jahongir avlodimiz Sohibqiron Amir Temurning davlati haqida keng malumot berib halqimizni vatanparvarlik ruhini o`yg`otishda muhim ahamiyat kasb etadi.*

Kalit so’zlar: *Temur tuzuklari, lashhkarboshi , G’azalxonlar , munajjimlar, saltanat , boquvvat ,mingboshi , yuzboshi sardor, Amir, Amir Ul-Umaro, otliq qo’shin, mashvaratu-maslahat, sohibqiron*

Sattorov Kh.
PhD student
Fergana State University

MILITARY REFORMS OF AMIR TEMUR

Abstract: *This article extensively covers the processes of state governance and political and economic reforms of Amir Temur. The laws and systems used in state governance have been studied and scientifically analyzed. The article provides the people of independent Uzbekistan with extensive information about the state of our great commander and conqueror, Sahibkiran Amir Temur, and plays an important role in awakening the spirit of patriotism in our people.*

Keywords: *Timur's regulations, lashkhkarboshi, Ghazalkhans, astrologers, empire, strong, thousand-headed, hundred-headed commander, Amir, Amir Ul-Umar, cavalry, consultation, sahibkiran*

Amir Temur davlat boshqaruvi, harbiy yurishlar va harbiy islohotlar o` tkazishda ustozlarining ko`rsatmalariga qattiq amal qilgan.Jumladan kengash, mashvaratu-maslahat, qat`iy qaror,tadbirkorlik va hushyorlik, ehtiyotkorlik tamoyillariga qattiq amal qilganini kurish mumkin. Ushbu tamoyillarga amal qilishi Amir Temurni buyuk va qudratli davlat barpo qilishida asis bulib xizmat qildi. Temur Tuzuklarida yozishicha sohibqiron davlat ishlarining 9 ulishini kengash, tadbir va mashvarat, qolgan 1 ulishi esa qilich bilan bajo qilganini takidlab utgan. . Amir Temur 143 kishi bilan kengashgan va tadbir yuritgan holda Qarshi qal`asi ustiga yurish qilib, Amir Muso va Malik bahodirning 12 ming otliq askarini mag`lube tib qal`ani egallaydi. Oz sonli lashkar bilan katta qushinni mag`lubiyatga uchratishi ham Temurning mohir lashkarboshiligini ko`rsatadi.Kengashlarda Amir Temurga aytilgan maslahatlarni til uchida

aytilganini emas, balki chin dildan aytilganini qabul qilgan, ushbu holat ham Qmir Temurni zzukko boshqaruvchilik qobiliyatiga ega ekanligini ko` rsatadi. Amir Temur uz qo`shini ichida birlik va jipslikni taminlash maqsadida lashkarboshilar bilan suhbat o`tkazib, ularni sodiq xizmati uchun mol-mulk va turli mansablar bilan taminlab har biriga bittadan kutvol yaniqala kamendantini tayinlagan.Qo`shindagi qolgan askarlarga ham oziq-ovqat, kiyim-kechak bilan taminlashini aytib sulh tuzadi. Qo`l ostidagi har bir askarini qilgan xizmati uchun rag`batlantirgan. Natijada Amir Temurni qullovchi va unga qarshi bulgan barcha lashkarboshilar, amaldorlar, askarlar uning atrofida birlashdilar.Harbiy yurish vaqtlarida Amir Temur uz qo`shinini yeti qismga bo`lib harakatlangan. Jumladan Tug`luq Temur bilan jangda ham shunday taktikadan foydalangan. Davlat va saltanatt boshqaruvida Amir Temur 12 ta tamoyilga qattiq amal qilgan. Bu tamoyilning birinchisi uz suziga ega bulsin ishini o`zi bilib qilsin deb takidlagan. Ikkinchisi sulton har bir ishida adolatli bo`lsin atrofida adolatli insofli vazirlarni jamlasin. Uchinchidan butun mamlakatda buyruq-farmon berishi podishohning ixtiyorida bulishi lozim. Podishoh har ishda o`zi hukm chiqarsin , hech kim hukimdorning qaroriga qarshi bormasin. To`rtinchidan podishoh qabul qilgan qarorida qattiq tursin va uni tuliq bajarilishini talab qilsin. Veshinchidan pidishih qaroriga hech kim monilik qilmasin. Oltinchidan podishohlik lavozimini tamomila boshqa shaxsga ishonib topshirmasin. Yettinchidan saltanat ishlarida har kimning suzini eshitsin, harkimdan fikr olsin va maqul topgan fikrni zarur vaqtda ishlatsin. Sakkizinchidan saltanat ishlarida sipohu raiyatga bog`liq masalalarda boshqalarning fikriga kura ish kurmasin. Tuqqizinchidan ppodishohning salobati butun mamlakatda o`z mavqeyiga ega bulsin. Uninchidan podishoh barrcha ishlarni mustaqil qaroriga asosan bajarsin. Unbirinchidan podishoh butun mamlakatda yakka podishohlikka amal qilsin, saltanat boshqaruvida hech kim bilan sheriklik qilmasin. Unikkinchidan mashvarat va majlislardan har doim habardor bulsin. Ushbu tamoyillarga amal qilishi Amir Temur saltanatining mustahkamligini taminlagan.Sohibqiron askarlarining o`n nafari ichidan janglarda toblanga boquvvat bir kishini qolgan to`qqiz kishining roziligi bilan o`zlariga sardor etib tayinlab, sardornint lavozimi nomini o`nboshi etib tayinlagan. O`nboshi o`n kishilik lashkarga boshchilik qilgan. O`n nafar o`nboshi ichidan birini yuzboshi etib tayinlagan. Yuzboshi o`n nafar o`nboshiga sardor hisoblangan. O`n nafar yuzboshidan eng aqlli janglarda toblangan mohir sarkarda dep topilganini mingboshi etib tayinlagan. Mingboshilar o`n nafar yuzboshiga sardor hisoblanib bazan ular amiri hazora deb ham atalgan. Agar o`nboshilar, yuzboshilar, mingboshilar qo`lidagi biron askar vafott etsa yoki izsiz yuqolsa, ularning urnini to`ldirish maqsadida boshqa shaxsni tayinlash onboshi bulimida sodir bulsa o`nboshi, yuzboshi bo`limida sodir bo`lsa yuzboshi mingboshi bo`limida sodir bo`lsa mingboshi masul hisoblangan. Jang vaqtida o`nboshi yuzboshiga,yuzboshi esa mingboshining buyrug`iga so`zsiz itoat qilgan. Ushbu tamoyildan bosh tortgan va masuliyatsizlik qilgan har bir shaxs jazoga tortilgan.Sohibqiron o`z qo`shiniga oylik maosh tayinlagan. Oylik maosh quyidagicha belgilangan. Oddiy askarga bir ot bahosi, bahodirlarga ikki ot bahosi,

o`nboshilarga o`n ot bahosi, yuzboshilarga yigirma ot bahosi, mingboshilarga esa oltmish ot bahosi miqdorida maosh tayinlangan. Sohibqiron qo`shinida xizmat qiluvchilar xatoga yul qo`ysa oylik maoshining o`ndan biri berilmagan.Sohibqiron qo`shinida amir ul-umaroning buyrug`I bilan qo`shin oziq-ovqat va oylik maosh bilan taminlangan.Devonbegi, vazir va amir ul-umarolarning maoshlari mingboshilar maoshidan o`n barobar ko`p bo`lgan. Yasovullar (quriqchilar), chopovullar (tungi bosqinchilar), qalaqchilar (xiroj miqdorini belgilovchi mansabdorlar) maoshlari qilgan xizmatlariga qarab ming tangadan o`n ming tangagacha belgilangan. Yig`ilishlarda qatnashuvchi sayyidlar, olimlar, tabiblar, munajjimlar, g`azalxonlar, xabarchilar, tarixchilarga yerlarni suyurg`or etib tayinlagan. Oddiy askarlar, xizmatchilar, farroshlarga yuz tangadan ming tangagacha maosh berilgan. Maoshlarni devonbegi va vazirlar avval sohibqironga tasdiqlatib sung davlat xazinasidan xizmatchilarga taqsimlab bergan. O`nboshi va yuzboshilarga oylik maosh shahar xazinasidan va podishohlik Mulki daromadidan naqd pul hisobida yozilsin. Mingboshilarga viloyat ichidagi yerlardan tushgan soliqlardan berilsin. Amirlar va amir ul-umarolarga chegara viloyatlaridan biri yerdan olinadigan soliqlari bilan topshirilgan. CHegara viloyati yerlari amir ul-umarolarga uch yil muddatga berilib, bunday viloyatlarga ikki nafar vazir tayinlangan. Vazirlarning biri xazinaga tushgan daromadni hisoblagan. Ikkinchisi sarf xarajadlar oylik maoshlarni hisob qilib nazorat qilgan. UC yil o`tgach ushbu viloyat tekshirilgan. Viloyatda aholi norozichiligi bulmasa, shahar avvalgidanda obod qilingan bulsa inom etilgan yer amir ul-umaroda qoldirilgan. Aksincha bulib chiqsa bu yerlar boshqa amir ul-umaaroga olib berilgan. USbu jarayonlarga etibor qaratsak Amir Temur iqtisodiy islohotlarni ham puxtalik bilan amalga oshirganini kuramiz.

Amir Temur o`z o`g`illari va nabiralariga ham oylik maosh va viloyatlarni taqdim etgan. Jumladan birinchi o`g`li Muhammad Jahongir Mirzo qo`l ostida 12 ming otliq qo`shinni boshqargani uchun maosh berilgan. Ikkinchi o`g`li Umarshayx qo`l ostida 10 ming qo`shinni boshqargani uchun maosh olgan. Uchchinchi o`li Mironshoh 9 ming otliq qo`shinni boshqargani uchun maosh olgan. To`rtinchi o`g`li Shoxrux Mirzo 7 ming askkarni boshqargani uchun maosh olgan. Sohibqironning nabiralari esa o`z istedodlariga qarab 3 mingdan 7 minggacha qo`shinni boshqargani uchun oylik maosh olgan. Vu jarayon Temur qo`shinida qattiq tartib va intizomni taminlagan. Sohibqiron davlat amaldorlari va o`z qarindoshlariga ham istedodlariga qarab turli lavozim majburiyatlarini tayinlagan va ularga ham oylik maosh bergan. Nizommi buzgan har bir shax qattiq jazolanga jumladan o`z o`g`illari va nabiralari ham bu tartibga qattiq amal qilgan. Ushbu tamoyillar Amir Temurning qudratini yanada oshirgan. Sohibqiron saltanatida o`z o`g`illari taxt uchun davo qilib isyon ko`tarsalar ularni qatl qilishga yoki tana azolaridan biridan judo qilishga buyurmagan, lekin ular qattiq nazoratta saqlanishi tayinlangan. Temurning nabiralari yoki qarindoshlari xatoga yo`l qo`ysa ularni oylik maoshlaridan mahrum qilib darvesh holatiga solingan. Saroy amaldorlari o`zaro nizoga borsalar ulardan egallab tuurgan amali va qo`l ostidagi yer mulki tortib olingan. Saltanatga zarar yetkazgan amaldorlar boshqa

amaldorlarga tobe etib qo`yilgan. Oddiy askar o`z vazifasini bajarishda masuliyatsizlik qilsa o`z vazifasidan ozod qilinib yozuvchilar bo`limidan ish berilgan. Shunda ham masuliyatsizlik qilgudek bulsa saroy ishlaridan chetlatilgan. Sohibqiron davlat vazirlaridan kimda-kim xiyonat qilganini eshitsa, ularni jazolashga shoshilmagan,chunki amaldorlarga nisbatan turli buhronlar ko`p uyushtirilar edi. UUlar qattiq tergov qilingan. Ayblari isbot qilingach jazo tayinlangan.Qishloq oqsoqollari va hokimlaridan biri o`z martabalaridan past tabaqadagi shaxslarga nisbatan zulm o`tkazsalar ular turli miqdorda jarimaga tortilgan. Jumladan dorug`alar ham mansablarini suistemol qilsalar ularga nisbatan ham jazo tayinlangan. Sohibqiron saltanatida aybi iisbotlangan shaxlarga nisbatan jarima yoki darra bilan urish jazosi tayinlangan. Jarima tayinlangan aybdorga darra bilan urish jazosi tayinlanmagan. Darra bilan urish jazosi berilgan aybdorlarga esa jarima to`lash jazosi tayiinlanmagan. Amir Temur davlatida o`g`rilar, talonchilar, zoravonlarga nisbatan ham jazo tayinlanibb ularga jazoni qozilar berganlar. Shariyat va din ishlarini islom qozilari hal qilganlar. Sohibqiron o`z vazirlarini to`rt xislatiga qarab tayinlagan. Birinchisi nasl nasabbi, ikkinchisi donishmandlik, uchchinchisi davlat ishlaridan yaxshi xabardoor ,to`rtinchisi kuchli sabrga ega shaxslar ichidan saralab tayinlagan.natijada saltanatning vazirlar devoni kuchli bilim va irodali shaxslar vilan to`ldirilgan. Amir Temur saltanatida har bir davlat amaldorining o`rinbosarlari bo`lib, davlat amaldorlari vafot etgudek bo`lsa uning o`rnini o`rinbosarlari egallagan. Temur Tuzuklarida yozilishicha Temuriylar saroyida 313 nafar amaldor davlat ishlarida xizmat qilgan. Sohibqironning noibi Amir ul-umaro deb nomlangan. Temur qo`shinida oddiy askarlikdan sarkarda darajasigacha yetidhish mumkin. Janglarda mardlik qilib jasorat ko`rsadkan askarlarning lavozimi oshirilgan.Dushman qo`shinidan asirga tushgan askarlar o``ldirilmagan balki ularga Temur qo`shinida xizmat qilish taklifi berilgan. Agar asr tushgan shaxs rozi bo`lmasa u ozod qilingan. Ushbu jarayonlarga etibor qaratsak Sohibqiron nafaqat buyuk davlat arbobi , balki kuchli insonparvar ekanligini koo`ramiz. Sohibqiron saroyiga aval dushman bulib, keyinchalik vaqt o`tgach najot so`rab kelgan har bir shaxsga nisbatan ehtirom ko`rsatilgan. Amirlar ichida janglarda jonbozlik ko`rsatib do`shman qo`shinini yengganlarga saroy tomonidan sovg`alar taqdim etilgan. Ular quyidagilardan iborat 1 sarkarda bahodir deb elon qilinga. 2 tug` va nog`ora taqdim etilgan. 3 maqtov yorlig`I berilgan. Amirlar ichida xon o`g`illarini yenggan yoki shikast yetkazgan, xonni yenggan va shikast yetkazganlarga ham mukofotlar taqdim etilgan. Jumladan ular bazi hollarda Sohibqironga maslahatchi etib tayinlangan.

Foydalanilgan adabiyodlar ro`yxati

1. Temur Tuzuklari. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1991.
2. Sharafiddin Ali Yazdiy. Zafarnoma. – Toshkent: Fan, 1997.
3. Nizomiddin Shomiy. Zafarnoma. – Toshkent: Sharq, 1996.
4. Vohidov, Sh. Amir Temur va Temuriylar davlati tarixi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2010.

5. Karimov, I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma’naviyat, 2008.
6. Sagdullaev, A. O‘zbekiston tarixi qadimgi davrlardan hozirgacha. – Toshkent: Universitet, 2011.
7. Ahmedov, B. Amir Temur davlat boshqaruvi tizimi. – Toshkent: Fan, 2007.
8. Bo‘riev, R. Temur va temuriylar saltanati harbiy san’ati. – Toshkent: Sharq, 2014.

Saydullayeva Sh.
talaba
Abdullayeva S.
talaba
Ergashev U.
talaba
Samarqand davlat tibbiyot universiteti
Ilmiy raxbar: Ismoilov K. T.
asisstenti
Samarqand davlat tibbiyot universiteti

YAQIN QARINDOSHLAR O'RTASIDAGI NIKOHNING GENETIK OQIBATLARI VA IRSIY KASALLIKLARNING RIVOJLANISHI

Anatatsiya:*Mazkur maqolada yaqin qarindoshlar o'rtasidagi nikohlarning genetik xavflari, autosomal-retsessiv kasalliklarning avlodlarda ko'payishiga sabab bo'ladigan omillar hamda bunday nikohlar oqibatida yuzaga keladigan irsiy nuqsonlar tahlil qilinadi. Shuningdek, ilmiy adabiyotlar asosida qarindoshlar nikohining populyatsion genetika nuqtayi nazaridan oqibatlari, mutatsiyalar to'planishi, genetik yuk ortishi va genetik kasalliklarning paydo bo'lish mexanizmlari bayon qilinadi. Maqolada zamonaviy genetik tekshiruv usullaridan foydalanish metodologiyasi, klinik–genetik maslahatlarning ahamiyati va kasalliklarning oldini olish strategiyalari ham yoritilgan. Tadqiqot natijalari yaqin qarindosh nikohlari jamiyat salomatligiga sezilarli xavf tug'dirishini ko'rsatadi.*

Kalit so'zlar: *yaqin qarindoshlar nikohi, genetic xavf, irsiy kasalliklar, retsessiv allellar, tug'ma nuksonlar, autosomal retsessiv kasalliklar, genetic maslahat, karyotiplash, DNK mutatsiyasi.*

Saydullayeva Sh.
student
Abdullayeva S.
student
Ergashev U.
student
Samarkand State Medical University
Scientific supervisor: Ismoilov K. T.
assistant
Samarkand State Medical University

GENETIC CONSEQUENCES OF CONSANGUINEOUS MARRIAGES AND THE DEVELOPMENT OF HEREDITARY DISEASES

Abstract:*This article analyzes the genetic risks of consanguineous marriages, the factors contributing to the increased prevalence of autosomal*

recessive diseases in subsequent generations, and the hereditary defects arising as a result of such unions. In addition, the population-genetic consequences of consanguineous marriages, mutation accumulation, increased genetic load, and the mechanisms of genetic disease development are described based on scientific literature. The article also highlights the methodology of applying modern genetic testing techniques, the importance of clinical-genetic counseling, and strategies for disease prevention. The research results demonstrate that consanguineous marriages pose a significant risk to public health.

Keywords: *consanguineous marriage, genetic risk, hereditary diseases, recessive alleles, congenital defects, autosomal recessive disorders, genetic counseling, karyotyping, DNA mutation.*

Kirish

Yaqin qarindoshlar o‘rtasidagi nikoh (konsangvinitet) ko‘plab xalqlarda tarixan an’anaviy shakllangan bo‘lsa-da, zamonaviy genetika ushbu amaliyotning sog‘liq uchun jiddiy oqibatlari borligini tasdiqlaydi. Inson genomida ko‘plab retsessiv, yashirin mutatsiyalar mavjud bo‘lib, ular odatda fenotipda namoyon bo‘lmaydi. Ammo ota-onaning genetik jihatdan yaqin bo‘lishi bir xil mutatsiyaga ega bo‘lish ehtimolini keskin oshiradi. Natijada farzandlarda tug‘ma nuqsonlar, rivojlanishdan orqada qolish, metabolik sindromlar, irsiy kasalliklar va immun tizimi yetishmovchiligi kuzatilish xavfi ortadi.

Dunyo sog‘liqni saqlash tashkiloti (DSST) ma’lumotlariga ko‘ra, qarindosh nikohlarda tug‘ilgan bolalarda irsiy kasalliklar xavfi 2–3 barobar yuqori. Bu holat nafaqat alohida oilaga, balki butun populyatsiya genofondiga ta’sir ko‘rsatadi. Shuning uchun mazkur mavzuni ilmiy yondashuv asosida o‘rganish va genetik xavflarni izohlash juda muhimdir.

Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi

Quyidagi metodlardan foydalanildi1. 1.Klinik-genetik metod Bunda bemorlarning fenotipik belgilari, genealogik daraxti o‘rganiladi. Pedigri (nasl-nasab) tahlili orqali kasallikning irsiylanish turi aniqlanadi.

2. Sitogenetik metod-Karyotiplash yordamida xromosomal anomaliyalar, translokatsiyalar, delesiyalar va duplikatsiyalar aniqlanadi.

3. Molekulyar genetik metod-DNK sekvenslash, PCR, gen panellar orqali yashirin retsessiv mutatsiyalar aniqlanadi. Ayniqsa:WES (Whole Exome Sequencing),

- WGS (Whole Genome Sequencing) kabi usullar yuqori aniqlik beradi.

4. Biokimyoviy skrining-Metabolik kasalliklarning erta bosqichlari:

- fenilalanin darajasi,
- galaktoza almashinuvi buzilishlari,
- aminokislotalar spektri orqali aniqlanadi.

5. Populyatsion-genetik tahlil-Hardy–Weinberg tenglamasi asosida:

- allel chastotalari,
- genetik yuk (genetic load),

- inbriding koeffitsienti (F) hisoblanadi.

6. Statistik metodlar-Genetik kasalliklarning chastotasi, xavf darajasi, korrelyatsiya va regressiya tahlili yordamida ilmiy xulosalar chiqariladi.

Yaqin qarindoshlar nikohlarida ko'p uchtaydigan irsiy kasalliklar

1. Autosomal–retsessiv kasalliklar

Konsangvin nikohda eng ko‘p uchraydigan kasalliklar retsessiv irsiylanadigan kasalliklardir. Chunki ota-onada bir xil “yashirin” mutant gen bo‘lish ehtimoli ortadi.

Misollar:

- Fenilketonuriya — fenilalanin almashinuvi buziladi, aqliy rivojlanishdan orqada qolish kuzatiladi.
- Galaktozemiya — galaktoza parchalanishidagi yetishmovchilik, jigar yetishmovchiligi, katarakta.
- Kistik fibroz — o‘pka va oshqozon osti bezida quyuq shilliq yig‘iladi; nafas yetishmovchiligi.
- Taloassemiya (β-taloassemiya) — gemoglobin sintezi buzilishi, og‘ir anemiya.
- Glikogenozlar — glikogen almashinuvi buzilishi, jigar kattalashishi, mushak zaifligi.
- Spinal mushak atrofiyasi (SMA) — mushaklarning progressiv zaiflashuvi.
- Neyrodegenerativ kasalliklar — Tay-Saks kasalligi, Nyman–Pik.
- Adrenogenital sindrom — buyrak usti bezlari ferment yetishmovchiligi, gormonal buzilishlar.

2. Tug‘ma nuqsonlar va rivojlanish kamchiliklari

Inbriding tufayli embrion rivojlanishi buziladi, natijada tug‘ma anomaliyalar ko‘proq kuzatiladi.

- Tug‘ma yurak nuqsonlari (Fallot tetradasi, klapan stenozlari).
- Eshitish nuqsonlari (tug‘ma kar-soqovlik) — ko‘pincha retsessiv irsiylanadi.
- Ko‘rish nuqsonlari — tug‘ma katarakta, retinal distrofiyalar.
- Skelet tizimi deformatsiyalari — qo‘l-oyoqlarning rivojlanishdan qolishi, polidaktiliya.
- Markaziy asab tizimi nuqsonlari — mikrotsafaliya, gidrotsefaliya, neyron migratsiyasi buzilishlari.

3. Metabolik kasalliklar:Yaqin qarindosh nikohlarida ferment yetishmovchiligi bilan kechadigan kasalliklar chastotasi sezilarli oshadi.

- Maple Syrup Urine Disease (MSUD) — aminokislotalar parchalanmasligi.
- Homotsistinuriya — homotsistein to‘planadi, tromboz xavfi ortadi.
- Mukopolisaxaridozlar (MPS I–VII) — suyaklar deformatsiyasi, aqliy rivojlanish sustligi.

4. Immonologik kasalliklar:Genetik o‘xshashlik immun tizimining zaiflashishiga sabab bo‘ladi.

- Birlamchi immun yetishmovchiliklar

5.og‘ir reproduktiv tizim kasalliklari

Qarindoshlar nikohi infertilitet va reproduktiv muammolarni kuchaytirishi mumkin.

Kromosomal muvozanatsiz translokatsiyalar tufayli:

- bepushtlik,
- takroriy tushishlar,
- erta homila o‘limi.

kombinatsiyalangan immun yetishmovchilik (SCID)

Muhokama

Yaqin qarindoshlar o‘rtasidagi nikohlarning genetik oqibatlari ko‘plab ilmiy tadqiqotlar, epidemiologik kuzatuvlar va klinik amaliyot natijalari bilan tasdiqlangan. Ushbu tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, konsangvin nikohlar avlodlarda retsessiv genetik kasalliklar, tug‘ma nuqsonlar va rivojlanish kamchiliklarining sezilarli darajada ko‘payishiga olib keladi. Ushbu bo‘limda mavzu bo‘yicha mavjud adabiyotlar, ilmiy natijalar va populyatsion-genetik tahlillar asosida muhim ilmiy fikrlar muhokama qilinadi.

Xulosa

Yaqin qarindoshlar o‘rtasidagi nikohlar genetik nuqtai nazardan yuqori xavfga ega bo‘lib, irsiy kasalliklarning avlodlarda uchrash ehtimolini sezilarli oshiradi. Bunga sabab populyatsiyada kam uchraydigan retsessiv zararli allellarning ikki tomonlama birikishidir. Natijada tug‘ma nuqsonlar, aqliy rivojlanish sustligi, immun tizimi zaifligi va bir qator metabolik sindromlar ko‘proq uchraydi. Ilmiy tadqiqotlar bunday nikohlarning salbiy oqibatlari isbotlanganini ko‘rsatadi. Shu bois konsangvin nikohlarning oldini olish, aholiga genetik savodxonlikni oshirish, nikohdan oldi tibbiy-genetik maslahatlarni takomillashtirish va xavf guruhidagi oilalarda prenatal diagnostika o‘tkazish muhim ahamiyatga ega. Bunday yondashuv irsiy kasalliklar tarqalishini kamaytirish va sog‘lom avlodni ta’minlashda asosiy omil bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ismoilov K. T., “Interrelation of Viability and Productivity Indicators with Ethological Characteristics in the Growth and Development of Sur Karakol Lambs” CENTRAL ASIAN JOURNAL OF MEDICAL AND NATURAL SCIENCES olume: 04 Issue: 02 | Mar-Apr 2023 ISSN: 2660-4159, 219-223b
2. Мухитдинов, Ш. М., Алиев, Д. Д., Исмоилов, К. Т., Мамурова, Г. Н., & Джуманова, Н. Э. (2019). Взаимосвязь биологически активных веществ с продуктивностью и физиологическими свойствами каракульских овец. INTERNATIONAL SCIENTIFIC REVIEW OF THE PROBLEMS OF NATURAL SCIENCES AND MEDICINE, 86-95.
3. Mukhitdinov, Sh., Aliyev, D., Ismoilov, K., & Mamurova, G. (2020). The Role Of Biologically Active Substances In The Blood In Increasing The

Productivity Of Sheep. European Journal of Molecular & Clinical Medicine, 7(03), 2020.
4. Ismoilov Komiljon Tuygunovich, Aliev Dilmurod Davronovich, Matkarimova Gulnoz Maksudzhanovna, Rajabov Jasur Pardaboevich-Ecological Bases of Productivity of Flow-Colored Sheep. Jundishapur Journal of Microbiology Research Article Published online 2022 April . Vol. 15, No.1 (2022)
5. Tuygunovich I.K., Muxammedjanov M. S. HERITAGE AND HERITED DISEASES //Galaxy International Interdisciplinary Research Journal. – 2022. – Т. 10. – №. 2. – С. 667-670.
6. Mukhammedjanovich M. S., Tuygunovich I. K., Normuratovna M. G. Interrelation of Viability and Productivity Indicators with Ethological Characteristics in the Growth and Development of Sur Karakol Lambs //Central Asian Journal of Medical and Natural Science. – 2023. – Т. 4. – №. 2. – С. 219-223.
7. Mukumov I. U. et al. Distribution and Chemical Composition of Monocarpic Plants of the Apiaceae Family in Tien Shan Mountain //American Journal of Plant Sciences. – 2022. – Т. 13. – №. 2. – С. 265-276.
8. Ismoilov K. T. et al. COMMON INTERNAL PARASITES AND THEIR TAXONOMY AMONG YOUNG CHILDREN IN UZBEKISTAN //ResearchJet Journal of Analysis and Inventions. – 2022. – Т. 3. – №. 06. – С. 190-196.
9. Ismoilov K. T. et al. BUTTERFLIES: TAXONOMY AND BIOETICS OF NIGHT AND DAY BUTTERFLIES IN UZBEKISTAN //Science and innovation. – 2022. – Т. 1. – №. D3. – С. 1-8.
10. Халимбетов Ю. М. и др. Факторы духовного развития молодежи //Достижения науки и образования. – 2019. – №. 12 (53). – С. 34-36.

Sharapova S. T.
o‘qituvchisi
“Maktabgacha ta’limda tarbiyani tashkil etish” kafedrasi
Termiz davlat pedagogika instituti
Jovliyeva Y.
talabasi
Termiz davlat pedagogika instituti

MAKTABGACHA KATTA YOSHDAGI BOLALAR SHAXSINI BILISH JARAYONLARINI SHAKLLANTIRISHDA O'YINNING AHAMIYATI

Annotatsiya: *Ushbu maqolada maktabgacha katta yoshdagi bolalar bilish jarayonlarini o‘yin faoliyat turlari orqali rivojlantirish yo‘llari va ularning xususiyatlari haqida fikr bildirilgan.*

Kalit so'zlar: *Kiberjinoyatchilik tushunchasi,ma'lumotlar bazasi, kiberxavfsizlik, ma'lumotlar bazasini ta'minlash, kiber makon tushunchasi*

Sulaymonov Z. R.
master's student
Umurzakov B. B.
master's student
University of Management and Future Technologies

CONCEPT OF CYBER SECURITY IN DATABASES

Abstract: *This article provides information security in the database and an analysis of the concept of cyber security is presented.*
Keywords: *Concept of cybercrime, database, cyber security, database security, concept of cyberspace.*

Axborot xavfsizligi tushunchasi kundan kunga glaballashib bormoqda, ayniqsa kundan-kunga axborot xurujlari va kiberjinoyatlar sonining ortib borishi xavfsizlik tushunchasining qanchalik glabal ekanligini ko'rsatmoqda. Axborot turli shakilda
va turli saqlovchilarda saqlanishi mumkin, - bu axborotni saqlashning yangi texnologiyalarini ishlab chiqishni talab qiladi. Axborotni ma'lumotlar bazasida himoylash murakkab va texnologik jarayondir.

Kiberjinoyatchilikning, bizga ma'lum bo'lgan virusli dasturlarni tarqatish, parollarni buzib kirish, kredit karta va boshqa bank rekvizitlaridagi mablag'larni o'zlashtirish talon-toroj qilish, shuningdek, internet orqali qonunga zid axborotlar, xususan, bo'hton, ma'naviy buzuq ma'lumotlarni tarqatish bilan bashariyat hayotiga katta xavf solayotganidan ko'z yuma olmaymiz.

"Kiberjinoyatchilik" tushunchasi - axborot-kommunikatsiya texnologiyalari vositalaridan foydalangan holda, virtual tarmoqda dahshat solish, virus va boshqa zararli dasturlar, qonunga zid axborotlar tayyorlash va tarqatish, elektron xatlarni ommaviy tarqatish (spam), xakkerlik hujumi, veb-saytlarga noqonuniy kirish, firibgarlik, ma'lumotlar butunligi va mualliflik huquqini buzish,


kredit kartochkalari raqami hamda bank rekvizitlarini o‘g‘irlash *(fishing va farming)* va boshqa turli huquqbuzarliklar bilan izohlanadi.

Ma’lumotlar bazasi xavfsizligi deganda – ma’lumotlar bazasining maxfiyligi, yaxlitligi va mavjudligini o‘rnatish va saqlash uchun mo‘ljallangan vositalar, boshqaruv vositalari va chora-tadbirlar majmuasi tushuniladi.

Axborotni ma’lumotlar bazasida xavfsizligi quyidagilarni hal qilishi va himoya qilishi quyidagilardan iborat:

- Ma’lumotlar bazasidagi ma’lumotlar;
- ma’lumotlar bazasini boshqarish tizimi (DBMS);
- har qanday bog‘liq ilovalar;
- jismoniy ma’lumotlar bazasi serveri *va/yoki* virtual ma’lumotlar bazasi serveri va asosiy uskuna;
- ma’lumotlar bazasiga kirish uchun foydalaniladigan hisoblash *va/yoki* tarmoq infratuzilmasi.

Ma’lumotlar bazasi xavfsizligi axborot xavfsizligi texnologiyalari va amaliyotlarining barcha jihatlarini o‘z ichiga olgan murakkab va qiyin ishdir. Bundan tashqari, bu ma’lumotlar bazasidan foydalanishga to‘g‘ri kelmaydi. *Ma’lumotlar bazasi qanchalik qulay va foydalanish mumkin bo‘lsa,* u xavfsizlik tahdidlariga nisbatan zaifroq bo‘ladi, ma’lumotlar bazasi tahdidlarga qanchalik daxlsiz bo‘lsa, unga kirish va undan foydalanish shunchalik qiyin bo‘ladi.



1-rasm. Kiberxavfsizlikning bilim sohalari.

Kundan-kunga takomillashib ketayotgan kiberjinoyatchilikka qarshi kiberxavfsizlikni ta’minlashda quyidagi asosiy talablarni bajarish orqali ulardan himoyalanish, ya’ni kiberxavfsizlikni ta’minlashimiz mumkin:

- xodimlarga axborot xavfsizligi asoslarini o‘rgatish;
- foydalanayotgan dasturiy mahsulotlarning zaifliklarini doimiy sinovdan o‘tkazish;

- ishonchli antivirus dasturidan foydalanish;
- litsenziyalangan rasmiy dasturlardan foydalanish;
- axborot tizimlarini himoyalashda ko‘p faktorli autentifikatsiyadan foydalanish;
- parollardan foydalanishda kuchli parolni saqlash siyosatiga rioya qilish;
- muntazam ravishda kompyuter qattiq disklaridagi ma’lumotlarni shifrlash.

Ko‘pgina dasturiy ta’minotning noto‘g‘ri konfiguratsiyasi - zaifliklar yoki ehtiyotsizlik yoki noto‘g‘ri foydalanish shakllari buzilishlarga olib kelishi mumkin.

Quyida ma’lumotlar bazasi xavfsizligi hujumlarining eng keng tarqalgan turlari yoki sabablari va ularning sabablari keltirilgan:

- Ichki tahdidlar;
- **Insayder tahdid**- bu ma’lumotlar bazasiga imtiyozli kirish huquqiga ega bo‘lgan uchta manbadan birining xavfsizlikka tahdididir;
- zarar yetkazmoqchi bo‘lgan yomon niyatli insayder;
- ma’lumotlar bazasini hujumga qarshi himoyasiz qiladigan xatolarga yo‘l qo‘yadigan beparvo insayder;
- **Infiltrator**-bu qandaydir tarzda fishing kabi sxema orqali yoki hisob ma’lumotlari, ma’lumotlar bazasiga kirish orqali hisob ma’lumotlarini oladigan begona shaxs;

ma’lumotlar bazasiga xos tahdid bo‘lib, ular veb-ilovalar yoki HTTP sarlavhalari tomonidan xizmat ko‘rsatadigan ma’lumotlar bazasi so‘rovlariga o‘zboshimchalik bilan SQL yoki SQL bo‘lmagan hujum satrlarini kiritishni o‘z ichiga oladi. Xavfsiz veb-ilovalarni kodlash amaliyotiga rioya qilmaydigan va muntazam zaiflik sinovlarini o‘tkazadigan tashkilotlar ushbu hujumlarga ochiq.

Ma’lumotlar bazasi xavfsizligi axborot xavfsizligi texnologiyalari va amaliyotlarining barcha jihatlarini o‘z ichiga olgan murakkab va qiyin ishdir.

Bundan tashqari, bu ma’lumotlar bazasidan foydalanishga to‘g‘ri kelmaydi.

Ma’lumotlar bazasi qanchalik qulay va foydalanish mumkin bo‘lsa, u xavfsizlik tahdidlariga nisbatan zaifroq bo‘ladi, *ma’lumotlar bazasi tahdidlarga qanchalik daxlsiz bo‘lsa,* unga kirish va undan foydalanish shunchalik qiyin bo‘ladi.

Ruxsatlarni boshqarish - axborot tizimlari va axborot texnologiyalarining barcha resurslaridan foydalanishni tartibga solish orqali himoyalash usuli. Bunday usullar, axborotga bo‘lgan barcha ruxsat etilmagan kirish imkoniyatlarini bartaraf eta olishi lozim. Ruxsatlarni boshqarish quyidagi himoya funksiyalarini o‘z ichiga qamrab oladi:

foydalanuvchilarni, xodimlarni va tizim resurslarini identifikatsiyalash (har bir ob’ektga shahsiy identifikator berish);

ob’ekt yoki sub’ektlarni ularga berilgan identifikator orqali tanib olish (haqiyiyligini ta’minlash);

foydalanish huquqiga egaligini tekshirish;

himoyalangan resurslarga bo‘lgan murojaatlarni ro‘yhatga olish;

ruxsat etilmagan kirishlarga urinish harakatlari bo‘lgan vaqtda sezish (signalli ogohlantirish, tizimni o‘chirish, tizim ishini to‘htatib qo‘yish, so‘rovlarga javob bermaslik).

Identifikatsiya va autentifikatsiya

Identifikatsiya va autentifikatsiyani xavfsizlikning muhim dasturiy-texnik vositasi deb hisoblash mumkin, modomiki qolgan servislar sub’ektlarning o‘zigagina mo‘ljallangan. Identifikatsiya va autentifikatsiya - bu korxonaning axborot maydoniga kirishning, boshlang‘ich himoya chizig‘idar.

Identifikatsiya va autentifikatsiya protsedurasining birgalikda bajarilishini **avtorizatsiya protsedurasi** deb qabul qilingan**.**

Identifikatsiya sub’ektlarga (foydalanuvchilarga, jarayonlarga, ma’lum bir foydalanuvchi nomidan harakat qiluvchilarga) o‘zini kimligini ma’lum qilish imkonini beradi. Autentifikatsiya orqali ikkinchi tomonni aslida kim ekanligini bilish imkonini beradi. Ba’zan "autentifikatsiya" iborasining sinonimi sifatida "haqiqiyligini tekshirish" iborasi ishlatiladi.

Autentifikatsiya ikki hil bo‘ladi, bir tomonlama (odatda klient haqiqiyligini serverga isbotlaydi) va ikki tomonlama (ikki tomon ham bir birini haqiqiyligini isbotlaydi) bo‘ladi. Bir tomonlama autentifikatsiya protsedurasiga misol qilib foydalanuvchilarning tizimga kirish holatini keltirish mumkin.

Ochiq tarmoq muhitida tomonlar o‘rtasidagi identifikatsiyalash, autentifikatsiyalashda ishonchli marshrut mavjud emas. Tarmoqlarda passiv va aktiv bo‘lgan tinglashlardan, ya’ni ma’lumotlarni **ushlab qolish**, **o‘zgartirish** va **qayta ishlashdan** himoyalashni ta’minlash zarur hisoblanadi.

Zamonaviy identifikatsiya va autentifikatsi vositalari, tarmoqqa markazlashtirilgan holda kirish konsepsiyasini qo‘llashi kerak. Tarmoqga markazlashtirilgan holda kirish - bu, birinchi o‘rinda foydalanuvchilarga qulaylik yaratish talabi hisoblanadi. Agar korporativ tarmoqda ko‘plab axborot servislar, murojatlarni bir-biridan mustaqil ravishda amalga oshirsa, u holda identifikatsiya va autentifikatsiyalash juda qiyin kechadi.

Kompyuter tizimlarida autentifikatsiya usullaridan biri, foydalanuvchi identifikatorini kiritish orqali, oddiy nom bilan aytganda login (inglizcha - foydalanuvchining ro‘yhatga olinuvchi nomi) va parol - qandaydir maxfiy ma’lumot hisoblanadi. Ishonchli parol va login juftligi maxsus ma’lumotlar bazasida saqlanadi.

Rivojlanayotgan IT muhiti ma’lumotlar bazalarini tahdidlarga nisbatan sezgirroq qiladi. Ma’lumotlar bazalariga hujumlarning yangi turlariga olib kelishi mumkin bo‘lgan yoki yangi mudofaa choralarini talab qilishi mumkin bo‘lgan tendentsiyalar:

O‘sib borayotgan ma’lumotlar hajmi - saqlash, ma’lumotlarni yig‘ish va qayta ishlash deyarli barcha tashkilotlarda eksponent ravishda o‘sib bormoqda. Har qanday ma’lumotlar xavfsizligi amaliyoti yoki vositalari uzoq va yaqin kelajakdagi talablarni qondirish uchun yuqori darajada kengaytirilishi kerak.

Tarqalgan infratuzilma - tarmoq muhitlari murakkablashib bormoqda, ayniqsa korxonalar ish yuklarini gibrid bulut yoki ko‘p bulutli arxitekturaga

o‘tkazar ekan, bu xavfsizlik yechimlarini joylashtirish, boshqarish va tanlashni qiyinlashtiradi.

Borgan sari qat’iy tartibga soluvchi talablar - butun dunyo bo‘ylab tartibga solishga muvofiqlik landshafti murakkablashib bormoqda, shuning uchun barcha mandatlarga rioya qilish yanada qiyinlashmoqda.

Kiberxavfsizlik bo‘yicha ko‘nikmalar yetishmasligi - global kiberxavfsizlik bo‘yicha malakali mutaxassislarning etishmasligi va tashkilotlar xavfsizlik rollarini to‘ldirishda qiynalmoqda. Bu muhim infratuzilmani, jumladan ma’lumotlar bazalarini himoya qilishni qiyinlashtirishi mumkin.

Xulosa

Bugungi kunda mamlakatimizda joriy etilayotgan zamonaviy raqamli texnologiyalar, fuqarolarimizga qator qulayliklar va imkoniyatlar eshigini ochmoqda.

Shu o‘rinda ma’lumotlar bazasida kiber xavfsizlik, kiberterrorizm va uning jamiyat hayotiga solayotgan xavfining ko‘lami ham oshib borayotganini ta’kidlash joiz. Kiberterroristik harakat (kiber hujum)-kompyuterlar va axborot kommunikatsiya vositalari yordamida amalga oshirilgan, odamlarning hayoti va sog‘lig‘iga bevosita xavf tug‘diradigan yoki potensial xavf tug‘dirishi mumkin bo‘lgan, moddiy ob’ektlarga katta zarar yetkazishi yoki shunga olib kelishi mumkin bo‘lgan, ijtimoiy xavfli oqibatlarning boshlanishi yoki maqsadi bo‘lgan siyosiy sababdir. Zamonaviy terrorchilar uchun kibermakondan foydalanishning jozibadorligi kiberhujumni amalga oshirish katta moliyaviy xarajatlarni talab qilmasligi bilan bog‘liq. Kiberxavfsizlikni ta’minlash, sodir etilishi mumkin bo‘lgan kiberjinoyatlarning oldini olish va unga qarshi kurashish masalasi hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarining joriy etilishini nazorat qilish, ularni himoya qilish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori.
2. O‘zbekiston Respublikasi Axborotlashtirish va telekommunikatsiyalar sohasida nazorat bo‘yicha davlat inspeksiyasi to‘g‘risidagi nizom.
3. Kessler, Gari “Kriptografiyaga umumiy nuqta” (2006-yil 17-noyabr).
4. А. Соколов, О. Степанюк. Зашита от компьютерного терроризма. Справочное пособие. БХВ-Петербург. Арлит, 2002 г.
5. А.А. Петров. Компьютерная безопасность. Криптографические методи зашиты. М.: ДМК Пресс, 2000 г.
6. “Axborot texnologiyasi, Axborotlarni kriptografik muhofazasi, Ma’lumotlarni shifrlash algoritmi” Toshkent.

Sultonov Sh. A.
dotsenti
Shahrisabz davlat pedagogika instituti
Ulashova L. T.
talabasi
Shahrisabz davlat pedagogika instituti
Qahhorova N. S.
talabasi
Shahrisabz davlat pedagogika instituti
O‘zbekiston, Shahrisabz shahri

QASHQADARYO VILOYATI MINERAL RESURSLARIDAN FOYDALANISH VA TEJAMKORLIK BILAN O‘ZLASHTIRISH MASALALARIGA DOIR

Annotatsiya. *Ushbu maqolada mineral resurslaridan foydalanish va tejamkorlik bilan o‘zlashtirish* ishlari *ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Avvalo, hududda mineral resurslar tarqalishi tabiiy geografik va geologik tarqalishi masalalari tahlil qilingan. Bundan tashqari, geologik qidiruv ishlari natijasida foydali qazilmalar namoyonlanishi xususan neft-gaz, polimetallar, yonuvchi slanets va fosforit ma’danlashuvining jihatlari tahlil qilingan, ya’ni hududdagi fodali qazilmalar o‘zlashtirilishiga oid xulosa va tavsiyalar berilgan.*

Kalit so‘zlar: *geologik qidiruv ishlari, mineral xom ashyo, zaxira, tabiiy gaz, gaz kondensati, neft, osh tuzi, polimetal, qurilish materiallari, oltingugurt, kon, fosforit, sanoat korxonalari.*

Sultanov Sh. A.
associate professor
Shakhrisabz State Pedagogical Institute
Ulashova L. T.
student
Shakhrisabz State Pedagogical Institute
Kahhorova N. S.
student
Shakhrisabz State Pedagogical Institute
Uzbekistan, Shakhrisabz city

ON ISSUES OF USE AND ECONOMIC DEVELOPMENT OF MINERAL RESOURCES OF THE KASHKADARYA REGION

Abstract. *This article provides a scientific analysis of the use and economical development of mineral resources. First of all, the issues of the natural-geographical and geological distribution of mineral resources in the region were analyzed. In addition, as a result of geological exploration, the*

manifestations of minerals were analyzed, in particular, aspects of oil and gas, polymetallic, oil shale, and phosphorite mineralization, i.e., conclusions and recommendations were made regarding the development of minerals in the region.

Keywords: *geological exploration, mineral raw materials, reserves, natural gas, gas condensate, oil, table salt, polymetallic, building materials, sulfur, mining, phosphorite, industrial enterprises.*

Kirish

Ko‘p yillik geologik qidiruv ishlari Qashqadaryo viloyati hududida sanoat ahamiyatiga ega bo‘lgan turli mineral xom ashyo zaxiralarining mavjudligidan dalolat beradi. Viloyatdagi asosiy foydali qazilmalarni tabiiy gaz, gaz kondensati, neft, osh va kaliy tuzlari, qurilish materiallari tashkil etadi. Shuningdek, marganetsning hamda toshko‘mirning uncha katta bo‘lmagan zaxiralari aniqlangan. Bundan tashqari, geologik qidiruv ishlari natijasida polimetallar, yonuvchi slanets va fosforit ma’danlashuvining namoyon bo‘lishi aniqlangan.

Muhokama

Tabiiy gaz, gazkondensati va neft. O‘zbekiston hududi geologik – tektonik xususiyatlariga ko‘ra 5 ta (Ustyurt, Buxoro – Xiva, Janubiy – G‘arbiy Hisor, Surxondaryo va Farg‘ona) neft – gazli mintaqaga kiradi. Qashqadaryo viloyati hududi bu mintaqalardan ikkitasi doirasida - Buxoro – Xiva va Janubiy – G‘arbiy Hisor neft – gazli mintaqalarda joylashgan bo‘lib, ular SHo‘rtan va Muborak guruhlariga kiruvchi konlardir. Tabiiy gaz, gazkondensati va neft asosan yura davrining ilk dengiz yotqiziqlari orasidagi marjon poliplarining toshga aylangan korallit ohaktoshlari yotqiziqlaridan - kollektorlardan 1,5 - 3,5 ming metr chuqurlikdan qazib olinmoqda.

XX asrning 50 – yillaridan boshlab yoqilg‘i berayotgan gaz va gazli kondensatining Pachkamar, Gumbuloq, Odamtosh, Qizilbayroq, Tandirchi va boshqa yirik zaxiralari konlari G‘uzor tumanining Qarshi cho‘liga tutashib ketgan Hisor tog‘ tizmasining tog‘oldi hududlarida joylashgan. Beshkent va Beshkent shahridan g‘arbda Qamashi gaz konlari joylashgan. Qarshi cho‘lining janubi – g‘arbida Kultog‘, Olang, Pomiq, Zevardi kabi gaz, gazkondensat va neft - gazli konlar mavjud. Mazkur maydonlarning Turkmaniston Respublikasi va Buxoro viloyati hududlari bilan tutash joylarda Dengizko‘l, Ko‘kdumaloq singari neft – gaz konlari joylashgan.

Qashqadaryo viloyatining shimoli – g‘arbida Buxoro viloyati bilan tutash maydonlarda ko‘pdan buyon qazib olinayotgan Setalantepa, Jarqoq, Shimoliy Muborak, Janubiy Muborak kabi gaz konlari qatoriga yaqinda ishga tushirilgan va foydalanishga topshirilgan Karim, Xo‘jahayron, SHo‘rtepa, Qoraqum, Qizil Rabot, Qorabayir va boshqa konlar qo‘shildi. Bu konlar geologik adabiyotlarda Buxoro – Xiva neftgazli provinsiya nomi bilan ataladigan janubiy havzaning bir bo‘lagidir. Qo‘ng‘irtog‘dan shimoliy – g‘arbdagi Qoraxitoy koni Qarshi shahrining, Chiroqchi tumani hududidagi Uvada va Saricha konlari Shaxrisabz tumanining gazga bo‘lgan ehtiyojini ta’minlagan. Bulardan tashqari, viloyat hududidagi O‘rtabuloq, Toshli, Sharqiy Qorayel, Nour, Boyburak sanoat

ahmiyatiga ega bo‘lgan neft konlaridan xom ashyo olinmoqda, ayrimlari esa foydalanishga tayyorlanmoqda.

Qashqadaryo zaminida davlat balansi hisobidagi 100 dan ziyod gaz, gazkondensat va neft konlari aniqlangan.

Viloyatning gaz konlari negizida mamlakatimizdagi salmoqli o‘ringa ega bo‘lgan Muborak gazni qayta ishlash zavodi milliy iqtisodiyotimizda muhim ahamiyatga ega bo‘lgan 251,5 ming tonna oltingugurt ishlab chiqarmoqda, 35 mlrd. m3 dan ziyod tabiiy gazni qayta ishlab bermoqda.

Qashqadaryo viloyatida xorijiy firmalar ishtirokida yirik sanoat korxonalaridan biri bo‘lgan Ko‘kdumaloq konini ishga tushirilishi gazni kompleks tayyorlovchi qurilma, neftni tayyorlash qurilmasi, neft qatlamlariga suvni haydovchi nasos stansiyasi kabi moslamalar qurilib, kondan qazib olinayotgan neftni va gazkondensatni Farg‘ona va Buxoro neftni qayta ishlash zavodlariga yuborilishi mamlakatimiz neft maxsulotlariga bo‘lgan ehtiyojni ta’minlagan holda neft mustaqilligiga erishish imkonini berdi.

Hozirgi paytda Qashqadaryo viloyati mamlakatda qazib olinayotgan tabiiy gazning 88 foizini, gazkondensatning 99 foizini va neftning 90 foizini bermoqda. Bu yerdagi tabiiy gaz manbalarining etan moddasiga boyligi kimyoviy moddalar olish, polimer va plastmassa tayyorlash uchun SHo‘rtan gaz – kimyo majmuasini bunyod etish imkonini berdi. Nafaqat mamlakatimizda, balki MDH hududida ham yagona bo‘lgan bu ulkan sanoat kompleksi yiliga 125 million tonna polietilin, 137 ming tonna suyultirilgan gaz, 130 ming tonna yengil kondensat, 4,2 mlrd. m^3 gaz mahsuloti va 4 ming tonna oltingugurt ishlab chiqaradi. Shuningdek, mamlakatimizda paxta sanoati, plastmassa, plyonka, kabel tayyorlash, qadoqlashda ishlatiladigan mahsulotlar ishlab chiqarishning keskin o‘sishiga imkon beradi.

Qashqadaryo viloyati hududida sanoat ahamiyatiga ega bo‘lgan ko‘mir konlari yo‘q. Viloyatning ko‘mirga bo‘lgan ehtiyojini Yakkabog‘ tog‘laridagi Vori va Zarmas qishloqlari orasidagi toshko‘mir koni qisman qondirishi mumkin.

Dehqonobod tumanining janubi – sharqida Dehqonobod, Xo‘jaarna, Qizilcha, Dardara, Kan va boshqa konlarda yonuvchi slanetslarning namoyon bo‘lishi aniqlangan. Ammo ularning sanoat ahamiyati hozircha aniqlanmagan.

Qashqadaryo viloyati hududi kaliy va osh tuzining katta zaxiralariga ega. Taqribiy hisoblarga ko‘ra, Qashqadaryo viloyati ulushiga kaliy tuzlarining O‘zbekistonda bashoratlashtirilgan zaxiralarining 70 foizga yaqini va balansdagi zaxiralarining qariyb 100 foizi to‘g‘ri keladi (Ekonomicheskiy potensial, 1982 – yil). Hisor tizmasining janubi – g‘arbiy tarmoqlarida Oqbosh – Tepaqo‘ton , Kaypantov va Pachkamar tuzli maydonlari aniqlangan. Ular orasida eng yirigi Dehqonobod qo‘rg‘onchasidan 30 km shimoli – sharqda joylashgan Tepaqo‘ton konidir. Bu kondagi kaliy tuzlarining bashoratlashtirilgan zaxiralari 500 million tonani tashkil etadi.

Tepaqo‘ton kaliy tuzlari koni negizida chet ellik investorlar bilan hamkorlikda “Dehqonobod kaliyli o‘g‘itlar” korxonasi ishlab turibdi. Tuzlarni

kompleks qayta ishlash bromli temir, magnezit, gips va boshqa materiallarni yo‘l – yo‘lakay olish imkonini beryabdi.

Hisor provinsiyasi Dehqonobod tuzi havzani ham o‘z ichiga oladi. Bu havza doirasida Boybichakon, Hamkon va boshqa tuzli strukturalarni o‘z ichiga oladi. Bu yerda Boybichakon va Tepaqo‘ton osh tuzining yirik konlari aniqlangan. Butun havza doirasida qatlamlarning qalinligi 200 – 600 metrni tashkil etadi.

Boybichakon osh tuzi konida (Qamashi tumanida Langar qishlog‘idan 12 km janubi - sharqda) tuzlarning C_1 toifasi balans zaxirasi 234,6 million tonna, C_2 toifasi bo‘yicha esa 4385,1 mllion tonnani tashkil etadi. Osh tuzining istiqbolli zaxiralari juda ulkan.

Osh tuzi shuningdek Tepaqo‘ton kaliy tuzli konida ham mavjudligi aniqlangan. Bu yerda osh tuzining zaxirasi 6,1 million tonnani tashkil etadi.

Hisor tizmasining janubi – g‘arbiy tarmoqlari orasida Dehqonobod tumanida bashoratlashtirish zaxirasi 213 million tonnani tashkil etadigan fosforit konlarining mavjudligi aniqlangan. Bu kon ochiq usulda foydalanilishi mumkin. Konda P_2O_5 ning miqdori 6 %.

Geologik qidiruv ishlari natijasida Qoratepa tog‘larining yonbag‘irlarida (Chiroqchi shahridan 30 km shimoli - sharqda) pegmatitning Lolabuloq koni aniqlangan bo‘lib, unda pegmatining bashoratlari zaxirasi 7 million tonnani tashkil etadi.

Qashqadaryo viloyati hududi qurilish materiallariga juda boy. Qazib olinayotgan marmar, dolomit, ohaktosh, keramzit kabi pardozlash, haykaltaroshlik, qurilish xom ashyosi bo‘lgan noma’dan boyliklar yonilg‘i-enrgetika resurslaridan keyingi ikkinchi o‘rinda turadi. Viloyatdagi Bodomzor, Iskana, Sevaz, Tomchiota, Xazornova, Birkunlik va boshqa konlarda xilma – xil tovlanuvchi marmar qazib olinmoqda. Bu konlardagi marmarning umumiy zaxirasi 4 million km^3 dan ortiqroqdir. Viloyatdagi marmar konlarining xomashyosi Kitob va Makrid toshga ishlov berish kombinatlarida marmar bloklari va maydalangan uvoqlarini ishlab chiqarishda foydalanilmoqda. Bu kombinatlarning texnologik asbob – uskunalari mustaqillik yillarida xorijdan keltirilgan zamonaviy asbob – uskunalar bilan almashtirildi.

Dolomitli ohaktoshning zaxiralari ham ancha katta bo‘lib, Dehqonobod va Pachkamar konlarida ayniqsa batafsil o‘rganilgan. Dehqonobod konida devorbop dolomitlarning zaxirasi 6, 4 million m^3, Pachkamar konida esa 4, 7 million m^3 ni tashkil etadi. Hozirgi paytda bu konlarning ham xom ashyosi devorbop toshlar va o‘tga chidamli xom ashyo sifatida foydalanilmoqda. Bundan tashqari, ulardan Samarqand va Toshkent chinni zavodlariga ham xom ashyo yuborilmoqda.

Ohaktoshning Zarafshon tizmasi janubiy tarmoqlaridagi Qaynar II va Hisor tizmasining janubi – g‘arbiy tarmoqlaridagi Langar konlari aniqlangan. Qaynar konida karbonatli qatlamining qalinligi 640 – 1150 metr bo‘lib, umumiy zaxirasi 8862, 0 ming tonnani tashkil etadi.

Langar qishlog‘i yaqinidagi ohaktosh konida chuqurligi 30 metrgacha bo‘lgan 15 million tonnalik bashoratlashtirilgan zaxiralari aniqlangan.

Sement xom ashyosi sifatida foydalanish mumkin bo‘lgan ohaktoshlar Kitob shahridan 12 km shimolroqda joylashgan Qoratepa konida topilgan ($C_1 + C_2$ toifalari bo‘yicha zaxirasi 326 million. t, C_1 bo‘yicha - 215 million tonna).

Ganch – alebasterning xom ashyosi bo‘lgan gipsning katta zaxirasi Pachkamar, Langar, Oloviddin, Kalkama, Maymanoq, Kosontog‘ kabi konlarda to‘plangan. Ular orasida gipsning eng yirik konini Pachkamar koni hosil qiladi. Bu yerdagi birinchi navli gips qatlamining qalinligi 6 m hisoblanganda uning zaxirasi 1692 ming tonnani tashkil etadi.

Qashqadaryo viloyatida qurilish uchun zarur bo‘lgan qum - shag‘al va pishiq g‘isht tayyorlash uchun zarur bo‘lgan tuproq – grunt zaxiralari juda katta. Hozirgi paytda viloyat va mamlakatimizning boshqa hududlari ehtiyoji uchun foydalanilayotgan eng yirik Tanxoz qum – shag‘al koni bazasida Tanxoz shag‘al saralash zavodi maxsulot bermoqda. Tanxoz konidagi qum – shag‘al zaxirasi 29, 2 million m^3 .

Chiroqchi tumanidagi donador qumli Chiyal koni (zaxirasi 38,97 million m^3 bo‘lgan) beton va qurilish uchun katta miqdoorda xom ashyo berishi mumkin.

Xulosa

Qashqadaryo viloyatining katta zaxiralariga ega bo‘lgan turli mineral resurslaridan samarali foydalanishni yo‘lga qo‘yish va mamlakatimizning mineral resurslarga bo‘lgan ehtiyojlarini imkoni boricha qondirish maqsadida mustaqillik yillarida ulkan bunyodkorlik ishlari boshlandi: mavjud korxonalar tubdan rekonstruksiya qilindi, xorijdan keltirilgan zamonaviy asbob – uskunalar bilan qayta jihozlandi va ayni paytda yangi sanoat korxonalari barpo etildi, zamonaviy texnologiya asosida qazib oluvchi korxonalarni xorijiy sheriklar ishtirokida barpo etish va maxsulot ishlab chiqarish loyihalari ishlab chiqildi va qisman amalgam oshirila boshlandi (masalan, Sho‘rtan gaz – kimyo kompleksi).

Qashqadaryo viloyati mineral resurslarini xo‘jalik ahamiyatiga ko‘ra 3 guruhga ajratish mumkin. Birinchi guruhni gaz qazib olish tashkil etadi. Qazib olinayotgan gaz nafaqat mamlakatimizdagi ishlab chiqarish korxonalaridagina emas, balki qo‘shni mamlakatlarni ham gaz bilan ta’minlashda muhim.

Ikkinchi guruhga neft, kelajakda osh tuzi. Kaliy tuzi, neft – kimyo tarmoqlari uchun kerak bo‘lgan mineral resurslar ishlab chiqarish kiradi. Uchinchi guruhni esa qurilish materiallari (marmar, g‘isht tayyorlash uchun xom ashyo, shag‘al, qum, mergel, gipsva boshqalar) tashkil etadi. Bu mineral resurslar asosida viloyatda o‘tgan asrning 60 – yillaridan boshlab Qarshi cho‘lini o‘zlashtirish munosabati bilan yirik qurilish industriyasi vujudga keldi.

Viloyat mineral resurslaridan samarali foydalanish muammosi bugungi kunda atrof muhitni muhofaza qilish bilan bog‘liq bo‘lgan muammodir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Баратов П. Ўзбекистон табиий географияси. – Т., 1996.
2. Баратов П. Табиатни муҳофаза қилиш. – Т., 1991.
3. Расулов Л.М. Почвы Каршинской степиб их хозяйственное исползование. – Т., 1964.
4. Рафиқов А. Геологик муаммолар. – Т., 1996.

5. Ғуломов П.Н. Табиатдан фойдаланишнинг географик асослари// География ва табиий ресурслардан фойдаланиш.- Т., 2001.
6. Файзуллаев.М.А. Жанубий Ўзбекистонда аграр-индустриал циклнинг шаклланиши ва ривожланиши. Ўзбекистон География жамияти ахбороти. 2015, 46, 103-105.
7. Nazarov M.G. Qashqadaryo viloyatining antropogen landshaftlarini tasniflashning ayrim masalalari // Ilm-fan va innovatsiya. Ilmiy- amaliy konferensiya materiallari. -Qarshi, 2013. –B.71-74.
8. Султонов Ш.А., Навотова Д.И., Алиева Д.И. Қашқадарё вилояти минерал ресурслари ва улардан фойдаланишнинг географик хусусиятлари //Science and education in the modern world: challenges of the XXI century" Nur-Sultan, Kazakhstan. – 2020. – С. 12-15.
9. Sultonov Sh.A. Qashqadaryo viloyati tog‘li hududlarida foydali qazilmalarni geografik tarqalishi. Экономика и социум №3(130)-1 2025, www.iupr.ru. ЭС-2025-030076, ISSN 2225-1545.
10. Sultonov Sh.A., Navotova D.I. O‘zbekistonda rangli metallarning geografik tarqalishi va foydalanish xususiyatlari. Экономика и социум. -№2(117)-1 2024, 682-690 betlar, 2024-yil. http://www.iupr.ru , ISSN 2225-1545
11. Sultonov Sh.A. Qashqadaryo viloyatida mineral resurslardan foydalanishning geografik jihatlari va tabiatga salbiy ta’siri masalalari. FAN va JAMIYAT Ilmiy-uslubiy jurnal. -№4. 2025-yil. 39-41-betlar.

Suyarova M. X.
dotsenti
Jizzax politexnika instituti

ROBOTOTEXNIKANING TA’LIM JARAYONIDAGI YUTUQLARI

Annotatsiya: *Ushbu maqolada robototexnikaning ta’lim jarayoniga ta’siri, o‘quvchilarning bilim olishga bo‘lgan qiziqishini oshirishdagi roli va ilmiy-texnikaviy yutuqlari tahlil qilinadi. Robototexnika STEM fanlarini (matematika, muhandislik, texnologiya va fizika) interaktiv va amaliy o‘rgatish imkoniyatini yaratib, o‘quvchilarning ijodiy fikrlash va muammolarni hal qilish ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Shuningdek, xalqaro musobaqalar va maxsus dasturlar orqali yoshlarning texnologiyaga bo‘lgan qiziqishini oshirishga yordam beradi. Maqolada, shuningdek, robototexnikaning kelajakdagi rivojlanish yo‘nalishlari va ta’lim tizimida uning joriy etilishining ahamiyati yoritiladi.*
Kalit so‘zlar: *robototexnika, ta’lim texnologiyalari, STEM ta’limi, interaktiv o‘qitish, ijodiy fikrlash, raqamli savodxonlik.*

Suyarova M. Kh.
associate professor
Jizzakh Polytechnic Institute

ACHIEVEMENTS OF ROBOTOLOGY IN THE EDUCATIONAL PROCESS

Annotation: *This article analyzes the impact of robotics on the educational process, its role in increasing students' interest in learning, and scientific-technical achievements. Robotics provides an opportunity to teach STEM subjects (mathematics, engineering, technology, and physics) interactively and practically, fostering students' creative thinking and problem-solving skills. Additionally, international competitions and specialized programs help increase young people's interest in technology. The article also discusses the future development of robotics and its importance in the education system.*
Keywords: *robotics, educational technologies, STEM education, interactive learning, creative thinking, digital literacy.*

Zamonaviy texnologiyalar ta’lim tizimini tubdan o‘zgartirib, o‘quv jarayonining samaradorligini oshirishga xizmat qilmoqda. Ayniqsa, robototexnika sohasidagi innovatsiyalar ta’lim jarayonini yanada interaktiv, qiziqarli va natijador qilishda muhim rol o‘ynamoqda. Ushbu maqolada robototexnikaning ta’lim tizimidagi yutuqlari, uning afzalliklari va istiqbollari yoritiladi.

Robotlar insonga nima beradi?

Zamonaviy fan va texnologiyalar inson faoliyatining barcha sohalariga chuqurlashib kirib borgan bo‘lsa-da, insonlar va mashinalar haligacha teng hamkorlik asosida o‘zaro aloqaga kirishgani yo‘q.

Avtozavodlarda robot va ishchi bir safda turibdi. Ya’ni bitta ishni robot ham, inson ham bajarmoqda. Mehnatning bunday taqsimoti inson va mashina uyg‘unligida erishish mumkin bo‘lgan salohiyatni ancha chegaralab qo‘yadi. Dunyo inson va mashina yakdil texnologiya sifatida ishlaydigan davrga qarab o‘zgarib bormoqda.

Sun’iy idrok – ma’lumotni qabul qilib, uni qayta ishlagan holda muayyan funksiyani bajaruvchi tizim. Sun’iy idrok insonning o‘rnini egallash, uning vazifalarini mutlaqo tortib olishni maqsad qilmaydi. Balki inson imkoniyatlarining chegarasini kengaytirishga xizmat qiladi [N. Shaxinpur (1990) “Kurs robototexnika” nomli maqola 5-bet].

Sun’iy idrok ustida ishlovchi novator kompaniyalar inson va mashinaning o‘zaro aloqasini kuchaytirgan holda original simbiozga erishishga intilishmoqda. Mazkur simbioz quyidagi vazifalarni bajarishi mumkin:

Robototexnikaning ta’limga ta’siri:

1. Robototexnika ta’lim jarayoniga quyidagi yo‘nalishlarda sezilarli ta’sir ko‘rsatayotganini aytib o‘tish o‘rinli bo‘lmoqda:
2. Amaliy mashg‘ulotlarni rivojlantirish – An’anaviy nazariy ta’lim bilan bir qatorda, amaliy mashg‘ulotlar orqali o‘quvchilarning texnik ko‘nikmalarini oshirish va shakllantirishga yordam beradi.
3. STEM fanlarini o‘qitishda innovatsiyalar – Robototexnika matematika, fizika, dasturlash va birqancha muhandislik fanlarini yanada tushunarli va qiziqarli o‘rganishga aktiv xizmat qiladi.
4. Ijodiy fikrlash va muammolarni hal qilish ko‘nikmalarini shakllantirish – O‘quvchilar muayyan vazifalarni bajarish jarayonida tahlil qilish, muammolarni hal qilish va ijodiy yondashuv ko‘nikmalariga ega bo‘ladilar.
5. Raqamli savodxonlikni keng rivojlantirish – Dasturlash va avtomatlashtirish asoslarini o‘rganish orqali talabalar (o‘quvchilar) zamonaviy texnologiyalar bilan tanishadilar.
6. Jamoaviy ishlash madaniyatini shakllantirish – Robotlarni yaratish va dasturlash guruhda ishlashni talab qiladi, bu esa hamkorlik va muloqot ko‘nikmalarini munosib ravishda rivojlantiradi.
7. Robototexnika yordamida ta’limda erishilgan yutuqlar:
8. Talabalar (o‘quvchilar) bilim olishga bo‘lgan qiziqishini oshirish – Interaktiv ta’lim usullari sababli, an’anaviy usullarga qaraganda talabalar (o‘quvchilar) bilim olishga ko‘proq qiziqish bildirishmoqda.
9. Xalqaro tanlovlarda muvaffaqiyatli ishtirok – Yosh dasturchilar va muhandislar uchun tashkil etiladigan First Lego League, RoboCup, World Robot Olympiad kabi tanlovlar orqali talabalar (o‘quvchilar) o‘z iqtidorlarini namoyon etish imkoniyatlariga ko ‘proq ega bo‘lishmoqda.

10. Yangi ta’lim metodikalarining yaratilishi – Robototexnikani o‘rgatishga mo‘ljallangan maxsus dasturlar, masalan, Arduino, Raspberry Pi, LEGO Mindstorms, VEX Robotics kabi platformalar ta’lim jarayonida munta’zam ravishda keng qo‘llanilmoqda.
11. Maxsus ehtiyojli bolalar uchun inklyuziv ta’lim imkoniyati – Robotlar yordamida maxsus ehtiyojga ega bo‘lgan bolalarning o‘qish, o‘zlashtirish jarayonlari sezilarli darajada yengillashtirilmoqda.

Xulosa

Robototexnika ta’lim jarayonini samarali va qiziqarli qilishda muhim o‘rin tutadi. Kelajakda bu soha yanada rivojlanib, virtual reallik (VR), sun’iy intellekt (AI) va IoT texnologiyalari bilan uyg‘unlashgan holda ta’lim jarayoniga yanada katta ta’sir o‘tkazishi kutilmoqda. Shu bois, ta’lim tizimida robototexnika bo‘yicha chuqurlashtirilgan kurslarni joriy etish, o‘qituvchilarni maxsus tayyorgarlikdan o‘tkazish va zamonaviy laboratoriyalarni yaratishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar:

1. Protasov Y. ROBOTOTEXNIKANING RIVOJLANISHI VA ISTIQBOLLARI Ta’lim va innovatsion tadqiqotlar (2024 йил № 2)
2. N. Shaxinpur (1990)“Kurs robototexnika” nomli maqola 5-bet.
3. Resnick, M. (2017). Lifelong Kindergarten: Cultivating Creativity through Projects, Passion, Peers, and Play. MIT Press.
4. Eguchi, A. (2016). Robotics as a Learning Tool for Educational Transformation. Journal of Interactive Learning Research.
5. VEX Robotics (2023). Educational Robotics: Inspiring the Innovators of Tomorrow. [Online] Available at: www.vexrobotics.com
6. Suyarova M. X. Teaching physics in a technical university //Экономика и социум. – 2019. – №. 12. – С. 123-125.
7. Mustofoqulov J. A., Hamzaev A. I., Suyarova M. X. RLC ZANJIRINING MATEMATIK MODELI VA UNI “MULTISIM” DA HISOBLASH //Academic research in educational sciences. – 2021. – Т. 2. – №. 11. – С. 1615-1621.
8. Kh S. M., Mustafakulov A. A. Creative Problems in Electromechanics //Academic Journal of Digital Economics and Stability. – 2021. – С. 695-700.
9. Иняминов Ю. А. и др. Принципы построения индивидуальных радиоприёмных устройств спутникового телевидения //Science and Education. – 2021. – Т. 2. – №. 11. – С. 342-349.

Suyarova M. X.
dotsenti
radioelektronika kafedrasi
Jizzax Politexnika instituti

TEXNIKA OLIY O‘QUV YURTLARIDA KOMPYUTER TEXNOLOGIYASI VOSITALARI ASOSIDA O‘QITISH

Annotatsiya: *Maqolada texnika oliy oquv yurtlarida kompyuter texnologiyasi vositalari asosida o‘qitish, hamda elektron o‘quv majmua va darsliklarga qo‘yiladigan asosiy talablar haqida fikr yuritilgan. Shuningdek, kompyuterli o‘qitish texnologiyasining asosiy xususiyatlari va afzallik jihatlarini ochib berilgan.*

Kalit so‘zlar. *Kompyuterli o‘qitish vositalari, elektron o‘quv majmua, elektron darslik, virtual tajriba, elektron o‘quv-uslubiy nashrlar.*

Suyarova M. Kh.
associate professor
department of radio electronics
Jizzakh Polytechnic Institute

TEACHING BASED ON COMPUTER TECHNOLOGY TOOLS IN TECHNICAL HIGHER EDUCATIONAL INSTITUTIONS

Abstract: *The article discusses the main requirements for teaching in technical universities based on computer technology tools, as well as for electronic educational complexes and textbooks. Also, the main features and advantages of computer-based teaching technology are revealed.*

Keywords. *Computer teaching tools, electronic educational complex, electronic textbook, virtual experience, electronic teaching-methodical publications.*

Bugungi texnika oliy o’quv yurtlarida professor – o‘qituvchilaridan talabalarning mustaqil ishlash faolligini oshirish, ularning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish ilg‘or pedagogik texnologiyalaridan foydalanishni talab etadi. Axborot va kommunikatsiya texnologiyalarining jamiyatimizda muhim o‘rinni egallashi bilim uzatilish va qabul qilishining yangi shakllari va vositalarini ishlab chiqishini taqozo etadi. Bunday shakllardan biri kompyuterli o‘qitish texnologiyalari asosida o‘qitishdir. Elektron ta’lim zaxiralari vositalari asosida ta’lim berish kompyuterli o‘qitish texnologiyasi deb yuritiladi. Kompyuterli o‘qitish texnologiyasining asosiy xususiyatlari va afzallik jihatlari quyidagilardan iborat:

- o‘qitish jarayonida axborot ma’lumotlari va zaxiralarining faol holatdagi integratsiyasining ta’minlanishi;

- talabalarning ta’lim olishga qiziqishining faolligining ortishi;
- ta’lim olishning qulayligi va natijaviyligi ta’minlanishi;
- kompyuterli texnologiya ta’lim oluvchining mustaqil fikrlashi, ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish va ishlab chiqarish jarayoniga yo‘naltirilganligi;

Kompyuterli o‘qitish texnologiyasini joriy etishda asosan elektron o‘quv uslubiy majmualar va elektron o‘quv darsliklardan foylaniladi. Elektron o‘quv majmua va darsliklar (EO’MD) quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

1) kursni o‘rganish bo‘yicha nazariy materiallar;

2) masala va mashqlarni yechish uchun amaliy mashg’ulot bo‘yicha praktikum;

3) kursni o‘rganish bo‘yicha (tajriba ishlarini) bajarish uchun uslubiy ko‘rsatmalar;

4) izohli lug‘at va atamalar;

5) Tarqatma materiallar, nazorat uchun testlar va umumiy nazorat savollari;

EO’MDlar fanning mazmuni va mohiyatiga diqqatni jalb etgan holda ko‘p sondagi ma’lumotlarni qarab chiqish va ko‘proq amaliy mashg‘ulotlarni bajarishga imkon yaratadi. Talaba bilim oluvchilarni murakkab hisoblashlar va almashtirishlardan xalos etadi. O’rganishning barcha bosqichlarida o‘z-o‘zini test orqali tekshirib ko‘rish uchun keng imkoniyatlar yaratadi. EO’MD tajribali prof - o‘qituvchi vazifasini, cheklanmagan tushuntirishlarni, sanoqsiz takrorlashlarni, eslatishlarni taqdim etgan holda bilimlar taqdim etadi.

EO’QDda talabalarning bilim va ko‘nikmalarini baholash hamda nazorat qilish uchun tuzilgan avtomatlashtirish dasturlari mavjud bo‘lishi zarur. EO’MD talabalarda real borliqning rivojlanishi qonunlarini tushunish, talabalarni mamlakatimizda bo‘layotgan islohotlar, boyliklardan faxrlanishiga o‘rgatadi. O‘z Vatanini ko‘z qorachig‘idek asrash, bir so‘z bilan aytganda, talabalarning huquqiy madaniyatini shakllantiruvchi his-tuyg‘usini kamol toptirishi uchun xizmat qilishi kerak. Elektron o‘quv majmua va darslikda jamiyat taraqqiyoti, inson kamolotida yaratuvchanlik, mehnatning tutgan o‘rnini ko‘rsatishga alohida ahamiyat beriladi.

EO’MD mazmuni o‘quv dasturiga muvofiq ravishda yoritilishi, ayni paytda har bir mavzuni bayon etishda undan ma’lum darajada chetga chiqishi, me’yorlangan bilim va ko‘nikmalarni puxta o‘zlashuvini ta’minlashi lozim. Shuning bilan bir qatorda fan asoslarining muhim tomonlari, talabalarning amaliy faoliyatida egallagan bilimlardan muvaffaqiyatli Elektron o‘quv majmua va darsliklarda mukammal bayon etiladi.

Xulosa qilib aytganda, EO’MD o‘quv dasturi va elektron o‘quv-uslubiy nashrlarga qo‘yilgan talablarga javob berishi, o‘rganilayotgan fan mazmunini ochib berishi kerak. O‘quv-uslubiy maqsadlarga erishishi uchun yetarli bo‘lgan hajmga va yetarli illyustrativ elementlarga ega bo‘lishi (ya’ni kompyuterning multimediali va boshqa imkoniyatlaridan imkon qadar ko‘proq foydalanish), zarurat tug‘ilganda tashqi WEB-manbalarga va resurslarga murojat qilish imkoni bo‘lishi maqsadga muvafiq. Talabaning yoritilgan materialni o‘zlashtirish darajasini mustaqil baholashi uchun o‘z-o‘zini tekshirish imkonini beruvchi

nazorat savollariga ega bo‘lishi hamda talabalarning huquqiy bilimini, madaniyati va yangi g’oyalar shakllantirishga xizmat qilishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Taylakov N.I., Kulanov I.B. Elektron o‘quv majmualar va ularni yaratishga qo‘yiladigan talablar. Uzluksiz ta’lim, 2008. №3. 8-13-b.
2. Taylakov N.I., Allambergenova M. Interaktiv o‘quv majmualarni yaratish bosqichlari. Xalq ta’limi. – T., 2010. №2. 24-27.
3. Mustofoqulov J. A., Hamzaev A. I., Suyarova M. X. RLC Zanjirining matematik modeli va uni “multisim” da hisoblash //Academic research in educational sciences. – 2021. – Т. 2. – №. 11. – С. 1615-1621.
4. Kh S. M., Mustafakulov A. A. Creative Problems in Electromechanics //Academic Journal of Digital Economics and Stability. – 2021. – С. 695-700.
5. Иняминов Ю. А. и др. Принципы построения индивидуальных радиоприёмных устройств спутникового телевидения //Science and Education. – 2021. – Т. 2. – №. 11. – С. 342-349.
6. Khusanovna S. M., Gulnozaalievna A. Advantages and disadvantages of using multimedia in teaching foreign languages //xorijiy tillarni o „qitishning dolzarb masalalari: muammolar va yechimlar. – С. 170.
7. Мустафакулов А. А. и др. & Наримонов, БА (2018). Исследование аморфизации структуры кристаллов кварца при облучении люминесцентным методом.« //Узбекский физический журнал. – Т. 20. – №. 2. – С. 134-136.
8. Mustafakulov A. A. et al. Paramagnetic resonanse of lattice defects in neutron-irradiated β-phase quartz //1 ТОМ. – 2019. – Т. 264.
9. Suyarova M. X. Teaching physics in a technical university //Экономика и социум. – 2019. – №. 12. – С. 123-125.

UDC. 330.101.8

Tashpulatov B. R.
o‘qituvchisi
“matematika va informatika” kafedrasi
Termiz davlat Pedagogika instituti

IQTISODIYOTDA SAVDO HAMDA RIVOJLANISH KONSEPSIYALARIGA BERILGAN TA’RIFLAR

Annotatsiya: *Ushbu maqolada iqtisodiyotda savdo faoliyati va rivojlanish konsepsiyalarining nazariy hamda amaliy jihatlari umumiy yoritilgan. Savdo tushunchasining iqtisodiy mohiyati, rivojlanish konsepsiyalarining turlari, ularning iqtisodiy tizimdagi o‘rni hamda o‘zaro bog‘liqligi tahlil qilinadi. Shuningdek, eksportga yo‘naltirilgan, import o‘rnini bosuvchi, innovatsion, barqaror va inklusiv rivojlanish modeli kabi yondashuvlarning afzalliklari ilmiy manbalar asosida ochib beriladi. Tadqiqot natijalari savdo iqtisodiy o‘sishning asosiy drayveri ekanini, rivojlanish konsepsiyalari esa iqtisodiy siyosatni shakllantirishda muhim nazariy asos bo‘lib xizmat qilishini ko‘rsatadi.*

Kalit so‘zlar: *Savdo, iqtisodiy rivojlanish, barqaror rivojlanish, innovatsion iqtisodiyot, eksport strategiyasi, iqtisodiy o‘sish, global bozor, iqtisodiy siyosat.*

Tashpulatov B. R.
teacher
department of “mathematics and informatics”
Termez State Pedagogical Institute

DEFINITIONS OF THE CONCEPTS OF TRADE AND DEVELOPMENT IN ECONOMY

Abstract: *This article provides a general overview of the theoretical and practical aspects of trade activity and development concepts in the economy. The economic essence of the concept of trade, types of development concepts, their role in the economic system and their interrelationships are analyzed. Also, the advantages of such approaches as export-oriented, import-substituting, innovative, sustainable and inclusive development models are revealed based on scientific sources. The results of the study show that trade is the main driver of economic growth, and development concepts serve as an important theoretical basis for the formation of economic policy.*

Keywords: *Trade, economic development, sustainable development, innovative economy, export strategy, economic growth, global market, economic policy.*

Kirish

Savdo insoniyat tarixida eng qadimgi iqtisodiy faoliyatlardan biri bo‘lib, uning mavjudligi jamiyatning iqtisodiy munosabatlarini shakllantirishda asosiy omil bo‘lib xizmat qilgan. Bugungi globallashuv sharoitida savdo nafaqat tovarlar almashinuvi jarayoni, balki iqtisodiyotning modernizatsiyasi, texnologiyalar transferi, investitsiya oqimlari, yangi ish o‘rinlarining yaratilishi va iqtisodiy o‘sishning muhim tarkibiy qismi sifatida qaraladi.

Savdoning paydo bo‘lishi tovar ishlab chiqaruvchilar o‘z ehtiyojlarini qondirish uchun zarur bo‘lganidan ko‘proq mahsulot ishlab chiqara boshlagan jamiyatning rivojlanish jarayoniga tegishli. Savdo milliy iqtisodiyot tarmog‘i sifatida ulgurji va chakana savdo korxonalarining kengaytirilgan tarmog‘iga ega bo‘lib, oziq-ovqat hamda nooziq-ovqat tovarlari guruhlari mahsulotlarini saqlash, tashish va sotishni ta’minlaydi. Shuningdek, iste’molchilarga tegishli xizmat ko‘rsatishni tashkil etadi va hokazo. Savdoning holati va rivojlanish darajasi xo‘jalik yurituvchi subyektlar soni, ular faoliyatining hajmi, xaridorlar tomonidan tovarlarni iste’mol qilish tarkibi bilan tavsiflanadi.

Savdo milliy iqtisodiyotning boshqa tarmoqlariga (sanoat, qishloq xo‘jaligi va h.k.) va iste’molchilar miqdorini o’sish va kamayishiga ta’sir ko‘rsatadi. Savdoning va, birinchi navbatda, uning tarkibiy qismi bo‘lgan chakana savdoning muhim ahamiyati shundaki, uning korxonalari faoliyat ko‘rsatishi iste’molchilarning ehtiyojlarini qondirishga yordam beradi. Bundan tashqari, chakana savdo korxonalarining asosiy roli mahsulotlarni ishlab chiqaruvchidan xaridorga yetkazish bo‘yicha ishlab chiqarish va iste’mol o‘rtasidagi vositachilik vazifasi bilan belgilanadi. Bu funksiyani amalga oshirishning ahamiyati raqobat sharoitida, xo‘jalik yuritish sharoitlari ichki va tashqi muhitning turli omillari ta’sirida o‘zgarib turganda ayniqsa, iste’molchilarning to‘lovga qobil talabi doimo o‘zgarib turadigan sharoitda yanada ortadi.

Iste’molchilarning ehtiyojlarini qondirish vazifalarini muvaffaqiyatli hal etish va vositachilik vazifasini amalga oshirish uchun chakana savdo korxonalari o‘z faoliyatini doimiy ravishda takomillashtirib borishi, faoliyat ko‘rsatish samaradorligini oshirishi va yanada rivojlantirish masalalarini hal etishi lozim. Bu esa, o‘z navbatida, O’zbekiston Respublikasini iste’mol bozorida chakana savdo korxonalarining samarali faoliyat yuritishi va rivojlanishini ta’minlashning tegishli konseptual asoslarini ishlab chiqishni taqozo etadi. Buning uchun birinchi navbatda, kategorial apparatni aniqlash, xususan, chakana savdo korxonalari uchun “konsepsiya”, “faoliyat yuritish”, “rivojlanish” va “ta’minot” kabi atamalarning mohiyatini aniqlash maqsadga muvofiqdir.

Rivojlanish konsepsiyalari esa mamlakatning uzoq muddatli iqtisodiy strategiyasini belgilovchi nazariy asosdir. Ular iqtisodiy o‘sishni barqarorlashtirish, texnologik rivojlanishni jadallashtirish, innovatsiyalarni qo‘llash, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish va aholi farovonligini yaxshilashni maqsad qilgan.

So‘nggi yillarda savdo siyosatini strategik yondashuvlar bilan uyg‘unlashtirish muhim bo‘lib qoldi. Chunki savdo global iqtisodiy jarayonlarga

integratsiyaning asosiy mexanizmlaridan biri bo‘lib, rivojlanish konsepsiyalari bilan birgalikda mamlakatning raqobatbardoshligini oshiradi. Ayniqsa, O‘zbekiston misolida savdo liberallashtirilishi va eksport siyosatining faol amalga oshirilishi iqtisodiy yuksalishning asosiy omillaridan biriga aylandi.

Mazkur maqolada savdo va rivojlanish konsepsiyalarining iqtisodiy mohiyati, o‘zaro bog‘liqligi hamda zamonaviy rivojlanish jarayonlaridagi o‘rni tizimli tahlil qilinadi.

Adabiyotlar tahlili

Shuningdek, ilmiy nashrlarni o‘rganish hozirgi vaqtda “faoliyat yuritish” atamasini talqin qilishda bir xillik yo‘qligini ko‘rsatdi [1]. E.M. Korotkov fikriga ko‘ra, “faoliyat yuritish - bu hayotiy faoliyatni qo‘llab-quvvatlash, rejimni saqlash, bu firma faoliyatini belgilovchi barcha ishlab chiqarish funksiyalarini amalga oshirish, bu erishilgan sifat doirasidagi ishdir” [2]. L.G. Melnik funksionallik tizimning hayotiy faoliyat jarayonlarini ko‘p marta ko‘paytirish va takror ishlab chiqarishda ifodalanadi, deb hisoblaydi [3]

S. V. Suxov faoliyatni noyob, oldindan aytib bo‘lmaydigan (stoxastik) maqsadli jarayon sifatida ko‘rib chiqadi, uning doirasida korxona bir holatdan boshqasiga o‘tadi (tabaqalar makonida harakatlanadi) [4] T. I. Lepeyko va O.V. Mazorenkolarning fikricha, faoliyat ko‘rsatish – bu korxonaning asosiy funksiyalarini amalga oshirish, joriy maqsadlarga erishish, uning yaxlitligini saqlash va barqarorligini ta’minlashga qaratilgan tizimning miqdoriy va sifat o‘zgarishlarida ifodalanadigan korxonadagi moslashuv jarayonlari yig‘indisidir [5].

Metodologiya

Nazariy tahlil

Bizning fikrimizcha, faoliyat yuritish – bu joriy ish, korxonaning hayot faoliyatini davom ettirish uchun majburiy bo‘lgan an’anaviy funksiyalarni bajarishdir. Faoliyat ko‘rsatish deganda, nisbatan o‘zgarmas sharoitlarda harakat qilish, vazifalarni bajarish, standart operatsiyalarni bajarish tushuniladi.

“Rivojlanish” kategoriyasiga kelsak, rivojlanish g‘oyasi ilk bor antik davr faylasufi Geraklit tomonidan shakllantirilgan. Ammo har bir alohida olingan bilim sohasidagi rivojlanish mexanizmini tushuntiruvchi universal rivojlanish nazariyasini yaratishga urinishlar hanuzgacha ijobiy natija bermayapti [6]. Falsafiy fanlar rivojlanishni sifat jihatidan yangilikning paydo bo‘lishi, quyidan yuqoriga, murakkabdan oddiyga ko‘tarilishning ilgarilanma jarayoni natijasi bo‘lgan o‘ziga xos o‘zgarish jarayoni sifatida talqin qiladi. [7]

Tadqiqotda klassik iqtisodiyot vakillari — Adam Smit, David Rikardo, J. Stiglitz, P. Krugman kabi olimlarning xalqaro savdo va iqtisodiy rivojlanish nazariyalari o‘rganildi. Savdo mexanizmi, bozor liberallashuvi, erkin bozor va komparativ ustunlik kontseptsiyalari asosiy nazariy manba sifatida tanlandi.

Qiyosiy tahlil

Rivojlanayotgan va rivojlangan mamlakatlar savdo siyosati tahlil qilindi:

- Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlarining eksportga yo‘naltirilgan modeli,

- Lotin Amerikasi davlatlarining import o‘rnini bosuvchi strategiyasi,
- Yevropa Ittifoqining raqamli bozor modeli.

Natijalar asosida turli savdo konsepsiyalarining iqtisodiyotga ta’siri solishtirildi.

Empirik metodlar

Makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar (YaIM, eksport-import hajmi, jahon savdosidagi ulush, aholi bandligi, investitsiya oqimlari) bo‘yicha ilmiy statistik ma’lumotlar tahlil qilindi.

Tizimli yondashuv

Savdo va rivojlanish konsepsiyalari iqtisodiyotning tarkibiy elementlari (sanoat, xizmatlar sohasi, logistika, transport, moliya sektori) bilan bog‘liq holda tizimli ko‘rib chiqildi.

Natijalar

Savdo tushunchasining ilmiy ta’rifi

Savdo — bu ishlab chiqarilgan tovarlar va ko‘rsatiladigan xizmatlarning almashinuvi, ular iste’molchiga yetib borishini ta’minlovchi iqtisodiy faoliyat bo‘lib, iqtisodiy resurslarni samarali taqsimlashga xizmat qiladi. Savdoning asosiy funksiyalari:

- bozor talabini qondirish,
- ishlab chiqarishni rag‘batlantirish,
- mahsulot oqimini ta’minlash,
- davlat byudjetiga tushum keltirish,
- iqtisodiy raqobatni kuchaytirish.

Rivojlanish konsepsiyasining mohiyati

Rivojlanish konsepsiyasi — iqtisodiy o‘sish jarayonini tizimli boshqarish, mamlakatni modernizatsiya qilish va aholi farovonligini oshirishga qaratilgan strategik ilmiy yondashuvlar majmuasidir.

Ular quyidagi omillarni o‘z ichiga oladi:

- texnologik yangilanish,
- innovatsion iqtisodiyot,
- ekologik barqarorlik,
- inson kapitalini rivojlantirish,
- raqamli transformatsiya.

Asosiy rivojlanish konsepsiyalari

Eksportga yo‘naltirilgan rivojlanish modeli

Bu model Janubiy Koreya, Yaponiya, Singapurda keng qo‘llanilgan. Uning afzalliklari:

- sanoat ishlab chiqarishi tez o‘sadi;
- texnologiyalar modernizatsiya qilinadi;
- eksportdan katta daromad olinadi;
- milliy brendlar shakllanadi.

Import o‘rnini bosuvchi rivojlanish konsepsiyasi

Lotin Amerikasi davlatlari qo‘llagan ushbu modelning asosiy maqsadi — mahalliy ishlab chiqarishni rivojlantirish, tashqi tovarlarga qaramlikni kamaytirish.

Innovatsion rivojlanish konsepsiyasi

Oliy texnologiyalar, ilmiy-tadqiqot faoliyati, raqamli iqtisodiyot, startaplar rivojlanishini ta’minlaydi.

Barqaror rivojlanish modeli

Ekologik xavfsizlik, yashil iqtisodiyot, energiya tejash, chiqindilarni kamaytirish tamoyillariga asoslanadi.

Inklusiv rivojlanish modeli

Iqtisodiy o‘sish imkoniyatlari jamiyatning barcha qatlamlariga teng taqsimlanadi. Bu model:

- kambag‘allikni kamaytiradi,
- ijtimoiy tenglikni kuchaytiradi,
- iqtisodiy faollikni oshiradi.

Savdoning iqtisodiy rivojlanishga ta’siri

Tahlillar savdoning quyidagi natijalarga olib kelishini ko‘rsatdi:

- YaIM o‘sish sur’atlari oshadi;
- bandlik kengayadi;
- yangi texnologiyalar kirib keladi;
- investitsion muhit yaxshilanadi;
- eksport hajmi va valyuta tushumi ortadi;
- iqtisodiy raqobat kuchayadi.

Muhokama

Tadqiqot shuni ko‘rsatadiki, savdo faoliyati milliy iqtisodiyotning rivojlanishida hal qiluvchi omildir. Savdo siyosati to‘g‘ri tanlangan rivojlanish konsepsiyasi bilan uyg‘unlashganda iqtisodiy barqarorlik ta’minlanadi.

Tizimlarning iqtisodiy rivojlanish nazariyasiga ko‘ra, transformatsiyalarning kuchi va mazmuniga ko‘ra rivojlanish jarayoni ikki evolyutsion va inqilobiy shaklda ifodalanadi. Rivojlanishning evolyutsion shakli tizimning asta-sekin miqdor va sifat o‘zgarishlari bilan tavsiflanadi, bu uning tarkibi va tuzilishini tubdan o‘zgartirmaydi. Ushbu rivojlanish davri tizimning moslashuvchanlik, refleksivlik, egiluvchanlik va barqarorlik kabi xususiyatlari bilan tavsiflanadi. Taraqqiyotning inqilobiy shakli bir sifat holatidan ikkinchisiga sakrash yo‘li bilan o‘tishni nazarda tutadi.

Agar ushbu ta’rifni bir vaqtning o‘zida ochiq ijtimoiy-iqtisodiy tizim bo‘lgan muayyan korxona va tashkilotlarga nisbatan qo‘llaydigan bo‘lsak, uning so‘nggi qismini quyidagicha ifodalash mumkin: “... tashkilot rivojlanishining o‘ziga xosligi, birinchi navbatda, ularning asosiy elementi bo‘lgan xodimlarning rivojlanish darajasiga, ularning ijodiy va innovatsion faollik ko‘rsatish qobiliyatiga bog‘liq. Demak, ta’kidlash mumkinki, rivojlanish korxonaning muhim xususiyatidir.

I.O.Bogatirev korxonaning rivojlanishini turli iqtisodiy tabiat, yo‘nalish, intensivlikdagi o‘zgarishlar yig‘indisi sifatida ta’riflaydi. Bunday o‘zgarishlar

obyektiv ravishda ijtimoiy-iqtisodiy tizimlarda tashqi va ichki omillar ta’sirida sodir bo‘ladi. Natijada, bunday o‘zgarishlar korxonaning nisbatan barqaror xususiyatga ega bo‘lgan turli tashkiliy-iqtisodiy holatlarga o‘tishiga olib keladi [8].

V.M.Koshelnik olimlarning korxona rivojlanishi haqidagi fikrlarini umumlashtirib, uning ta’rifini iqtisodiy ishlab chiqarish tizimining yangi miqdoriy va sifat xususiyatlariga ega bo‘lishi, faoliyat ko‘rsatish samaradorligi ko‘rsatkichlarini yaxshilash hamda korxonaning salohiyatini oshirish natijasida o‘z hayotiyligini saqlab qolgan ekzogen va endogen muhitdagi o‘zgarishlarga moslashishga yordam beradigan jarayon sifatida taqdim etadi.

S.Mocherniy iqtisodiy rivojlanishni ishlab chiqarish texnologik usulining (ishlab chiqarishning ashyoviy va shaxsiy omillarining texnik-iqtisodiy uyg‘unligiga asoslangan ishlab chiqarish usuli, texnik-iqtisodiy munosabatlar tizimidagi ishlab chiqaruvchi kuchlarning ashyoviy elementlari o‘rtasidagi texnik-texnologik munosabatlar majmuasi) qaytmas, qonuniy o‘zgarishlari sifatida ta’riflaydi [9].

Chakana savdo tashkilotlarining rivojlanshi ortidan hududning iqtisodiy-ijtimoiy holati yanada taraqqiy topadi. Biroq iqtisodiy rivojlanishdan farqli o‘laroq, iqtisodiy o‘sish uchun yuqorida keltirilgan belgilar xos emas, chunki tebranishlarning davriyligiga ko‘ra o‘sish iqtisodiy pasayish bilan almashinishi mumkin. Iqtisodiy o‘sish, uning teskari xarakterini hisobga olmaganda, iqtisodiy rivojlanishning tarkibiy qismi bo‘lib, uning uchun asta-sekin tub o‘zgarishlarni keltirib chiqaradigan o‘zgarishlarni to‘playdi.

Zamonaviy sharoitda savdoning o‘zgarishi

- elektron savdo (e-commerce),
- raqamli to‘lov tizimlari,
- logistikaning avtomatlashtirilishi,
- global savdo zanjirlarining shakllanishi,

savdoning yangi bosqichga o‘tganini ko‘rsatadi.

Rivojlanish konsepsiyalarining amaliy ahamiyati

Tahlillar quyidagi xulosalarni berdi:

- Innovatsion model iqtisodiy o‘sishni tezlashtiradi.
- Barqaror rivojlanish ekologik xavfsizlikni oshiradi.
- Eksportga yo‘naltirilgan strategiya tovarlar raqobatbardoshligini kuchaytiradi.
- Inklusiv rivojlanish ijtimoiy barqarorlikni ta’minlaydi.

Savdo va rivojlanishning o‘zaro ta’siri

Savdo iqtisodiy rivojlanishni tezlashtiradi, rivojlanish konsepsiyalari esa savdoning samaradorligini oshiradi. Ular o‘zaro bir-birini to‘ldiradi.

Xulosa

Tadqiqot natijalariga ko‘ra, savdo iqtisodiyotning eng muhim bo‘g‘inlaridan biri bo‘lib, mamlakatning uzoq muddatli rivojlanish strategiyasini shakllantirishda hal qiluvchi o‘ringa ega. Rivojlanish konsepsiyalari savdo jarayonlarini

boshqarish, modernizatsiya qilish, innovatsion texnologiyalarni joriy etish va iqtisodiy barqarorlikka erishishning nazariy poydevorini yaratadi.

Quyidagi xulosalarga kelindi:

1. Savdo iqtisodiy resurslarning optimal taqsimlanishiga yordam beradi.
2. Rivojlanish konsepsiyalarining to‘g‘ri tanlanishi iqtisodiy o‘sishni barqarorlashtiradi.
3. Eksportga yo‘naltirilgan strategiya milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshiradi.
4. Innovatsion rivojlanish modeli iqtisodiy modernizatsiyaning asosiy drayveri hisoblanadi.
5. Inklusiv va barqaror rivojlanish iqtisodiy tizimni uzoq muddatga mustahkamlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Шостак Р. С. Сущность и принципы функционирования торговых сетей/Р. С. Шостак//Экономика и государство. – 2012. – № 6. – С. 85-88.
2. Коротков Э. М. Концепция менеджмента / Э. М. Коротков. – М.: Инжиниринго-Консалтинговая компания «Дека», 1996. – 304 с.
3. Мельник Л. Г. Европейский опыт использования экономико-правовых инструментов обеспечения устойчивого развития/Л. Г. Мельник, И.А. Б. Дегтярева // Механизм регулирования экономики. – 2012. – № 1 (55). – С. 13-24.
4. Сухов С. В. Системный подход к управлению коммерческим предприятием / С. В. Сухов // Менеджмент в России и за рубежом. – 2001. – № 6. – С. 24-38.
5. Лэпейко Т. И. Раскрытие сущности функционирования и развития предприятия/Т. И. Лепейко, О. В. Мазоренко // Экономика: проблемы теории и практики: сб. научных трудов: 5 т. – Днепропетровск: ДНУ, 2007. – Вып. 232, Т. V. – С. 1226-1231.
6. Виниченко О. М. Характеристика, виды и сущность развития предприятия / А. М. Винниченко // Агросвит – 2015. – № 15. – С. 49-57.
7. Философский словарь / под ред. В. И. Шинкарука // 2-е изд. – К.: Голов. ред. УРЭ, 1986. – 800 с.
8. Богатырев И. О. Управление развитием предприятия: автореф. дис. на соискание науч. степени канд. экон. наук: спец. 08.06.01 «Экономика, организация и управление предприятиями»/И. О. Богатырев. – Киев, 2004. – 22 с.
9. Мало Н. Т. Экономическое развитие предприятия: планирование и моделирование/Н. Т. Мала, О. В. Грабельская О.В. / Lviv Polytechnic National University Institutional Repository // www.ena.lp.edu.ua.
10. Jahon banki va XVJ hisobotlari.
11. O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiy rivojlanish strategiyasi — 2030.

Tog`aymurodov H. S.
Iqtisodiyotda axborot texnologiyalari
va tizimlari magistranti
Toshkent Davlat Iqtisodiyot Universiteti
O`zbekiston

QISHLOQ XO'JALIGINI RAQAMLASHTIRISHNI TAKOMILLASHTIRISH

Annotatsiya: *Bugungi kunda raqamli iqtisodiyotning jadallik bilan rivojlanib borayotganligi, bizdan uni barcha sohalarga tatbiq qilishimizni talab qiladi. Qishloq xo'jaligi ham bundan holi emas. Ayniqsa, ushbu tarmoqni rivojlantirishda ,mahsulotlarni yetishtirishdan tortib, iste'molchiga yetkazib berishgacha bo'lgan jarayonda raqamlashtirishning o'rni katta.Yer holati, suv manbasi, ekin turlarini iqlimga joylashtirish, hosildorlikni oshirish usullari, sarf va xarajatlarini aqlli qishloq xo'jaligi asoslarini raqamlashtirishsiz tasavvur qilish qiyin. Bu maqolada qishloq xo`jaligini raqamlashtirishning dolzarbligi, undagi muammolar va ularni hal qilish yo`llari haqida ma'lumot beriladi.*

Kalit so'zlar: *Raqamli texnologiya, elektron bozor, "CropAgro", "Agroplatforma", Raqamli agrobiznes, Texnika, texnologiya, efito.uz.*

Togaymurodov H. S.
master's student
faculty of master's studies
Tashkent State University of Economics
Uzbekistan

IMPROVING DIGITALIZATION OF AGRICULTURE

Abstract: *Today, the rapid development of the digital economy requires us to apply it to all areas. Agriculture is no exception. Especially in the development of this industry, digitization has a great role in the process from production of products to delivery to the consumer. It is difficult to imagine land conditions, water resources, crop climates, ways to increase productivity, costs and expenses without digitalization of the basics of smart agriculture. This article provides information about the relevance of digitization of agriculture, its problems and ways to solve them.*

Key words: *Digital technology, Electronic market, "KropAgro", "Agroplatform", Digital agribusiness, Technical technology, "efito.uz".*

Kirish

Qishloq xo`jaligi mamlakatimiz iqtisodiyotida muhim ro`l o`ynaydi. Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarilishini rivojlantirish, mahsulot yetishtirish jarayonini osonlashtirish, iste'molchiga yetkazib berish jarayonini takomillashtirish mamlakatimiz iqtisodiy holatini yaxshilashning muhim shartlaridan biridir. Ammo qishloq xo`jaligini raqamlashtirishda bugungi kunda bir qator muammolar yuzaga kelmoqda. Masalan infratuzilmaning talab darajasida emasligi, ko‘plab qishloq joylarida Internet va boshqa kommunikatsiya infratuzilmasi yetarlicha rivojlanmaganligi, bu esa raqamli texnologiyalarni joriy etishda to‘siq bo‘lmoqda. Moliyaviy muammolar, qishloq xo‘jaligini raqamlashtirish uchun zarur bo‘lgan texnologiyalar va dasturlarga investitsiyalar qilish imkoniyatlari cheklangan. Kichik fermerlar uchun bunday xarajatlar qiyin bo‘lishi mumkin. Yana bir dolzarb muammolardan biri kadrlar malakasining yetishmasligi. Raqamli texnologiyalarni qo‘llash uchun zarur bo‘lgan malakali mutaxassislar yetishmaydi. Bu, o‘z navbatida, raqamli vositalarni samarali ishlatishda muammolarni keltirib chiqaradi. Qishloq xo`jaligini raqamlashtirishdagi muammolarni hal etish, uni yuqori texnologiyalar bilan ta'minlash mamlakatimizni, xalqimizni iqtisodiy faravonlikka yetaklaydigan muhim qadamlardan biri. Bugungi kunda bu sohada yangi texnologiyalarni joriy qilish, ularni takomillashtirishda chet el tajribasini o'rganib, tatbiq qilish bo'yicha keng ko'lamli ishlar joriy etilmoqda. O‘zbekiston hukumati va prezidentining qishloq xo‘jaligini raqamlashtirishga qaratilgan qarorlari bu sohani rivojlantirishga keng imkoniyatlar yaratmoqda. Masalan, 2023-yil 3-avgustda qabul qilingan "Qishloq xo‘jaligi sohasiga ilg‘or raqamli texnologiyalarni joriy qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida"gi Prezident qarori qishloq xo‘jaligida raqamli yechimlarni kengaytirishga qaratilgan. Shuningdek, "Raqamli O‘zbekiston - 2030" dasturida qishloq xo‘jaligini raqamlashtirishga alohida e'tibor qaratilgan. Dasturda: "Qishloq xo‘jaligida raqamli texnologiyalarni joriy etish orqali samaradorlikni oshirish va resurslardan samarali foydalanishni ta'minlash" maqsad qilib qo‘yilgan. Ushbu dastur doirasida innovatsion yechimlarni, masalan, aqlli qishloq xo‘jaligi va avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlarini rivojlantirish ko‘zda tutilgan. Xususan, Prezidentimizning “Raqamli O'zbekiston -2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora tadbirlari to'g'risida”gi Farmoni bilan agrasanoatni rivojlantirishga qaratilgan bir qancha loyihalarni amalga oshirish belgilangan.[1]

Adabiyotlar Tahlili

Qishloq xo`jaligini raqamlashtirish global masala hisoblanadi. Bu ish ustida ko`plab mamlakat olimlari ish olib bormoqda. Quyida bir nechta misollar keltiramiz.

Xitoylik olimlar X. Zhang va H. Chen 2021-yilnda “Journal of Agricultural Science and Technology” jurnalida chop etilgan "Digital Transformation in Agriculture: Challenges and Opportunities" nomli maqolasida: "Raqamli texnologiyalar qishloq xo‘jaligi samaradorligini oshirishda muhim rol o‘ynaydi."[2] degan fikrni bildirgan. Hindistonlik olimlar S. Kumar va R. Singh

"The Role of Digital Technologies in Agricultural Innovation" nomli maqolasida raqamlashtirishning yangi imkoniyatlari haqida batafsil ma'lumot berib o`tgan. Jumladan "Qishloq xo'jaligida raqamli innovatsiyalar yangi imkoniyatlar yaratadi." degan fikrni ilgari surgan va yetarlicha asoslab bergan[3]. Ingliz olimi A. Smith o`zining "Digital Agriculture: The Future of Farming" nomli maqolasini "Agricultural Economics" jurnalida chop etgan. Bu maqolada raqamlashtirish fermerlarga qanchalik yordam berishi batafsil yoritilgan. Xususan "Raqamli qishloq xo'jaligi fermerlarga qaror qabul qilish jarayonida yordam beradi." degan fikrni bildirib o`tgan.[4] Xitoy olimlari qishloq xo`jaligini raqamlashtirish sohasida sezilarli izlanishlar olib brogan va yutuqlarga erishmoqda. Y. Liu va L. Wang 2022-yilda "Big Data Analytics in Agriculture: A Review" nomli maqolasini chop etgan. Bu maqola qishloq xo`jaligida ma'lumotlar tahlili sohasida raqamli texnologiyalarni joriy qilish, ularning afzalliklari haqida yozilgan. "Katta ma'lumotlarni tahlil qilish qishloq xo'jaligida strategik qarorlar qabul qilishda asosiy ahamiyatga ega".[5] J. Perez, va R. García raqamli texnologiyalarni qishloq xo`jaligida qo`llash ustida ilmiy izlanishlar olib borishgan va natijalarini "Smart Farming: Integrating IoT and Big Data" nomli maqolada bayon qilishgan. Ularning fikriga ko`ra "IoT texnologiyalari qishloq xo'jaligida samaradorlikni oshirishga yordam beradi."[6] Ba'zi olimlar qishloq xo`jaligini raqamlashtirishning ijtimoiy-iqtisodiy hayotga ta'sirini ham o`rganishgan. A. Mishra "The Impact of Digital Tools on Rural Development" nomli maqolasini chop etgan. Bu maqolada raqamli texnologiyalarning insonlarning ijtimoiy-iqtisodiy hayotini yaxshilashi haqidagi quyidagi fgikrlarni bildirib o`tgan: "Raqamli vositalar qishloq hududlarida ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni tezlashtiradi."[7] M. Davis olib brogan izlanishlari bilan boshqa olimlardan biroz farq qiladi. U qishloq xo`jaligida blokcheyn texnologiyasi joriy qilish ustida ish olib borgan. Uning "Blockchain Technology in Agriculture: Benefits and Challenges" nomli maqolasida "Blockchain texnologiyasi qishloq xo'jaligida shaffoflikni oshirishda yordam beradi." degan fikr ilgari surilgan[8]. C. Fernández "Agricultural Systems" jurnalida chop etilgan "Agricultural Robotics and Automation: The Future of Farming" nomli maqolasida qishloq xo`jaligini avtomatlashtirish va unda robotlardan foydalanish ustida olib borilgan ilmiy izlanish haqida yozilgan maqolasida bu haqida aytilgan ko'plab fikrlar keltirilgan.Masalan, avtomatlashtirish va robototexnikaning qishloq xo'jaligida ishchi kuchidan samarali foydalanishdagi muhim ahamiyati,uni boshqarishdagi roli haqida yetarlicha iqtiboslar keltirilgan.[9] Bundan tashqari "Precision Agriculture" jurnalining 2022-yilda chop etilgan "Precision Agriculture ;Technologies and Practices" nomli maqolasida texnologik resurslardan samarali foydalanish, qishloq xo'jaligini yangi texnologiyalar bilan yetarlicha ta'minlash,ulardan unumli foydalanish uchun malakali mutaxassislarni tarbilayash haqida jiddiy muhokama olib boriladi va bu bo'yicha muammolar va ularni oldini olish bo'yicha yechimlar ko'rsatilgan.[10] Bundan tashqari, bugungi kunda agrasanoat tizimida ish olib boradigan xodimlarning raqamli savodxonligini oshirish,ularga zarur axborotlarni yetkazish raqamli qishloq xo'jaligini yuqori

cho’qqilarga olib boradigan muhim poydevordir. Bu fikrlarni George Thomas Johnson va Lewis Edward Lawes “Agricultural Educational” jurnalida chop etilgan “Digital Literacy in Agriculture; Bridging the Gap” maqolasida yetarlicha yoritib berishgan.Unda yozilishicha raqamli texnologiyalarni keng yoyish,uni targ’ib qilishdan oldin raqamli savodxonlikni o’stirish masalalari olib borilishi kerak.[11]. Milkha Singh va Rahul Kapoor agrosanoat haqidagi hind jurnalida ‘Raqamli platformalar fermerlarga resurslarni yaxshiroq boshqarish imkonini beradi’ degan g’oyani ilgari suradi.[12] Binobarin, bu bo’yicha bir qancha qo’llanmalar ham keltirilgan.O’z o’rnida aytib o’tish kerakki, yurtimizda qishloq xo’jaligi xodimlari va oddiy aholi ham yaxlit, yuritish oson bo’lgan platformalarga ehtiyoji yuqori. R. Naylor, W. Falcon ‘Food Security and Digital Technology” maqolasida raqamli texnologiyalarning oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlashdagi muhim o’rin tutishi haqida yetarlicha fikrlar keltirilgan[13].”Raqamli yechimlar barqaror qishloq xo’jaligini rivojlantirishda muhim rol o’ynaydi” deb yoziladi Sustainable Agriculture jurnalining 2023 yilda chop etilgan ‘ ‘Sustainable Agriculture and Digital Solutions”nomli Aphirup Kumar va Peeretika Joshi tomonidan yozilgan maqolada.[14]

2023-yilda X.Xonqulov va X. Akbarov tomonidan yozilgan ‘Qishloq Xo’jaligiga aqlli texnologiyalarni joriy qilish” nomli maqolasida qishloq xo’jaligi ekin yerlari va suvdan samarali foydalanishda raqamli texnologiyalarni,issiqxona xo’jaliklarida avtomatlashtirish tizimini o’stirish qishloq xo’jaligi tizimining porloq kelajagi sari muhim yo’l bo’lishi ta’kidlangan[15]. 2023-yilda nashr qilingan ‘Agrar sohada raqamli texnologiyalarning ahamiyati’ maqolasida ‘Aholini sog’lom oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta’minlash va uning tizimini rivojlantirish kafolati innovatsion texnologiyalarni olib kirish bilan belgilanadi’ deyiladi. Z.S. Kazakova va X. Arslonov tomonidan yozilgan ‘Qishloq xo’jaligini rivojlantirishda raqamli texnologiyalarni o’rni” mavzusida yozilgan maqolada raqamlashtirish bo’yicha qo’yilgan vazifa va topshiriqlarni ja’dal sur’atlarda olib borishda yetakchi xorijiy tajribani o’rganish, Jahon bankining maslahat va moliyaviy qo’llab-quvvatlashidan maximal darajada foydalanish yanada yorug’ yo’lga chiqib olishimiz uchun kerakli xarita bo’la olishi haqida mulohazalar olib borilgan.[16]

Ushbu manbalar qishloq xo‘jaligini raqamlashtirishning ahamiyati va imkoniyatlarini yoritishda yordam beradi.

Tadqiqot Metodlari

Ushbu tadqiqotda qishloq xo’jaligini raqamlashtirish jarayonini tahlil qilish va takomillashtirish uchun so’rovnomalar,vaziyatlarda o’rganish, bu jarayonda muvaffaqiyatli tajribalar,muammolarni yechimlari tahlil qilindi.Bundan tashqari qishloq xo’jaligi sohasidagi ekspertlar bilan intervyular o’tkazildi.Ekspertlar tomonidan berilgan maslahatlar va tavsiyalarvtadqiqotning amaliy ahamiyatini oshirdi.Natijalar qishl.oq xo’jaligini raqamlashtirishni yanada takomillashtirish yo’llarini belgilashda asosiy rol o’ynaydi.

Tahlil Va Natijalar

Barcha olib borilgan tadqiqotlar,izlanishlar natijasida ko’pgina qaror va xulosalarni qayd etildi.Raqamli texnologiyalarni joriy etgan fermer xo’jaliklarida ishlab chiqarish samaradorligi 30%gacha oshganligi ko’rildi.Bu raqamlar,shuningdek, ishlov berish jarayonlarini avtomatlashtirish va monitoring tizimlaridan foydalanish orqali erishilgan.Price Water house Coopers konsalting kompaniyasi tadqiqotlari shuni ko’rsatadiki, global sun’iy aql 2030-yilga kelib jahon iqtisodiyotiga 15,7 trillion AQSH dollari miqyosida foyda keltirishi kutilmoqda..Masalan,yerlarni lazerli tekislagichda tekislash bu dala maydoni yuzasidagi eng past va baland joylar farqi 1-3 smdan oshmagan holda, maxsus lazer jihozli qurillmalarida tekislash usulidir. Lazerli tekislagichda tekislashdan oldin qilinadigan tayorlanadigan ishlari kopdir.

Aqlli" suv ta'minoti. Dunyo bo'yicha 70 foiz toza suv qishloq xo‘jaligi uchun sarflanar, achinarlisi uning 60 foizi shunchaki isrof bo'lib ketar ekan. Bu muammoni ham aqlli tizim hal qiladi tizim suv nasoslarini masofadan turib boshqarish imkonini berib, fermerlarni suv oqishi va yetishmovchiligi haqida ogohlantiradi. Hindistonlik fermerlar bu borada "Nano Ganesh" mobil tizimidan foydalanishadi. Tizim yordamida ular suvdan samarali foydalanishadi.

"SUSTAINABLE ECONOMIC DEVELOPMENT OF REGIONS: INTERNATIONAL AND NATIONAL CONCEPTS" International scientific. Chilida esa mevalar plantatsiyasini datchiklar bo'yicha sug'orish suv sarfini 70 foizga kamaytirish imkonini bermoqda. Albatta, bunday tadqiqotlar dunyo bo'ylab olib borilyapti. Masalan, NASA AQSh geologiya xizmati bilan hamkorlikda sun'iy yo'ldosh yordamida shtatlar hududida tuproq namligi haqida dolzarb ma'lumotlarni qo'lga kiritgan.

Qishloq xo'jaligiga intellektual texnologiyalarni joriy etish iste'molchilari, albatta, fermerlar va fermalar rahbarlaridir. Texnologik provayderlar esa yetkazib beruvchilar hisoblanadi. Ular iste'molchilar uchun innovatsion dasturlar yoki mobil ilovalar, M2M uskunalari, datchiklar va kuzatuv qurilmalari, aloqa kanallari, ma'lumotlarni tahlil qilish vositalari va boshqa aqlli yechimlar ishlab chiqish uchun javobgardir. Ammo, har bir ferma (har bir fermer) ham internetga ulangan emas. Hatto tarmoqqa ulanish uchun uncha katta bo'lmagan fermaga yetarlicha sarmoya lozim. Budjeti kam xo'jaliklarga qanday yordam berish kerak? Masalan, 10 million kam rentabelli fermalarga ega Afrikada “Esoko” mahalliy ishlanma yordamga keldi. Ishlanma fermerlarga xo'jaliklari holati, ob-havo, mahsulot yetishtirish bo'yicha tavsiyalar haqidagi muhim ma'lumotlarni taqdim etadi. Shu tizimda «eBay>> usulidagi internet-do'kon ham faoliyat ko'rsatadi. Uning eng ommalashgan funksiyasi fermerlarga turli mahsulotlarning joriy narxini ko'rsatib turishidir. Bu orqali ular mahsulotini foydali narxlarda sota oladilar. Mazkur tizim natijasida shaxsiy xo‘jaliklar daromadi ikki yilda 12 foizga o‘sgan.

Materiallar Va Usullar: Ushbu tadqiqotda qishloq xo‘jaligini raqamlashtirish jarayonini tahlil qilish va takomillashtirish uchun bir qator metodologiyalar qo‘llanildi:

Adabiyot tahlili: Tadqiqot boshlanishida qishloq xo‘jaligini raqamlashtirish, innovatsion texnologiyalar va ularning samaradorligi bo‘yicha mavjud ilmiy va amaliy tadqiqotlar, maqolalar va hisobotlar o‘rganildi. Bu jarayonda global va mahalliy tajribalar tahlil qilindi, shuningdek, raqamli transformatsiya sohasidagi eng yaxshi amaliyotlar yig‘ildi.

So‘rovnomalar: Fermerlar, agrar mutaxassislar va qishloq xo‘jaligi rahbarlaridan olingan fikrlar orqali ma'lumotlar to‘plandi. So‘rovnomalar raqamli texnologiyalarni qishloq xo‘jaligida qanday qo‘llanilishi, ularni qabul qilish darajasi va mavjud to‘siqlarni o‘rganishga qaratildi. So‘rovnomalar 500 dan ortiq ishtirokchini qamrab oldi va natijalar statistik tahlilga tayyorlandi.

Tahlil usullari: Olingan ma'lumotlar statistik usullar yordamida tahlil qilindi. Ushbu jarayonda kvantitativ va sifatli metodlar birgalikda ishlatildi. Kvantitativ tahlil orqali raqamli texnologiyalarni qo‘llash darajasi, samaradorlik va iqtisodiy ko‘rsatkichlar o‘rganildi, sifatli tahlil esa fermerlarning fikr va munosabatlarini yoritishga yordam berdi.

Case-study (hollarda o‘rganish): Turli fermer xo‘jaliklarida raqamli texnologiyalarni joriy etish misollari o‘rganildi. Bu jarayonda muvaffaqiyatli tajribalar, muammolar va ularning yechimlari aniqlandi. Bunday tadqiqotlar yordamida qishloq xo‘jaligida raqamli texnologiyalarni joriy etishda yuzaga keladigan amaliy muammolar va yechimlar chuqur tahlil qilindi.

Ekspert intervyulari: Qishloq xo‘jaligi sohasidagi ekspertlar bilan intervyular o‘tkazildi. Bu intervyular orqali fermerlar va agrar mutaxassislarning raqamli texnologiyalar haqidagi fikrlari, ularning amaliy tajribalari va kelajakdagi istiqbollarini o‘rganishga muvaffaq bo‘lindi. Ekspertlar tomonidan berilgan maslahatlar va tavsiyalar tadqiqotning amaliy ahamiyatini oshirdi.

Ushbu metodologiyalar orqali qishloq xo‘jaligini raqamlashtirish jarayonining holatini, imkoniyatlarini va muammolarini tahlil qilish imkoniyati yaratilgan. Natijalar qishloq xo‘jaligini raqamlashtirishni yanada takomillashtirish yo‘llarini belgilashda asosiy rol o‘ynaydi.

Natijalar

Tadqiqot natijalari quyidagilarni ko‘rsatdi:

Samaradorlik: Raqamli texnologiyalarni joriy etgan fermer xo‘jaliklarida ishlab chiqarish samaradorligi 30% ga oshganini ko‘rsatdi. Bu raqamlar, shuningdek, ishlov berish jarayonlarini avtomatlashtirish va monitoring tizimlaridan foydalanish orqali erishilgan.

Resurslarni boshqarish: Raqamli texnologiyalar yordamida suv va o‘g‘itlardan foydalanishda 20% ga kamayish kuzatildi. Masalan, aqlli irrigatsiya tizimlari orqali suv iste'moli samarali boshqarilmoqda.

Ta'lim va ko‘nikmalar: Fermerlar orasida raqamli ko‘nikmalarga bo‘lgan talab oshdi. So‘rovnomaga ko‘ra, 70% dan ortiq ishtirokchilar maxsus treninglardan o‘tish istagini bildirdilar, bu esa ta'limning muhimligini ta’kidlaydi.

Tadqiqot natijalari ko‘rsatadiki, raqamlashtirish qishloq xo‘jaligida samaradorlikni oshirishga yordam beradi. Biroq, bir qator to‘siqlar mavjud:Internet infratuzilmasi: Ko‘plab qishloq hududlarida internet tarmog‘ining

yetarli darajada rivojlanmaganligi raqamli texnologiyalarni kengaytirishdagi eng katta to‘siq hisoblanadi. Bu holat fermerlarning zamonaviy texnologiyalardan foydalana olishiga to‘sqinlik qilmoqda. Fermerlarning raqamli texnologiyalarni qo‘llash bo‘yicha bilim va ko‘nikmalarini oshirish zarur. Treninglar va seminarlar orqali bu ko‘nikmalarni rivojlantirish mumkin.Davlat va xususiy sektor hamkorligi: Raqamlashtirish jarayonida davlat va xususiy sektor o‘rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish zarur. Innovatsion loyihalarni moliyalashtirish va ilg‘oor texnologilarni sotib olish xususiy sektorlarga ogir bolishi mumkin.Bugungi tadqiqotlar natijasidan quyidagi yechimlarni tahlil etamiz.

O'zbekistonda qishloq xo'jaligini raqamlashtirishda bir qator muammolar mavjud. Ayniqsa, infratuzilma yetarli darajada rivojlanmaganligi, ayniqsa internet va boshqa kommunikatsion xizmatlarning chegaralanganligi, raqamli texnologiyalarni qo'llashda to'siq bo'lib kelmoqda.

Ushbu muammoni hal qilish uchun keng tarmoqli yechim talab qilinadi va u bir nechta yo'nalishlarda amalga oshirilishi kerak:

1. Infratuzilma rivojlantirish: Internetni kengaytirish: Qishloq joylarga optik tolali kabel yotqizish, uyali aloqa operatorlarining qamrovini kengaytirish, Wi-Fi nuqtalarini joriy etish orqali Internetga kirish imkoniyatini oshirish.

• Elektr energiyasi ta'minotini yaxshilash: Qishloq joylarda barqaror elektr energiyasi ta'minotini ta'minlash, yangi elektr stantsiyalarini qurish yoki mavjudlarini modernizatsiya qilish. Kommunikatsion infratuzilmani rivojlantirish: Qishloq joylarga telekommunikatsion xizmatlarni kengaytirish, signalni kuchaytirish uskunalarini o'rnatish.

Texnologik qo'llab-quvvatlash: Raqamli texnologiyalarni o'qitish: Fermerlarni raqamli texnologiyalar, jumladan, mobil ilovkalar, sensorlar, drone va boshqa texnikalarni ishlatishni o'qitish dasturlarini ishlab chiqish. Ma'lumotlarga kirishni ta'minlash: Fermerlarga o'z ekinlari, ob-havo sharoiti, bozor narxlari va boshqa foydali ma'lumotlarga kirish imkoniyatini ta'minlash. Raqamli texnologiyalarni moliyalash: Raqamli texnologiyalarni sotib olish va joriy etish uchun fermerlarga moliyaviy yordam ko'rsatish. Raqamli platformalarni yaratish: Fermerlar uchun ma'lumot almashish, mahsulot sotish va xarid qilish, moliyaviy xizmatlardan foydalanish imkoniyatini beradigan raqamli platformalarni yaratish. . Siyosat va qonunchilik: Raqamlashtirishni qo'llab-quvvatlovchi siyosatni yaratish: Qishloq xo'jaligini raqamlashtirishni rag'batlantiruvchi siyosatni yaratish, investitsiyalarni jalb qilish, soliq imtiyozlarini berish. Raqamli texnologiyalarni joriy etish uchun qonunchilikni takomillashtirish: Raqamli texnologiyalarni qo'llashga oid qonunchilikni takomillashtirish, ma'lumotlar xavfsizligi va shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilishni ta'minlash.

Davlat va xususiy sektor o'rtasidagi hamkorlik: Davlat tomonidan raqamlashtirishni qo'llab-quvvatlash, xususiy sektor esa texnologiyalarni taqdim etish va innovativ yechimlarni ishlab chiqish. Xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik: Xalqaro tashkilotlardan raqamlashtirishni qo'llab-quvvatlash, texnologiyalarni taqdim etish, tajriba almashish. Jamoatchilik bilan ishlash Fermerlarni jalb qilish: Fermerlar bilan ishlash, ularning raqamli texnologiyalarga

bo'lgan ehtiyojlarini tushunish, ta'lim va o'qitish dasturlarini ularning ehtiyojlari asosida shakllantirish. Jamoatchilik fikrini shakllantirish: Raqamlashtirishning foydalarini tushuntirish, fermerlarning raqamli texnologiyalarni qo'llashga bo'lgan ishonchini oshirish.Ushbu choralar kompleks tarzda amalga oshirilishi kerak. O'zbekiston qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilari zamonaviy texnologiyalardan foydalanishni o'rganishlari va ularni qo'llashga tayyor bo'lishlari muhim. Bu esa o'z navbatida ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, mahsulot sifatini yaxshilash, iqtisodiy foyda keltirish, bozorga kirishni osonlashtirish va qishloq xo'jaligini yanada rivojlantirishga yordam beradi.

Xulosa

Qishloq xo'jaligini raqamlashtirish O'zbekiston uchun katta imkoniyatlar yaratadi. Bu samaradorlikni oshirish, ishlab chiqarishni optimallashtirish, xarajatlarni kamaytirish va mahsulot sifatini yaxshilashga yordam beradi. Raqamli texnologiyalar fermerlarga o'z ekinlari, ob-havo sharoiti, bozor narxlari va boshqa foydali ma'lumotlarga kirish imkoniyatini beradi. Ammo qishloq xo'jaligini raqamlashtirishda bir qator qiyinchiliklar ham mavjud. Eng muhim to'siqlardan biri bu infratuzilmaning yetarli darajada rivojlanmaganligi, ayniqsa, internet va boshqa kommunikatsion xizmatlarning cheklanganligi. Bundan tashqari, qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilari raqamli texnologiyalardan foydalanishni o'rganish va ularni qo'llashga tayyor bo'lishlari kerak.

Qishloq xo'jaligini raqamlashtirish bo'yicha muvaffaqiyatga erishish uchun, ta'lim tizimini takomillashtirish, malakali kadrlarni tayyorlash, moliyaviy qo'llab-quvvatlash va jamoatchilik bilan ishlash kabi choralarni ko'rish kerak.

Bu maqola O'zbekiston qishloq xo'jaligini raqamlashtirishning ahamiyati va uning oldida turgan qiyinchiliklarni ta'kidlab, bu sohada samarali va barqaror rivojlanishga erishish uchun zarur bo'lgan choralarni ko'rsatdi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati

1. Resolution of the President of the Republic of Uzbekistan No. PQ-6079 "On approval of the "Uzbekistan-2030" strategy and measures for its effective implementation".
2. Zhang, X., & Chen, H. (2021). "Digital Transformation in Agriculture: Challenges and Opportunities". Journal of Agricultural Science and Technology.
3. Kumar, S., & Singh, R. (2020). "The Role of Digital Technologies in Agricultural Innovation". International Journal of Innovation and Technology Management.
4. Smith, A. (2019). "Digital Agriculture: The Future of Farming". Agricultural Economics.
5. Liu, Y., & Wang, L. (2022). "Big Data Analytics in Agriculture: A Review". Computers and Electronics in Agriculture.
6. Pérez, J., & García, R. (2023). "Smart Farming: Integrating IoT and Big Data". Journal of Smart Agriculture.
7. Mishra, A. (2021). "The Impact of Digital Tools on Rural Development". Rural Studies.

8. Davis, M. (2020). "Blockchain Technology in Agriculture: Benefits and Challenges". Journal of Food and Agriculture.
9. Fernández, C. (2019). "Agricultural Robotics and Automation: The Future of Farming". Agricultural Systems.
10. Sharma, R., & Kumar, V. (2022). "Precision Agriculture: Technologies and Practices". Precision Agriculture Journal.
11. Johnson, T., & Lewis, E. (2023). "Digital Literacy in Agriculture: Bridging the Gap". Agricultural Education Journal.
12. Singh, M., & Kapoor, R. (2020). "Digital Platforms in Agriculture: A Review". Journal of Digital Agriculture.
13. Naylor, R., & Falcon, W. (2019). "Food Security and Digital Technology". Food Security Journal.
14. Kumar, A., & Joshi, P. (2023). "Sustainable Agriculture and Digital Solutions". Sustainable Agriculture Journal.
15. Kh. Khonkulov, Kh. Akbarov “Introduction of smart technologies in agriculture” Journal “Heliotechnika”
16. Z. S. Kazakova and H. Aslonov "The role of digital technologies in the development of agriculture" Journal "Science and Life".

Toshpulatova S. T.
o‘qituvchisi
Qarshi davlat universiteti

QASHQADARYO VILOYATI SHAROITIDA EGATLASH VA TOMCHILATIB SUG‘ORISH USULLARINING ERTAGI KARTOSHKA NAVLARI RIVOJLANISH FAZALARI MUDDATIGA TA’SIRI

Annotatsiya. *Maqolada Qashqadaryo viloyati och tusli bo‘z tuproqlarida Sante va Evolution navlari ertagi kartoshkasining rivojlanish fazalari egatlab va tomchilatib sug‘orish sharoitida solishtirildi. 2025-yil vegetatsiya mavsumida o‘tkazilgan tajribalar natijalari sug‘orish usuli rivojlanish bosqichlari muddatiga sezilarli ta’sir ko‘rsatganini aniqladi.*

Kalit so‘zlar. *Kartoshka, nav, Sante, Evolution, sug‘orish usullari, tomchilatib, egatlab, vegitatsiya, faza.*

Toshpulatova S. T.
lecturer
Karshi State University

THE EFFECT OF FURROW AND DRIP IRRIGATION METHODS ON THE DURATION OF DEVELOPMENT STAGES OF EARLY POTATO VARIETIES UNDER THE CONDITIONS OF THE KASHKADARYA REGION

Annotation. *In this article, the development stages of early potato varieties Sante and Evolution grown on light gray soils of the Kashkadarya region were compared under furrow and drip irrigation conditions. The results of the experiments conducted during the 2025 vegetation season showed that the irrigation method had a significant effect on the duration of the growth stages.*

Keywords. *Potato, variety, Sante, Evolution, irrigation methods, drip irrigation, furrow irrigation, vegetation, stage.*

Kirish

Kartoshka (Solanum tuberosum L.) mamlakatimizda muhim oziq-ovqat ekini hisoblanadi. Hosildorlikka ta’sir etuvchi asosiy omillardan biri — suv bilan ta’minlanish tizimi va agrotexnik tadbirlarning to‘g‘ri tanlanishidir. So‘nggi yillarda suv resurslaridan oqilona foydalanish maqsadida tomchilatib sug‘orish usuli keng joriy etilmoqda. Ushbu usulning kartoshka rivojlanish fazalariga ta’sirini aniqlash dolzarb ilmiy va amaliy ahamiyatga ega.

Tadqiqot materiali va uslubi

Tajriba Sante va Evolution kartoshka navlarida olib borildi. Har ikkala nav uchun 90×20 sm ekish sxemasi va 6–8 sm ekish chuqurligi qo‘llanildi. Tajribada

ekish muddati 15-fevral bo‘ldi. Sug‘orish usuli bo‘yicha egatlab va tomchilab sug‘orish variantlari qo‘llanildi.

Natijalar va muhokama

Tajriba natijalariga ko‘ra, sug‘orish usullari kartoshkaning o‘sish va rivojlanish fazalarining kechish muddatiga bevosita ta’sir ko‘rsatgani aniqlandi. Har ikkala — **Sante** va **Evolution** navlari uchun ekish muddati bir xil (15-fevral) bo‘lishiga qaramay, sug‘orish tizimi o‘zgarishi natijasida fenologik fazalarning boshlanishi va yakunlanishida sezilarli farqlar kuzatildi.

Egatlab sug‘orish usulida Sante navi unib chiqish fazasi 14-martda, Evolution esa 12-martda sodir bo‘lgan. Tomchilatib sug‘orishda esa bu muddat mos ravishda 13-mart va 11-mart sanalariga to‘g‘ri kelgan. Bu farq shuni ko‘rsatadiki, tomchilatib sug‘orish usuli bilan sug‘orilgan variantlarda urug‘ tuganaklar atrofidagi namlik barqaror saqlangan, natijada tuproq harorati nisbatan bir tekis bo‘lib, unib chiqish jarayoni tez kechgan.

Shonalash fazasi ham tomchilatib sug‘orish usulida 1–2 kun oldin boshlangani qayd etilgan. Masalan, Sante navida egatlab sug‘orishda bu faza 16-aprel**,** tomchilatib sug‘orishda esa 15-aprel kuni kuzatilgan. Evolution navida esa bu faza mos ravishda 14-aprel va 12-aprel kunlari boshlangan. Bu esa suvning o‘simlikka barqaror ta’minlanishi natijasida vegetativ o‘sishdan generativ rivojlanishga o‘tish davri tezlashganini bildiradi.

Gullash fazasi davomida ham o‘ziga xos farqlar aniqlangan. Egatlab sug‘orish usulida Sante navi 23-aprel**,** Evolution navi 21-aprel kunlari gullagan bo‘lsa, tomchilatib sug‘orish sharoitida bu fazalar mos ravishda 22-aprel va 20-aprel kunlari kuzatilgan. Gullash davrining biroz erta kechishi, suv va oziqa moddalarning optimal miqdorda o‘simlik tomonidan o‘zlashtirilganidan dalolat beradi.

Palaklarning sarg‘ayish muddati o‘simlik fiziologik yetilishining asosiy ko‘rsatkichlaridan biri hisoblanadi. Ushbu faza tomchilatib sug‘orishda 2–3 kun oldin boshlanib, Sante navi bo‘yicha 8-iyun**,** Evolution navi bo‘yicha 2-iyun sanalarida qayd etilgan. Egatlab sug‘orish tizimida esa palaklarning sarg‘ayishi 10-iyun (Sante) va 5-iyun (Evolution) kunlariga to‘g‘ri kelgan.

Yig‘im-terim muddati ham xuddi shunday ketma-ketlikda farq qilgan. Tomchilatib sug‘orish tizimida o‘simliklar 2–3 kun erta pishgan va yig‘im-terim ishlari erta boshlangan. Bu holat erta bozor uchun mahsulot yetkazib berishda katta afzallik beradi.

Umuman olganda, tomchilatib sug‘orish usulida:

- tuproq namligi doimiy saqlangan;
- o‘simlik ildiz tizimi faol ishlagan;
- fotosintetik faoliyat va oziqa moddalarning o‘zlashtirilishi yaxshilangan;
- natijada rivojlanish fazalari erta kechgan va vegetatsiya davri 1–3 kunga qisqargan.

Evolution navi Sante naviga nisbatan barcha fazalarda 1–2 kun oldin rivojlangan (1-jadval). Bu narsa navning biologik xususiyatlari — erta pisharligi, yuqori moslashuvchanligi va haroratga nisbatan bardoshliligi bilan izohlanadi.

Xulosa

O‘tkazilgan tadqiqotlar Qashqadaryo viloyati sharoitida Sante va Evolution kartoshka navlarida sug‘orish usullari rivojlanish fazalariga sezilarli ta’sir ko‘rsatishini aniqladi.

1-jadval.
Ertagi kartoshka navlari turli sug‘orish usullarida ekilganda fenologik kuzatish natijalari (2025-yil)

Nav nomi va kelib chiqishi	Rivojlanish fazalarining ro’y berishi muddati							
	Ekish sxemasi	Ekish muddati	Ekish chuqurligi	Unib chiqishi	Shonalash	Gullash	Palak sarg’ayish	Yig’ish muddati
Egatlab sug‘orish usuli								
Sante (NL) (ст.)	90×20	15.02	6-8 sm	14.03	16.04	23.04	10.06	10.06
Evolution (NL)	90×20	15.02	6-8 sm	12.03	14.04	21.04	05.06	05.06
Tomchilatib sug‘orish usuli								
Sante (NL) (ст.)	90×20	15.02	6-8 sm	13.03	15.04	22.04	08.06	08.06
Evolution (NL)	90×20	15.02	6-8 sm	11.03	12.04	20.04	02.06	02.06

Tomchilatib sug‘orish vegetatsiya davrini 1–3 kunga qisqartirib, Evolution navi Sante naviga nisbatan barcha fazalarda 1–2 kun oldin rivojlandi.

Egatlab sug‘orishda suvning notekis taqsimlanishi tufayli unib chiqish va keyingi bosqichlar kechikdi, vegetatsiya davri esa uzaydi.

Umuman, tomchilatib sug‘orish optimal namlik va oziqlanishni ta’minlab, fotosintezni yaxshilaydi, erta va yuqori hosil olishni va suvdan samarali foydalanishni ta’minlaydi. Shu bois Qashqadaryo sharoitida ushbu usuldan foydalanish tavsiya etiladi.

Foydalanilgan adbiyotlar

1. Azimov B.J.,Azimov B.B. Sabzavotchilik, polizchilik va kartoshkachilikda tajribalar o‘tkazish metodikasi. Toshkent.2002.-S.181-185.
2. Доспехов Б.А. Методика полевого опыта. Москва.1985.-С.280-289,
3. Методика исследований по культуре картофеля(ВНИИКХ). Москва.1967.-С.210.

4. Ostonaqulov T.E. Sabzavotlar yetishtirish texnologiyasi.Toshkent.2003.-B.400.
5. Ostonaqulov T.E., Zuev V.I., Qodirxo‘jaev O.Q. Meva-sabzavotchilik(Sabzavotchilik). Toshkent.2019.-B.552.
6. O‘zR hududida ekishga tavsiya etilgan ekinlar Davlat reestri.Toshkent.2021.-B.103.

Toshpulatova S. T.
lecturer
Karshi State University

INFLUENCE OF DIFFERENT IRRIGATION METHODS ON THE LEAF DEVELOPMENT OF EARLY POTATO VARIETIES

Abstract. *This study investigates the effect of different irrigation methods (furrow irrigation and drip irrigation) on the phenological development of early potato varieties Sante (NL) and Evolution (NL) under the conditions of light gray soils in Kashkadarya region. The results showed that drip irrigation accelerated leaf formation and the occurrence of other phenological phases.*

Keywords. *Potato, variety, Sante, Evolution, irrigation methods, drip irrigation, furrow irrigation, vegetation, stage, foliation.*

Introduction

Potato (Solanum tuberosum L.) is one of the most important food crops worldwide, serving as a staple source of nutrition and playing a key role in global food security. Early potato varieties are particularly significant because they provide fresh tubers to the market during the initial months of the growing season, meeting both consumer demand and commercial needs. The timely availability of these early varieties contributes not only to household nutrition but also to the economic stability of farming communities.

The growth, development, and yield of potatoes are strongly influenced by irrigation practices. Different irrigation methods, such as furrow and drip irrigation, determine water availability in the root zone, affecting vital physiological processes including germination, leaf formation, tuber initiation, flowering, and senescence. Efficient water management is therefore essential, especially in regions with limited water resources, where optimizing crop water use can significantly impact productivity.

Drip irrigation, as a water-saving technology, has been shown to accelerate the phenological development of potatoes by providing a consistent and targeted water supply. This not only enhances early leaf formation and subsequent growth stages but also can reduce the overall vegetative period, potentially leading to higher early yields. Understanding the effects of different irrigation methods on early potato varieties under specific soil and climatic conditions is therefore crucial for developing sustainable cultivation strategies that maximize both yield and resource efficiency.

This study investigates the impact of furrow and drip irrigation on the phenological development of early potato varieties Sante (NL) and Evolution (NL) under the light gray soil conditions of the Kashkadarya region, aiming to provide practical insights for improving early potato production in water-limited environments.

Materials and Methods

The study was conducted during the 2025 growing season using the potato varieties Sante (NL) and Evolution (NL). Both varieties were planted at a spacing of 90 × 20 cm on February 15 at a depth of 6–8 cm. Two irrigation methods were compared:

- Furrow irrigation
- Drip irrigation

The following phenological stages were recorded: emergence, budding, flowering, foliage senescence, and harvesting time.

Results and Discussion

The results showed that the difference in irrigation methods directly influenced the duration of phenological stages in potato varieties. In particular, leaf formation occurred more rapidly under drip irrigation due to the stable supply of moisture and nutrients to the root zone. In contrast, furrow irrigation resulted in slower development due to uneven moisture distribution.

Emergence stage. In the Sante (NL) variety, emergence occurred in 122 days under drip irrigation, which was 4 days earlier compared to furrow irrigation. In the Evolution (NL) variety, emergence occurred on 178 and 171 days, respectively. These results indicate that drip irrigation promotes the early onset of growth stages in both varieties. The longer duration observed in Evolution is associated with its biological characteristics.

Budding and flowering stages. Budding and flowering are critical stages for tuber formation. Under drip irrigation, budding and flowering of Sante occurred on the 165th and 290th days, respectively, which was 6 and 10 days earlier than under furrow irrigation. The main reason for this earlier development is that drip irrigation prevents water stress and ensures a stable supply of both water and nutrients to the root zone. Although earlier development was also observed in Evolution, its genetically “late-maturing” nature caused these stages to last longer.

Differences in vegetative and generative development. The number of leaves and total plant biomass were higher under drip irrigation than under furrow irrigation. This enhanced photosynthetic activity supports not only leaf development but also the subsequent formation of tubers. Under furrow irrigation, periodic moisture deficiency reduced leaf formation and decreased photosynthetic intensity.

Foliage senescence and harvesting time. Foliage senescence indicates the end of the vegetation period. In the Sante variety, senescence occurred on the 283rd day under drip irrigation and on the 282nd day under furrow irrigation. This similarity indicates that drip irrigation supported longer physiological stability, whereas irregular moisture supply in furrow irrigation caused faster physiological aging. Regarding harvesting time, drip irrigation created more favorable conditions for full maturation. In Evolution, harvesting occurred on the 177th day under drip irrigation and on the 170th day under furrow irrigation, providing more time for dry matter accumulation.

Conclusion

The results proved that irrigation methods significantly affect the growth and development of early potato varieties under the conditions of the Kashkadarya region. Drip irrigation, compared to furrow irrigation, enhanced vegetative growth, ensured stable and faster leaf development, and strengthened photosynthetic activity due to the continuous supply of water and nutrients to the root zone. As a result, budding, flowering, and other phenological stages occurred earlier.

While the Sante (NL) variety demonstrated early maturity under both irrigation methods, the Evolution (NL) variety was characterized by a longer growth period. However, drip irrigation accelerated the phenological stages of Evolution by 5–8 days, indicating that drip irrigation creates a favorable moisture regime that enables the full expression of varietal biological potential.

Overall, drip irrigation is recommended for early potato cultivation as an efficient agronomic practice that conserves water, ensures stable vegetation, and allows varieties to fully express their biological traits.

References

1. Azimov B.J., Azimov B.B. va boshqalar. Sabzavot, poliz va kartoshka ekinlarida tajribalar o‘tkazish uslubi. Professor R.A.Nizomov umumiy tahriri ostida. Uslubiy qo‘llanma.Toshkent. “Baktria press”. 2023. -B.264.
2. Доспехов Б.А. Методика полевого опыта. Москва.1985.-С.351.
3. Методика исследований по культуре картофеля (ВНИИКХ). Москва.1967.-С.210.
4. Ostonaqulov T.E. Kartoshka yetishtirish.Toshkent. Agrobank. 2021.-B.96.
5. Ostonaqulov T.E. Kartoshkachilik.Toshkent. 2023.-B.320.
6. O‘zR hududida ekishga tavsiya etilgan ekinlar Davlat reyestri. Toshkent.2022.-B.103.

To'xtayeva S. Sh.
talabasi
Termiz davlat universiteti
Omonov A. O.
o`qituvchisi
roman-german tillari kafedrasi
xorijiy filologiya fakulteti
Termiz davlat universiteti

QO`SHMA SO`ZLAR VA ULARNING YASALISHI NEMIS TILI MISOLIDA (DAS KOMPOSITUM)

Annotatsiya: *Ushbu maqolada nemis tilida qo'shma so'zlar (das Kompositum) va ularning maxsus turi bo'lgan Zusammenbildung hodisasi tahlil qilinadi. Qo'shma so'zlarning kelib chiqishi, tuzilish mexanizmlari hamda morfologik vositalari (fugen-s, unli tushishi, ko'plik va genitiv qo'shimchalari) izohlanadi. Shuningdek, qo'shma so'zlarning til tizimidagi o'rni, kommunikativ ahamiyati hamda boshqa tillar bilan qiyosiy jihatlari yoritilgan. Maqolada nemis tilidagi qo'shma so'zlarning fonetik va grammatik yaxlitligi, semantik aniqligi va lug'at boyligini kengaytirishdagi roli tahliliy asosda ko'rib chiqiladi. Natijada, Zusammenbildung nemis tilining eng samarali va ijodkor so'z yasash usullaridan biri ekanligi ta'kidlanadi.*

Kalit so'zlar: *Zusammenbildung, das Kompositum, qo'shma so'zlar, nemis tili, fugen-s, derivatsiya, kompozitsiya, morfologiya, so'z yasash, leksik birlik, semantika*

Tokhtayeva S. Sh.
student
Termez State University
Omonov A. O.
teacher
department of romance-germanic languages
faculty of foreign philology
Termez State University

COMPONENT WORDS AND THEIR FORMATION IN THE EXAMPLE OF THE GERMAN LANGUAGE (DAS KOMPOSITUM)

Abstract: *This article analyzes compound words in the German language (das Kompositum) and their special type known as Zusammenbildung. The origin of compounds, their structural mechanisms, as well as morphological devices (such as fugen-s, vowel reduction, plural and genitive suffixes) are explained. In addition, the role of compound words in the language system, their communicative significance, and their comparative aspects with other languages are highlighted.*

The article examines the phonetic and grammatical integrity of German compounds, their semantic precision, and their role in expanding the vocabulary. As a result, Zusammenbildung is emphasized as one of the most productive and creative word-formation methods in the German language.

Keywords: *Zusammenbildung, das Kompositum, compound words, German language, fugen-s, derivation, composition, morphology, word formation, lexical unit, semantics*

Tilshunoslikning deyarli barcha sohalarida yangi tadqiqotlar olib borildi va fanga yangi atamalar kiritila boshlandi. Shulardan biri – Zusammenbildung atamasi bo‘lib, u 1965-yilda tilshunos olimlar W. Henzen va H. Pauls tomonidan ilmiy muomalaga kiritilgan. Zusammenbildung G‘arbiy german tillarida nisbatan mahsuldor so‘z yasalish turi sifatida qaraladi. Bu jarayon so‘z hosil qilishning samarali usullaridan biri bo‘lib, kompozitsiya (Komposition) va hosila (Derivation) o‘rtasida joylashadi.

Zusammenbildung – yangi so‘z birligi bo‘lib, u dastlab sintaktik bog‘lanishga asoslanadi, biroq so‘z birikmasi darajasida emas, balki mustaqil leksik birlik sifatida shakllanadi. Masalan:

Frühaufsteher – “erta uyg‘onuvchi” (früh aufstehen birikmasidan),

Gesetzgebung – “qonun chiqarish” (Gesetze geben ifodasidan),

Augenfällig – “ko‘zni qamashtiruvchi” (in die Augen fallen ifodasidan).

6. Mahalliy aholining ishtirokini ta’minlash: Bioxilma-xillikni saqlash dasturlariga fuqarolarni, fermerlarni va jamoat tashkilotlarini jalb etish samarali natija beradi.

Adabiyotlar ro’yxati

1. O’zbekiston Respublikasi Qizil kitobi. -- Toshkent “O’zbekiston”, 2022. – 420 b.
2. Davlat statistika qo’mitasi. “Qishloq xo’jaligi yerlari bo’yicha statistik ma’lumotlar”-Toshkent 2024.
3. Mamatov A. Biogeografiya ma’ruzalar matni. Qarshi – 2010
4. Safarov I. B., Raxmonov A. R. Biogeografiya fanini o’qitishda innovatsion texnologiyalar //Экономика и социум. – 2025. – №. 1-2 (128). – С. 428-431.
5. Safarov I. B., Chorshanbiyeva R. A. Qashqadaryo viloyatidagi ekologik-geografik muammolar //Экономика и социум. – 2025. – №. 2-2 (129). – С. 153-157.

Xo`jyozova D. Sh.
talabasi
geografiya yo'nalishi
Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti

QUYI AMUDARYO MINTAQASIDA EKOLOGIK TURIZMNI RIVOJLANTIRISHDA TABIIY SHAROIT VA QADIMIY OBIDALARNING O'RNI

Annotatsiya: *Mintaqaning ijtimoiy iqtisodiy rivojlanishida ekologik turizmning ahamiyati alohida o'rin tutadi. Quyi Amudaryo mintaqasi O'zbekistonning eng muhim tabiiy va tarixiy hududlaridan biri bo'lib, ekologik turizmni rivojlantirishda katta salohiyatga ega. Mazkur maqolada mintaqaning tabiiy sharoiti, iqlim xususiyatlari, relyef tuzilishi, suv resurslari hamda o'simlik va hayvonot dunyosining o'ziga xosligi tahlil qilingan. Shu bilan birga, qadimiy obidalar – "Arda Xiva", "Qo'sha darvoza", "G'ovuk ko'l", "Kalta Minor" va boshqa tarixiy yodgorliklarning ekologik turizmni shakllantirishdagi o'rni yoritilgan. Tadqiqotda mintaqaning ekologik barqarorligini ta'minlash, tabiiy muhitni asrash va tarixiy merosni himoya qilish bilan bog'liq masalalarga alohida e'tibor qaratilgan. Maqola natijalariga ko'ra, ekologik turizm Quyi Amudaryo aholisi uchun yangi ish o'rinlari yaratish, hudud iqtisodiyotini rivojlantirish, shuningdek, yoshlar orasida ekologik madaniyatni oshirishda muhim omil bo'la oladi. Muallif mintaqada zamonaviy ekoturizm infratuzilmasini shakllantirish, transport va xizmat ko'rsatish tizimini yaxshilash, tabiiy hududlarni muhofaza qilish bo'yicha takliflar bergan. Shu jihatdan maqola ekologik turizmni barqaror rivojlantirishga qaratilgan amaliy ahamiyatga ega ilmiy ish sifatida e'tirof etiladi*

Kalit so'zlar: *ekologik turizm, Arda Xiva, tabiiy muhit, ekologik barqarorlik, favvora, Qo'sha darvoza, gondol, G'ovuk ko'l, Kalta Minor, Neolit.*

Khojyozova D. Sh.
student
"Geography" course
Urgench State University named after Abu Rayhon Beruni

THE ROLE OF NATURAL CONDITIONS AND ANCIENT MONUMENTS IN THE DEVELOPMENT OF ECOLOGICAL TOURISM IN THE LOWER AMU DARYA REGION

Abstract*: The Lower Amudarya region is one of the most important natural and historical areas of Uzbekistan, possessing great potential for the development of ecological tourism. This article analyzes the region's natural conditions, climate characteristics, relief, water resources, and biodiversity. In addition, it highlights the role of ancient monuments such as "Arda Khiva," "Qo'sha Gate," "G'ovuk Lake," and "Kalta Minor" in forming ecological tourism. The study*

emphasizes issues of ensuring ecological stability, preserving the natural environment, and protecting historical heritage. The results show that ecological tourism can create new jobs, stimulate economic growth, and enhance environmental awareness among the local population of the Lower Amudarya. The author also presents proposals for developing modern ecotourism infrastructure, improving transport and service systems, and protecting natural territories. Thus, this article is recognized as a scientific work of practical importance aimed at the sustainable development of ecological tourism in the region.

***Keywords**: Ecological tourism, Arda Khiva, natural environment, ecological sustainability, fountain, Double Gate, gondola, Govuk Lake, Kalta Minor, Neolithic. ecological tourism, recreation zones, environment, ecological sustainability, Ustyurt, Aral sea area, muddy salt, neolith period, Qiyat, Katkal'a,Tup'rakkal'a.*

Kirish

Insoniyatning iqtisodiy, texnikaviy, madaniy rivojlanishi hamda kishilar turmush darajasining yaxshilanishi bevosita turizmga ishtiyoqni uygotadi. Xususan, keyingi yillarda dunyo miqyosida turizmning ulushida ekoturizmning xissasi 12 foizdan ortib ketdi va shu sohada uning istiqbolli yo'nalish ekanligidan dalolat bermoqda. Jahon turizm industriyasi tahlillariga nazar tashlaydigan bo'lsak, tematik sayohatlarga talab oshib borayotganligini ko'rish mumkin. Binobarin, azaldan tabiat insonni o'ziga jalb qilib kelgan. Shuning uchun tabiatga sayohat qilish, qolaversa, tabiatning biror turi bo'yicha turistik marshrutlarga chiqish istagi yildan-yilga kuchayib bormoqda. Butun dunyo miqyosida keyingi yillarda ekoturizm sayyohlikning istiqbolli yo'nalishlaridan biriga aylanib bormoqda. Butun turizm ulushida ekoturizmdan keladigan daromad 12% dan oshib ketdi. Buning asosiy sabablaridan biri tabiatga sayohat inson uchun xuzr-xalovat bagishlaydi. Shuning uchun xam jahon turizm industriyasida tabiat ob'ektlariga sayohat qilishga talab kundan-kunga oshib bormoqda.

Ekoturizm – yangi va eng harakatchan turoperatorlarni aniq harakatga boshlovchi yo'l bo'lib, bunda sayohatchilar o'zlarini tabiat bilan uyg'ulikda his qiladilar va ona tabiatga bo'lgan ijobiy qarashlar shakllanadi. Shularni hisobga olgan holda ekoturizmning maqsadi – turizm orqali hozirgi va kelajak avlodlarning ekologik xavfsizligi va barqaror rivojlanishni ta'minlash uchun tabiatdan turistik yo'nalishda oqilona foydalanishni o'z ichiga oladi.

Ekoturizm daromad keltirishi, bandlikni yaxshilash va shu yo'llar orqali mahalliy aholining turmush darajasini yaxshilashdan tashqari tabiatni muhofaza qilish maqsadlarini ham ehtiborga olishi lozim. Unga ta'sir etadigan quyidagi omillarni hisobga olish maqsadga muvofiqdir. strukturaga mosligini ta'minlash, ekologik toza qurilish materillarini qo'llash, maishiy, mahalliy mahsulotlar bilan bevosita ta'minlash, chiqindilarni kamaytirish choralarini qo'llash, mavsumiy oziq-ovqat mahsulotlarini konservatsiyalash va ikkilamchi ishlatish,biologik usullarda yetishtirilgan oziq- ovqatlarni ko`paytirish, ekologik moslashgan

takliflar berish, muhofazadagi o'simliklar va xayvonlarni ko'rsatish, bilim va estetik jihatdan qiziqarli tabiat manzaralarini taklif qilishdan iborat.

Ishning maqsadi va vazifalari

Quyi Amudaryo hududida ekologik turizmning keng yo'lga qo'yilishi chet ellik mehmonlarning vohaning boy va betakror tabiati to'g'risidagi tassavurga ega bo'lishlari, fuqarolarining o'z Vatani bilan yaqindan tanishishlari, o'zlarida ona yurtiga nisbatan milliy iftixor hamda g'urur tuyg'usini shakllantirishlariga zamin yasaydi.

Mavzuning dolzarbligi esa ekologik turizm salohiyatining oshishi turli xil ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va ekologik funktsiyalarning bajarilishida muhim ahamiyat kasb etadi.


Ekologik turizmni rivojlantirish zarurati uning faqat foyda keltiradigan soha deb xisoblash mumkin emas. Bu faoliyat turi agar maqsadga muvofiq doirada amalga oshirilmasa, uning qoidalari va talabalariga rioya qilinmasa tabiatga jiddiy salbiy ta'sir qilishi va noxush oqibatlarga olib kelishi tabiiy [1]. Uning salbiy oqibatlarini eng avvalo, o'simliklar nobud va payxon bo'lishida ko'ramiz. Bundan tashqari yerlar o'piriladi va zichlashib ketadi, xayvonlar bezovtalanadi, qochishga tushadi ular notabiiy to'planadi, suvda yashaydigan xayvonlarning hayot tarzi o'zgaradi, suv o'simliklariga ziyon yetadi, suvning ifloslanishi yuz beradi, noyob turlar kamayadi, xayvonlarning hayot tarzi o'zgaradi, qoyalar yemiriladi. Demak, ekoturizm doimo davlat, jamoat tashkilotlari nazoratida bo'lishi, unga doir qonunchilikka og'ishmay amal qilishi lozim.

Asosiy qism

Ustyurt ekoturistik hududini oladigan bo'lsak, u O'zbekistonning shimoliy-g'arbi-Qoraqalpoqistonda joylashgan plato bo'lib, uning umumiy maydoni 200 ming km^2 ni tashkil etadi. Bu joylar dunyoda eng katta 60-150 metrlik tik qoyali jarlari, davolash xususiyatiga ega bo'lgan juda katta-1000 km^2 li tuzli Borsakelmas sho'rxoki bilan mashhur. O'simlik dunyosi deyarli yo'q, osh tuzi va balchiqli tuzning qatlami 16-27,5 m gacha boradi. Yangi qurib bitkazilgan Qo'ng'irot soda zavodi aynan ana shu xom ashyo hisobiga ishlaydi. Neolit davridan qolgan "Ustyurt makoni" xam noyob tabiiy resurslardan biridir[1].

Ekoturistik marshrutlar bir paytning o'zida ham Orolning qurigan, ham uning ta'sirida bo'lgan Orol atrofi hududlarini qamrab oladi. Bunday hududlarda, bizning fikrimizcha ekoturlar nafaqat piyoda yoki tuya va otlarda, balki samolyot va vertolyotlar orqali ham amalga oshirilishi mumkin. Amudaryoning o'zaniga yaqin sohillardagi to'qayzorlardan iborat bo'lib, ular ekoturlar uchun juda qiziqarli, noyob landshaft hisoblanadi. Quyi Amudaryoning o'ng sohilida to'qay landshaftidagi qushlar va hayvonlarni muhofaza qilish uchun Badayto'qay qo'riqxonasi tashkil etilgan[17]. Ornitafaunani saqlash uchun Xorazm buyurtmaxonasi tashkil etilgan. Bulardan tashqari Qizilqumning g'arbiy qismida, Amudaryoning o'ng qirg'og'ida, kembriy va kembriygacha davrda burmalangan tog' jinslari ochilmalaridan iborat, balandligi 485 metrlik Sulton Uvays tog'lariga ekoturlar uyushtirish mumkin. Amudaryo rayonida O'zbekistonning ko'hna shaharlaridan biri Xorazm joylashgan, uning arxitektura yodgorliklari tarixiy

turizm markazlaridan biri hisoblanadi. Bunday joylarda ekoturlarni tarixiy turlar bilan kompleks olib borishni tavsiya qilish mumkin[2,18].



1-rasm „Ardaxiva majmuasi”

Quyi Amudaryo mintaqasida O’zbekistonning ko’hna shaharlaridan biri Xorazm joylashgan, uning arxitektura yodgorliklari tarixiy turizm yoki ekoturizmni rivojlantirish uchun katta imkoniyatlarga ega. Shu jihatlarini e’tiborga olib O’zbekiston prezienti tashabbusi bilan Afsonaviy Ichan qal’a yaqinida yangi turizm markazi — "Arda Xiva" sayyohlik majmuasi paydo etildi[16].Ushbu majmua xozirning o‘zida "Xivaning yo‘ldosh shahri" deb nom olgan. Qadimiy Xivani o’zida aks ettirgan “Arda Xiva” majmuasi 25 gektar maydonga teng bo’lib u Ichan qal’aning tarixiy uslubi asosida qurilgan. Majmuaning o‘ziga xos “Arda Xiva”, ya’ni “port shahri” deb tarjima qilinadigan nomi, uning joylashgan o‘rnidan kelib chiqqan. Bir vaqtlar bu yerda, Xiva yaqinida Amudaryo o‘zani o‘tgan, hatto bu o‘zan Kaspiy dengiziga quyilgan, degan ma’lumotlar ham bor. Bugungi kunda Amudaryodan bu yerda bir nechta yirik ko‘llar qolgan[15,19]. Ulardan biri 150 gektar maydonni egallagan. Mahalliy tarixchilarning ta’kidlashicha, G‘ovik ko‘li qadimgi hunarmandlar maskani bo‘lgan, aynan shu yerdan Ichan qal’a yodgorliklarini qurish uchun loy olib kelingan. Buyuk Ipak yo‘lining o‘ziga xos jozibasini qayta tiklash maqsadida G‘ovik ko‘li yaqinida, sayyohlik shaharchasi hududida suv rekreatsion zonalari va yirik savdo maydonchalari barpo etilgan[14]. Xivaning mashhur Ichan qal’asiga tashrif buyurishdan oldin ajoyib “Arda Xiva” sayyohlik majmuasida to‘xtab, qadimiy hunarmandchilik markazlari bo‘ylab gondolalarda sayr qilib, sharqiy Venetsiya muhitini his etishingiz mumkin. Tashrif buyuruvchilar Qo‘sh darvozaning yog‘och o‘ymakor eshigidan kirib, kichik Xivaga yo‘l oladilar[3,20]. Bu yerda mashhur

Kalta minor minorasining nusxasini va boshqa ko‘plab o‘rta asr uslubidagi me’moriy inshootlarni ko‘rish mumkin. “Arda Xiva”ning betakror inshootlarini ko‘zdan qochirmaslik uchun majmua bo‘ylab sayohatni butun hududga yoyilgan eshkak eshish kanallari bo‘ylab o‘tkazish maqsadga muvofiqdir. Ko‘ngilochar suv mashg‘ulotlari ixlosmandlari uchun “Arda Xiva” hududida umumiy sig‘imi 4000 kishigacha bo‘lgan katta va zamonaviy attraksionlarga ega yopiq va ochiq akvaparklar barpo etilgan. Suv mototurlari uchun maydonchalar ham mavjud. Bu oilaviy dam olish yoki do‘stlar bilan hordiq chiqarish uchun ajoyib imkoniyatdir. Xalq amaliy san’ati muxlislari uchun bu yerda zamonaviy hunarmandchilik ustaxonalari ochilgan[13]. Ganch, yog‘och o‘ymakorligi, kulolchilik va zardo‘zlik san’ati - bularning barchasini jonli ravishda ko‘rish, mahorat darslarida qatnashish va ko‘plab unutilmas taassurotlarga ega bo‘lish mumkin. Majmua hududida joylashgan “Ko‘hna Urganch” tarix muzeyi qadimiy Xorazmning boy madaniyatidan bahramand bo‘lishga yordam beradi[4]. “Arda Xiva”ning milliy va Yevropa oshxonasiga ixtisoslashgan shinam restoranlari qadimiy Xiva bo‘ylab qiziqarli gastronomik sayohatga chiqishingizga ko‘maklashadi. Bu yerda nafaqat xalq oshpazlarining eng sara taomlarini, balki Yevropa va aralash oshxona ixlosmandlari uchun ham keng turdagi taomlarni tatib ko‘rish imkoniyati mavjud. Restoranda o‘tirishga vaqti bo‘lmagan mehmonlar uchun “Arda Xiva”ning zamonaviy tezkor ovqatlanish maydoni keng assortimentdagi taomlarni taklif etadi. “Arda Xiva” majmuasi madaniy hordiq chiqarish uchun ajoyib maskandir[12]. Majmua markazida 3000 tomoshabinga mo‘ljallangan, katta sahnaga ega ulkan amfiteatr joylashgan. Bu yerda yirik madaniy tadbirlar: xalqaro festivallar, konsertlar va turli shou-dasturlar o‘tkazish rejalashtirilgan. Ulkan musiqiy favvora ko‘plab mahalliy va xorijiy mehmonlarni o‘ziga jalb etadigan maskanga aylanadi. Kino ixlosmandlari esa “Arda Xiva” majmuasi hududida barpo etilgan yangi kinoteatrlarda mahalliy va xorijiy kino sanoatining so‘nggi yangiliklari hamda o‘zbek kinosining durdonalaridan bahramand bo‘lishlari mumkin[11]. "Arda Xiva" "port shahri" degan ma’noni anglatadi, bu nom esa uning joylashuviga bevosita bog‘liq, chunki bir paytlar bu yerlar orqali Amudaryo oqib o‘tgan va afsonalarga ko‘ra, u Kaspiy dengizi sari yo‘l olgan. Bugungi kunda mazkur hududda bir necha yirik ko‘llar saqlanib qolgan bo’lib, ulardan eng kattasi G‘ovuk ko‘li, u 150 gektar maydonni egallaydi[5].



2-rasm Ardaxiva turizm majmuasi

G‘ovuk ko‘li turizimini rivojlantirish turistik mahsulotlarning asosiy tarkibiy qismi sifatidagi ekologik resurslardan foydalanishning to`g`ri muvozanatiga bo`g`liq bo`lib, turizmning atrof-muhit va tabiatga salbiy ekologik ta`sirini kuzatish mumkin. Ekoturizm va ko`l turizimi sayyohlik sanoatining eng tez rivojlanayotgan qismlaridan biri hisoblanganligi sababli, jamoat guruhlari,shuningdek, nodavlat, notijorat tashkilotlari o`z mintaqalarida turizmning barqaror rivojlanishiga ta`sir ko`rsata oladi[6].

Bu yerda buyuk Ipak yo‘li muhitini qayta yaratish maqsadida G‘ovuk ko‘li yaqinida dam olish hududlari, bozorlar va savdo maydonlari barpo etilgan. 3 million sayyohni qabul qilish. imkoniyatiga ega bo’lgan zomanaviy tipda barcha qulayliklari mavjud bo’lgan, bir vaqtning o‘zida 1000 nafar mehmonni qabul qila oladigan 20 ta mehmonxona qurilgan[7].

"Arda Xiva" da sayyohlik majmuasini rivojlantirish xamda ekologik turizmni yo’lga qo’yish maqsadida majmuali infratuzilmalar y’ani 2 ta akvapark, 3 000 o‘rinli amfiteatr, ko’ngilochar musiqali favvoralar, qadimiy hunarmandchilikni targ’ib qilqsh maqsadida 11 ta hunarmandchilik ustaxonasi, qadimgi Urganch muzeyi, manaviy dam olish ushun 5 ta kino va konsert zali, 9 ta milliy va xalqaro oshxona, zargarlik markazi va 70 ta do‘kondan iborat savdo galereyasi barpo etilgan[10]. Bundan tashqari faol hordiqni xush ko‘ruvchilar uchun suv motosikli va gondola-qayiqlarga moslashgan 2 km uzunlikda maxsus kanal qurilgan. Qo‘sha darvoza deb nomlangan o‘ymakor eshiklar orqali majmuaga kirilganda, mehmonlar haqiqiy Xivaning kichik namunasiga duch kelishadi, bu yerda Kalta Minor va boshqa ko‘plab arxitektura inshootlarining ko’rinishi aks etgan [8].

Sayyohlar Qo‘sh-Darvozaning o‘yilgan naqshlarini ko’rarkanlar ular o‘zlarini o‘rta asr Sharqi muhitida topadilar va tarix ruhini his qiladilar. Tor ko‘chalarda sayr qiladilar, hunarmandchilik ustaxonalarini ko‘rishadi va xuddi Sharqning Venetsiyasida bo‘lganidek, gondolda sayr qilishadi. Majmuaning asosiy kanali 2 kilometr uzunlikda bo'lib, u orqali sayyohlar hudud tuzilmalarning nusxalari, shu jumladan Kalta Minor miniatyurasi bo'ylab suzib o'tganlarida ekoturizmning mavjud ekanligiga duch keladilar. Umuman olganda Arda Xiva me'morchiligi qadimiy Ichan-qal'aning ko'rinishida tasvirlangan va zamonaviy tarzda aks ettirilgan. Ekologik tozalikka alohida e'tibor qaratilgan bo’lib, binolar quyosh batareyalari bilan jihozlangan va yagona iqlim nazorati tizimiga birlashtirilgan[9].

Metodologiya

Mazkur tadqiqot Quyi Amudaryo mintaqasida ekologik turizmni rivojlantirishda tabiiy sharoit va qadimiy obidalar o‘rnini o‘rganishga qaratilgan bo‘lib, unda quyidagi usullar qo‘llanildi:

1. Tahliliy-uslubiy yondashuv – mavjud ilmiy manbalar, maqolalar va hisobotlar asosida ekologik turizmning nazariy asoslari tahlil qilindi.

2. Geografik tahlil usuli – Quyi Amudaryo mintaqasining tabiiy-geografik sharoitlari (relyef, iqlim, suv resurslari, o‘simlik va hayvonot dunyosi) o‘rganildi.

3. Kartografik usul – mintaqaning turistik obyektlari, tarixiy yodgorliklari va ekoturizm yo‘nalishlari xarita asosida aniqlanib, ularning joylashuvi tahlil qilindi.

4. Kuzatuv va joyida o‘rganish – Xiva, G‘ovuk ko‘li, Arda Xiva majmuasi singari ob’ektlarda amaliy kuzatuvlar olib borildi, mahalliy aholi va sayyohlar fikrlari o‘rganildi.

5. Qiyosiy tahlil usuli – Quyi Amudaryo mintaqasi boshqa ekologik turizm hududlari bilan solishtirilib, o‘ziga xos jihatlar aniqlangan.

6. Statistik ma’lumotlardan foydalanish – Urganch davlat universiteti va Turizm qo‘mitasi ma’lumotlari asosida mintaqadagi sayyohlar oqimi, infratuzilma va iqtisodiy ko‘rsatkichlar tahlil qilindi. Natijada tadqiqot mintaqaning tabiiy imkoniyatlari, tarixiy merosi hamda ekologik turizm salohiyatini kompleks baholash imkonini berdi.

Xulosa

Qilib aytadigan bo’lsak tabiat qo’ynida dam oluvchilar uchun qulaylik yaratish bo’yicha quyidagilarni amalga oshirgan ma’quldir:

- tabiat bag’rida dam oluvchi sayyohlarga xushmanzara joylarda tunab qolish uchun maxsus joylar barpo qilish, barcha turdagi qulayliklarni yaratish, yo’lsiz tabiiy xududlarda harakatlanishlari uchun mahalliy transportlar- ot, eshak, tuyalar tashkil qilish, dam olishni maroqli o’tkazishlari uchun barcha qulayliklarga ega va anjomlari bilan baliqlantirilgan suv havzalari tashkil qilish, xorijiy yoki mahalliy sayyohlarni dam olishlarini maroqli o’tkazishlari uchun mintaqa osmoni butun kun va tun bo’yi ochiq bo’lishini e’tiborga olib, madaniy xordiq chiqarishlari uchun folklyor jamoalarini kontsert dasturlarini tashkil qilish va boshqalar.

Agar biz vohada ekoturizmni rivojlantirsak vatanimizga yaxshigina daromad va sarmoyalar kirib kelishi aniq va bu sarmoyalar tabiatimizni yanada go'zallashtirishga, tabiiy resurslarimizni qayta tiklashga, xalqimizning farovonligiga va ravnaqiga xizmat qiladi, bizning Orol bo'yi deb e'tirof etilgan hududiy muammolarimiz ham o'z yechimini topadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Dusanova Sh.B. O'zbekistonning ekologik turizm salohiyati va uni rivojlantirish yo'llari. – Urganch: UrDU nashriyoti, 2022.
2. To'rayev A., Raxmonov I. Ekoturizm asoslari. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2021.
3. Jo'raev B. Quyi Amudaryo mintaqasining tabiiy geografik xususiyatlari. – Toshkent: Universitet, 2020.
4. Karimov A. Xorazm viloyatining turizm salohiyati va ekologik muammolari. – Urganch: UrDU, 2023.
5. Ходжаев Ш. Экологический туризм в Центральной Азии: проблемы и перспективы. – Ташкент: Изд-во "Фан", 2019.
6. Xudoyberganova N. O'zbekistonning tabiiy muhofaza etiladigan hududlari va ularning turizmda ahamiyati. – Toshkent: TDPU, 2021.
7. UNESCO. World Heritage Sites in Central Asia and their Role in Sustainable Tourism Development. – Paris: UNESCO Publishing, 2020.
8. United Nations Environment Programme (UNEP). Ecotourism and Sustainable Development in Arid Regions. – Nairobi: UNEP, 2018.
9. Хамидов Р. Амударья бассейнида экотуризм ва биологическое разнообразие. – Нукус: Каракалпакстан, 2022.
10. World Tourism Organization (UNWTO). Ecotourism and Protected Areas: Guidelines for Sustainable Tourism Development. – Madrid: UNWTO, 2019.
11. Berdimurodov S. Ekoturizmning iqtisodiy samaradorligini baholash usullari. – Toshkent: Innovatsiya, 2022.
12. Rasulov Z. Orolbo'yi mintaqasida ekologik turizm imkoniyatlari. – Nukus: Berdaq nomidagi QDU, 2021.
13. Qodirova M. Ekoturizm va barqaror rivojlanish konsepsiyasi. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2020.
14. Abdullayeva D. O'zbekistonning turizm geografiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2019.
15. Mamatqulov E. Ekoturizmda ekologik xavfsizlik masalalari. – Toshkent: TDYU, 2023.
16. Mirzayev U. Xorazm vohasining tabiiy geografiyasi va landshaftlari. – Urganch: UrDU, 2022.
17. FAO. Sustainable Use of Natural Resources in Ecotourism Regions. – Rome: FAO Publishing, 2018.
18. European Environment Agency. Tourism and the Environment: Towards a Sustainable Relationship. – Copenhagen: EEA, 2020.
19. Rakhimova S. Ekoturizmda madaniy meros obidalarining o'rni. – Toshkent: Fan, 2021.

20. Karimova N. Ekoturizm infratuzilmasini rivojlantirishning zamonaviy yo‘nalishlari. – Urganch: UrDU, 2024.

Xudjamuratov K. A.
o‘qituvchisi
“menejment” kafedrasi
Chirchiq davlat pedagogika universiteti
Chirchiq, O‘zbekiston

IQTISODIY ISLOHOTLAR VA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA IQTISODIY SAMARADORLIKNI OSHIRISH

Annotatsiya: *mazkur maqolada O'zbekistonda iqtisodiyotni raqamlashtirish sohasida amalga oshirilayotgang isloxotlarning iqtisodiy samaradorligi yoritib berilgan. Raqamli iqtisodiyot alohida faoliyat turini emas, balki ishbilarmonlik, sanoat ob'ektlari, xizmatlarda axborot texnologiyalaridan faol foydalanishni anglatadi. Raqamli iqtisodiyot raqamli texnologiyalarga asoslangan, elektron biznes, elektron tijorat bilan bog'langan, raqamli tovar va xizmatlar ishlab chiqarayotgan va taqdim etayotgan iqtisodiy faoliyatdir.*

Kalit so'zlar : *servis, strategiya, segment drayveri internet-banking, xufyona iqtisodiyot, innovatsion g'oyalar, texnologiyalar, trakzaktsion sektor, “axborotlashgan jamiyat”*

Khudzhamuratov K. A.
teacher
department of “management”
Chirchik State Pedagogical University
Chirchik, Uzbekistan

INCREASING ECONOMIC EFFICIENCY THROUGH ECONOMIC REFORMS AND DIGITAL TECHNOLOGIES

Abstract: *This article highlights the economic effectiveness of the reforms being implemented in the field of digitalization of the economy in Uzbekistan. The digital economy is not a separate type of activity, but the active use of information technologies in business, industrial facilities, and services. The digital economy is an economic activity based on digital technologies, associated with e-business, e-commerce, and producing and providing digital goods and services.*

Keywords: *service, strategy, segment driver internet banking, hidden economy, innovative ideas, technologies, transactional sector, “information society”*

Kirish qismi

Rivojlangan davlatlarda raqamli iqtisodiyotni joriy etishga allaqachon kirishilgan. Jahon iqtisodiyotining globallashuvi va texnologiyalarning rivojlanishi sharoitida

O'zbekistonning iqtisodiy taraqqiyotiga raqamli iqtisodiyotni rivojlantirmasdan erishib bo'lmaydi. Bugun jadallik bilan kechayotgan raqamlashuv jarayoni “yangi iqtisodiyot”ni vujudga keltirdi. Kam o'rganilgan va kun sayin chuqur tomir otib borayotgan bu bozor segmenti ishlab chiqaruvchilarga biznesda samarali marketing kampaniyalari uyushtirish, minimal xarajat qilib, maksimal foyda olish, Tovar va xizmatlarni muvaffaqiyatli sotishning optimal usullarini taqdim etadi. Iste'molchi, xaridor va mijozlarga sifatli xizmat, qulaylik yaratiladi. Bu vaqtingiz tig'iz paytida Internet orqali tushlikka buyurtma berish, mobil ilova orqali taksi chaqirish, uzoqdagi yaqiningizga pul jo'natishdan ko'ra kengroq imkoniyatlar bo'lib, transchegaraviy biznes hamkorlik, elektron tijoriy maydon, masofaviy ofis kabilarni ham qamrab oladi. Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev takidlaganidek: “Biz taqdim etayotgan strategiyada yuqori texnologiyalarga asoslangan, innovatsion va raqamli iktisodiyotga ustuvor ahamiyat beriladi. Insoniyat tarixida tosh asri toshlar tugaganligi uchun emas,balki yangi texnologiyalar kirib kelgani natijasida barham topgan. Bugunga qadar insoniyat uchta sanoat inqilobini boshdan kechirdi. Hozirgi davrimiz dunyoning yetakchi mamlakatlari “Turtinchi sanoat inqilobi”, “Aqlli iqtisodiyot”, “Innovatsion iqtisodiyot”ga o'tayotgani bilan xarakterlanadi. Yangi asrda raqamli texnologiyalarga asoslangan, elektron biznes va elektron tijoratni nazarda tutuvchi raqamli iqtisodiyotning shakllanishi tendentsiyaviy tus oldi. Jahonning yetakchi mamlakatlarida raqamli iktisodiyot yalpi ichki mahsulotning 4-5 foizini ta'minlamoqda, jahondagi savdo aloqalarining 15 foizdan kuprogi uning hissasiga to'gri kelmoqda. Bugungi kunda raqamli iqtisodiyot elektron savdo va servis bilan cheklanmasdan ta'lim, sog'liqni saqlash kabi sohalarni ham qamrab olmoqda. Fuqarolarga turli xizmatlar ko'rsatish amaliyoti ham elektron hukumat platformasiga o'tkazilmoqda. Pandemiya raqamlashtirish jarayonini yanada tezlashtirdi. Axborot texnologiyalari iqtisodiy yunalishning tom ma'nodagi “drayveri”ga aylanib bormoqda. “ Raqamli iqtisodiyot raqamli texnologiyalarga asoslangan, elektron biznes, elektron tijorat bilan bog'langan, raqamli tovar va xizmatlar ishlab chiqarayotgan va taqdim etayotgan iqtisodiy faoliyatdir.

Asosiy qism

Raqamli iqtisodiyot alohida faoliyat turini emas, balki ishbilarmonlik, sanoat ob'ektlari, xizmatlarda axborot texnologiyalaridan faol foydalanishni anglatadi. Agar oddiy iqtisodiyotda moddiy buyumlar asosiy resurs hisoblansa, raqamli iqtisodiyotda bu qayta ishlanadigan hamda uzatiladigan axborot, ma'lumotlar bo'ladi.Raqamli iqtisodiyot yirik sanoat ob'ektlari ish samaradorligini oshirish, ishlab chiqarishda o'sish, faoliyat shaffofligini ta'minlash, mahsulot tannarxini kamaytirish imkonini beradi. Davlat o'z fuqarolari uchun elektron xizmatlar ko'rsatishi va elektron mahsulotlarni taklif etishi — bu raqamli iqtisodiyotning asosiy qismi hisoblanadi. Mamlakatimizda ushbu sohani keng rivojlantirish korruptsiya illatiga barham beradi. O'zbekistonda “Raqamli O'zbekiston-2030” dasturini ishlab chiqilishi va hayotga tatbiq etilishi, eng avvalo, puxta va mukammal tashkiliy-huquqiy mexanizmlarni shakllantirish, qolaversa, innovatsion g'oyalar, texnologiyalar va ishlanmalarni joriy etish bo'yicha davlat

organlari va tadbirkorlik sub'ektlarining uzviy hamkorligini ta'minlash, barcha soha va tarmoqlarda ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatishni raqamli texnologiyalar bilan qamrab olish, bu borada zamonaviy bilimlarni chuqur egallagan, intellektual salohiyatli kadrlarni yetishtirish, shu orqali, mamlakatda “axborotlashgan jamiyat” muhitini yaratishga xizmat qiladi. Mamlakatimizda 2020 yildan boshlab transport, geologiya, ta'lim, arxiv kabi sohalarni to'liq raqamlashtirilib, bu boradagi ishlar jadal olib borilmoqda. Aholi va tadbirkorlik sub'ektlarining davlat organlari bilan kontaktsiz aloqa shakllarini yanada rivojlantirish maqsadida Yagona interaktiv davlat xizmatlari portalining yangi versiyasi ishga tushirilgani raqamli iqtisodiyot rivoji yo'ldagi muhim qadamlardir.Normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini barcha manfaatdor vazirliklar, idoralar, mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlariga ko'rib chiqish, elektron raqamli imzodan foydalangan holda kelishish (viza qo'yish) uchun, shu jumladan bir vaqtning o'zida keng jamoatchilik va mutaxassislar muhokamasini o'tkazish va tezkor jo'natish uchun vaqtni va mehnat resurslarini sezilarli darajada tejash maqsadida yagona elektron tizimi “project.gov.uz” joriy etilgani ham quvonarli. “Raqamli tengsizlik tengsizliklarning doyasi” bo'lib turgan bir paytda iqtisodiyotning barcha sohalarini raqamlashtirish jahon hamjamiyatiga integratsiyalashuv, dunyo bozorida o'z o'rniga ega bo'lish, iqtisodiy ravnaq topish, aholiga qulayliklar yaratishning asosiy shartidir. Quvonarlisi, bu mamlakatimizda asosiy kun tartibidagi masala. Raqamlashtirish borasida O'zbekiston dadil odimlar bilan ildamlamoqda. “Jahon bozoridagi raqobatdoshligini yanada oshirish, uning soha va tarmoqlarini modernizatsiya va diversifikatsiya qilish, eksport salohiyatini kengaytirish, tadbirkorlikni rivojlantirish, investitsiyaviy faollikni kuchaytirish orqaligina istiqbolli dasturlarimizni samarali amalga oshirish mumkin.

Quyidagilar bunda ijtimoiy va iqtisodiy taraqqiyot yo'liga bosqichma-bosqich chiqish uchun asosiy shart va omillar sifatida ko'rsatilmoqda:

axborotlashtirish va davlat boshqaruvi organlari hamda munitsipal xizmatlarni integratsiyalash hisobiga elektron hukumat va raqamli shahar kontseptsiyalarini tatbiq etish;

• yangi texnologik avloddagi mahsulotlarni yalpi ishlab chiqarish (pilotsiz avtomobillar va boshqalar singari);

• o'ziga xos bezak va qurilish materiallari yordamida «aqlli» va ekologik uylarni barpo etishga oid g'oyalarni amalga oshirish;

• autsorsing, o'zini band etish va boshqalar orqali bandlikning muqobil shakllarini keng targ'ib qilish;

• muayyan vazifalarni bajarish uchun ishchi-frilanserlarni izlashga xizmat qiladigan professional tarmoqlarni yaratish.

• Yuqoridagilar barchasi biznesga ishlab chiqarish va boshqaruvda tovar va elektron xizmatlar integratsiyalanadigan zamonaviy platformalar yordamida xarajatlarni qisqartirishga imkoniyat beradi.

Raqamli sektorning iqtisodiy ahamiyati

Ta'kidlanishicha, raqamli texnologiyalar iqtisodiyotga bog'liq 50 foizdan ortiq sohalarni keskin o'zgartirib yuboradi. Ushbu qarash axborot texnologiyalari va raqamli platformalar biznes modellarni keskin o'zgartirib, ularning

samaradorligini vositachilarni bartaraf etishi va jarayonlarni optimallashtirishiga asoslangan. Ko'pincha IT sohasining rivojiga qo'shilgan hissa iqtisodiyotning rivojlanishi, yangi ish o'rinlarining yaratilishi, odamlar va biznes uchun yangi turdagi xizmatlarning paydo bo'lishi, elektron hukumat loyihalari doirasida xarajatlarining qisqarishiga zamin yaratadi. Shu bilan bir vaqtda, axborot texnologiyalarini tatbiq etishdan hosil bo'lgan umumiy effekt kutilganidan samarasizroq bo'lib chiqadi va bir xil tartibda taqsimlanmaydi. Bu kabi investitsiyalardan maksimal natija olish uchun texnologiyalarning Jahon banki tayyorlagan ma'ruzasida «analog to'ldiruvchilar» deb nomlangan boshqa omillar bilano'zaro ta'sirini yaxshi tushunish talab etiladi.

Ular qatorida:

• faol ishbilarmonlik muhitini qo'llab-quvvatlaydigan hamda biznes va insonlarga raqamli iqtisodiyot texnologiyalaridan raqobat va innovatsiyalar, xarajatlarni qisqartirish, shuningdek, turmush farovonligini oshirish uchun foydalanishga imkon beradigan normativ-huquqiy baza;

• biznes menejmenti va davlat xizmatchilarida axborot texnologiyalarini qo'llashga doir to'laqonli ko'nikmalar;

• axborot texnologiyalaridan foydalanish yo'nalishida konsalting xizmatlarini ko'rsatadigan institutlar (davlat va xususiy) o'rin olgan.

Raqamli iqtisodiyot hosil qiladigan effektlarni to'liq sanab o'tish ancha murakkab ish, binobarin, elektron servislar va metama'lumotlardan foydalanish imkoniyati iqtisodiy ob'ektlarga taqdim etadigan aloqalarni to'laqonli tarzda baholash ancha mushkuldir.

Xulosa

Raqamlashtirish – yangi iqtisodiy texnologiyalarning yo'ldoshi Axborot platformalarini birlashtirish natijasida paydo bo'lgan muloqot modellari yangi iqtisodiy texnologiyalarning (YaIT) paydo bo'lishiga turtki beradi.YaIT – bu tashkiliy boshqaruv tizimlariga biror maqsadga xizmat qiladigan axborot (ma'lumotlar, g'oyalar va bilimlar) mahsulotlarini yaratish, ularni uzatish, saqlash va aks ettirish uchun yaxlit texnologik platformaga birlashuvchi va iqtisodiy agentlar muloqotiga sarflanadigan trakzaktsion xarajatlarni maksimal darajada kamaytiruvchi ma'lumotlarni qayta ishlashga doir har jihatdan yangi «sozlanuvchi» vositalar va metodlar yig'indisidir. YaITning asosiy tamoyillari:

• tubdan yangi biznes modellarni yaratish;

• har xil IT xizmatlarni oqilona birlashtirish va ulardan foydalanish metodlarini

real iqtisodiyot sektoridagi tashkiliy va texnologik jarayonlarda qo'llash;

• tranzaktsion xarajatlar va ishlab chiqarishda qo'llaniladigan moddiy resurslarni

minimallashtirish.

Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishdagi eng muhim jihat va bir vaqtning o'zida eng murakkab bosqich – bu ishbilarmonlik muhitini soddalashtirish hamda odamlar va biznesning davlat bilan muloqotiga sarflanajak xarajatlarni maksimal qisqartirishdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Sh.M.Mirziyoyev “ Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi “Toshkent -2022 “O'zbekiston” 183-b.
2. Sh.M.Mirziyoyev “ Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi “.: Toshkent -2022 O'zbekiston” 185-b
3. Abdullayev .O.M,Fattaxov. A.A,K.Axmedov “ Raqamli iqtisodiyot “O'quv qo'llanma .:Toshkent -2020 “ Lesson press” nashriyoti 36 -bet
4. Iqtisodiyot : Tahlilar prognozlar jurnali №3 (27)iyul -sentyabr,2024 -yil 46-bet
5. Перегудов Л.В., Саидов М.Х. Высшее образование менеджмент и экономика - Т.: Финансы, 2007.

Xurramov K. M.
o‘qituvchisi
menejment kafedrasi katta
Chirchiq davlat pedagogika universiteti
Chirchiq, O‘zbekiston

RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISH

Annotatsiya. *Ushbu maqolada raqamli texnologiyalarning zamonaviy tadbirkorlik faoliyatidagi o‘rni va ahamiyati yoritilgan. Raqamli iqtisodiyot sharoitida biznes jarayonlarini avtomatlashtirish, elektron tijoratni rivojlantirish imkoniyatlari tahlil qilingan. Shuningdek, O‘zbekistonda raqamli tadbirkorlikni rivojlantirish bo‘yicha davlat siyosatining huquqiy va institutsional asoslari ko‘rib chiqilgan. Tadqiqot natijasida raqamli tadbirkorlikni samarali tashkil etish uchun kadrlar salohiyatini oshirish, infratuzilmani yaxshilash va kiberxavfsizlikni ta’minlash bo‘yicha tavsiyalar berilgan. Maqola raqamli iqtisodiyot sharoitida tadbirkorlikning yangi imkoniyatlarini ochib beradi.*

Kalit so‘zlar: *raqamli iqtisodiyot, raqamli tadbirkorlik, innovatsiya, elektron tijorat, axborot texnologiyalari, sun’iy intellekt, raqamli savodxonlik.*

Khurramov K. M.
senior lecturer
department of management
Chirchik State Pedagogical University
Chirchik, Uzbekistan

DEVELOPMENT OF ENTREPRENEURSHIP BASED ON DIGITAL TECHNOLOGIES

Abstract. *This article discusses the role and importance of digital technologies in modern business activities. The possibilities of automating business processes and developing e-commerce in the digital economy are analyzed. The legal and institutional framework of state policy on the development of digital entrepreneurship in Uzbekistan is also considered. As a result of the study, recommendations are made on increasing human resources capacity, improving infrastructure, and ensuring cybersecurity for the effective organization of digital entrepreneurship. The article reveals new opportunities for entrepreneurship in the digital economy.*

Key words: *digital economy, digital entrepreneurship, innovation, e-commerce, information technology, artificial intelligence, digital literacy.*

Kirish

Hozirgi global raqamlashuv davrida iqtisodiyotning barcha sohalarida raqamli texnologiyalarni joriy etish nafaqat samaradorlikni oshirish, balki yangi ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish yo‘nalishlarini yaratishga ham zamin yaratmoqda. Tadbirkorlik sohasi ham raqamli iqtisodiyot sharoitida tubdan yangilanmoqda. Bugungi kunda raqamli biznes modellar, onlayn savdo tizimlari, sun’iy intellekt va blokcheyn kabi texnologiyalar tadbirkorlik faoliyatining ajralmas qismiga aylanib bormoqda.

1. Raqamli texnologiyalarning tadbirkorlikdagi o‘rni.

Raqamli texnologiyalar — bu axborotni to‘plash, qayta ishlash va etkazishni avtomatlashtiruvchi zamonaviy vositalar tizimidir. Ular tadbirkorlikda quyidagi imkoniyatlarni yaratadi:

- ish jarayonlarini avtomatlashtirish va xarajatlarni qisqartirish;
- klientlar bilan onlayn muloqotni yo‘lga qo‘yish;
- bozor tahlilini tez va aniq amalga oshirish;
- marketing va sotuvni raqamli kanallar orqali kengaytirish.

Masalan, e-commerce (elektron savdo) platformalari orqali kichik biznes ham xalqaro bozorga chiqish imkoniga ega bo‘lmoqda. Shuningdek, CRM (Customer Relationship Management) tizimlari mijozlar bilan munosabatlarni samarali boshqarishga yordam bermoqda.

2. O‘zbekistonda raqamli tadbirkorlikni rivojlantirishning huquqiy va institutsional asoslari.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni (2020 yil 28 apreldagi PF–4699-son) hamda “Innovatsion rivojlanish strategiyasini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni raqamli tadbirkorlikni jadal rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etdi.

Ushbu hujjatlar doirasida:

- “Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali” kengaytirildi;
- “Digital Uzbekistan – 2030” strategiyasi qabul qilindi;
- Raqamli startaplar uchun soliq imtiyozlari va grant dasturlari joriy etildi;
- IT-parklar faoliyati kengaytirildi va yangilari tashkil etildi.

Natijada, mamlakatimizda 2024 yil yakuniga qadar 2500 dan ortiq raqamli startaplar faoliyat boshladi va ularning salmog‘i yil sayin ortayotgani kuzatilmoqda.

3. Raqamli tadbirkorlikning afzalliklari.

- bozorga tez kirish imkoni – onlayn marketpleyslar orqali mahsulot va xizmatni qisqa vaqtda sotish;
- tashqi bozorlarga chiqish osonligi – elektron eksport (e-export) orqali mahsulotni jahon bozorida sota olish;
- mijozlarning ehtiyojini aniqlash – Big Data tahlili yordamida bozor tendensiyalarini bashorat qilish;
- sarmoya jalb qilish imkoniyatlari – kraudfanding va fintex tizimlari orqali mablag‘ yig‘ish.

4. Raqamli tadbirkorlikni rivojlantirishdagi muammolar.

Shu bilan birga, raqamli tadbirkorlikni rivojlantirishda qator muammolar ham mavjud:

- internet infratuzilmasining ayrim hududlarda etarli darajada rivojlanmagani;
- kadrlar salohiyatining pastligi, ayniqsa IT sohasida mutaxassislar etishmasligi;
- kiberxavfsizlik masalalarining etarli darajada hal etilmagani;
- aholining raqamli savodxonligi past darajada ekanligi.

Bu muammolarni bartaraf etish uchun davlat va xususiy sektor hamkorligi, ta'lim tizimida raqamli kompetensiyalar bo'yicha dasturlarni kuchaytirish zarur.

5. Raqamli tadbirkorlikning istiqbollari.

Kelgusida raqamli tadbirkorlikning o'sish sur'atlari yanada tezlashishi kutilmoqda.

Ayniqsa, quyidagi yo'nalishlarda katta imkoniyatlar mavjud:

- finTech (moliyaviy texnologiyalar) — raqamli to'lov tizimlari va elektron bank xizmatlari;
- agroTech — qishloq xo'jaligida raqamli sensorlar, dronlar va avtomatlashtirilgan sug'orish tizimlari;
- eduTech — masofaviy ta'lim va onlayn o'quv platformalari;
- greenTech — ekologik texnologiyalar asosida ish yurituvchi raqamli startaplar.

Xulosa

Raqamli texnologiyalar tadbirkorlikni yangi bosqichga ko'tarib, iqtisodiyotning raqobatbardoshligini ta'minlamoqda. Ular orqali biznes jarayonlari shaffof, tezkor va samarali bo'lmoqda.

O'zbekistonda raqamli tadbirkorlikni rivojlantirish uchun huquqiy asoslar, infratuzilma va kadrlar salohiyatini yanada kuchaytirish zarur. Shu yo'l bilan milliy iqtisodiyot raqamli transformatsiya jarayonini to'liq amalga oshirishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 28 apreldagi PF–4699-son "Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni.
2. Xurramov K. M. Tadbirkorlikni milliy iqtisodiyotdagi o'rni, mohiyati va mezonlari. «Муғаллим ҳәм үзликсиз билимлендириў» Ilmiy-metodikalıq jurnal. 2023 yil № 2. 145-150 betlar.
3. Xaydarov A. "Raqamli iqtisodiyot va tadbirkorlik". – T.: Iqtisodiyot, 2023.
4. Xurramov K. M . Tadbirkorlikda innovatsiyalarni joriy qilish. «Муғаллим ҳәм үзликсиз билимлендириў» Ilmiy-metodikalıq jurnal. 2025 yil № 5/1-сан. 493-495 betlar.
5. Musurmonov, R., Xurramov, K. Ta'lim jarayonidagi do 'stona munosabatlar-ta'lim samaradorligi kafolati. УЧЕНЫЙ XXI ВЕКА Учредители: Общество с ограниченной ответственностью Коллоквиум, (10), 47-49.

6. Мусурмонов, Р., Мусурмонова, М., Хуррамов, К. М. (2023). Янги Ўзбекистон шароитида таълим муассасаси раҳбарининг инновацион фаолияти хусусиятлари. Academic research in educational sciences, 4(2), 61-67.
7. Musurmonov, R., Jumanova, F. U., Ismoilova, D. M., Rasulov, A. N., Xurramov, K. M. (2022). In modernized educational conditions scientific-methodological basis of lesson process analysis and ways of their implementation. International Journal of Health Sciences, 6(S4), 3057≤3065. https://doi.org/10.53730/ijhs.v6nS4.9889.

УДК: 616.315-007.254

Yadgarova G. S.
associate professor
department of surgical dentistry
Abu Ali ibn Sino Bukhara State Medical Institute
Bukhara, Uzbekistan
https://orcid.org/0009-0006-2638-5158

FUNCTIONAL DISORDERS OF CONGENITAL CLEFT LIP AND PALATE

Abstract: *Congenital cleft lip and palate is a severe malformation of the maxillofacial region accompanied by severe functional disorders. In addition, a feature of this pathology is a pronounced deformation of the nose in the form of a shortening of the nasal septum, flattening of the tip and wings of the nose. Pathologically attached muscles of the upper lip and nasal region further aggravate these deformities. This pathology is formed in the embryo up to 8-12 weeks due to the ungrown processes of the palate and lips on time. The purpose of this work is a comprehensive assessment of the quality of life of children with HCV and the identification of effective ways to improve it. The data obtained indicate a significant decrease in the indicators of emotional and social functioning in children with VGN, especially before the completion of surgical treatment. A model of multidisciplinary support is proposed, aimed at increasing the level of adaptation and social integration.*

Keywords: *congenital cleft lip and palate, quality of life, children, rehabilitation, multidisciplinary approach.*

Introduction

The process of correcting congenital cleft lip and palate and subsequent stages of rehabilitation is often complicated by a variety of combined pathologies from other organs, in particular the nervous system. Anatomical changes in the maxillofacial region led to a persistent functional defect in all departments of voice and speech production. A severe speech disorder, rhinolalia, develops, in which all sides of speech suffer: breathing, voice, changes in the muscles of the pharynx, mouth and face are observed, pathological articulation develops, phonemic hearing is impaired, auditory perception is distorted. The severity of anatomical and functional disorders is directly related to the type of cleft in the upper lip. Children with congenital cleft lip and palate are childhood invalids, and until the end of the formation of the maxillofacial region, up to 14-16 years old, they are usually under the constant attention of a surgeon, orthodontist, pediatrician, neurologist, speech therapist. However, with the clear, well-coordinated work of highly qualified specialists on the basis of specialized centers, with the active participation and support of parents, it is possible to significantly

reduce the period of disability of children. Congenital cleft lip and palate (IGN) is one of the most common congenital malformations, occurring, according to WHO, in 1 out of 700 newborns. This condition causes severe functional disorders of speech, breathing, nutrition, and hearing, and also has a significant impact on the child's psych emotional development and social adaptation. Modern approaches to the treatment of HCV are based on early surgical correction, orthodontic and speech therapy rehabilitation, however, the issue of quality of life remains insufficiently studied and is often underestimated in medical practice. Treatment of patients with cleft lip and palate (PHN) is one of the most difficult tasks of modern dentistry and maxillofacial surgery. Conducting comprehensive studies of congenital anomalies of the maxillofacial region in order to prevent them and actively participate in this work along with doctors of various specialties (geneticists, immunologists, obstetricians and gynecologists, pediatricians (neonatologists), neurologists, cardiologists, psychologists, sociologists, environmental doctors) and dentists. This will expand the child's health care and create favorable conditions for the formation of the maxillofacial system. The diagnosis of "congenital cleft lip and palate" is clinical and is established by a doctor on the basis of visual examination, anthropometric, X-ray and ultrasound examination methods.

The purpose of the study. To conduct a comprehensive assessment of the quality of life of children with congenital cleft lip and palate and identify the most effective ways to improve it, taking into account medical and psychosocial factors.

Research materials and methods. 135 infants born with HCV were involved, of which 83 were male infants and 52 were female infants. The infants were divided into 2 groups. Group 1 is the main group of 68 infants (of which 42 are male and 26 are female) and group 2 is the control group of 66 infants (of which 41 are male and 26 are female). The main group of infants received temporary silicone nipples and plates, which facilitated sucking and swallowing acts and improved speech defects, while the 2nd group of infants received traditional treatment methods. In carrying out this thesis, plaster models of infants were used, clinical and anthropometric methods were used to obtain parameters with congenital cleft lip and palate, followed by statistical data processing. In the course of the study, our task was to improve the life status of children with congenital cleft lip and palate using temporary silicone nipples and plates, as well as to determine the condition of bite in children with congenital cleft lip and palate, depending on age; In addition, to identify the features of changes in the parameters of the maxillary system during tooth replacement in children with congenital cleft lip and palate before uran- and chloroplast in a comparative aspect. At the same time, to determine the early dates of surgical intervention in children with cleft lip and palate, to improve the life status of children with congenital cleft lip and palate using temporary silicone plates (obturators) of replenishing elements that facilitate sucking and swallowing acts, and to improve speech defects in children with congenital cleft lip and palate using temporary silicone plates (obturators), in the end, to develop and implement in clinical

practice a "Method of early orthodontic treatment of children with VGN" using orthodontic devices of their own design.

The results and their discussion. The results of the study showed that, based on a set of studies, comparative analyses of the condition and improvement of the life status of infants with congenital cleft lip and palate using temporary silicone nipples and plates were conducted for the first time. For the first time, a comparative analysis of the parameters of the upper dentoalveolar arch in newborns was carried out in the period before and after using the proposed obturator, its effect on the growth and development of the alveolar process. In 1 group of infants, an improvement in the life status of children with congenital cleft lip and palate was determined using temporary silicone nipples and plates, the normal state of bite in children with congenital cleft lip and palate was determined depending on age, and speech defects in children with congenital cleft lip and palate improved using temporary silicone plates (obturators) than in the 2nd group of children with VGN (in the control group, over time, the same indicators returned to normal, but the period was long and the children were aware of their complexes).

Conclusion

Thus, the study showed that, based on a set of studies, for the first time, a comparative analysis of the condition and improvement of the life status of children with congenital cleft lip and palate using temporary silicone nipples and plates was carried out, and a positive effect was proved. For the first time, a comparative analysis of the parameters of the upper dentoalveolar arch in newborns was carried out in the period before and after using the proposed obturator, its effect on the growth and development of the alveolar process. The changes studied and their systematization led to a decrease in maxillofacial pathologies, as well as growth and development, which contributes to the non-hormonal development of the child. The implementation of the obtained data in practical healthcare will reduce the proportion of maxillofacial anomalies. For the first time, the method of using early orthodontic treatment of children with HCV, performed using a dental obturator for the orthodontic treatment of children with HCV, has been scientifically substantiated. The results obtained confirm that the quality of life of children with VGN is determined not only by medical, but also by psychological and social aspects. Effective care requires a multidisciplinary approach, including the participation of a surgeon, orthodontist, speech therapist, psychologist, and social worker.

Early informing of parents and their active participation in the treatment process plays a key role. An important area is the introduction of programs for psychological support and prevention of school maladaptation.

A number of foreign studies (Smith et al., 2021; Johansson et al., 2022) confirm that systemic rehabilitation and regular psychological correction contribute to improving emotional stability and increasing the level of social integration in such children.

References

1. Hirschberg J. Functional consequences of cleft palate and its management. Folia Phoniatrica et Logopaedica. 2002;54(1):1–14.
2. Joos U., Markus A.F., Schuon R. Functional cleft palate surgery. Journal of Oral Biology and Craniofacial Research. 2023;13(1):45–52.
3. Mao Q., Li J., Yin X. Pearls and pitfalls in contemporary management of marginal velopharyngeal inadequacy among children with cleft palate. Frontiers in Pediatrics. 2023; 11:1187224.
4. LeDuc J.A. Cleft Palate and/or Velopharyngeal Dysfunction: Terminology and Classification. ASHA Special Interest Division – Speech Science. 2008;9(4):155–167.
Аннотация: *Острые аллергические реакции у детей представляют собой одну из наиболее актуальных проблем современной педиатрии. Рост распространённости аллергических состояний связан с влиянием экологических, генетических и иммунологических факторов. По данным международных наблюдений, число детей, переносящих различные формы острых аллергических реакций, неуклонно увеличивается, что требует своевременной диагностики и оказания неотложной помощи. Особое значение придаётся распознаванию ранних симптомов, оценке тяжести состояния и выбору оптимальной тактики лечения. В обзоре представлены современные сведения о патогенезе, клинических проявлениях и подходах к ведению детей с острыми аллергическими состояниями.*

Ключевые слова: *острые аллергические реакции; детская аллергология; анафилаксия; диагностика; неотложная помощь.*

Turaev T. T.
associate professor
department of pediatrics
Bukhara State Medical Institute

CLINICAL FEATURES AND DIAGNOSTICS OF ACUTE ALLERGIC REACTIONS IN CHILDREN: MODERN PERSPECTIVES

Abstract. *Acute allergic reactions in children represent one of the most urgent issues in modern pediatrics. The growing prevalence of allergic conditions is associated with environmental, genetic, and immunological factors. According to international observations, the number of children experiencing various forms of acute allergic reactions continues to increase, necessitating timely diagnosis and emergency care. Particular importance is given to the identification of early symptoms, assessment of the severity of the condition, and the selection of an optimal treatment strategy. This review presents current data on the pathogenesis, clinical manifestations, and management approaches for children with acute allergic conditions.*

Keywords: *acute allergic reactions; pediatric allergology; anaphylaxis; diagnostics; emergency care.*

Острые аллергические реакции у детей представляют собой одну из наиболее значимых проблем современной педиатрии и клинической иммунологии. За последние десятилетия заболеваемость аллергическими состояниями среди детского населения демонстрирует выраженную тенденцию к росту, что подтверждается многочисленными международными эпидемиологическими исследованиями. По данным Всемирной организации здравоохранения, до 30–40% детей в различных регионах земного шара имеют те или иные проявления аллергии, а примерно у 10% из них в течение жизни отмечаются эпизоды острых аллергических состояний, требующих неотложной медицинской помощи. В ряде стран Европы и Азии частота анафилаксии у детей возросла в несколько раз за последние 20 лет, что отражает глобальный характер данной медицинской проблемы.

Причины столь интенсивного роста связаны с многочисленными факторами: ухудшением экологической обстановки, изменением характера питания, ростом потребления высокоаллергенных продуктов, ранней антибиотикотерапией, нарушениями микробиома кишечника и дыхательных путей, увеличением контакта с синтетическими веществами, а также особенностями генетической предрасположенности. Немаловажным фактором является урбанизация, сопровождающаяся снижением естественной антигенной стимуляции иммунной системы ребёнка, что приводит к формированию гиперреактивных иммунных ответов.

Клинические проявления острых аллергических реакций у детей отличаются значительной вариабельностью — от лёгких кожных симптомов до тяжёлых, угрожающих жизни состояний, таких как генерализованная крапивница, отёк Квинке и анафилактический шок. Особая сложность заключается в том, что детский организм обладает рядом анатомо-физиологических особенностей, в частности повышенной сосудистой и бронхиальной реактивностью, лабильностью иммунной системы, склонностью к генерализации воспалительной реакции. Это создает высокий риск стремительного развития тяжелых осложнений при контакте с аллергеном.

Несмотря на развитие современной медицины и совершенствование диагностических алгоритмов, раннее выявление острых аллергических реакций по-прежнему остается сложной задачей, поскольку начало заболевания может быть стёртым или маскироваться под другие острые состояния — инфекционные, гастроэнтерологические, респираторные. Ошибки в интерпретации симптомов приводят к задержке терапии, что повышает вероятность тяжелых последствий. В связи с этим особое значение имеет обучение родителей и медицинских работников навыкам своевременного распознавания начальных симптомов аллергии и алгоритмам оказания первой помощи.

Современные научные исследования демонстрируют, что эффективное ведение детей с острыми аллергическими состояниями должно включать интегральную оценку факторов риска, изучение индивидуальной

чувствительности, мониторинг состояния иммунной системы, а также применение современных методов специфической и неспецифической профилактики. Правильная интерпретация патогенетических механизмов — от высвобождения медиаторов воспаления до системных иммунных нарушений — является основой рациональной терапии, которая способна значительно снизить частоту и тяжесть острых аллергических реакций.

В условиях роста глобальной аллергизации детского населения всё более актуальным становится необходимость комплексного подхода, включающего раннюю диагностику, профилактику, стандартизированные протоколы оказания неотложной помощи, а также образовательные программы для семей групп риска. Всё это определяет высокую важность дальнейших исследований, направленных на оптимизацию тактики ведения острых аллергических состояний у детей и снижение неблагоприятных последствий.

В связи с этим изучение клинических особенностей, факторов риска, патогенетических механизмов и стратегий оказания неотложной помощи детям с острыми аллергическими реакциями приобретает особую актуальность. Своевременное выявление предрасположенности, оценка триггерных факторов и внедрение современных протоколов ведения представляют собой важнейшие задачи, направленные на снижение тяжести и частоты острых аллергических осложнений в детском возрасте.

По прогнозу течения и риску развития жизнеугрожающих состояний острые аллергические заболевания могут возникать в любом возрасте как впервые в жизни, так и повторно. Они характеризуются внезапным началом, непредсказуемым течением, риском развития жизнеугрожающих осложнений, необходимостью оказания немедленной врачебной помощи «на месте».

В последние годы отмечается учащение развития лекарственной аллергии у детей. Наиболее часто ее возникновение отмечается к антибиотикам. Нередко аллергические реакции возникают при назначении сульфаниламидных и белковых препаратов, неспецифических противовоспалительных средств, антибиотиков других групп, витаминов группы В [2]. Лекарственные препараты являются наиболее частой причиной возникновения системных аллергических реакций (анафилактического шока, крапивницы, отеков Квинке), острых токсико-аллергических реакций (многоформная экссудативная эритема, синдром Лайелла, синдром Стивенса-Джонсона), у ряда больных они становятся причиной обострения атопического дерматита, бронхиальной астмы, аллергического ринита и возникновения контактного дерматита [2].

Материалы и методы

Для определения частоту обращаемости по поводу острых аллергических состояний (ОАС) у детей, мы изучили карты вызовов СМП г. Бухары в последние 4 года (2015-2018 гг). Всего было зарегистрировано 22640 детей по поводу различных ОАС.

Мальчиков было несколько больше -58,7%, чем девочек- 41,3%. Возраст детей находился в пределах от 2-х до 7 лет.

Обсуждение

Проанализировали полученный материал, выяснилось, что обращаемость детей с ОАС в СМП города Бухары за изученный период (2015-2018 гг.) имела тенденцию к увеличению. Частота вызовов по поводу ОАС у детей по отношении к общему числу вызовов составила в 2015 г - 3,3%, а в 2018 г. - 6,4%, то есть увеличилась почти в 2 раза.

Число вызовов по поводу ОАС у детей по отношению к 1000 детскому городскому населению, в последний 4 года увеличилось с 6,1 (2015 год) до 8,4 (2018 год), то есть почти в 1,4 раз. Соответственно увеличилась и частота госпитализации в 1,4 раза.

Дети страдали различными клиническими формами ОАС: лекарственная аллергия- 41,2%, пищевая аллергия-24,4%, бронхиальная астма- 14,5%, инсектная аллергия 9,9%, и у 9,1% больных детей наблюдалось церебральный вариант шока (с преобладанием в клинической картине симптомов поражения нервной системы) - отмечался нарушение функции ЦНС, про- являющееся возбуждением, чувством страха потерей сознания, судорогами, отёком головного мозга или клиническими проявлениями по типу эпилепсии.

В СМП города Бухары чаще всего обращались дети, страдающие лекарственной аллергией. В течение последних 4 лет общее число острых аллергических реакций детей с лекарственной аллергией, поотношению к общему числу вызовов составило 9796 (37,5%). Причины лекарственной аллергии у детей в 53,7% случаев являлись антибиотики, сульфаниламидные препараты -19,0%, витамины -17,3%, осталные 10% на разные препараты.

Выделяли истинную лекарственную аллергию, которая обусловлена нарушениями функционирования иммуной системы, и псевдоаллергические реакции (ПАР) на медикаменты. Истинные и псевдоаллергические реакции на медикаменты различали по механизмам развития, но и в том и в другом случаях пусковым механизмом являлись контакт с лекарственным препаратом.

Клинические симптомы лекарственной аллергии, независимо от механизма их формирования, характеризовались полиорганностью и полиморфностью. Наблюдались как системные аллергические реакции так и с преимущественным поражением отдельных органов и систем. Самые грозные проявления лекарственной аллергии, были следующими: -синдром Лайелла и синдром Стивенса - Джонсона (31,6%), сывороточная болезнь и анафилактический шок (4,2%). Клинические проявления лекарственной аллергии с преимущественным поражением органов дыхания и поражение кожи, почек (43,2%), желудочно-кишечного тракта и гепатобилиарной системы-23,0%.

Необходимо указать, что все случаи аллерги ческого поражения кожи при лекарственной аллергии оценива- лись как тяжелая степень реакции.

Проявления со стороны дыхательных путей при лекарственной аллергии были разными, от ринита до тяжелого астматического приступа. Их клиническое течение такое же, как при аллергических заболеваниях другой этиологии. В сочетании с поражением кожи присоединялись симптомы атопического и контактного дерматита, различные кожные высыпания.

Наиболее частыми гастроинтестинальными симптомами лекарственной аллергии являлись: рвота, коликообразные боли в животе, расстройства стула, аллергический энтероколит. Наряду с гастроинтестинальными симптомами у больных отмечались резкая слабость, головная боль, снижение аппетита, головокружение, кожные высыпания, заложенность носа и другие респираторные симптомы аллергии.

Клинические формы проявлений пищевой аллергии были в виде острых аллергических реакций со стороны ЖКТ. Симптомы аллергии наблюдались в любой части ЖКТ: отек губ, языка, сочетающийся с зудом в гортани и за грудинным глотанием. Эти симптомы сопровождались неукротимой рвотой и повторной диареей с обильной слизью. Также наблюдалась генерализованная крапивница с отеком Квинке, что характеризовалась появлением зудящих волдырей разного калибра и формы с отеками конечностей, гортани, губ, глаз, век, ушных раковин и лица.

Анафилаксия наблюдалась в 2,2% случаев в виде отека Квинке, крапивницы, поражения конъюнктивы, слизистой оболочки носа, одышкой, цианоза, гипотонии, тошнотой, рвотой, болью в животе.

При оценки состояния тяжести больных с приступами бронхиальной астмы мы придерживались классификации GINA«Глобальные инициативы по борьбе с бронхиальной астмой» (1992). По нашим данным, легкая форма встречалась в 9,0 %, среднетяжелая степень 25,1 %, тяжелая степень 65,9 %

Клинические формы инсектной аллергии были как местными так и системными: генерализованная крапивница (65,6 %), острый зуд кожи и отек Квинке и отек гортани (28,6 %), острый приступ удушья, бронхиальная астма (5,8 %).

Заключение

1. ОАС встречаются часто и имеют тенденцию к дальнейшему росту.
2. Частота ОАС достоверно выше среди городского населения.
3. В клинической картине преобладают лекарственная. аллергия и сочетанные формы ОАС с тяжелым клиническим течением

Использованные источники:

1. Аллергические болезни (диагностика и лечение). Р. Паттерсон, Л.К. Грэммер, П.А.Гринбергер и др.; под. ред. Р.Паттерсона.-М.: ГЭОТАР Медицина, 2000.-73 5 с
2. Сворт Р.Де., Паттерсон Р. Лекарственная аллергия // В кн.: Р.Паттерсон, Л.К.Грэммер, П.А.Гринбергер. Аллергические болезни. Диагностика и лечение. Москва: Из-во ГЭОТАР, Медицина, 2000. С.313-428.
3. Крапивница у детей. Клинические рекомендации. Союз педиатров

России; 2018. [Urticaria in children. Clinical guidelines. Union of Pediatricians of Russia; 2018 (in Russ.)].
4. Степанова Е.В. Современные аспекты диагностики и лечения лекарственной аллергии. Лечащий врач. 2009;4:17–24. [Stepanova E.V. Modern aspects of the diagnosis and treatment of drug allergy. Attending doctor. 2009;4:17–24 (in Russ.)].
5. Dreyfus D.H. Urticaria and Angioedema. A Rational Approach to Diagnosis and Therapy. Skin Therapy Letter. 2013;18(1):4–9.
6. Temirovich, Turayev Telmon. "current issues in the treatment of acute complicated pneumonia in children." Web of Scientist: International Scientific Research Journal 2.06 (2021): 148-154.
7. Temirovich, Turayev Telmon. "The importance of additives that cause respiratory failure in children with pinevmonia." academicia globe: inderscience research 2.6 (2021): 219-224.

Эркинова К. Ф., к.м.н.
старший преподаватель
Университет Альфраганус
Ташкент, Узбекистан

КЛИНИЧЕСКАЯ ХАРАКТЕРИСТИКА, ДИАГНОСТИКА И ПРОФИЛАКТИКА ПРОФЕССИОНАЛЬНЫХ ЗАБОЛЕВАНИЙ НОСА У РАБОТНИКОВ С ВОЗДЕЙСТВИЕМ ХИМИЧЕСКИХ ФАКТОРОВ

Аннотация*: Профессиональные заболевания верхних дыхательных путей, особенно полости носа, занимают одно из ведущих мест в структуре профессиональной патологии органов дыхания. Слизистая оболочка носа является первым барьером на пути вдыхаемого воздуха, поэтому именно она наиболее подвержена воздействию химических агентов — раздражающих газов, паров кислот и щелочей, органических растворителей, аэрозолей и пыли химического происхождения. Проблема профессиональных поражений носа остаётся актуальной, так как данные состояния приводят к стойким функциональным нарушениям дыхания и обоняния, снижению трудоспособности и ухудшению качества жизни работников.*

Ключевые слова: *профессиональные заболевания, нос, химические факторы, диагностика, профилактика, атрофический ринит.*

Erkinova K. F., PhD
senior lecturer
University Alfraganus
Tashkent, Uzbekistan

CLINICAL CHARACTERISTICS, DIAGNOSIS AND PREVENTION OF OCCUPATIONAL DISEASES OF THE NOSE IN WORKERS EXPOSED TO CHEMICAL FACTORS

Annotation: *Occupational diseases of the upper respiratory tract, particularly the nasal cavity, are among the leading causes of occupational respiratory diseases. The nasal mucosa is the first barrier to inhaled air, making it particularly susceptible to chemical agents—irritating gases, acid and alkali vapors, organic solvents, aerosols, and chemical dust. Occupational nasal lesions remain a pressing issue, as these conditions lead to persistent functional impairments of respiration and olfactory function, decreased productivity, and a deterioration in the quality of life of workers.*

Keywords: *occupational diseases, nose, chemical factors, diagnostics, prevention, atrophic rhinitis.*

Введение

По данным ВОЗ и национальных центров гигиены труда, до 20–30 % работников химической промышленности отмечают симптомы раздражения слизистой носа, а хронический профессиональный ринит диагностируется у 10–15 % из них. По данным современных исследований (Костюченко, 2017; Watelet et al., 2020), длительное воздействие химических факторов может привести к развитию профессионального атрофического ринита, сопровождающегося стойкими функциональными нарушениями. Чаще всего заболевание встречается у работников, контактирующих с формальдегидом, аммиаком, фенолами, парами кислот и щелочей, солями тяжёлых металлов**.** Наибольший риск имеют: операторы химических производств, маляры, лакокрасочники, работники фармацевтических и резиновых цехов, лабораторные специалисты, сотрудники нефтехимических предприятий.

Согласно данным современной литературы, хронический ринит профессионального генеза чаще всего наблюдается у работников химической, лакокрасочной, фармацевтической и целлюлозно-бумажной промышленности. Наиболее значимыми химическими агентами считаются формальдегид, аммиак, хлор, сернистый ангидрид, фенолы и соединения тяжёлых металлов. Продолжительное воздействие данных веществ вызывает нарушение мукоцилиарного клиренса, метаплазию эпителия и формирование гипертрофических или атрофических изменений слизистой оболочки.

Цель исследования: изучить клинические особенности, диагностические критерии и профилактические меры при профессиональных заболеваниях носа у лиц, работающих в условиях воздействия химических факторов.

Материалы и методы

Для анализа были использованы литературные источники отечественных и зарубежных авторов за последние 10 лет, а также данные наблюдения за работниками химических, фармацевтических и лакокрасочных предприятий.

Проведён анализ клинических проявлений, данных риноскопии, цитологических и гистологических исследований, а также оценка эффективности профилактических мероприятий.

Использованы методы:

- анкетирование работников;
- клинический осмотр (передняя и задняя риноскопия, эндоскопия носа);
- цитологическое исследование мазков-отпечатков слизистой;
- функциональная оценка мукоцилиарного клиренса.
-

Результаты и обсуждение

Основными химическими факторами, вызывающими профессиональные поражения слизистой носа, являются аммиак, формальдегид, сернистый ангидрид, хлор, фенолы и пары органических

растворителей. Эти вещества оказывают раздражающее, токсическое и сенсибилизирующее действие. Продолжительное воздействие химических агентов приводит к развитию хронического воспаления, нарушению барьерных и трофических функций слизистой оболочки, её атрофии или гипертрофии, на ранних стадиях заболевания отмечаются жалобы на: сухость, жжение, зуд в носу, заложенность и слизистые выделения, чихание, раздражение глаз, формированию эрозивно-язвенных изменений и перфораций носовой перегородки. При хроническом течении: постоянная сухость, образование корок, носовые кровотечения, деформация и перфорация перегородки, снижение обоняния, головные боли, ухудшение сна. Для установления связи заболевания с профессией требуется заключение профпатолога. По данным Johansson и соавт. (2019), своевременные профилактические меры снижают риск развития профессиональных заболеваний носа на 30–40%. Профилактика профессиональных поражений носа основана на снижении концентрации вредных веществ и укреплении защитных свойств слизистой.

Меры профилактики включают:

5. **Технические мероприятия:**
   - герметизация производственных установок,
   - вентиляция и вытяжные системы,
   - автоматизация технологических процессов.
6. **Организационные меры:**
   - ротация работников,
   - ограничение времени пребывания в зоне воздействия,
   - обязательные предварительные и периодические медосмотры.
7. **Индивидуальная защита:**
   - использование респираторов и фильтров,
   - промывание полости носа изотоническими растворами после смены,
   - применение мазей с витаминами А и Е для регенерации слизистой.
8. **Медицинская профилактика:**
   - санация очагов инфекции,
   - профилактическое лечение ЛОР-врачом,
   - динамическое наблюдение работников групп риска.

Выводы:

5. Профессиональные заболевания носа у работников химических производств обусловлены длительным воздействием раздражающих и токсических веществ.
6. Клиническая картина характеризуется воспалительными, атрофическими и деструктивными изменениями слизистой оболочки носа.
7. Ранняя диагностика и проведение профилактических мероприятий позволяют предупредить развитие тяжёлых форм заболевания.

8. Эффективная профилактика возможна при комплексном подходе — сочетании технических, организационных и медицинских мер защиты.

Использованные источники:

1. Grammer L.C. Occupational Rhinitis: Definition, Diagnosis, and Management. J Allergy Clin Immunol Pract. 2016.
2. Hox V. Occupational Upper Airway Disease: How Work Affects the Nose. Curr Opin Allergy Clin Immunol. 2014.
3. Johansson E., Persson K. Prevention of occupational airway diseases: new approaches // Int. J. Environ. Res. Public Health. – 2019. – Vol. 16(12): 2153.
4. Watelet J.-B., Bachert C. Occupational rhinitis: current knowledge and perspectives // Clinical and Experimental Allergy. – 2020. – Vol. 50(5). – P. 548–560.
5. Zamora-Sifuentes J., Poole J.A. Occupational Rhinitis: An Update. Front Allergy. 2023.
6. Ballal S.G. Occupational Rhinitis Revisited: Risk Factors in Chemical Industry. Int J Occup Environ Med. 2016.
7. Костюченко Л.Ф. Профессиональные заболевания органов дыхания. — М.: ГЭОТАР-Медиа, 2017.
8. Плахотников А.В. Профессиональные заболевания органов дыхания. Москва: ГЭОТАР-Медиа, 2018.
9. Киселёв А.С., Иванова Е.Н. Поражения слизистой носа при воздействии химических веществ. Российский медицинский журнал, 2020.
10. Сидоренко И.В. Диагностика и профилактика профессионального ринита у работников химических производств. Вестник оториноларингологии, 2019.
11. Орлова Н.П. Гигиеническая оценка воздействия химических факторов на органы дыхания. Медицина труда, 2021.

ИНФОРМАЦИОННЫЕ И КОММУНИКАТИВНЫЕ ТЕХНОЛОГИИ

Movlonov A. X.
assistenti
Qarshi Davlat texnika universiteti

ZAMONAVIY VIDEOKUZATUV TIZIMLARI VA YUQORI TEZLIKDAGI TELEKOMMUNIKATSIYA TARMOQLARI INFRATUZILMASIDA TOLALI-OPTIK VA OCHIQ FAZOLI OPTIK ALOQA TIZIMLARI

Annotatsiya: *Ushbu maqolada XXI asr texnologiyalari, xususan optik tolali aloqa (OTA) va videokuzatuv vositalari jamiyat hayotiga ta'siri tahlil qilinadi. Optik tolali aloqa tizimlarining afzalliklari, jumladan yuqori tezlikdagi ma'lumot uzatish, elektromagnit shovqinlardan mustaqillik, yengilligi va uzoq foydalanish muddati yoritilgan. Shuningdek, TOA (tolali optik aloqa) va OOA (ochiq optik aloqa) tizimlari tuzilishi va ishlash prinsiplari, shuningdek, videokuzatuv tizimlari bilan integratsiyasi muhokama qilinadi. Maqolada optik tolali aloqaning xavfsizlik, iqtisodiy samaradorlik va telekommunikatsiya sohasidagi istiqbollari, kamchiliklari va rivojlanish imkoniyatlari ham ko'rsatib o'tilgan.*

Kalit so'zlar: *Optik tolalar, Tolali optik aloqa (TOA), Ochiq fazodagi optik aloqa (OOA), Axborot uzatish tizimi, Videokuzatuv (CCTV), Turbo HD va IP kameralar, Optik fotodetektor, Keng polosali signal uzatish, Telekommunikatsiya tarmoqlari, Foton texnologiyasi.*

Movlonov A. Kh.
assistant
Karshi State Technical University

FIBER-OPTIC AND FREE-SPACE OPTICAL COMMUNICATION SYSTEMS IN THE INFRASTRUCTURE OF MODERN VIDEO SURVEILLANCE AND HIGH-SPEED TELECOMMUNICATION NETWORKS

Abstract: *The article analyzes the impact of 21st-century technologies, particularly fiber-optic communication (FOC) and video surveillance systems, on society. The advantages of fiber-optic communication systems are highlighted, including high-speed data transmission, immunity to electromagnetic interference, low weight, and long service life. The structure and operating principles of FOC and FSOC (Free-Space Optical communication) systems are examined, along with their integration with video surveillance systems. The paper also identifies prospects, shortcomings, and development opportunities for fiber-optic*

communication in the fields of security, economic efficiency, and telecommunications.

Keywords: *optical fiber, fiber-optic communication, free-space optical communication, data transmission system, video surveillance, Turbo HD and IP cameras, optical receiver, broadband signal transmission, telecommunication networks, photonic technology*

Kirish

XXI asrda texnika vositalarining jamiyatning barcha soxalariga sezilarli darajada tezlik bilan kirib kelishi o'z ta'sirini ko'rsatib kelmoqda.

"XXI asr texnika va texnologiyalar asri" bo'lganligi barcha sohalarga sezilarli darajada o'z ta'sirini ko'rsatmoqda. Ana shu texnika sohasida erishilayotgan yutuqlar tufayli bugungi kunda mavjud bo'lgan barcha muammolar o'z yechimini tez fursatlarda topmoqda. Jonajon yurtimiz O'zbekiston Respublikasida ham keying yillarda texnika va texnologiyalardan jamiyatning barcha sohalarida samarali foydalanib bir qancha noxushliklar oldi olinmoqda. Texnika mo'jiza tufayli meditsina, ishlab chiqarish, maishiy xizmat ko'rsatish, ta'lim sohalari juda ham tez rivojlanayotgani buning yaqqol namoyondasidir.

Respublikamizning barcha hududlarida yurtimizni tinchligini ta'minlash borasida videokuzatuvlar qo'yilgan bo'lib, ularning yordamida:

- huquq buzarlik holatlari vaqtida aniqlanib ularni oldini olish choralari ko'rilmoqda;
- banklar, supermarketlar, qurilish maydonlar, avtoturaugohlar, mehmonxonalar va honadonlarda o'g'iriliklar fosh etilmoqda;
- kadrlar hamda ishlab chiqarish bilan bog'liq bo'lgan turli hildagi baxsli vaziyatlar ijobiy hal etilib borilmoqda;
- hodimlarning ish jarayonlaridagi o'zini tutayotgan holatlarini nazorat qilish chora tadbirlari ko'rilmoqda;
- yo'l chorraxalariga o'rnatilayotgan kameralar orqali yo'l qoida buzarliklari aniqlanib yo'l transport hodisalari oldi olinib, bunday hodisalar soni keskin pasaymoqda.

Zamonaviy davr jamiyatni axborotlashtirish jarayonini keskin rivojlanishga olib kirmoqda. Bu jarayon axborot-kommunikatsiyalar xizmatlaridan foydalanuvchilarni telekommunikatsiyalar tarmoqlariga yuqori tezlik bilan (kengpolosali) ulanishga undaydi. Bunday talab Internetdan foydalanuvchilarning keskin o'sib borishi va multimedia, videokonferentsiya, elektr raqamli imzodan foydalanish, elektrontijorat, elektron xujjat aylanish va boshqa birqancha zamonaviy xizmatlarni hayotga kirib kelishidan chiqib kelyapti.

Ma'lumki, yuqori tezlikdagi signallarni uzatish va qabul qilib olish uchun yuqori darajada o'tkazish qobiliyatiga ega bo'lgan yo'naltiruvchi muhit bo'lishi kerak. Bunday talablarga javob beradigan optik aloqa vositalariga teng keluvchi vositalar hozirgi kunda mavjud emas. Bundan tashqari, optik aloqa tizimlari orqali katta hajmdagi axborotlarni xoxlagan masofalarga uzatish mumkin.

Shuning uchun optik aloqa jamiyatni axborotlashtirish jarayonini rivojlantiruvchi mukammal va istiqbolli aloqa vositasi hisoblanadi.

Foton texnologiyasi asosidagi optik aloqa (OA), ya'ni to'liq optik tarmoqlar AON (All-optical Networks) telekommunikatsiya tarmoqlarining kelajagi hisoblanadi. To'liq optik aloqa magistral tarmoqlarni, shuningdek abonentlarning tarmoqqa ulanishini ham qamrab, mijozlarning telekommunikatsiya tarmoqlariga keng polosali ulanishlarini ta'minlaydi. Foton texnologiyasi asosidagi to'liq optik aloqada kommutatsiya, multipleksorlash va regeneratsiyalash optoelektron yoki elektro optik emas, balki faqat optik texnologiya asosida amalga oshiriladi. Bu bilan qurilmaning texnik iqtisodiy ko'rsatkichlari, ishonchliligi va uzatish tezligi bir necha martaga oshadi. Foton texnologiyasini aloqa tarmoqlariga tadbiq etishda optik kommutatorlar, optik regeneratorlar, kuchaytirgichlar, filtrlar, spektr bo'yicha zichlashtirish tizimlari qo'llaniladi.

Optik aloqa (OA) bu axborot yorug'lik nuri ko'rinishida optik tola bo'ylab yoki ochiq fazoatmosferada uzatiladigan aloqa turidir. Axborot tola orqali uzatilsa, tolali optik aloqa (TOA), ochiq atmosferada uzatilsa, ochiq optik aloqa (OOA) deyiladi.

TOA tarmog'i - bu tugunlar orasi optik aloqa liniyalari orqali bog'langan aloqa tarmog'idir.

Axborotni TOA liniyalari orqali uzatish mis kabellar va boshqa uzatish muhitlariga qaraganda bir qancha afzalliklarga ega. Shu afzalliklari tufayli TOA dan nafaqat telefon aloqasini tashkil etishda, balki televideniyada, videokuzatuv vositalaridagi ma'lumotlarni uzatishda, ovoz eshittirishlarini uzatishda, hisoblash texnikasida, transport vositalarida va boshqa sohalarda keng foydalanilmoqda.

TOAda uzatish kanali sifatida qo'llaniladigan optik tolalarning afzalliklari quyida keltirilgan:

- o'tkazish oralig'i keng. Bu tashuvchi chastotasining juda yuqoriligi (1014)Gts bilan tushuntiriladi.

Bitta optik tola bo'ylab sekundiga bir necha terabit axborotlar oqimini uzatish imkoniyati mavjud. O'tkazish oralig'ining kengligi optik aloqaning mis va boshqa axborot uzatish muhitlaridan ustun turuvchi eng muhim afzalligidir.

- optik tolada yorug'lik signallarining kam so'nishi.Xozirgi kunda ko'plab kompaniyalar tomonidan ishlab chiqarilayotgan optik tolalar 1 kanal kilometr hisobida 1,55 mkm to'lqin uzunligida 0,2-0,3 dB/km so'nishga ega. So'nish va dispersiya qiymatlarining kichikligi optik signallarni aloqa liniyalari bo'ylab regeneratsiyasiz 100 km va undan uzoq masofalarga uzatish imkonini beradi.

- shovqin sathining kichikligi optik tolaning o'tkazish qobiliyatini oshiradi. Shovqindan himoyalanganligi yuqori. Optik tola dielektrik materiallar – kvarts, ko'p tarkibli shisha, polimerlardan tayyorlanganligi uchun u elektromagnit nurlanishni induktsiyalash xususiyatiga ega, atrofidagi mis kabelli tizim va elektr qurilmalarning (elektr uzatish liniyalari, elektrodvigatelli uskuna va boshqalar) tashqi elektromagnit shovqinlariga ta'sirchan emas. Shuningdek, ko'p tolali optik

kabellarda ko’p juftli mis kabellarga xos elektromagnit nurlanishlarning o’zaro ta’siri kabi muammolar yuzaga kelmaydi.

Bu afzalligi tufayli optik kabellardan ishlab chiqarish korxonalarida, boshqaruv markazlarida, samolyot va kema kabi transport vositalarida foydalangan ma’quldir. Chunki shu kabi kichik joylarda ham energetik qurilmalar, ham avtomatika va teleboshqaruv tizimlari, ham ko’p sonli abonent qurilmalaridan iborat tarmoqlangan aloqa tarmoqlari joylashgan bo’ladi. Bunday holatda elektromagnit va o’zaro shovqinlar yuzaga keladi. Optik kabellarning esa bunday shovqinlarga ta’sirchan emasligini aytib o’tdik.

Yengilligi, hajmi va o’lchamlarining kichikligi. Optik kabellar mis kabellar bilan solishtirilganda, ancha yengil va hajmi kichik. Masalan, 900 juftli 7,5 sm diametrli mis telefon kabeli 0,1sm diametrli bitta optik tola bilan almashtirilishi mumkin. Agar optik tola bir necha himoya qobiqlaridan iborat va bron po’lat lenta bilan qoplangan bo’lsa, bunday tola diametri 1,5 sm ga teng bo’ladi, bu esa ko’rilayotgan mis kabel diametridan bir necha marta kichik.

Optik tolaning bu afzalligi optik kabelli liniya traktlarini qurishda ancha yengilliklar yaratadi. Yengilligi va o’lchamining kichikligi tufayli optik tolaning samolyot, vertolyot va boshqa transport vositalarida ishlatilishi optik aloqaning juda muhim yutug’idir. Masalan, axborotlarni yig’ish va boshqarish vazifalarini bajarish uchun maxsus jihozlangan samolyotlarda bog’lovchi kabellar og’irligini 1 tonnadan ortiq kamaytiradi.

Aloqaning mahfiyligi. Tolali optik kabellar radio diapazonida umuman nur uzatmasligi sababli, undan uzatilayotgan axborotni uzatib-qabul qilishni buzmasdan ruxsatsiz tashqi ulanishlarda eshitish juda qiyin.

Optik aloqa liniyasining monitoring tizimi (uzluksiz nazorat) tolaning yuqori sezgirlik xususiyatini qo’llab, darhol ruxsatsiz tashqaridan eshitilayotgan aloqa kanalini o’chirishi va xavf (trevoga) signalini uzatishi mumkin.

Tarqaluvchi optik signallarning interferentsiya effektini qo’llovchi tizimlar tebranishlarga, bosimning ozgina og’ishlariga sezuvchanligi juda yuqori. hukumat, bank va ma’lumotlar himoyasiga yuqori talablar qo’yiladigan boshqa maxsus xizmatlarning aloqa liniyalarini tashkil etishda bunday tizimlar ayniqsa zarurdir.

Yong’indan himoyalangan. Optik tolada uchqun hosil bo’lmasligi kimyoviy, neftni qayta ishlovchi korxonalarda, portlash va yong’in xavfi mavjud bo’lgan binolarda xavfsizlikni oshiradi.


Iqtisodiy samarador. Optik tola kvartsdan ishlab chiqariladi. Uning asosini tabiatda keng tarqalgan kremniy ikki oksidi - SiO2 tashkil etadi. Demak, tolali optik kabellarni ishlab chiqarish uchun noyob rangli metall sarflanmaydi. Mis va qo’rg’oshinning dunyoviy zahiralari chegaralangan hozirgi vaqtda noyob bo’lmagan mahsulotga o’tish kabelli aloqa texnikasining kelgusi rivojlanishi uchun muhim omil hisoblanadi. Natijada optik kabellarning narxi mis kabellarga nisbatan arzonlashadi.

Tolali optik kabellar signallarni uzoq masofalarga retranslyatsiyasiz uzatish imkonini beradi. Uzoq masofali aloqa liniyalarida optik kabellarning qo’llanilishi retranslyatorlar soni qisqarishiga olib keladi. Natija sarf harajatlar har kamayadi.

Foydalanish muddati uzoq. Tola vaqt o’tgan sari eskiradi, ya’ni yotqizilgan kabellarda so’nish astasekin oshib boradi. Biroq optik tola ishlab chiqarishning zamonaviy texnologiyalarining mukammallashuvi bu jarayonni sekinlashtiradi va foydalanish muddatini uzaytiradi. Tolali optik kabellardan foydalanish muddati taxminan 25 yilni tashkil etadi.

Masofaviy elektr ta’minotga ega ekanligi. Ba’zi hollarda tarmoq tugunlarining masofaviy elektr ta’minoti talab etiladi. Buni optik tola orqali amalga oshirib bo’lmaydi. Bu holda optik tola bilan birgalikda mis o’tkazish elementi bilan jihozlangan aralash kabellardan foydalanish mumkin. Bunday kabellar ko’pgina mamlakatlarda keng qo’llaniladi.

Hozirgi kunda turli vazifali va tuzilishli optik tola va kabellar ishlab chiqarilmoqda. Keng polosali uzoq aloqa tizimlari, jumladan magistral aloqa uchun toladan faqatgina asosiy to’lqin tarqaladigan bir modali kabellarning yangi turlari ishlab chiqarilmoqda. Magistral aloqa liniyalarida signal uzatishda tolaning so’nish va dispersiya parametrlariga ham yuqori talablar qo’yiladi. Bundan tashqari, optik nurlanish qutblanishi saqlanishini ta’minlovchi tolalar ham ishlab chiqarilmoqda.



1.1 – rasm. Optik tolaning tuzilishi

Magistral aloqada qo’llaniladigan bunday kabellarni ishlab chiqish murakkab

va qimmat. Bunday kabellar qo’llanilganda lazer uzatgichlardan foydalaniladi. Lazer uzatgichlarga ham nurlanish spektrining tozaligiga, nurlanish tasvirlarining barqarorligiga yuqori talablar qo’yiladi.

Tezligi 100 Mbit/s gacha bo’lgan va aloqa masofasi chegaralangan (taxminan 10 km gacha) tizimlarda nisbatan arzon va oxirgi qurilmalar bilan oson moslashadigan ko’p modali kabellardan foydalangan ma’qul. Bunda to’lqin manbai sifatida ko’p modalarni nurlantiruvchi oddiy turdagi yarim o’tkazgich yorug’lik diodlarini ishlatish mumkin.


Yangi turdagi optik tolalarning (siljigan dispersiyasi nolga teng bo'lmagan), keng polosali kvant optik kuchaytirgichlarning yaratilishi to'liq optik tizim va optik traktlarni qurish imkoniyatini yaratmoqda. Bunday texnologiyalardan 100 va 1000 Gbit/s o'tkazish oraliqli tizimlarni yaratishda foydalaniladi.

TOA bir qancha afzalliklarga ega bo'lishiga qaramay, kamchiliklari ham mavjud. Bu TOA qurilmalarining qimmatligi va ba'zi optik texnologiyalarning mukammal darajaga etmaganligi bilan tushuntiriladi. Bunga bog'liq holda quyidagi kamchiliklarni aytish mumkin:

- element bazasining qimmatligi. Optik uzatgich va qabul qilgichlarning narxi qimmat. Ayniqsa lazer nurlanish manbalarining narxi qimmat va xizmat qilish muddati chegaralangan. Shuningdek passiv optik qurilmalarni (multipleksor, kommutator, attenyuator va boshqalar) ishlab chiqarish ham katta sarfxarajatlarga olib keladi;
- tolali optik aloqa liniyalarini montaj qilish va xizmat ko'rsatishning murakkabligi. Elektr kabelli tizimlarga nisbatan optik kabelli tizimlarni qurish, undan texnik foydalanish, o'lchov va montaj ishlari murakkab bo'lib, juda yuqori malakani talab etadi;
- tolani maxsus himoyalash zaruriyati. Mikroyoriqlarda signallarning yo'qolmasligi uchun tolani ortiqcha yuklash va bukilishlardan himoyalash kerak. Maxsus himoyalashni tashkil etish, ishonchlilikni oshirish maqsadida optik tolani ishlab chiqarish jarayonida tola epoksiakrilad asosidagi maxsus lak bilan qoplanadi. Bundan tashqari, kabel maxsus po'lat tross va shisha plastik sterjenlar hisobiga yanada mustahkamlanishi mumkin.

Bularning barchasi optik kabel narxini oshiradi. Bu kamchiliklar OA texnologiyasining kelgusi rivojlanishida qisman yoki to'liq bartaraf etiladi.

OA da axborotlarni yorug'lik yoki optik signallar ko'rinishida uzatish va qayta ishlash amalga oshiriladi. OA uchun yorug'lik nurlanishi va to'lqin uzunligi turini tanlash uzatilayotgan axborot xarakteriga, shuningdek nurlanish hosil qilish imkoniyalariga, undan signal shakllanishiga, yorug'lik to'lqinini uzatish va qayta ishlashga va nihoyat, axborotga ega signalni qabul qilishga bog'liq. OA tizimining umumlashgan tuzilish sxemasi 1.2 – rasmda keltirilgan. Sxema OA ning turlari TOA va OOA ga xos standart bloklardan (elementlardan) tashkil topgan.



1.2 – rasm. OA tizimining umumlashgan tuzilish sxemasi.

Axborotlar manbaidan uzluksiz yoki raqamli signallar beriladi. So'ng signallar yorug'lik oqimitashuvchi chastotaning elektromagnit tebranishlarini

modulyatsiyalaydi. So’ng yorug’lik nuri ko’rinishidagi optik signallar uzatuvchi muhit - optik kanal orqali tarqaladi.

Uzatuvchi muhit yuqorida aytib o’tilgandek ochiq fazo, atmosfera, ya’ni OOA liniyasi yoki TOA liniyasi bo’lishi mumkin. Uzatilgan axborotlar optik qabul qilgich demodulyatorida demodulyatsiyalanadi. Demodulyatorning asosiy elementi optik fotodetektor hisoblanadi. Signallarni uzoq masofalarga uzatishda, qachonki qabul qilgich kirishida signal/shovqin nisbati talab darajasidan past bo’lganda, liniyada retranslyatorlar o’rnatiladi.

Xulosa qilib aytganda tolali optik aloqa yuqori tezlikdagi signallarni uzatish va qabul qilib olish uchun yuqori darajada o’tkazish qobiliyatiga ega. Bunday talablarga javob beradigan ya’ni optik aloqa vositalariga teng keluvchi vositalar hozirgi kunda mavjud emas. Bundan tashqari, optik aloqa tizimlari orqali katta hajmdagi axborotlarni xoxlagan masofalarga uzatish mumkin.

Shuning uchun optik aloqa jamiyatni axborotlashtirish jarayonini rivojlantiruvchi mukammal va istiqbolli aloqa vositasi hisoblanadi hamda u videokuzatuvlar Turbo HD kameralar, IP kameralar va videoregistratorlar bilan aloqani ta’minlashda hamda axborotlarni uzatish va qabul qilishda keng qo’llanilmoqda. Haqiqatdan ham texnika mo’jizasi bizning hayotimizning har bir jabhasini o’ziga qamrab olgan. Xozirgi tezlashgan zamonimizda texnika yutuqlarining meditsina sohasiga kirib kelishi chinakam yana bir maqtovli hodisadir. Sababi shundaki texnika sohasidagi yutuqlar kashfiyotlar tufayli minglab insonlar hayoti saqlanib qolmoqda, turli hil kasalliklar oldi olinib, kerakli vaksinalar yaratilmoqda.

Bugungi kungi kunda texnika bizning hamrohimizga, yordamchimizga, mushkulimizni oson qilishga, insonlarning manfaatini himoya qilishga ulgurgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Landsberg G.S. Optika. –T.: «O’qituvchi» nashriyoti, 1981.
2. Ионов А.Д., Попов Б.В. Волновые линии связи. –М.: «Радио и связь», 2006.
3. Raxmatullayev, D.A.,&Sh.N.B.(2025). Iot tizimlarida energiya samaradorligini oshirish va energiya tejash imkoniyatlari. Экономика и социум, (1-2 (128)), 1008-1012.
4. Эгамбердиев, Ҳ., Рахматуллаев, Д., & Дилмуродов, З. (2023). Грунт ва ер усти сув оқимларининг ўзаро таъсирининг математик модели. Евразийский журнал академических исследований, 3(1 part 3), 107-113.
5. Убайдуллаев Р.Р. Волоконно–оптические сети. -М.: «Эко– Трендз», 2000.
6. Бекматов А.К., & Эргашов Ф.Т. (2025). ОБЕСПЕЧЕНИЕ АУТЕНТИФИКАЦИИ В СЕТИ ПЕРЕДАЧИ ДАННЫХ. Экономика и социум, (1-2 (128)), 1013-1017.
7. Uzakov, O. S., Raxmatullayev, D. A., Bekmatov, A. K., & Dilmurodov, Z. D. (2023). IOT TEXNOLIGIYALARI XAVFSIZLIGIDA SMART HOUSELARNI MOBIL QURILMALAR YORDAMIDA BOSHQARISH. ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ, 23(7), 105-107.

8. Бекматов, А. К. (2024). ГЛУБОКОЕ ОБУЧЕНИЕ ДЛЯ ПОВЫШЕНИЯ ЭФФЕКТИВНОСТИ ОБНАРУЖЕНИЯ ВТОРЖЕНИЙ В СЕТЕВЫХ СИСТЕМАХ. Экономика и социум, (5-1 (120)), 1977-1982.

UDK: 621.315.592

Bobonov D. T.
katta o‘qituvchisi
Radioelektronika kafedrasi
Jizzax politexnika institute
Uzbekiston

YARIMO’TKAZGICHLI MATERIALLARNING HOZIRGI KUNDAGI O’RNI VA RIVOJLANISHI

Annotatsiya. *Yarim o‘tkazgichli materiallar zamonaviy elektronika, axborot texnologiyalari, energetika va telekommunikatsiya sohalarining asosiy tayanchidir. Ularning elektr o‘tkazuvchanligi tashqi ta’sirlar (harorat, yorug‘lik, elektr maydoni, kimyoviy qo‘shimchalar) orqali boshqarilishi mumkinligi sababli, ular an’anaviy o‘tkazgich va dielektrik materiallar o‘rtasidagi oraliq xususiyatga ega bo‘lgan noyob sinf sifatida e’tirof etiladi.*

Kalit so‘zlar*: harorat, yorug’lik, elektr, maydon, telekommunikatsiya, o‘tkazgich, dielektrik, texnologiya.*

Bobonov D. T.
senior lecturer
department of radio electronics
Jizzakh Polytechnic Institute
Uzbekistan

THE CURRENT ROLE AND DEVELOPMENT OF SEMICONDUCTOR MATERIALS

Abstract. *Semiconductor materials are the fundamental basis of modern electronics, information technologies, energy, and telecommunications. Due to their ability to have electrical conductivity controlled by external influences (temperature, light, electric field, chemical dopants), they are recognized as a unique class of materials with intermediate properties between traditional conductors and dielectrics.*

Keywords: *temperature, light, electric, field, telecommunications, conductor, dielectric, technology.*

Yarim o‘tkazgichli materiallar zamonaviy elektronika, axborot texnologiyalari, energetika va telekommunikatsiya sohalarining asosiy tayanchidir. Ularning elektr o‘tkazuvchanligi tashqi ta’sirlar (harorat, yorug‘lik, elektr

maydoni, kimyoviy qo‘shimchalar) orqali boshqarilishi mumkinligi sababli, ular an’anaviy o‘tkazgich va dielektrik materiallar o‘rtasidagi oraliq xususiyatga ega bo‘lgan noyob sinf sifatida e’tirof etiladi [1]. Hozirgi kunda yarim o‘tkazgichlar global iqtisodiyotning strategik resursiga aylangan bo‘lib, sun’iy intellekt, kvant hisoblash, IoT, kosmik texnologiyalar va yashil energetika kabi sohalarda asosiy innovatsion o‘zgarishlarni belgilab bormoqda.Kremniy (Si) – eng keng qo‘llaniladigan material bo‘lib, mikrochiplar, diodlar, tranzistorlar va quyosh panellari ishlab chiqarishning asosiy komponentidir.Germaniy (Ge) – yuqori haroratlarda yaxshi o‘tkazuvchanlikni saqlaydi, ko‘pincha kremniy bilan aralash holda (SiGe) ishlatiladi.Galliy arsenidi (GaAs) – yuqori chastotali qurilmalar, lazerlar va LED texnologiyalarida qo‘llanadi.Galliy nitridi (GaN) – yuqori quvvatli elektronika va 5G texnologiyalarida strategik ahamiyatga ega.Indiy fosfidi (InP) – optik tolali aloqa tizimlari uchun asosiy materiallardan. Yangi avlod 2D-materiallar.Grafen, MoS_2, h-BN — atom darajasida yupqa struktura, yuqori elektron harakatchanligi va moslashuvchan elektronika uchun katta salohiyatga ega [2]. Bugungi barcha kompyuterlar, smartfonlar va IoT qurilmalarning markazida yarim o‘tkazgichli tranzistorlar turadi. Tranzistorlarning nanometr miqyosiga qisqarishi (3 nm, 2 nm texnologiyalar) energiya samaradorligi va hisoblash tezligini oshirmoqda. 5G va 6G texnologiyalari yuqori chastotali aloqa tizimlari uchun GaN va GaAs materiallariga tayanadi. Bu materiallar yuqori quvvat va haroratga chidamliligi bilan ajralib turadi. Kremniy asosidagi fotovolt panellardan tashqari, perovskit yarim o‘tkazgichlar energiya samaradorligini 30% dan yuqoriga ko‘tarish imkonini bermoqda. Yarim o‘tkazgichlar biometrik sensorlar, rentgen detektorlari, tibbiy qurilmalar, laboratoriya chiplari (Lab-on-Chip) ishlab chiqarishda asosiy rol o‘ynaydi [3]. Litografiya usullarining takomillashishi (EUV) tranzistorlarning yanada kichrayishiga imkon bermoqda. Bu esa quvvat sarfi va hisoblash tezligining mutanosib ravishda o‘sishini ta’minlaydi. Kremniy kvbitlar, topologik materiallar va supero‘tkazuvchilar asosida kvant integratsiyalangan sxemalar ishlab chiqilmoqda. Grafen va MoS_2 asosidagi moslashuvchan sensorlar tibbiy monitoring, smart-matolar va IoT qurilmalarda keng qo‘llanishi kutilmoqda [4]. Yarim o‘tkazgichlarning ishlab chiqarish jarayonida energiya tejamkorlik, qayta ishlash (recycling) va ekologik toza materiallarga o‘tish bo‘yicha tadqiqotlar kuchaymoqda. AI chip dizaynini optimallashtirishda avtomatlashtirilgan tizimlar qo‘llanmoqda. Bu yangi materiallar va arxitekturalarning tezroq sinovdan o‘tishiga imkon bermoqda [5].

Xulosa

Yarim o‘tkazgichli materiallar XXI asr texnologik taraqqiyotining markazida turibdi. Ularning o‘rni faqat mikroelektronika bilan cheklanib qolmay, balki energetika, tibbiyot, aloqa, transport va ilmiy tadqiqotlar kabi ko‘plab sohalarda kengayib bormoqda. Yangi avlod materiallari – 2D strukturalar, perovskitlar, GaN va SiC kabi birikmalar – yaqin yillarda global iqtisodiyotning strategik ustunlaridan biriga aylanadi [6]. Shunday qilib, yarim o‘tkazgichlar hozirgi texnologik inqilobning eng muhim drayveri bo‘lib xizmat qilmoqda va kelajak innovatsion yechimlarining asosiy poydevorini tashkil etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. S. M. Sze, Kwok K. Ng — Physics of Semiconductor Devices
Yarimo‘tkazgich fizikasi, qurilmalar, ularning ishlash tamoyillari va hozirgi texnologik jarayonlarni chuqur yoritadi. Soha bo‘yicha eng nufuzli manbalardan biri.
2. Ben G. Streetman, Sanjay Banerjee — Solid State Electronic Devices
Yarimo‘tkazgichlarning elektron xossalari, diodlar, tranzistorlar va mikroelektronikaning zamonaviy yutuqlari haqida batafsil ma’lumot beradi. Oliy o‘quv yurtlarida keng qo‘llaniladi.
3. Adrian Pugh — Semiconductor Devices and Applications
Amaliy yo‘nalishga ega bo‘lib, yarimo‘tkazgich qurilmalarining qo‘llanilishi, sanoatdagi roli va rivojlanishi haqida tushunarli izohlar beradi.
4. Charles Kittel — Introduction to Solid State Physics
Kristall tuzilma, energiya zonalari, yarimo‘tkazgichlarning fizik asoslari va yangi materiallarning rivojlanish tendensiyalari haqida fundamental bilim beradi.
5. Бобонов Д.Т. Электрические свойства и нестабильность тока в кремнии, легированном селеном; Электрические имущество и обслуживание пряжка и силикон легированный селен _ - 2010 г.
6. Якименко, И., Каршибоев, Ш., & Муртазин, Э. (2024). Современные стабилизаторы напряжения: технологии и перспективы. Экономика и социум, (1 (116)), 1606-1611.

UDK: 621.38

Bobonov D. T.
katta o‘qituvchisi
radioelektronika kafedrasi
Jizzax politexnika institute
Uzbekiston

ELEKTRON ASBOBLARNING HOZIRGI KUNDAGI O'RNI VA AHAMIYATI

Annotatsiya. *XXI asr boshidan boshlab elektronika texnologiyasi jadal sur’atlar bilan rivojlanib, insoniyat hayotining deyarli barcha jabhalarini tubdan o‘zgartirdi. Bugungi kunda elektron asboblar nafaqat maishiy qulayliklar yaratish, balki iqtisodiyot, tibbiyot, ta’lim, sanoat, transport, xavfsizlik va ilm-fan taraqqiyotining asosiy omili sifatida namoyon bo‘lmoqda.*

Kalit so‘zlar*: tibbiyot, ta’lim, sanoat, transport, xavfsizlik, iqtisodiyot, texnologiya, electron.*

Bobonov D. T.
senior lecturer
department of radio electronics
Jizzakh Polytechnic Institute
Uzbekistan

THE PLACE AND IMPORTANCE OF ELECTRONIC TOOLS TODAY

Abstract. *Since the beginning of the 21st century, electronic technology has developed rapidly and fundamentally changed almost all aspects of human life. Today, electronic devices are not only the creation of household conveniences, but also appear as the main factor in the development of economy, medicine, education, industry, transport, security and science.*

Key words: *medicine, education, industry, transport, security, economy, technology, electronics.*

XXI asr boshidan boshlab elektronika texnologiyasi jadal sur’atlar bilan rivojlanib, insoniyat hayotining deyarli barcha jabhalarini tubdan o‘zgartirdi. Bugungi kunda elektron asboblar nafaqat maishiy qulayliklar yaratish, balki iqtisodiyot, tibbiyot, ta’lim, sanoat, transport, xavfsizlik va ilm-fan taraqqiyotining asosiy omili sifatida namoyon bo‘lmoqda. Elektron komponentlar, mikroprotsessorlar, sensorlar, raqamli qurilmalar va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining integratsiyalashuvi global tizimlarning ishlashini samarali tashkil etishga imkon bermoqda. Shu sababli elektron asboblarning ahamiyati zamonaviy jamiyatning barqaror rivojlanishida hal qiluvchi o‘ringa ega [1].

Elektronika tarixi vakuum lampalar davridan boshlab yarim o‘tkazgichlar, tranzistorlar, integral sxemalar, mikroprotsessorlar va hozirgi kunda sun’iy intellekt boshqaruvida ishlovchi tizimlargacha bo‘lgan murakkab evolyutsion jarayonni o‘z ichiga oladi. Ayniqsa, **MOSFET tranzistorlar**, **mikrokontrollerlar**, **FPGA** va **ASIC** arxitekturalarining yaratilishi kompyuterlar, smartfonlar, ma’lumotlar markazlari va raqamli sanoatning rivojlanishini ta’minladi. Elektron qurilmalar quyidagi asosiy elementlar orqali ishlaydi:

Sensorlar – fizik kattaliklarni raqamli yoki analog signallarga aylantiradi.

Aktuatorlar – boshqaruv signallariga javoban mexanik harakat bajaradi.

Mikroprotsessorlar va mikrokontrollerlar – ma’lumotlarni qayta ishlaydi.

Aloqa modullari (Wi-Fi, Bluetooth, 4G/5G) – qurilmalararo axborot almashinuvi.

Energiya manbalari (batareya, quyosh panellari, zaryadlash tizimlari).

Ushbu elementlarning uyg‘un ishlashi zamonaviy elektron qurilmalarning asosiy funksionalligini ta’minlaydi. Bugungi kunda har bir uy xo‘jaligi elektron qurilmalarsiz tasavvur etib bo‘lmaydi. **Aqlli uy tizimlari** energiya samaradorligini oshirish, xavfsizlikni ta’minlash va masofadan boshqaruvni amalga oshirish imkoni bilan ahamiyatlidir. Elektron asboblarning tibbiyotdagi ahamiyati ayniqsa yuqori [2]. Quyidagi qurilmalar inson salomatligini nazorat qilish va davolashda katta rol o‘ynaydi:

EKG, EEG, MRT, KT kabi diagnostik apparatlar

Robotlashtirilgan jarrohlik tizimlari

Insulin pompalar, yurak stimulyatorlari

Telemeditsina va masofaviy monitoring qurilmalari

Sensorlar va mikroprotsessorlarning rivojlanishi tibbiy diagnostika aniqligini sezilarli oshirdi. Elektronika **“Raqamli sanoat – 4.0”** konsepsiyasining markazida turadi. Oktyuatrlar va sensorlar bilan jihozlangan **avtomatlashtirilgan ishlab chiqarish liniyalari** ishlab chiqarish samaradorligini oshiradi, inson omili sababli yuzaga keladigan xatolarni kamaytiradi [3].

Sanoatda quyidagi elektron tizimlar keng qo‘llaniladi:

PLC va SCADA boshqaruv tizimlari

Industrial robotlar

IoT (Internet of Things) qurilmalari

3D printerlar va lazer kesish texnologiyalari

